

**OYBEK RASHIDOV**

**O‘ZBEKİSTONDA ARXIV**

**ISHI TARIXI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OYBEK RASHIDOV**

**O'ZBEKISTONDA ARXIV  
ISHI TARIXI**

*5320300 – Arxivshunoslik bakalavriyat yo‘nalishi  
talaballari uchun o‘quv qo‘llanma*

TOSHKENT

**Mas’ul muharrir:**

**Haitov Sh.A.** – tarix fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**

**Zamonov A.T.** – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

**Rahmonov K.J.** – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mazkur qo‘llanmada qadimgi, o‘rta asrlar, xonliklar, mustamlaka, sovet boshqaruvi va mustaqillik davrlarida O‘zbekistonda arxiv ishi tarixi, arxiv muassasalari faoliyati hamda arxivchilarning xalqaro aloqalari bayon etilgan. Arxivshunos mutaxassis kadrlarni tayyorlash sifatini oshirish talablaridan kelib chiqqan holda fanning mohiyati va ahamiyatini ochib berishda xorijiy ilmiy-metodologik yondoshuvlardan hamda adabiyotlar (Craig Robertson. Media History and the Archive.–New York. Routledge, 2011., Antonina Burton. Archive Stories.(facts, fictions and the writing of history). – London.2005.) dan foydalanildi.

В пособии указана история архивного дела в Узбекистане в древние времена, в средние века, в период ханства и колонии, в период советского правления и в годы независимости. Также описывается деятельность архивных учреждений и международные связи архиваторов. Для передачи сущности и важности данной работы использовались зарубежные научно-методологические подходы и литература (Craig Robertson. Media History and the Archive. – New York. Routledge, 2011., Antonina Burton. Archive Stories. (facts, fictions and the writing of history). – London.2005.).

In this manual the history of archive work in Uzbekistan during the ancient times, middle ages, period of khanates and colony, during the soviet government and the years of independence was indicated. The activities of archive establishments and international relations of archivers were also described. Foreign scientific-methodological approaches and literatures (Craig Robertson. Media History and the Archive. – New York. Routledge, 2011., Antonina Burton. Archive Stories. (facts, fictions and the writing of history). – London.2005.) were used for increase the essence and importance of the book.

## SO‘ZBOSHI

Xalqimizning tarixiy o‘tmishi, o‘zligi, ma’naviyati masalalari yoritilayotganda chuqur ilmiy asos va aniq dalillar zarur. Haqqoniy tarixni yaratishda dalil bo‘ladigan muhim omillar orasida arxiv hujjatlari diqqatga sazovordir. O‘zbekistonning moddiy va ma’naviy hayoti aks etgan noyob arxiv hujjatlari tarix fani uchun boy manba sifatida xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo mintaqasida ilk arxivlar yozuv bilan bir vaqtida paydo bo‘lgan. Bu arxivlarga Nisadagi Parfiya arxivi, Xorazmdagi Tuproqqa’l a arxivi, Mug‘ qal’asi xarobalaridan topilgan arxivlar kiradi.

Birlamchi manbalarda toxiriylar, somoniylar, qoraxoniylar, g‘aznaviylar va xorazmshohlar saroylarida kutubxona-arxivlari mavjud bo‘lganligi qayd etilgan. Bu davrda Marv, Nishopur, Ray, Balx, Hamadon, Tus, Buxoro, Samarqand, Urganch, Xiva, Nisa, Termiz va boshqa shaharlarning har birida o‘nlab davlat, vaqf va shaxsiy kutubxonalar vujudga kelgan. Buxoroda Sharqdagi eng yirik kutubxonalardan biri Samoniylarning “Savoi-al-Xikma” kutubxonasi bo‘lib, bundan o‘z davrining yetuk allomalari Ibn Sino, Rudakiy, Daqiqiy, Firdavsiy va boshqalar foydalanganlar.

Amir Temur va temuriylar davrida ham kutubxona-arxivlari mavjud bo‘lgan. Ayniqsa, Amir Temur harbiy yurishlari davrida ko‘pgina nodir qo‘lyozma asarlarni Movarounnahrga olib kelgan. Shuningdek, Sohibqiron jahonning bir qancha mamlakat qirollari bilan yozishmalar olib bordi. Bu diplomatik yozishmalar qimmatli arxiv hujjatlari hisoblanadi. Shu diplomatik yozishmalardan biri 1996 yil YUNESKO tashabbusi bilan Parijda o‘tkazilgan Amir Temur tavalludining 660 yilligida Fransiya prezidenti Jak Shirak tomonidan O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimovga topshirildi. Amir Temurning nevarasi Boysunqur zamonida Hirotda ko‘pgina asarlardan namunalar to‘planadi. Uning atrofida o‘z davrining yetuk shoirlari, kitobxonlari, muqovasozlari, naqqoshlari va boshqa kitobsoz hunarmandlar yig‘ilgan.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, o‘zaro feodal urushlar, vayronagarchiliklar natijasida arxiv hujjatlari, qo‘lyozmalar yo‘q bo‘lib ketgan. Bizgacha Qo‘qon va Xiva xonlarining arxivlari, Buxoro amirligining Qo‘sibegi arxivi saqlanib qolgan.

Ularda XIX asrga oid hujjatlarning bir qismi mavjud xolos. O‘rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinganidan keyingi davr arxivlari, ya’ni XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr hujjatlari to‘la saqlangan.

Oliy o‘quv yurtlari “Arxivshunoslik” yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan ushbu o‘quv qo‘llanma O‘zbekistonda turli tarixiy davrda arxivlarning vujudga kelishi va faoliyati bo‘yicha nazariy hamda amaliy bilimlarga ega bo‘lishga ko‘maklashadi.

Har bir mavzu so‘nggida talabalar tomonidan o‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan tayanch tushunchalar berilgan bo‘lib, ular yordamida o‘qituvchi o‘tilgan mavzuning tinglovchilar tomonidan qay darajada o‘zlashtirilganini aniqlashi mumkin. Nazorat uchun berilgan savollar talabalarga mustaqil ravishda fikr yuritishga, mavzu bo‘yicha olgan bilimlarni takrorlash va mustahkamlashga yordam beradi.

## **1-Mavzu: O‘zbekistonda arxiv ishi tarixi fanining maqsad hamda vazifalari**

### **Reja:**

1. Arxiv atamasi. Arxiv hujjati tushunchasi.
2. Fanning ob’ekti, pretmeti, maqsad va vazifalari.
3. Fanning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

**1. Arxiv atamasi. Arxiv hujjati tushunchasi.** Mustaqillikka erishganimizning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizning ilmiy-tarixiy va o‘tmishini xolis yoritishga asoslangan manbalarni tadqiq etish borasida tizimli ishlar belgilab berildi. Istiqlol yillarda jamiyat hayotining barcha sohalari singari, tarix fani sohasiga ham tub o‘zgarishlar amalga oshirildi. Xolislik qoidasi – tarixiy voqe’ a, hodisalarni o‘rganayotganda ular bilan bog‘liq bo‘lgan barcha faktlarning hech bir istisnosiz butun majmui bilan birga olib tekshirishni, aniq, haqqoniy dalillarga asoslanishini talab qiladi. Tarixiy hodisalarni bir butun holda o‘rganishda va haqqoniy yoritishda arxiv hujjatlarining o‘rni beqiyosdir. Shu maqsadda bugungi kunda arxiv hujjatlaridan ilmiy maqsadda foydalanishga keng yo‘l ochib berilgan.

Arxiv atamasi – lotincha “arxivium” so‘zidan olingan bo‘lib, hukumat binosi degan ma’noni anglatadi. Lekin arxiv atamasining hozirgi qo‘llanishi ma’nosi butunlay boshqacha. Chunonchi, arxiv – bu idoralar, korxona va tashkilotlar, shuningdek, tarixiy shaxslar faoliyatiga oid hujjatlar saqlanadigan joy.

Xorijlik arxivshunos olim Craig Robertson muallifligidagi (*Media History and the Archive.* – New York. Routledge, 2011) asarning birinchi paragrafi arxiv haqidagi fikrlar va tarix haqida chizgilar deb nomlanadi. Muallif ushbu asarda arxiv tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi. “Arxiv tushunchasi yaqin yillar ichida arxivshunos bo‘limgan insonlarning ham ilmiy tahlillari uchun doimiy mavzuga aylandi. Albatta buning hayron qoladigan eri yo‘q. Chunki, olimlar o‘z izlanishlarida arxivga doimiy manba, fan sifatida qarashlari boshlandi” (*Craig Robertson. Media History and the Archive.* – New York. Routledge, 2011.– B.8.).

Ba’zi muarrixlar hatto butun bir bo‘limni shu mavzuga bag‘ishlab yozishgan. Masalan, arxivshunos olim Hemilton arxiv haqida quyidagi fikrni bildirgan. “Bugungi kunda olimlar katta e’tibor berib qaraydigan bu jarayon shunday yuzaga

keladi. Har qanday ilova yoki ma'lumot oldin yoziladi, keyinchalik ishlab chiqiladi va shu ikkala jarayon arxivga kiritiladi. Natijada bular arxiv ma'lumotlarining bir qismiga aylanadi” (Craig Robertson. Media History and the Archive. – New York. Routledge, 2011.– B.8.).

Boshqa bir arxivshunos olim o‘zining tadqiqotida arxiv tushunchasiga tanqidiy yondashib, quyidagicha fikrlarni keltiradi: “Arxiv shunday joyki undan foydalanuvchi har qanday kishi o‘zi uchun kerakli ma'lumotlarni qiyinchiliksiz topishi, shu ma'lumotlarning aniqligi, tarixi va foydalanuvchilarga tasirini kafolatlaydigan holatda bo‘lishi kerak (Antonina Burton. Archive Stories (facts, fictions and the writing of history). – London. 2005.6-bet).

Graig Roberson yana bir arxivshunos olimning arxiv tushunchasiga bergen ta’rifini keltiradi. Uning fikricha arxiv “haqiqiy hujjatlar uyi” deb fikr bildirladi. (Antonina Burton. Archive Stories (facts, fictions and the writing of history). – London. 2005.7-bet).

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek arxivda xolisona, haqiqiy, aniq bo‘lgan ma'lumotlar va hujjatlar kiritilishi hamda saqlanishi lozim. Haqiqatdan sodir bo‘lgan voqealarni qanday va qaysi holatlarda yuzaga kelishini bilib olish uchun nima qilish kerak. Bu haqda Charlin Stidman shunday deydi:

- berilgan ma'lumotlar iqtibos (snoska) lar bilan bo‘lishi;
- bayon etilgan voqe'a hodisalarga muallif bevosita ishtirok etishi;
- ma'lumotlar telefon orqali, og‘zaki yoki tashlab ketilgan har qanday xatlar orqali emas, aynan arxiv xodimi tomonidan foydalanuvchining o‘zigagina taqdim etilgan bo‘lishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasining 2010 yil 15 iyunda qabul qilingan “Arxiv ishi to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasida arxiv atamasiga quyidagicha izoh beriladi. Arxiv – arxiv hujjatlarini jamlash, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanishni amalga oshiruvchi muassasa hisoblanadi.

Vatanimiz tarixini o‘rganishda arxeologiya, etnografiya, toponimika va moddiy madaniyat yodgarliklari bilan bir qatorda arxivshunoslik ya’ni arxiv hujjatlaridan foydalanishning ahamiyati benihoya kattadir. Arxiv hujjatlarini qidirib

topish, ular ustida ishslash va olingen ma'lumotlarni hayotga tadbiq qilish juda murakkab ish hisoblanadi. Arxivda tashkilotlar, muassasalar, korxonalar va ayrim shaxslarning ko‘p yillik faoliyatları haqidagi ma'lumotlar hamda hujjatlar saqlanadi.

**Arxiv hujjati tushunchasi.** Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tegishli ekspertiza asosida arxiv ahamiyatiga molik deb topilgan matnli, qo‘lyozma va mashinada o‘qiladigan hujjatlar, ovozli yozuvlar, videoyozuvlar, kinolentalar, fotosuratlar, fotografiya plyonkalari, chizmalar, sxemalar, xaritalar, shuningdek, boshqa moddiy ashyolardagi yozuvlar – arxiv hujjatlari deyiladi.

Mustaqillik yillarida qabul qilingan bir qator huquqiy-me'yoriy hujjatlarda arxiv hujjatlarini jamlash, hisobga olish, saqlash va ulardan faydalanish tizimi xususida keltirilib o‘tiladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 15-iyunda qabul qilingan “Arxiv ishi to‘g‘risida”gi Qonunning 5-bobi, 20-26 moddalarida va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 5-apreldagi 101-son qarori bilan tasdiqlangan “Arxiv hujjatlarini jamlash, davlat hisobiga olish, saqlash va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi nizomda o‘z ifodasini topgan.

Davlat arxivlari davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarning faoliyati natijasida yaratilgan arxiv hujjatlari, shuningdek ular tomonidan olingen yoki ularga nodavlat korxonalar, muassasalar va tashkilotlar hamda jismoniy shaxslar topshirgan arxiv hujjatlari bilan jamlanadi.

**2. Fanning ob’ekti, predmeti, maqsad va vazifalari.** O‘zbekiston hududida istiqomad qilayotgan xalqlarning tarixi qadim o‘tmishga borib taqaladi. Yashab turgan hududimiz umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganligini aniqlashda arxeologik qazishmalardan topilgan eksponatlar bilan bir qatorda arxiv hujjatlarining o‘rni ham beqiyosdir.

**Fanning dolzarbli** shundan iboratki, talaba yoshlarning O‘zbekistonda arxiv ishi tarixi fani bo‘yicha bilim va dunyoqarashni boyitish, ularda noyob hujjatlarga nisbatan qiziqishni uyg‘otish, fanning tarixiy va nazariy xususiyatlarini jamiyatimizda olib borilayotgan ishlar orqali amalga oshirishga qaratilganligi bilan belgilanadi.

*Fanning ahamiyati.* O‘zbekistonda arxiv ishi tarixi fani yoshlarga xalqimizning o‘tmishini aks ettiruvchi qadimgi va bugungi arxivlar tarixi haqida bilim berish bilan chegaralanib qolmaydi. Ushbu fan yoshlarni moddiy va ma’naviy merosni asrab-avaylaydigan vatanparvar, ma’naviy jihatdan komil fuqaro yetib tarbiyalashga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti ta’kidlab o‘tganidek “Ma’naviyatni tiklash, tug‘ilib o‘sgan yurtida o‘zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko‘tarib yurishi uchun insonga, albatta tarixiy xotira kerak. Kim bo‘lishidan qat’iy nazar, jamiyatning har bir a’zosi o‘z o‘tmishini yaxshi bilsa, bunday insonlarni yo‘ldan urish, har xil aqidalar ta’siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o‘rgatadi, irodasini mustahkamlaydi ( Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – T.: “Sharq”, 1998. – B. 8-9).

O‘zbekistonning arxiv ishi tarixifani orqali arxivlarning davlat va jamiyat ravnaqidagi qadrini talabalarga tushuntirish, ularni arxiv hujjatlarini chuqr tushunishi, tahlil va tadqiq etish malakasini hosil etish va jamoatchilikni arxiv ishi tarixi, mavzu va g‘oyaning mohiyati bilan tanishtirishga ko‘maklashishdan iborat. Shuningdek, jamiyatning ma’naviy manzarasini arxiv hujjatlaridagi manbalar bo‘yicha boyitish, bozor iqtisodiyoti sharoitida tarixiy xotiramizni aks ettiruvchi arxivlarni mablag‘ va qiymat keltiruvchi hodisaga aylanib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun amaliy ko‘rsatmalar beradi.

*Fanning ob’ekti va pretmeti.* O‘zbekistonning arxiv ishi tarixi fani tadqiqot ob’ektiga yurtimizdan topilgan yog‘och, suyak, teri, xum sirtiga va qog‘ozga yozilgan ilk arxiv hujjatlari, o‘rta asr kutubxona-arxivlar haqida ma’lumot beruvchi manbalar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondini tashkil etuvchi arxiv hujjatlari, ilmiy-texnikaviy, tibbiyat va kino, surat, ovozli hujjatlar, mikrofilm va boshqa manbalar kiradi.

O‘zbekistonda arxiv ishi tarixi fani davlat taraqqiyoti va inqirozining faqat bir tomoninigina emas, balki jamiyatning hamma tomonlarini uzviy o‘zaro bog‘liqlikda bir butunlikda arxiv hujjatlari asosida o‘rganadi. U O‘zbekistonning o‘tmishidagi va hozirgi hududida eng qadimgi davrdan to hozirgacha kechgan voqeliklar, insoniyat hayoti, tabiyat va jamiyat taraqqiyoti hamda tanazzulini tahlil qiladi. Uning

o‘rganish premetiga esa, manashu makondagi jamiki xilma-xil voqeа hodisalar, ulardagи umumiу aloqadorlik va yaxlit birlik hamda qonuniyatlar hodisasi hamda jarayonlar, umuman, xalq va insonning yaratuvchanlik faoliyati kiradi.

**Fanning maqsadi.** Ma’lumki, tariximiz juda qadim va katta davrni hamda juda keng geografik mintaqani, shuningdek, tub burilish, yuksalish va inqiroz bosqichlarini ham o‘z ichiga oladi. U xilma-xil ijtimoiy voqeа va hodisalarga, har xil diniy va madaniy qatlam, g‘oyaviy dunyoqarash, falsafiy oqimlarga boy, jahon sivilizatsiyasining eng qadimiу va navqiron o‘choqlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonning arxiv ishi tarixi fanining maqsadi ham tariximizni yoritish, jamiyat hayotidagi o‘rnini ko‘rsatib berish, talabalarning tarixiy tafakkurini yuksaltirish, arxiv ishi tarixi hamda tarixiy taraqqiyotini ilmiy-nazariy tahlil etish, arxivlarning ijtimoiy-ma’naviy hayotdagi o‘rni hamda arxivlarga nisbatan maqsadli yo‘naltirilgan jamoatchilik fikrini shakllantirishdan iborat.

### ***Fanning vazifalari:***

O‘zbekistonda arxiv ishi tarixini milliy va ma’naviy jihatlarini ilmiy tahlil etish;

arxiv va arxiv hujjatlarining davlat hamda jamiyat ravnaqidagi o‘rnini talabalarga tushuntirish;

talabalarda arxiv va arxiv ishi tarixi haqidagi tushuncha va ko‘nikmalarini hosil qilish;

O‘zbekistonda arxiv ishi tarixining ilmiy asoslarini o‘rganish;

tarixiy dunyoqarashni arxiv hujjatlari asosida rivojlantirish;

bozor iqtisodiyoti sharoitida arxivlar faoliyatini jamoatchilik fikrigi tayangan holda taraqqiy ettirish;

arxiv ishi tarixi va arxiv hujjatlarining ilmiy jamoatchilik tomonidan qabul qilinishi hamda xalqning tarixiy dunyoqarashini yuksaltirishdagi rolini tahlil etishdan iborat.

### **3**

– inson jamiyatining taraqqiyoti jarayonlarini, mazkur rivojlanishning sabab va

– muassasa, tashkilot, idoralarning tashkil etilishidan to oxirgi kungacha bo‘lgan

o

‘

k

e

q

b

θ

q

ø

ð

b

a

ȝ

v

❶ O‘zbekistonda arxiv ishi tarixi fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

R

I

❷ O‘zbekistonda arxiv ishi tarixi fanining dolzarbliji va ahamiyati?

❸ O‘zbekistonda arxiv ishi tarixi fanining ilmiy tadqiqot olib borishdagi roli?

F

### **Manba va adabiyotlar**

1. Craig Robertson. Media History and the Archive.– New York.Routledge.2011.
2. Antoinette Burton.Archive Stories: Facts, Fictions, and the Writing of History.– DukeUniversityPress, 2005.
3. John Ridenne A consize history of archivelteory.Minesota(USA). Dili, 2009.
4. Kathleen D. Roe, Arranging and Describing Archives and Manuscripts (Chicago: Society of American Archivists, 2005).
5. Алимов И.А. Архившунослик. / Ўқув қўлланма – Андижон: АДУ, 2005. – б 103 б.
6. Исакова М, Иофе В. Архившунослик. Ўқув қўлланма.– Тошкент: Чўлпон, 2007. – 189б.

b

q

a

l

7. Мирзабаев А., Алимов И., Вайс М.Л. Архивы Узбекистана: краткий исторический очерк. – Ташкент, 1960. – 103 с.

## **2 – Mavzu: O‘rta Osiyo hududidagi ilk arxivlar**

### **Reja:**

1. O‘rta Osiyo sivilizasiyasining namunasi bo‘lgan ilk yozuv va arxiv xujjatlarining topilishi.
2. Parfiya va Tuproqqa'l'a arxivining topilishi hamda o‘rganilishi.
3. Tuproqqa'l'a arxivi hujjatlari tasnifi.

**1. O‘rta Osiyo sivilizasiyasining namunasi bo‘lgan ilk yozuv va arxiv xujjatlarining topilishi.** Yozuv ilk sivilizatsiyaning asosiy belgisi hisoblanadi. Insoniyat tarixida harflarga asoslangan yozuvga mil.av. II ming yillik oxirida finikiyaliklar asos solgan. Shu yozuv asosida oromiy, grek alfavitlari paydo bo‘lgan. Turon zaminda yashagan xalqlar ham, shu jumladan, o‘zbek xalqi behad ko‘hna yozuv madaniyatiga ega. Ular qadimda turli yozuvlardan foydalanib kelganlar. Bu yozuvlar o‘z sistemasiga ko‘ra, asosan, fonografik – harf-tovush yozuvidan iborat bo‘lgan. O‘rta Osipyoda ham arab yozuviga qadar yunon, oromiy yozuvi asosida paydo bo‘lgan qadimgi baqtriya, xorazmiy, so‘g‘diy yozuvlari bo‘lganligi arxeologik manbalar asosida o‘z isbotini topmoqda.

Oromiy yozuvi qadimgi som (finikiy) yozuvi asosida paydo bo‘lgan konsonant (undosh) deb atalmish yozuv turidir. U mil.av. 1-ming yillik boshida yuzaga kelgan. Oromiy alifbosi faqat undoshlarni ifodalovchi 22 harfdan tashkil topgan. Oromiy yozuvida so‘zlar bir tik chiziq yoki nuqta bilan ajratib yozilgan. Keyinchalik esa so‘zlar o‘rtasida bo‘sh joy qoldirish yo‘li bilan ajratilgan.

O‘rta Osipyoda oromiy xatining eng qadimgi namunasi mil.av V-IV asrga oid. Sopol idish – xum sirtiga bitilgan bu yozuv arxeolog olim M.Mambetullaev tomonidan Katta Oybuyirqal'a shahrini o‘rganish davomida topilgan. Mutaxassislar fikricha, bu xat bo‘lagi xorazm yozuvida emas, balki oromiyda bo‘lgan. Garchand shunday bo‘lsada, bu xat oromiy yozuvining Oks va Yaksart oralig‘idagi sarhadda tarqala boshlaganligining ilk namunasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘rta Osipyoda oromiy yozuvi namunasida vujudga kelgan yozuvlardan yana biri baqtriya yozuvidir. Baqtriya yozuvi va tilining tarix, tilshunoslik va sharqshunoslik fanlariga kiritilishi bevosita mashhur olmon olimi V.Xenning nomi

bilan bog‘liq. 1957 yilda shimoliy Afg‘onistonning Bog‘lon hududidagi Surxko‘tal deb nomlangan, Kushon podsholari sharafiga bitilgan mahobatli xatning topilishi fanga baqtriya yozuvining o‘rganilish tarixini boshlab bergan edi. O‘zbekiston hududidagi eng dastlabki baqtriya yozuvlari 1962 yilda arxeolog B.Ya. Staviskiy rahbarligida Eski Termizning Qoratepa manzilgohidan topilgan. Baqtriya yozuvi 25 ta harfdan iborat bo‘lib, chapdan o‘nga qarab o‘qiladi. Eng qadimgi baqtriya yozuvlari qayd etilgan yodgorliklar sirasiga Mirzaqultepa, Fayoztepa, Kampirtepa, Qoratepa, Ayrитom, Zartepa, Dalvarzintepa, Xotinrabot, Xayitobodtepa kiradi. Bu manzilgohlardan topilgan yozuv namunalari Baqtriya arxiv deb ataladi. Bu arxiv hujjatlari namunalari devorga, toshga, qayin po‘stlog‘iga, sopolga, yog‘ochga, haykallarga va boshqa narsalarga yozilgan.

Mintaqamizda mavjud bo‘lgan qadimgi yozuvlardan yana biri xorazm yozuvidir. Olimlar xorazm tilini osetin va sug‘d tillari bilan birgalikda hind-evropa tillarining qadimgi massaget va skiff (sak) tillari chatishishi natijasida vujudga kelgan “shimoliy eron” deb ataluvchi sak-sarmat guruhiga kiritishadi. Qadimgi xorazm tilini rus olimi V.A.Livshits sug‘d va shimoliy-sharqiy eron tillari oralig‘idagi o‘ziga xos til bo‘lib, uning Parfiya, Osetin va “Avesto” tillari bilan o‘zaro umumiyligi bor deb hisoblangan.

Xorazm hududlari (quyi Amudaryo havzasi) da 1937-yildan boshlangan arxeologik qazishmalar davomida ko‘plab moddiy madaniyat yodgorliklari topilgan bo‘lsada, biroq xorazm tili va yozuvini o‘zida aks ettiruvchi topilmalar miloddan avvalgi I-ming yillikning o‘rtalarigacha bo‘lgan madaniy qatlamlarda arxeologlar tomonidan hanuzgacha qayd qilinmagan. O‘rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi yozuvi bu humning sirtiga tushirilgan xorazm tilidagi qisqa yozuvdir. Bu yozuv namunasi Katta Oybo‘yir qal’a shahar harobasidan topilgan bo‘lib, u miloddan avvalgi V-IV asrlarga tegishlidir.

Miloddan avvalgi IV milodiy I asrlarga taalluqli Qo‘yqirilganqal’ a yodgorligidan hum sirtiga bitilgan yozuv na’munasi topilib, u oromiycha osonlikcha o‘qiladigan xat bilan o‘yib yozilgan edi. Yozuv “Aspabarok” yoki “ Aspabadak” deb o‘qiladi. Shubhasiz bu so‘z eronchadir. So‘zning ot o‘zagi ham, fe’l o‘zagi ham,

uning ohiridagi affiks ham eronchadir. So‘zni “otda ketayotgan” yoki “otda minib turgan” (chavandoz) deb tarjima qilish mumkin. Umuman Qo‘yqirilganqal’ a yozuvlarining xronologik chegarasi miloddan avvalgi III-asrga, eng so‘ngilari miloddan avvalgi II-asrning boshlariga to‘g‘ri keladi.

Qadimgi Xorazm yozuvi yodgorliklari bizning davrimizga qadar numizmatik materiallarda, qadimgi xo‘jalik buyumlarida (kumush piyola va kosalarda) saqlanib kelgan. Shuningdek, arxeologik izlanishlar jarayonida Tuproqqal’ a, To‘qqal’ a va Misdaxkon shahar-qal’alaridan ham juda ko‘plab yozuv namunalari arxivi topilganki, qo‘lga kiritilgan boy yozuv yodgorliklari qadimgi Xorazmning arab istilosiga qadar bo‘lgan siyosiy, moddiy va ma’naviy hamda xo‘jalik munosabatlari tarixini yanada teranroq idrok etishga yordam beradi.

Sug‘d yozuvi oromiy yozuvi asosida shakllangan harf-tovush yozuvidir. Bu yozuv qariyb ming yil davomida hozirgi O‘zbekiston va qisman Tojikiston yerlarida (Zarafshon vodiysi) joylashgan qadimgi Sug‘diyonada qo‘llanilgan. Sug‘d yozuvining mil. boshlariga oid eng qadimgi namunasi O‘zbekistonda Samarqand yaqinidagi Taliborzu tepaligidan topilgan.

Sug‘d yozuvi somiy alifbolari kabi konsonant yozuv bo‘lgan, ya’ni harflar, asosan, undosh tovushlarni ifoda etgan. VII –VIII asrlarda sug‘dlar o‘z alifbolarini 23 harfdan iborat deb hisoblaganlar, ya’ni 22 harf oromiy asliga borib taqalgan va alifboga oromiy alifbosidagi tartibda joylashgan. Bitta qo‘sishimcha 23-harf esa 12-harfning takroridan iborat bo‘lgan. IV asrning boshlarida ayrim harflar chiqib ketgan, ayrim harflar esa bir-biriga o‘xhash shaklda yozila borishi natijasida bir harfga kelib qolgan. Ana shu tariqa sug‘d alifbosi 17 harfdan iborat bo‘lib qolgan.

Umuman olganda, O‘rta Osiyo xalqlari to‘g‘risidagi ilk yozma hujjatli ma’lumotlar majmuasini, ya’ni arxiv hujjatlari kolleksiyasiga: qadimgi Nisadagi Parfiya arxivi, Xorazmdagi Tuproqqal’ a arxiv, Mug‘ qal’asi xarobalaridan topilgan Divashtich arxivi kiradi.

**2. Parfiya va Tuproqqal’ a arxivining topilishi hamda o‘rganilishi.** Markaziy Osiyoda yozuv paydo bo‘lishi bilan muhim voqeа-hodisalarni qandaydir qattiq narsalarga-devor, tosh, sopol buyumlar, metal taxtacha, yog‘och va yog‘och

taxtachalarga qayd qilib borish an'analari paydo bo'ldi. Shunday qilib, muhim voqealar hujjatlashtirilib borilgan va hujjatlarni saqlash an'anasi paydo bo'lgan. Shunga qadar Markaziy Osiyoda arxivchilik an'anasining paydo bo'lganligi va rivojlanganligini tasdiqlaydigan arxivlar topilgan. Qadimgi Nisadan topilgan Parfiya ish yuritish hujjatlari podshohning sharob saqlanuvchi omborxonasidan topilgan 2700 dan ortiq ostrakon (sopol taxtacha)lardan iborat bo'lib, kimga, qancha yoki kim, qaerdan vino olib kelganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Mazkur ostrakonlar hisob hujjatlari vazifasini o'tagan. Hujjatlar oromiy alifbosiga asoslangan parfiya tilida yozilgan.

Hujjatlar tasodifiy ravishda bir joyda to'plangan bo'lib, miloddan avvalgi I asr va milodiy II-III asrlarni o'z ichiga oladi. Hujjatlardagi ma'lumotlar cheklangan bo'lishiga qaramay, umumiyligi holda ular Parfiya jamiyatini hayotining turli tomonlari to'g'risida axborot beradi. Ular yordamida podshohlik xo'jaligining ayrim jihatlarini o'rghanish mumkin. Xususan ular Parfiya podshohligining ma'muriy-huquqiy tuzilishi, boshqaruv tizimi, ijtimoiy qatlami to'g'risida tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

1945-1950-yillarda S.P.Tolstov tomonidan Qorakalpog'istonning Elliqqal'a tumanida joylashgan Tuproqqal'a harobalaridan Xorazm hujjatlari sanalgan ulkan arxivining topilishi fanga katta ma'lumotlarni olib kirdi. Tarix fanida bu arxiv joy nomi bilan "Tuproqqal'a arxivi" deb yuritiladi. Hujjatlardan ma'lumki, Xorazmda devonxona ish yuritish va arxivlashtirish ishlari juda yaxshi rivojlangan. Ayniqsa, ma'muriy-xo'jalik tizimi turkumiga kirgan arxiv xujjatlarining topilishi Xorazm davlatidagi ish yuritish an'anasi uzoq davrlardan buyon davom etib kelayotganligini bildiradi.

Eramizning boshlari va milodiy II-III asrlarda, Tuproqqal'ada Xorazm shohlarining qarorgohini o'rghanish davomida to'plangan ashyoviy manbalarda, ayniqsa, haykaltaroshlik namunalarida Kushon podsholigi davri madaniyatining ta'siri yaqqol seziladi. Xorazmda yozuv o'z yo'nalishida davom etgan va oromiy alifbosi asosida qadimgi xorazm yozuvi shakllangan. Qadimgi Xorazm davlati poytaxti – Tuproqqal'a arki-a'losidagi podsho qarorgohi bo'lib xizmat qilgan saroy

majmuini o‘rganish jarayonida III asrga oid Xorazm podsholari arxivi topilgan. Tuproqqal’ a saroyidagi podsho arxivida 1947–1949 yillarda S.P. Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi a’zolari qadimgi xorazmliklarning teri va yog‘ochga yozilgan 140 ta hujjatini topishdi. Shundan 122 tasi teriga yozilgan bo‘lib, ularning ko‘pi chirib ketgan. Teriga yozilgan hujjatlardan 18 tasi, taxtaga yozilganlardan esa 8 tasi yaxshi saqlangan. Bu hujjatlarning asosiy qismi ma’muriy-xo‘jalik masalalariga doir bo‘lib, oromiy tipidagi alifboda yozilgan. Hujjatlarning tili A.A. Freyman va boshqa tilshunoslar tekshirgan Xorazmnning XIII – XIV asrlardagi o‘ziga xos eroni (forsiy) tiliga o‘xshaydi. Ayrim hujjatlarning yili ham ko‘rsatilgan. Ular teriga yozilgan bo‘lib, noma’lum davr sanalari – 207, 231 va 232 yillar bilan belgilangan. Hujjatlar topilgan madaniy qatlama Xorazm tarixining kushon-afrig‘iylar davri oralig‘i, ya’ni III-IV asrlarga oiddir.

Tuproqqal’ a hujjatlari Mug‘ qal’asidan topilgan Panjikent hokimi Devashtich arxivi kabi O‘rta Osiyoning qadimgi davriga xos ijtimoiy munasabatlarni o‘rganishda beqiyos muhim manba hisoblanadi. Ilk o‘rta asrlarga oid teriga bitilgan boshqa bir Xorazm hujjati Yakkaporson ko‘shkida, 1959 yilda Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan topilgan.

**3. Tuproqqal’ a arxivi hujjatlari tasnifi.** Tuproqqal’ada shoh saroyida joylashgan markaziy massivning janubi-sharqiy tomonidagi pastgi qavatning 4 ta xonasida xorazm hujjatlari topilgan. Bu xonalar shartli ravishda 89(232), 90(231), 93(239), 91(YUR) raqamlari bilan belgilangan. Bu hujjatlar Afrig‘iy Xorazmshohlar davriga oid bo‘lib, charm va yog‘ochga-taxtacha va tayoqqa yozilgan. Ularning umumiyy soni 140 ta bo‘lib, shulardan 122 tasi charmga, qolganlari yog‘och taxtacha va cho‘plarga yozilgan. Yozuvlar tush (qorasiyoh) bilan oromiy xat asosida shakllangan ilk xorazm kursiv usulida yozilgan.

Mazkur arxiv hujjatlarini tahlil qilish jarayonida yog‘ochga yozilgan hujjatlarni uch guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruhga katta oilalar tarkibiga kirgan ozod va qul erkaklar (VDn) ro‘yxati kiradi. Bu hujjatlar “uylar ro‘yhati” nomi bilan yuritiladi. Bunday to‘liq ro‘yhatlar 5 ta bo‘lib, shartli ravishda I-V-hujjatlar va bular Tuproqqal’ a hujjatlari orasida butun holatda saqlanib qolgan

yagona hujjatlardir. Bundan tashqari uy ro‘yxatlarining 10 ta bo‘lagi ham topilgan va shartli VI-XV-hujjatlarni tashkil qiladi.

Ikkinchi guruhga yog‘ochga yozilgan xo‘jalik hujjatlari kiradi. Bu guruh 4 dona (XI-XIX hujjatlar) siniq yog‘och bo‘laklaridan iborat. Bu hujjatlar g‘ildirak (XVI, XVII hujjatlar), chorva (XVIII hujjatlar) va boshqa narsalarni kirim va chiqim ro‘yhatlaridan iborat.

Uchinchi guruhdan 7 ta tayoqchadagi hujjatlar o‘rin olib, ular yupqa cheklardan iborat. Hujjatlar P-1, P-7 raqamlari bilan belgilangan. “P” belgisi ruscha “palochka” so‘zining bosh harfidan olingan.

Birinchi guruhga kirgan “uylar ro‘yhati” hujjatlarini birinchilardan bo‘lib, S.P.Tolstov o‘qigan hamda I va II hujjatlar fotonusxalarini va matnlarning transliteratsiyalarini e’lon qilgan. Keyinchalik B.V.Xenning bir nechta ismlarining o‘qilishini aniqlashtirgan.

Beshta to‘liq saqlanib qolgan “uylar ro‘yhati” dan to‘rttasida katta oilalar, ularning tarkibiga kirgan erkaklar hamda uy quillari sanab o‘tilgan. X raqamli uy hujjatining birinchi qatorida oila boshlig‘i ya’ni uy egasining ismi yozilgan. I, II va III hujjatlarning har birida uy egasining ikkitadan balog‘atga yetgan, ammo uylanmagan yoki oiladan ajralib chiqmagan o‘g‘illarining ismlari keltiriladi. III hujjatda uy egasi o‘g‘illarining ismlari yozilmagan. Bu esa o‘g‘illar oiladan ajralib chiqqanligini yoki hali voyaga yetmaganligini anglatishi mumkin, deb taxmin qilinadi. Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, aholini ro‘yhatga olish davrida oiladan ajralib chiqqan va ro‘yxatga olish yoshiga yetmagan o‘g‘illarning ismlari “uylar ro‘yhati” ga kiritilmagan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, III hujjatda uy egasining ismidan so‘ng kuyovning ismi yozilgan. I hujjatda esa o‘g‘illarning ismlaridan so‘ng kuyovning ismi yozilgan. Faqat bita kuyovning ismi yozilishi uzatilgan qiz otasining uyida qolishi mumkinligidan dalolat beradi. Aslida udumga ko‘ra turmushga chiqqan qiz kuyovning uyiga o‘tib yashagan.

Xujjatlarda ismlardan so‘ng abzats belgisi turibdi. Undan so‘ng “VDn” sarlavhasi quillar ro‘yxatini boshlab beradi. Bu quillar uy egasi, katta o‘g‘illari va kuyoviga tegishli quillar ro‘yhatidir. I, II va IV hujjatlarda uy egasi xotinining quillari

va nevaralarining qullari (bu o‘rinda qizlarning bolalari bo‘lishi mumkin) ham ko‘rsatilgan.

Quyida ayrim hujjatlar tasnifiga to‘xtalib o‘tamiz. I hujjat № 91 (YUR) xonadan topilgan. TK 1949 inventar raqamli № 8 hujjat yog‘och taxtachaga yozilgan, taxtachaning o‘ng tomoni o‘tkirlangan. Hujjatning uzunligi 36,5 sm, eni 8,5 sm. Matn eniga 3 ustun va 26 qator bo‘lib, 4 abzatsdan iborat. Matn yaxshi saqlangan. Mazkur I hujjatda 21 nafar erkakning, ya’ni uy egasi, uning ikki o‘g‘li va kuyovining ismlari xamda 17 ta qulning ismlari yozilgan. Qullardan 12 tasi uy egasi, uning o‘g‘illari va kuyoviga, 2 tasi uy egasi xotiniga va 2 tasi nevaralariga tegishli, bittasi qulning o‘g‘li bo‘lgan.

II hujjat 90-xonadan topilgan TK 1948 inventar raqamli № 10 hujjat dastali yog‘och taxtachaga yozilgan bo‘lib, hujjatning uzunligi 11,5 sm, eni 7-6 sm, dastasining uzunligi 4 sm. Matn taxtachaning ikki tomoniga ham yozilgan, yuza qismida 13 qator va bita abzats belgisi, orqasida 5 qator va bita abzats belgisi qo‘yilgan. Matn juda yaxshi saqlangan va ayrim harflar biroz zarar ko‘rgan. Matn eniga 3 qator va bo‘yiga 26 qator va 4 ta abzatsdan iborat. II hujjatda 15 nafar erkakning, ya’ni uy egasi, uning ikki o‘g‘li va 12 ta qulning ismlari keltirilgan. Qullardan 10 tasi uy egasi va o‘g‘illarining, 2 tasi xo‘jayinning xotiniga qarashli qullar bo‘lgan.

III hujjatda 89-xonadan topilgan TK 1949 inventar raqamli № 7-hujjat yog‘och taxtacha bo‘lib, hujjatning uzunligi 29 sm, eni 9,5 sm. Matn taxtachaning bir tomoniga yozilgan, eniga 3 ustun vertikal chiziqlar bilan ajratilgan, bo‘yiga 20(8+11+1)+1qator vertikal xolatda yozilgan. Matn yaxshigina zarar ko‘rgan. III hujjatda 17 nafar erkakning, ya’ni uy egasi, uning kuyovi va 15 ta qulning ismlari bitilgan. Qullardan 12 tasi uy egasi va kuyovining, 3 tasi xo‘jayinning qaysidir xotiniga qarashli qullari bo‘lgan.

IV hujjat 90-xonadan topilgan TK 1948 inventar raqamli № 12 hujjat yupqa tayoqqa yozilgan bo‘lib, hujjatning yuzasi tekislangan, chap qirg‘og‘i o‘tkirlangan, hujjatning uzunligi 25,5 sm, eni 3 sm. Matn tayoqning ikki tomoniga ham yozilgan, betida 4 ustun, orqasida 3 ustun, jami 18 qator matndan iborat. IV-hujjatda 15 nafar

erkakning, jumladan, uy egasi, uning 2 o‘g‘li va 12 ta qulning ismlari aks etgan. Qullardan 8 tasi uy egasi va o‘g‘illariga, va 4 tasi uy egasi xotiniga tegishli bo‘lgan. Mazkur hujjatlardagi qullar sonining ko‘pligiga e’tibor qilinsa, u holda bu oilalar Xorazmning eng to‘q o‘ziga boy tabaqalarining ro‘yhatlari bo‘lishi mumkin degan xulosaga kelishga asos bo‘ladi. Ammo ismlar yonida unvon va mansablarning ko‘rsatilmaganligi, bu oilalarning qaysi aslzodalar toifasiga mansubligini aniqlashga imkon bermaydi. B.A.Livshitsning ta’kidlashiga ko‘ra, “uy ro‘yxati”da eslatilgan oilalar shahar aholisimi yoki qishloq aholisimi bilib bo‘lmaydi.

V hujjat 89-xonadan topilgan.TK 1949 inventar raqamli № 1 hujjat yog‘och taxtachadan iborat bo‘lib, hujjatning uzunligi 15 sm, eni 6 sm. Hujjat yog‘och taxtachaning ikki betiga ham yozilgan. YUza qismida ikki ustun vertikal chiziqlar bilan bo‘lingan, 9 qator yozuv va 3 ta abzas belgisi qo‘yilgan.Orqasida vertikal tarzda boshqa xat bilan qo‘srimcha yozuv bitilgan. YUqoridagi hujjatlardan farqli ravishda Vhujjatga e’tibor qilinsa, unda 4 ta kishining ismi yozilgan: uy egasi va uning 3 ta quli.Ulardan bittasi uy egasining, ikkinchisi xotinining va uchinchisi onasining quli bo‘lgan. V.A.Livshitsning fikriga ko‘ra, bu ro‘yxat kichik oilaning katta erkaklari ro‘yxatidir.

Uylar ro‘yhatidagi qullar ismlari etimologiyasi ko‘proq xorazmcha bo‘lib, uylarning ozod a’zolari ismlaridan farq qilmaydi. Hujjatlarning birortasida xorazmlik bo‘lmagan qullarning ismi uchramaydi. Demak, qullar xorazmlik bo‘lib, ular patriarchal oilalarga qaram bo‘lib, uy egasiga itoat qilgan. Qullar ozod kishilardan farqlangan. Bu esa III asrda Xorazmda qulchilik patriarchal xarakterda bo‘lganligidan dalolat beradi. Uy ro‘yhatlari armiya va ko‘ngilli qo‘sishnlarni kuch bilan ta’minalash maqsadida katta yoshli erkaklarni ro‘yhatga olish asosida tuzilgan bo‘lishi kerak. Bu kichkina tayoqlarni bir yoki har ikkala tomonida nozik o‘yma naqshlar ishlangan. Bu narsa ular yorliq bo‘lishi mumkinligi haqida taxminni beradi. Tayoqchalardagi yozuvlar rangi ancha o‘chib ketgan va tayoqdagi yozuv bir so‘zdan iborat bo‘lib, bu haqiqiy ismlar bo‘lishi kerak.

Demak, Tuproqqal’a arxiv hujjatlari Xorazm davlatining ijtimoiy xo‘jalik tizimi, mahalliy boshqaruvi tizimi, kishilarning ismlari, o‘lchov birliklari haqida

qimmatli ma'lumotlar beradi. Tuproqqa'l'a arxivi Xorazmda davlat mahkamachilik an'anasi qadimiyatdan boshlab, uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonini bosib o'tganligini ko'rsatadi.

**Tayanch so'z va iboralar:** oromiy, ostrakon, inventar, yozuvlar, Tuproqqa'l'a, Elliqqa'l'a, Niso, Parfiya, Baqtriya, Xorazm, S.P. Tolstov, A.A. Freyman.

### **Savol va topshiriqlar**

1. O'rta Osiyo hududinig qaeridan ilk yozuv namunalari topilgan?
2. Oromiy yozuvi tasirida mintaqamizda qaysi yozuvlar shakllandi?
3. Qadimgi baqtriya yozuvi va arxivi haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Qadimgi Nisadan topilgan Parfiya arxivi haqida nimalarni bilasiz?
5. Tuproqqa'l'a arxivi haqida nimalarni bilib oldingiz?
6. Zardushtiylik dini, tarixi va Avesto kitobi haqida to'liq ma'lumot oling.

### **Manba va adabiyotlar**

1. Алимов И., Эргашев Ф., Бутаев А. Архившунослик. / Ўқув қўлланма – Т.: Шарқ, 1997.
2. Алимов И.А. Архившунослик. / Ўқув қўлланма – Андижон. АДУ, 2005.
3. Алимова Р. Ёғочга ёзилган ҳужжатлар таснифи. Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқоти методлари ва методологиясининг долзарб масалалари мавзуидаги Республика VII илмий конференциясининг материаллари. – Т., 2015.-Б. 30-34.
4. Жабборов И. Юксак маданият ва ноёб маънавият маскани. – Т.: Ўзбекистон, 2012.
5. Исакова М. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. Т.: Университет, 2012.
6. Исҳоқов М. Унитилган подшоликдан хатлар. Т.: Фан, 1992.
7. Матякубов X.X. Қадимги хоразм тили ва ёзуви хусусида. Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқоти методлари ва методологиясининг долзарб масалалари мавзуидаги Республика VII илмий конференциясининг материаллари. – Т., 2015.-Б. 251-255.

8. Ўзбекистон Республикаси Энсциклопедияси. Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1997. –Б. 507-508.
9. Чориев З.У., Шайдуллаев Ш.Б., Аннаев Т.Ж. Ўзбекистон худудида ёзувнинг пайдо бўлиши ва тараққиёти. Т.: Янги аср авлоди, 2007.
10. Қаюмов А., Исҳоқов М., Отакўжаев А., Содиков Қ. Қадимги ёзма ёдгорликлар. Т.: Ёзувчи, 2000.

### **3- Mavzu. O‘rta asrlarda arxiv ishi**

#### **Reja:**

1. Ilk o‘rta asrlarga oid Mug‘ arxivining topilishi va o‘rganilishi.
- 2.IX-XII asrlarda hukmron bo‘lgan sulolalar davrida kutubxona-arxivlarining shakllanishi.
- 3.Temuriylar davrida kutubxonachilik, hujjatchilik va ish yuritishning o‘ziga xosligi.

#### **1. Ilk o‘rta asrlarga oid Mug‘ arxivining topilishi va o‘rganilishi.**

O‘lkamiz madaniyati tarixida muhim rol o‘ynagan sug‘d yozuvi mil. av. III-II asrlarda shakllangan. Buyuk Ipak yo‘li va uning shaxobchalari bo‘ylab sug‘d tili va yozuvi ham keng tarqala borgan. Ettisuv, Xo‘tan, Mo‘g‘iliston hududlarida sug‘d yozuvlarining topilishi buning isbotidir. Sug‘diylar uch turdagι: bevosita sug‘d, manixey va suriya yozuvlaridan foydalanganlar.

Sug‘d yozuvi orqali bizgacha eramizning boshlaridan to X-XI asrlarga qadar yozilgan ko‘plab noyob yodgorliklar yetib kelgan. Ular orasida ko‘plab numizmatik materiallar (tanga yozuvlari), metall, sopol, yog‘och, charm, qog‘oz va boshqa buyumlarga bitilgan tekstlar, shaxsiy maktublar, diniy, axloqiy-falsafiy tekstlarning parchalari, xo‘jalik, huquqiy va diplomatik hujjatlar bor. Ana shunday yodgorliklarning katta guruhi 1932-1933 yillarda Tojikistonning Panjikent shahri yaqinidagi Mug‘ tog‘i tepasidagi qadimgi qasr xarobasidan topilgan sug‘d hujjatlaridir. Oradan 87 yil vaqt o‘tishiga qaramay bu hujjatlar hali hanuz o‘zining lingvistik, matnnavislik va tarixiy ahamiyatini yo‘qotgan emas. Qolaversa, keyinchalik “Mug‘ arxivi hujjatlari” deb atalgan bu manbaning topilishi VII asr oxiri

– VIII asr birinchi choragi Markaziy Osiyo mintaqasida ro‘y bergan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy jarayonlar masalasiga bir qadar oydinlik kiritdi.

Yillar davomida o‘rganilib kelinayotgan mazkur arxiv hujjatlari sobiq sovet va hozirgi o‘zbek sug‘dshunosligi taraqqiyoti uchun muhim rol o‘ynadi. Xususan, XX asr ikkinchi choragidan boshlab sobiq Ittifoqda sug‘dshunoslikning fan sohasi sifatida rivojlanishida Mug‘ arxivi hujjatlarini katta o‘rni bor. E’tirof etish kerakki, sovet davri tadqiqotchilari hujjatlarni o‘rganish ishiga salmoqli ulush qo‘shdilar. Dastlab hujjatlar ekspeditsiya rahbari A.A. Freyman tomonidan moddiy ashyo sifatida izchil o‘rganildi. Aniqlanishicha, bu hujjatlar teri, qog‘oz va yog‘och parchalariga yozilgan bo‘lib, shaxsiy va diplomatik xatlar, bitimlar, taqvimlar, xo‘jalik va hisob qaytlaridan iborat bo‘lgan. Ulardan ikkitasi arabcha, uchtasi xitoycha va bittasi runiy yozuvida bitilgan. Qolganlari esa sug‘diy til va yozuvida bo‘lib, barcha hujjatlar Sug‘d konfederatsiyasining Panch viloyati va uning markazi Panjikent shahri hokimi Devashtich saroyida saqlangan, ya’ni saroy devonxononasining arxivi hisoblangan. A.A. Freyman o‘z ekspeditsiyasi aniqlagan 74 ta hujjatning barchasini tavsifladi, yirik va ahamiyatlilarini esa tarjima qilib, ularning ayrimlariga sharhlar berdi. Avvaliga, ya’ni 1934 yildan “Согдийский сборник” da nashr etila boshlangan ma’lumotlar, so‘ngra 1962 yilda yaxlit to‘plam holida nashrdan chiqdi. Ayni vaqtida arabshunos mutaxassis I.Yu. Krachkovkiy Mug‘ arxividagi ayrim arab tilli hujjatlarning tarjimasini va talqinini e’lon qildi.

Mug‘ arxivi hujjatlarining katta kompleksi – yuridik hujjatlar va maktublar yirik sug‘dshunos olim V.A. Livshits tomonidan ilmiy jihatdan chuqur o‘rganilib, lingvistik va tarixiy izohlari bilan nashr etildi. Mazkur nashrda ilk o‘rta asrlarda nafaqat Sug‘dda, balki Markaziy Osiyo mintaqasida kechgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy, madaniy va mafkuraviy jarayonlar chuqur tahlil etildi. Xususan, hujjatlarda aks etgan voqealar markazi bo‘lgan Panch viloyati va Panjikent shahrining arab istilosi chog‘idagi holati misolida butun mintaqadagi jarayonlar tizimini ko‘rsatib berishga harakat qilindi. Ayrim yevrotsentrizm qarashlaridan farqli ravishda istiloga qarshi kurashdagi turk-sug‘d ittifoqi masalasiga xolis yondashildi.

Mug‘ arxivi hujjatlarini o‘rganish borasida O.I. Smirnovaning munosib o‘rni bor. U 1962 yilda eronshunos olim M.N. Bogolyubov bilan hamkorlikda Mug‘ arxividan aynan xo‘jalik mazmunidagi hujjatlarni ajratib olib, ularni tahlil etdi va nashrdan chiqardi. Bundan tashqari O. I. Smirnova Mug‘ arxivida keltirilgan ilk o‘rta asrlardagi Sug‘dning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy tarixini tadqiq etish bilan birga Sug‘d numizmatikasini ham izchil o‘rgandi. Manba va numizmatik materiallarni qiyosiy o‘rganib, ular o‘zaro to‘ldirildi. Bu kabi tadqiqotlar natijasida ilk o‘rta asrlarda mintaqamizda ro‘y bergen tarixiy jarayonlar ancha oydinlashdi.

O‘zbekistonda Mug‘ arxivini o‘rganish jarayoni V.A. Livshitsning izdoshi M.M. Ishoqov nomi bilan bog‘liq. Tadqiqotchi sug‘diy tili va mintaqada yozuv madaniyati tarixi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Bu borada Mug‘ arxivi hujjatlaridan ham samarali foydalanildi. Sug‘dshunoslik, avestoshunoslik va xorazmshunoslik sohalarining aynan O‘zbekistonda rivoj topishi uchun qator ishlarni amalga oshirdi. Endilikda ilmiy ish olib boradigan tadqiqotchilar oldida turgan vazifa – yozma manbalarning avvalgi matnshunoslik va lingvistik tahlillaridan kelib chiqib, har bitta hujjatning yozilish tarixi, hujjat bilan bog‘liq tarixiy jarayonlarni izchil o‘rganish bo‘lib qolmoqda.

Mug‘ arxividagi 1.I raqamlı hujjatda O‘rta Osiyoning arablar tomonidan istilo etilishi davri, ya’ni 720-722 yillardagi siyosiy voqealar aks etgan. Voqealarning ishtirokchilari aynan hujjatlar orqali ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi. Ularning qanday mavqega ega bo‘lganligi hamda siyosiy jarayonlarga qay darajada ta’sir etganligi tarixiy nuqtai nazardan muhimdir.

Aynan 1.I hujjatining tavsifiga keladigan bo‘lsak, mazkur hujjat ko‘p sonli Mug‘ arxivi hujjatlari qatorida 1932 yilning bahorida Tojikiston Respublikasi Zahmatobod tumani Haydarobod qishlog‘ida yashovchi cho‘pon Jo‘raali Mahmadali tomonidan topilgan. Savat ichida joylashtirilgan ipak qog‘ozga notanish harflar bilan yozilgan hujjatlar bir necha oylar davomida qo‘ldan-qo‘lga o‘tib yurdi. Nihoyat, o‘sha vaqtarda Zahmatobod tumani kompartiya qo‘mitasi kotibi bo‘lib ishlagan Abdulhamid Puloti sa’yi harakati bilan hujjatlar Dushanbe shahriga olib kelindi. Bu erda ularni qadimgi so‘g‘d tilida yozilganligi aniqlangandan so‘ng,

fotonusxalari Leningrad (Sankt-Peterburg) professori A.A. Freymanga o‘rganib chiqishga yuborilgan edi. Ipak tolalari aralashmasidan tayyorlangan yuqa oqish-kulrang qog‘ozga bitilgan bu hujjat yaxshi saqlanib qolgan. Uning hajmi 28,9x28,2 o‘lchamda bo‘lib, deyarli to‘rtburchak shaklda bo‘lgan. Uning barcha 23 qatori to‘liq saqlangan. Qog‘oz to‘rtga buklangani bois, buklangan izlaridan yirtila boshlagan. Qog‘ozning chap burchagidan ozgina uzilgan. Ammo matn qismi zarar ko‘rmagan. Varaqning ostki qismida unga shirach bilan ikkinchi bir qog‘oz ulangan. Ammo bu parcha saqlanmagan, faqatgina qog‘oz izlari qolgan xolos. Uni ilk bor tadqiq qilgan A.A. Freyman dastlab hujjatning maktub ko‘rinishida ekanligiga e’tibor qaratgan. O‘qish jarayonida bu maktub Panch hukumdori Devashtichga yo‘llanganligi aniqlangan. Sababi hujjat “Sug‘d podshosi, Samarqand hokimi Devashtichga yuborilgan deb boshlanar edi.

Yuqoriga tahlil etilgan O‘rta Osiyo hududidan topilgan Nisadagi Parfiya arxivi, shimoliy Afg‘onistonidan topilgan Baqtriya arxivi, qadimgi Xorazmdagi Tuproqqa’ arxivi va Mug‘ tog‘idan topilgan arxiv hujjatlari bizga mintaqamizda ro‘y bergen siyosiy voqealar xususida ma’lumot beradi. Qolaversa, bu hujjatlar tarixiy shaxslar faoliyatiga to‘g‘ri baho berish, ularning yutuq va kamchiliklaridan xulosa chiqarish, eng asosiysi tarixiy saboq uchun yordam beradi.

**2. IX-XII asrlarda hukmron bo‘lgan sulolar davrida kutubxonalarining shakllanishi.** Ko‘pgina manbalardan bizga malumki, toxiriylar, somoniylar, qoraxoniyilar, g‘aznaviyalar va xorazmshohlar saroylarida kutubxonalarining mavjud bo‘lgan. Bu davrda Marv, Nishapur, Ray, Balx, Hamadon, Tus, Buxoro, Samarqand, Urganch, Xiva, Nisa, Termiz va boshqa shaharlarning har birida o‘nlab davlat, vaqf va shaxsiy kutubxonalar vujudga kelgan. Ularda ko‘p minglab Arastu, Aflatun, Iqlidus, Batlimus, Suqrot, Arximedlarning nodir qo‘lyozmalari, shuningdek, qadimgi hind, pahlaviy, yunon, arab, fors va turkiy tillarda yozilgan olim, mutafakkirlar asarlarining asl nusxalari, tarjimalari saqlangan. Kutubxonachilik yuqori darajada rivojlanib, sifat jihatdan o‘sha davrdagi Ovro‘po yoki dunyoning boshqa mamlakatlaridan benihoya ustun edi. Masalan, Yevropaning XII asrdagi barmoq bilan sanarli eng mashhur kutubxonalarida 150-

200 jilddan nari borsa 500 nusxa kitob bo‘lgani holda, Buxoro, Samarqand, Marv, Nishopur, G‘azna, Urganch shaharlarda minglab kitob nusxalari saqlangan. Masalan, birgina Bog‘doddagi “Xizant-ul-Ilm” kutubxonasida Qur’oni Karimning yuzlab nusxasi, 10 400 dan ortiq turli mutafakkirlar asarlarining eng nodir, asl nusxalari saqlangan. Samarqand, Buxoro, Balx, Hamadon, G‘azna, Urganch va boshqa shaharlarning har birida o‘nlab etti iqlimga dong‘i ketgan kutubxonalar kecha-kunduz ishlab turgan.

Kutubxonalar shaxsiy, vaqf (masjid va madrasalarda) va saroyda tashkil etilgan. Ularning ko‘pchiligidagi kitoblar o‘z sohalari bo‘yicha kataloglashtirilgan, tartibga solingan, maxsus va malakali xodimlar biriktirilgan. Shuningdek, kutubxonalar farroshlar, qorovullar va boshqa xodimlarga ega bo‘lib, to‘la moliyaviy ta’minlangan. Ulardagi kitoblarni kutubxonaning o‘zida, shuningdek ma’lum garov evaziga, ko‘pincha pulga uyga olib o‘qish mumkin bo‘lgan.

O‘rta Osiyo kutubxonalari Hindiston, Eron, Istambul, Qohira shaharlarida Sharq tili va uslublarida bitilgan, shuningdek, O‘rta Osiyoning yirik shaharlarida yashab ijod etgan adib va xottotlar tomonidan tayorlangan kitoblar hisobiga kengayib, boyib bordi. Mo‘g‘ullar istilosiga qadar (XI - XII aslar) Marvda saqlangan Saljuqiylar va Gurgunchdagagi Xorazmshoxlar kutubxonalari juda mashxur bo‘lgan.

**3.Temuriylar davrida kutubxonachilik, hujjatchilik va ish yuritishning o‘ziga xosligi.** O‘rta Osiyo Amir Temur davriga kelib iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy va madaniy tomonidan rivojlana boshlaydi. Bu davrga kelib ko‘plab kalligraflar, rassomlar, san’at ustalari, xattotlar etishib chiqdi, kitobchilik sohasida yangi burulish yuz berdi. Ayniqsa, bu rivojlanish Temurning farzandi Shohruh va uni o‘g‘li Ulug‘bek davrida sezilarli tus oldi. Adabiyot maydoniga Atoyi, Sokkokiy, Haydar Xorazmiy, Durbek, Lutfiydan so‘ng she’riyat mulkining sultonini va mutafakkir shoir Alisher Navoiy chiqdi.

Alisher Navoiy kitobatchilik san’ati tarixida o‘ziga xos yangi oqimni boshlab berdi. Uning bevosita ko‘magi bilan Kamoliddin Behzod, Sultonali Mashhadiy kabi o‘nlab kitobatchilik san’atida mohir xattot, lavvoh, musavvirlar har bir qo‘lyozma asarlariga noziklik, nafislik bilan naqshu nigor chizganlar. Kitobatchilikka mehr

qo‘ygan ustalar o‘z kasblarini yuqori san’at durdonasi sifatida qadrlanganlar. Kitobxona mutaxasislarining mehr-muxabbat bilan qilgan mehnatlari tufayli qo‘lyozma san’atining uslub an’analari keyingi yillardagi kitobatchilik san’atiga asos soldi.

Amir Temur va temuriylar davrida ham kutubxona-arxivlari mavjud bo‘lgan. Ayniqsa Amir Temur harbiy yurishlari davrida ko‘pgina nodir qo‘lyozma asarlarini Movarounnahrga olib keldi. B. G‘ofurov o‘z asarida Amir Temurning o‘g‘li Shoxruh hukumronligi vaqtida Hirotda kutubxona tashkilib qilinib, unda qirqqa yaqin yetuk rassom, kalligraf va muqavasoz ustalar ishlagani, XV asrning ikkinchi yarmida Hirotda yirik ilmiy va madaniy markaz bo‘lganligini, ajoyib saroy kutubxonasi o‘ziga xos ilmiy muassasaga aylanganligini, kitoblar kalligraflar yordamida ko‘chirilganligi va bezaklar berilganligi haqida keltirib o‘tadi.

O‘rta asrlarda mohir naqqosh va musavvirlar qo‘li bilan ziynatlangan kitoblar juda qadrlangan. Kitob bezash san’atida naqqoshlikda turunj degan naqsh turi mavjud bo‘lib, bu usulda kitoblarning muqovasi bilan ilk sahifasi bezatilgan.

Kitob tuzish ishida varroq yoki sahhof (sahifalarni tayyorlovchi) jildsoz, xattot, lavvoh, musavvirlar aktiv ishtirok etganlar va ularni san’ati uzoq asrlardan beri yuksak qadrlanib kelmoqda. Sahhof sahifalarni tayyorlagandan so‘ng, xattot unga asar matnini ko‘chiradi, lavvoh esa muqova, musavvir qo‘lida kitob yanada o‘zgaradi, bezak, surat chizilishi shart bo‘lgan joylarga musavvir o‘z san’atini bitadi. Natijada tugal ish jarayonidan o‘tgan yetuk asar yaratiladi. Kitobga jildsoz charm, kumush va zardan muqova ishlaydi. Dastlabki davrda yog‘ochdan ham muqova yasaganlar. Lekin bu usul yaxshi natija bermaganligidan charmga o‘tilgan. Charmdan ishslash usuli, umuman, kitobatchilik ishlari aslida temuriylar davridan boshlab keng rivojlana boradi.

XV asrning 2-yarmida Hirotda kitobat san’ati yanada rivoj topadi. Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy saroy kutubxonasini nodir asarlar bilan boyitishga g‘oyat g‘amxo‘rlik qiladilar. Navoiyning ukasi Darveshali devonxona kutubxonasing dorug‘asi etib tayinlanadi. U kutubxonaga Hirotning ko‘plab xushnavis kotib, xattotlar va mohir naqqosh-u, musavvirlarni to‘playdi.

Amir Temur va temuriylar davrida hujjatchilik va ish yuritish tizimiga oid ba’zi bir hujjatlar bizgacha yetib kelgan. O’zbekiston Respublikasi Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik Instituti (hozirgi Sharq qo‘lyozmalari markazi) olimlari 1992-yilda Yaponianing Kioto Universitetining professori Toru Xorikava boshchiligidagi delegatsiyaning O’zbekistonga qilgan safarlarining birida xivalik Aliya Aliakbarovadan 1713 ta asl nusxa Xiva qozilik hujjatlarini sotib olishdi va institutga taqdim etildi. Bu hujjatlar ichida temuriylar davriga oid bo‘lganlari ham tadqiqotchilar tomonidan aniqlandi.

Jumladan, bizgacha yetib kelgan “Yorliqlar” ichida eng nodir hujjat 1378-yilda Amir Temur tomonidan Xorazmdagi Darxonota mavzesida istiqomat qiluvchi Abu Muslim avlodlariga berilgan imtiyozlar haqidagi “Inoyatnoma” yorlig‘idir. Bu hujjatda o‘sha avlodga berilgan imtiyozlar haqida farmon berilgan.

Yorliqni ancha sinchiklab o‘rgangan olimlar B.Mannonov va G.Ostonovalarning fikricha, yorliq N.P.Ostroumov qo‘liga yetib kelguniga qadar o‘ta muhim va muqqadas hujjat sifatida Xiva xonlarining xos arxivida saqlanib kelingan. O‘shandan buyon bu tarixiy hujjat yuzasidan maxsus tadqiqot olib borilgani yo‘q. Xayriyatki, u ko‘plab boshqa muhim tarixiy manbalar qatori yo‘q bo‘lib ketmasdan, bizgacha yetib kelgan. Marxum akademik Ibrohim Mo‘minov Soxibqiron haqida maxsus risola yozish uchun yozma manbalar bilan tanishar ekan, Sharqshunoslik Instituti fondida ushbu hujjatga duch keladi. 1968-yilda I.Mo‘minov yozma va bosma manbalar asosida “Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli”, deb atalgan risolasida ushbu hujjatning foto aksini muqova ortiga ilova qiladi. Uning tagiga “Amir Temur bin Muhammad Tarag‘ay Bahodirning muxri bosalgan farmon (1391)” degan tushuntirish berilgan. Bu farmon, deb ta’kidlaydi I.Mo‘minov risolada, turkiy (eski o‘zbek) tilda yozilgan bo‘lib, unda Abu Muslim avlodlariga berilgan imtiyozlar haqida gapiriladi. Bu va bunga o‘xshash boshqa hujjatlar tarixchi, iqtisodchi va tilshunos olimlarimizni qiziqtirishi lozim.

Yorliq Amir Temurning davlatdorlik tarixini o‘rganish nuqtai nazaridan muximdir. Ayni vaqtida bu yorliqni o‘rganish XIV asrning oxirgi choragidagi siyosiy voqealar, o‘sha davr ijtimoiy-iqtisodiy hayotining ko‘pgina qirralari haqida xabar

beradi. Amir Temurning siyosat bobida o‘ta diplomat ekanligi namoyon bo‘ladi. Unda Soxibqironning davlatchilik siyosatini kuch va Qur’onga asoslangan holda har ikki omildan g‘oyat ustalik bilan amalga oshirganining guvohi bo‘lamiz.

Yorliqlar to‘plamini o‘rganish va ilmiy muomalaga kiritish hozirgi davr talabi bo‘lib, unda davlatchiligidan tarixini to‘g‘ri va haqqoniy yoritishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Chunki ularda XX asr birinchi choragigacha mavjud bo‘lgan barcha unvon va mansablar tarixini yoritishda ham keng foydalanish mumkin.

**Tayanch so‘z va iboralar:** Buyuk Ipak yo‘li, Ettisuv, Xo‘tan, Mo‘g‘iliston, Staviskiy, S.P.Tolstov, V.A.Livshits, A.A. Freyman, Mug‘ arxivi hujjatlari, Zahmatobod, Haydarobod, “Xizant-ul-Ilm”, “Savoi-al-Xikma”, Amir Temur, Shohrux Mirzo, Boysunqur Mirzo, Ulug‘bek, Sulton Husayn Mirzo, YUNESKO, Fransiya, Jak Shirak, Ja’far Tabriziy, varrohlik, tazhib, tajlid, vassollik, zarofshonlik, vaqfnoma, yorliq, tarxon.

### Savol va topshiriqlar

1. A.A. Freyman rahbarligidagi ekspeditsiya xususida fikr yuriting?
2. IX-XII asrlarda hukmron bo‘lgan sulolar davrida kutubxona-arxivlarining faoliyati xususida fikr yuriting?
3. Buxorodagi Samoniylarning “Savoi-al-Xikma” kutubxonasi xususida fikr yuriting?
4. G‘aznaviyilar sulolasi hukmronligi davridagi kutubxona-arxivlari haqida nima bilasiz?
5. Qoraxoniylar sulolasi hukmronligi davridagi kutubxona-arxivlari haqida nima bilasiz?
6. Saljuqiylar sulolasi hukmronligi davridagi kutubxona-arxivlari haqida nima bilasiz?
7. Xorazmshohlar sulolasi hukmronligi davridagi kutubxona-arxivlari haqida nima bilasiz?
8. Amir Temur va temuriylar davridagi kutubxona-arxivlari xususida fikr yuriting?

## **Manba va adabiyotlar**

1. Отахўжаев А. Муғ архивидаги сүғдий тили 1.I ҳужжатнинг дипломатик ёзишма сифатидаги аҳамияти. Марказий Осиё тарихи замонавий медиевистика талқинида. – Тошкент: Yangi nashr, 2013. –Б. 120-133.
2. Алимов И., Эргашев Ф., Бутаев А. Архившунослик. / Ўқув қўлланма – Т.: Шарқ, 1997.
3. Алимов И.А. Архившунослик. / Ўқув қўлланма – Андижон. АДУ, 2005.
4. Бобохонов А. Ўзбек матбааси тарихидан. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1979.
5. Қаюмов А., Исҳоқов М., Отахўжаев А., Содиков Қ. Қадимги ёзма ёдгорликлар. – Тошкент: Ёзувчи, 2000.
6. Жабборов И. Юксак маданият ва ноёб маънавият маскани. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012.
7. Исакова М. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. – Тошкент: Университет, 2012.
8. Исҳоқов М. Унитилган подшоликдан хатлар. – Тошкент: Фан, 1992.
9. Ўзбекистон Республикаси Энсциклопедияси. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1997. – Б. 507-508.

### **4- Mavzu: O‘rta Osiyo xonliklar davrida arxiv ishi**

#### **Reja:**

1. Xiva xonligi arxivni va uning o‘rganilishi.
2. Buxoro amirligining Qo‘shbegi arxivni.
3. Qo‘qon xonligida arxiv ishi tarixi.

**1. Xiva xonligi arxivni va uning o‘rganilishi.** O‘rta Osiyo mintaqasida mavjud bo‘lgan Qo‘qon va Xiva xonliklari va Buxoro amirligida o‘ziga xos tarzda ish yuritish, hujjatchilik shu bilan birgalikda arxiv tizimi xususida XX asrning birinchi choragiga qadar aniq ma’lumotlar yo‘q edi. XX asrning 30-yillarida O‘rta Osiyo xonliklarida arxivlar bo‘lganligi o‘z tasdig‘ini topdi. Bular Qo‘qon va Xiva

xonlari, Buxoro amirligi Qo'shbegi arxivlari bo'lib, ularda XVIII-XIX asrga oid hujjatlarning ma'lum qismi saqlanib qolgan.

Ma'lumki, Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoni bosib olishning uchinchi bosqichi Xiva xonligiga yo'naltirilgan edi. Dungan qo'zg'oloni Xinjanggacha cho'zilgan bir paytda Rossiya 1871 yili o'z e'tiborini Kuljaga qaratishdan to'xtatib, balki Markaziy Osiyoning boshqa bir tomonida buysunmas geografik joy hisoblangan Xiva xonligiga qaratdi.

Yozma kelishuv rasman tan olingen bo'lishiga qaramasdan Britaniya Afg'onistonga o'z ta'sirini o'tkazish (Badaxshon) va Xuroson (Xorazm) ga tasir o'tkazmaslikka kelishildi. Rossiya 1873 yili General fon Kaufman boshchiligidagi Xiva xonligiga qarshi hujumini boshladi.

1873-yil 29-mayda ruslar Xiva xonligining poytaxti Xiva shahrini bosib olgandan so'ng, xon saroyini talan-taroj qildilar. Moddiy boyliklar bilan bir qatorda qo'lyozma asarlar va arxiv hujjatlari Turkiston general – gubernatori K.P. Kaufmanning topshirig'iga asosan sharqshunos olim Aleksandr Kun tomonidan Toshkentga olib kelindi. Arxiv va qo'lyozmalarning tarkibi va mazmunini o'rganib chiqqan Xiva ekspeditsiyasida bevosita qatnashgan A.L. Kun general-gubernatorga hisobot taqdim etadi. Unda olim mazkur hujjatlarni ikki guruhga bo'lgan edi. Birinchi guruhga xonlikning daromadlari va xarajatlariga doir daftarlari hamda bir qancha vaqf mulki hujjatlarini, ikkinchisiga xatlar, arizalar, shuningdek, diplomatik yozishmalarni kiritgan. Umuman olganda, Xiva xoni saroyidan Sharq qo'lyozmalaridan iborat 300 ga yaqin kitob, 129 nomda 140 jild tarixiy asarlar, 20 nafar shoirlarning 30 jildli asarlari, 50 jildli 40 ta huquqiy-diniy asar, bundan tashqari 18 ta Qur'on va 50 ta darslik kitoblari to'planganini ma'lum qiladi.

A.Kun Xiva xonligi hujjatlari asosidagi dalolatnomasida quyidagicha fikr bildirgan. "Xon saroyi musodara qilinganida, qo'lyozmalar bilan bирgalikda hujjatlar ham to'plandi. Bu hujjatlarni ikki guruhga bo'lish mumkin: birinchi guruhga xonlikning daromadlari va xarajatlariga doir daftarlari hamda bir qancha vaqf va mulk hujjatlarini, ikkinchi guruhga xatlar va diplomatik yozishmalarni kiritish mumkin. Daftarlari orasida pul soliqlariga doir yozuvlar (solg'ut), zakot daftarlari va

Matmurod devonbegining xon xarajatlari to'g'risidagi hisobotlari bor. So'ngra shu hujjatlar orasida Buxoroda, G'azalida, Istanbulda va boshqa joylarda savdo-sotiq ishlari bilan yashab turgan Xivaliklarning Xonga yuborgan iltimosnomalari, nizolarini hal qilib berish to'g'risida yozilgan imkoniyatnomalar, biror mansab berish to'g'risidagi iltimosnomalar va shu kabilar bor. Diplomatik hujjatlar orasida Ost- Indiya general gubernatorlari Narsbrukning xati, Turkiya sultonining xatlari va farmonlari, rus elchisi podpolkovnik Danilevskiy bilan Xiva xoni o'rtasida tuzilgan ahdnama hamda Turkiston general gubernatori tomonidan xonga yuborilgan bir nechta maktub mavjud” (Йўлдошев М. Хива хонлигига феодалер эгалиги ва давлат тузилиши. –Тошент:Ўздавнашр,1959.-Б.18.).

Mazkur noyob hujjatlarning bir qismi fon Kaufman tomonidan 1874-yil 28-martda Peterburg Fanlar Akademiyasi Osiyo muzeyi (hozirgi Sankt-Peterburgdagi Rossiya Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti kutubxonasi)ga, qolgani esa Peterburgdagi Imperator xalq kutubxonasi (Sankt-Peterburgdagi Rossiya Milliy kutubxonasi)ga yuborilgan. Uzoq vaqt hujjatlar ilmiy muomalaga kiritilmasdan, tadqiqotchilar uchun noma'lum bo'lib qolgan.

Xiva xonlari arxivini birinchi bo'lib, 1936-yili sharqshunos olim P.P.Ivanov tomonidan tasodifan topib olinishi va o'rganib chiqilishi tarix fani sohasida katta yutuq bo'ldi. Chunki, ushbu davrga qadar o'zbek xonliklari tarixi sharq adiblari asarlari yoki evropalik sayyohlar ma'lumotlari asosida yoritilar edi.

Xiva xonligi arxivi hujjatlari mazmunining sharqshunos P.Ivanov tomonidan tadqiq etilishi Xiva xonligi tarixini ma'lumotlar bilan boyitishga xizmat qildi. P.Ivanov Saltikov-Shchedrin nomli xalq kutubxonasidan hujjatlar topib, Xiva tarixiga oid tadqiqotlarini doirasini kengaytishga muvaffaq bo'ladi. Xiva xonlari arxivni hujjatlarini chuqur o'rganish natijasida P.P. Ivanov “XIX asrdagi Xiva xonlari arxivi” asarini nashr etgan. Biroq, olim arxivning sharqshunoslik institutida saqlanib qolgan ikkinchi qismidan bexabar edi.

Keyinchalik, mazkur hujjatlar 1951-1956 yillar Sharqshunoslik institutida katta ilmiy xodim lavozimida ishlagan, 1953 yil “Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan M.

Yo‘ldoshev tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. M. Yo‘ldoshev mazkur arxiv hujjatlari asosida Xiva xonligidagi yer egaligining qanday tarkib topganligi va yerdan kimlar foydalanganligini aniqlashga muvaffaq bo‘lgan hamda butun mamlakatdagi yerlarning 9/10 katta yer egalari qo‘lida bo‘lganligini isbotlagan. Olim haqiqiy hujjatlarga tayanib, tarix fanida birinchi marta XIX asrda Xivadagi agrar munosabatlarni, keng xalq ommasining hayotini, Xiva qishloqlaridagi murakkab ijtimoiy vaziyat va dehqonlar tabaqasi haqida to‘liq malumot beradi.

M. Yo‘ldoshev O‘rta Osiyo xonliklari xo‘jaligida chorikorlik, yerni ijaraga olib ishlash shaklining keng tarqalmaganligi to‘g‘risidagi masalani o‘rtaga tashlagan. Xiva xonligida soliq va majburiy ishlar haqida, soliq mahkamalarining tuzilishi, soliq to‘lovchilar toifalari va ularning miqdori hamda yig‘ilgan soliqlarning hajmi to‘g‘risida aniq malumotlar keltirilgan. Tadqiqotchi tomonidan o‘rganilgan hujjatlar Xiva xonlari ma‘muriy tuzilishiga doir boy materiallarni ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, saroy ayonlari, harbiy, sud va ma’mury mansablar to‘g‘risida mukammal ro’yxat keltiriladi hamda ularning mansab darajalari va vazifalari aniq ko‘rsatiladi.

Xiva xonligiga oid arxiv daftalarining o‘qib chiqishning qiyinchiligi va bu sohada tadqiqotching qilgan katta ishini alohida ta’kidlab o’tish kerak. Arxiv birinchi marta topilgan davlat hujjatlari to’plami shaklida emas, balki tarqoq holda yotgan tasodifiy qog’ozlar uyumidan iborat edi.

1962-yil O‘zbekiston arxivshunoslari tashabbusi bilan respublika hukumatining talabi asosida Leningraddagi (hozirgi Sankt-Peterburgdagi Rossiya Milliy kutubxonasi) Saltikov-Shchedrin nomidagi Davlat xalq kutubxonasidan 10 158 varaqda Xiva xonlari hujjatlari yurtimizga olib kelindi. Hozirda ushbu noyob arxiv hujjatlari O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida saqlanmoqda.

Xiva xoni arxivini chuqur o‘rgangan olim M.Yo‘ldoshev arxiv daftarlari orasida saroy harajatlarini ko‘rsatuvchi juda ko‘p hujjatlar borligini aniqladi. Bu hujjatlar xon byudjeti qanday sarflanganligini aniq qilib ko‘rsatadi. Bu hol hujjatlarning ilmiy qimmatini oshirish bilan birga, ularni muhim tarixiy manbara aylantiradi. Mazkur arxiv hujjatlarining o‘sha davrda tartib bilan yozib borilishi,

to‘planishi va saqlanishi ham O‘rta Osiyo xonliklaridagi yuksak madaniyat va taraqqiyotdan dalolat beruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Daftarlardan biz Xiva xonligida orden va medallar yo‘qligi, mukofot tariqasida esa pul, er-suv, chorva yoki qimmatbaho buyumlar berilganligini bilib olishimiz mumkin. Shuningdek, turli jun mato va choponlar bilan mukofotlash usuli ham keng tarqalganligini ko‘rishimiz mumkin. Ayrim hollarda mukofot tariqasida pichoqlar ham berilgan. Xivada harbiy yurishlar vaqtida askarlarda davlat tomonidan tibbiy yordam ko‘rsatilmas edi. Yaralangan askarlar o‘z hisobidan davolanishi kerak bo‘lgan.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi 125-raqam tarix fondi “Xiva xonlari devonxonasi” va “Xiva xonlari arxiv” deb atalgan birinchi va ikkinchi tafsiflari “Iqtisod” va “Qozi vasiqlari” bo‘limida, hamda 323-fond birinchi tafsifida saqlanayotgan vaqfnomalarda Xiva madrasalari va ularning iqtisodiy manbalari to‘g‘risida noyob hujjatlar mavjud.

“Xiva xonlari arxiv” fondida “Yasovulboshining vaqf masalalari bo‘yicha xon saroyiga chaqirilishi” deb nomlangan hujjatlar jamg‘armasi saqlanadi. Mazkur hujjatlarni tadqiq etilishi ikki jihat bilan muhim bo‘lib, birinchidan, sud-huquq tizimida yasovulboshi institutining tutgan o‘rni, uning funksiyalari haqida, ikkinchidan, vaqf ma’muriyati faoliyatiga oid qimmatli ma’lumotlarni beradi. Yasovulboshining davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimida tutgan o‘rni masalasi atroflicha o‘rganilgan bo‘lib, mazkur tadqiqotda asosiy e’tibor Xiva xonligida vaqf ma’muriyatining amaliy faoliyatiga qaratiladi.

**2. Buxoro amirligining Qo‘shbegi arxiv.** 1920-yil 2-sentyabrda Buxoro amirligi Rossiya qo‘sishlari hujumi tufayli ag‘darildi. Amirlikdagi asori-atiqalar, amir xazinasi, turli boyliklar, nodir kitoblar Markazga jo‘natildi. Biroq, Buxoro amirlining arxiv ark yerto‘lasida saqlanib qolgan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxiv I-126-jamg‘armada saqlanayotgan Buxoro amirligiga qarashli bo‘lgan “Qo‘shbegi arxiv” XIX – XX asr boshlarigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi va ulardagi ma’lumotlar, asosan, Buxoro amirligiga oiddir.

Qo'shbegi arxivining mavjudligi Xiva va Qo'qon xonligi arxivi ochilgunga qadar, "O'rta Osiyo xonliklarida hech qanday arxiv bo'lman" kabi e'tirozlarga o'rin qoldirmaydi. Bu arxivlarning 1930-yildan keyin ochilishi natijasida, nafaqat Buxoro amirligida, balki O'rta Osiyo mintaqasida xonliklarda XIX – XX asr boshlaridagi davlatchilik tarixiga oid qimmatli yozma manbalar vujudga keldi.

Natijada, ushbu yozma manbalar orqali hujjatlardagi ma'lumotlarni to'ldirish, ayrim sohalarni qayta ko'rib chiqish imkoniyatlari ham tug'ilди. 1931-yilda Buxoro muzeyi xodimlari tomonidan Ark yerto'lasidan topilgan Qo'shbegi arxivni 1933-yilda Toshkentga – Markaziy davlat arxiviga olib kelingan.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasi ma'naviy ishlar noziri Musojon Saidjonov tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra Buxoro amirligida ikki turdag'i arxiv hujjatlari mavjud bo'lib, ular: 1) amirlik devonxonasi arxiv hujjatlari; 2) Buxoro amirligi qo'shbegisi arxividan iborat bo'lgan.

Amirlik devonxonasi arxiv hujjatlarini hukmdorlar o'z qarorgohlarida saqlagan. Masalan, amir Muzaffar ularni Shirbudunda saqlangan bo'lsa, uning o'g'li Abdulahad arxiv hujjatlarini o'zi bilan Karmanadagi qarorgohiga olib ketgan edi. Amir Olimxon davrida esa hujjatlar Buxoro shahriga olib kelingan. Amir devonxonasiga parvonachi javobgar bo'lgan.

Tadqiqotchi M.A. Abduraimovning fikriga ko'ra Buxoro amirligi devonxonasi hujjatlari Buxoro bosqini vaqtida qizil askarlar tomonidan olib ketilgan va uning keyingi taqdiri noma'lumligicha qolib ketgan. Bugungi kunga kelib, O'zbekiston Respublikasi MDAning "Buxoro amirligi qo'shbegi boshqarmasi" I-126 fondida Buxoro amirligi devonxonasi arxiviga tegishli 5000 ga yaqin hujjat saqlanib, ularning hammasi qo'shbegi nomiga yuborilganligi uchun qo'shbegi arxivni hujjatlari tarkibiga kiritilgan.

Buxoro amirligi Qo'shbegi arxivni o'z davrining ilg'or kishisi bo'lgan qo'shbegi Mirzo Nasrullo davri (1910–1917yy.)dan boshlab tizimlashtirib, tartibga solinib ikki qismga: ichki va tashqi (xorijiy) ishlarga doir hujjatlarga bo'lingan. Hujjatlar yerto'lada sandiqlarda saqlangan. Biroq, undan keyingi qo'shbegi

Usmonbek hujjatlarni saqlashga sovuqqonlik bilan yondashgani to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud.

Buxoro amirligi sovet hokimiyati tomonidan bosib olinishi vaqtida militsiya va ChK organlari tomonidan Ark yerto‘lasidan bir necha hujjatlar saqlangan sandiqlarni topganlar. Hujjatlarning bir qismi tokchalar va yerda yotgan bo‘lgan. Ma’lumotlarga ko‘ra mazkur hujjatlar amir amaldorlari tomonidan tashlab ketilgan davlat hujjatlari bo‘lgan. Nazorat organlari ushbu hujjatlarni tartibsiz hamda hech qanday ro‘yxatsiz qutilarga joylab, Buxoro Xalq Nozirlar Kengashiga yuborgan. Ushbu hujjatlar BXSR tashqi ishlar nozirligi binosining yerto‘lasida O‘zSSR tuzilgunga qadar saqlangan. 1924-yilgi milliy-hududiy chegaralanish paytida Muso Saidjonov raisligida hujjatlarning ma’lum qismi dalolatnomaga tuzilib, Buxoro Davlat kutubxonasiga topshirilgan. Dalolatnomaga 69 ta bog‘lam, 52 ta daftар, 50 ta kitob shaklida sharq hujjatlari kiritilgan. Davlat kutubxonasida saqlanib kelingan qo‘shbegi arxivining bir qismi M.R. Hakimov tomonidan tartibga solingan. 1932-yil 1-dekabrida Kutubxona Sharq sho‘basi vakili Nurullaev tomonidan Buxoro viloyat arxiv byurosiga topshirilgan. Keyinchalik Buxoro viloyat arxiv byurosi mudiri Haydarov yuqoridagi hujjatlarga qo‘shimcha tarzda qo‘shbegining yana ikki daftarini Buxoro Davlat muzeyiga topshirgan.

Arxivning ikkinchi qismi Buxoroda sovet hukumati o‘rnatalgandan so‘ng 1920-yil sentyabr oyining boshlarida BXSRga yuborilgan Markaziy arxiv ishi boshqarmasi (MAIB) bosh boshqaruvchisi D.I. Nechkin boshchiligidagi sharqshunoslar: akademik V.V. Bartold va A.E. Shmidt, Narkompros kutubxona bo‘limi boshlig‘i A.A. Garitskiy, Sharqshunoslik institutining direktori M.S. Andreev, arxeolog va MAIBning ilmiy xodimi V.L. Vyatkinlardan iborat maxsus komissiya tomonidan shakllantiriladi. Komissiyaga zudlik bilan hududdagi arxiv hujjatlari, qo‘lyozma kitoblar, qadimgi san’at namunalarini asrash bo‘yicha choralar ko‘rish vazifasi yuklatiladi. Agar komissiya tomonidan tarixiy manbalarni talontaroj qilish yoki yo‘q bo‘lish xavfi aniqlangan hollarda, Buxoro inqilobiy qo‘mitasi bilan hamkorlikda bunday holatni oldini olish, ular ichidagi alohida qimmatli hujjatlarni Toshkentga olib kelib, Xalq ma’orif komissarligi tasarrufiga topshirishni

tashkil etishi kerak edi. 1920-yilning 30-sentyaridayoq olib borilgan o‘rganishlar asosida tarixiy-madaniy merosni saqlash masalasini muhokama qilish uchun komissiya majlisi o‘tkaziladi. Unda Buxorodagi barcha vaqf hujjatlari va qo‘lyozmalarni ma’lum bir ishonchli xonada yig‘ish to‘g‘risida kelishib olindi. Buxoro hukumatidan to‘plangan hujjatlarni hech bir boshqa muassasalarga bermaslik so‘ralgan edi. Mazkur taklifni BXSR hukumati tomonidan qabul qilinish bilan birga, arxiv hujjatlarini respublikadan olib chiqib ketish o‘rniga ulardan nusxa olish haqida kelishib olindi. Keyichalik ushbu qaror Turkkomissiya tomonidan ham ma’qullangandi. Bundan tashqari D.I. Nechkin BXSR Nozirlar kengashi raisi Fayzulla Xo‘jaev bilan Buxoro hukumatining mablag‘i evaziga hududda alohida arxiv muassasasini tashkil etishga ham kelishib oladi.

Mazkur mablag‘ muzey rahbariyati tomonidan: qog‘ozlarni chang, loy va dog‘lardan tozalash, yirtilganlarni ta’mirlash, shu bilan birgalikda hujjatlarni guruhlarga ajratish ishlariga sarflangan. Hujjatlarni dastavval 1931-yil dekabrda Buxoro Davlat muzeyi direktori Ashurov, V.A. Shishkinlar quyidagi tarzda guruhlangan:

1. Amirga beklar va yirik amaldorlardan yuborilgan xabarlar, ma’lumotlar: a) viloyat va tumanlardan yuborilgan xabarlar; b) qo‘shbegi ma’lumotlari; s) munshining (davlat kotibi) ma’lumotlari;
2. Amirning o‘z qo‘li bilan yozgan yozuvlari: a) maxsus, b) shaxsiy;
3. Amirning har xil shaxsiy hujjatlari;
4. Siyosiy ishlar bo‘yicha har xil xabarlar;
5. Amir nomiga kelgan maxfiy ma’lumotlar (har xil ishlar bo‘yicha);
6. Rossiya siyosiy agentligi bilan yozishmalar;
7. Beklardan qo‘shbegi nomiga yuborilgan xabarlar;
8. Qo‘shbegining rus ma’murlari bilan yozishmalar;
9. Moliyaviy hujjatlari: a) kirim va chiqim ma’lumotlari; b) pul hujjatlarining har xil turlari;
10. Harbiylar, ruhoniylar va amaldorlarning ro‘yxati;
11. Mulkka egalik hujjatlari (vasiqalar);
12. Yer-suv ishlari bo‘yicha hujjatlari;
13. Temir yo‘l hujjatlari va pochta-telegraf vedemostlari;
14. Har xil qog‘ozlar: gazeta va jurnallar, guvohnomalar, pasportlar, ma’lumotnomalar.

1933-yilda Buxoroda qo‘shbegi arxivni guruhash maqsadida maxsus komissiya tuziladi. Uning tarkibiga Buxoro Davlat muzeyi direktori vazifasini bajaruvchi A.S. Amirov, Buxkomstaris vakili V.A. Shishkin, muzey konsultanti,

buxoro Davlat muzeyi ilmiy kengashining kotibi N.E. Shmidt hamda qo'shbegi arxivini tekshirayotgan M.R. Hakimovlar kirgan.

Komissiya muzeydagi qo'shbegi arxivi hujjatlarini tekshirib chiqib 16 ta guruh: 1. Moliyaviy hujjatlar: a) kirim va chiqim farmonlari; b) moliyaviy hujjatlarni tasdiqlaydigan farmonlar; 2. Amir nomiga iltimos va ma'lumotlar: a) viloyat va tumanlardan; b) kotiblarning ma'lumotlari; s) qo'shbegi va boshqalarning bayonnomalari; 3. Harbiy xizmat amaldorlarining ro'yxati: a) ruhoniylar va boshqalar; 4. Amir yozishmalari va uning farmonlari. 5. Qo'shbegi nomiga kelgan iltimos va xabarlar; 6. Qo'shbegining javoblari; 7. Siyosiy agentlik bilan yozishmalari; 8. Biletlar, ma'lumotnomalar, guvohnomalar; 9. Telegrammalar, gazetalar va jurnallar; 10. Har xil qog'ozlar; 11. Siyosiy agentlik bilan olib borilgan muhim yozishmalari; 12. Amirning shaxsiy hujjatlari; 13. Amirning siyosiy ma'ruzalari; 14. Amirning iqtisodiy ma'ruzalari; 15. Maxfiy ma'lumotlar; 16. Qo'shbegining Rossiya siyosiy agentligi amaldorlari bilan ba'zi yozishmalariga ajratilgan.

Mazkur ishlarni amalga oshirish uchun 1933-yil 22-avgustda A.S. Amirov arab tili va amir devonxonasi ishi xususiyatini yaxshi bilgan sobiq amir amaldorlari: Qori Ahmad Muhammedov va Ibrohim Xalilovlarni amirlik hujjatlarini guruhlarga bo'lib tartibga keltirish va ro'yxatlari (opis)ni tuzish uchun ishga taklif etadi. Mutaxassislar hujjatlarni aksariyatida sana bo'limganligi sababli ularni guruhlashda xronologik tartibdan voz kechish hamda qog'oz shakli har xil bo'lgan (ba'zi hujjatlar bir necha metrlik o'ramlardan iborat)ligi uchun muqovalarga joylashtirmaslikka qaror qiladi. Arxiv saqlov birligi sifatida kanop bilan bog'langan har xil bog'lamlarni qabul qilishga kelishib olingan edi. Hujjatlarni tartibga keltirish 1934-yilning 14-mayida yakunlanib, hammasi bo'lib ro'yxatga kiritilgan 77 764 ta hujat 54 mavzuga va 268 ta bog'lamga ajratilgan.

Dastlab, 1938-yillarda Buxoro amirligi qo'shbegisi arxivining bir qism hujjatlari Qori Ahmad Muhammedov va Ibrohim Xalilovlar tomonidan tuzilgan ro'yxatlar bilan Toshkentga O'zSSR Markaziy Davlat Tarix arxiviga yuboriladi. Arxivida amirlik hujjatlariga tuzilgan ro'yxatlardan foydalanishda anchagina

qiyinchiliklarga duch kelingan. Yuqorida qayd etilganidek, muzeyda saqlov birligi sifatida butun bog‘lam olingan bo‘lib, ularning ichida tadqiqotchilarga mavzu bo‘yicha tegishli hujjatlarni qidirib topishda jiddiy qiyinchiliklar tug‘dirar edi.

Arxivda olib borilgan uzoq muhokamalar va sharqshunoslarning maslahatlari bilan 1955-yilning mayida O‘zSSR Ichki ishlar ministrligi Arxiv bo‘limi huzurida faoliyat yuritgan Ilmiy kengash majlisi qaroriga asosan har bir hujjat annotasiyasini tuzish ishlari boshlangan edi.

**3. Qo‘qon xonligida arxiv ishi tarixi.** 1875-yilda Qo‘qon protektoratida Xudoyorxon tomonidan o‘limga hukm qilingan Musulmonqulning o‘g‘li Abdurahmon oftobachi tomonidan katta qo‘zg‘olon uyushtirildi. Xudoyorxon Farg‘ona vodiysi va uning atrofida Rossiyaga qarshi bo‘lgan g‘azovotga qarshi chiqolmay qochib ketgach uning o‘rnini katta o‘g‘li Nasriddin egalladi. M.D. Skobelov (1843-82) Mahram qalasida bo‘lgan 50000 qo‘qonliklarni yengdi. Farg‘ona vodiysining Sharqiy qismida uyushtirilgan qipchoq va qirg‘iz qo‘zg‘olonlarini ham bostirda va Andijon, Namangan, Marg‘ilon va Qo‘qon ustidan Rossiya nazoratini mustahkamladi. 1876-yil 19-fevralda xonlik tugatilib, uning o‘rniga Farg‘ona viloyati tuzildi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining O‘rtta Osiyoda olib borgan istilochilik yurishlari natijasida Qo‘qon xonligi 1876-yil bosib olindi hamda Buxoro va Xiva davlatlaridan farqli ravishda davlat sifatida butunlay tugatildi. Shundan so‘ng mustamlakachi ma’murlar xonlikdagi barcha boyliklar, asoruatiqalar qatorida noyob asarlar, arxiv hujjatlarini markazga jo‘natish chorasini ko‘rdilar. Qo‘qon xonlari arxivi ham 1876-yil noyabr oyida general-gubernator K.P. Kaufman buyrug‘i bilan sharqshunos A. Kun tomonidan Peterburg shahridagi Imperator kutubxonasiga jo‘natilgan. Arxivdagi hujjatlarning asosiy qismi 1866-1875 yillarga oid bo‘lib, umumiy hajmi 5026 varaq va 151 daftardan iborat qo‘lyozma hujjatlar topilgan. Ularda xonlikning inoyatnomalari – soliqlardan ozod qilish yoki imtiyoz berish; muboraknomalari – xon xizmatchilarini tayinlash, aholini hashar ishlariga jalb qilish va bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy ma’lumotlar mavjud. Saqlanib qolgan 151 ta daftarda soliq yig‘uvchilarning yozuvlari, hisobotlari, xon

saroyidagi sarf-xarajatlar va boshqa yozuvlar o‘z aksini topgan bo‘lib, xonlikning iqtisodiy tarixini yoritishda muhim manba hisoblanadi.

XVIII – XIX asrlarda Qo‘qon xonligining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotini yoritishda tarixiy asarlar, manbalar bilan bir qatorda arxiv hujjatlari: kirim-chiqim daftarlari, muboraknomalar, vaqfnomalar, pattalar, nasabnomalarning o‘rni beqiyosdir.

XIX asrda Qo‘qon xonligida keng tarqalgan hujjatlardan biri “patta”lardir. Pattada ma’lum kishiga muayyan miqdordagi pul, maxsulot, urug‘ (don) yoki boshqa narsalarni berish lozimligi haqida ma’lumot aks ettirilgan. Patta matnlarida ham o‘ziga xos doimiy va muayyan tarkib va nutqiy qolib borki, bu ham o‘zbek (turkiy) hujjatchiligi uzoq tarixiy tajriba va tadrijiy takomil maxsuli ekanligining dalilidir.

Qo‘qon xonlari arxivi P.P.Ivanov tomonidan Xiva xonlari arxivi bilan bir vaqtda topilgan bo‘lishiga qaramay, ilmiy jihatdan o‘rganilmagan edi. Hujjatlarning dastlabki tafsiloti 1968-yilda sharqshunos olim A.L. Troitskaya tomonidan “Qo‘qon xonlari arxivi katalogi” nomi bilan chop qilingan.

Qo‘qon xonlari arxivi ham 1962-yilda 3 800 yig‘majild tartibida mamlakatimizga olib kelingan va hozirda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivida saqlanmoqda.

Qo‘qon va Xiva xonligiga oid hujjatlarni to‘plagan sharqshunos olim A.L. Kunning kolleksiysi ham diqqatga sazovordir. Bugungi kunda A. Kunning hayoti va faoliyatiga oid hujjatlar Sankt-Peterburgda, Sharq qo‘yozmalari institudagi shaxsiy arxivida saqlanadi. 33-raqam ostidagi mazkur jamg‘armada 300 dan ortiq yig‘ma jild mavjud bo‘lib, ularning aksariyati A. Kun tarafidan yig‘ilgan Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy-iqtisodiy tarixi hamda etnografiyasiga oid materiallardan iborat.

Kun kolleksiyasidagi hujjatlar tarkibi haqida kengroq tasavvurga ega bo‘lish uchun quyida hujjatlar mazmuniga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Yorliqlar. Kun kolleksiyasida esa bu turdagil hujjatlar taxminan 1 ta chala ko‘chirilgani bilan birga 60 tani (ular matnda Yorliq, nishon, inoyatnoma shaklida

tilga olingan) tashkil etadi. Eng qadimgisi 938/1531-32 yilda shayboniy Abu Sa'idxon (1531-1534) tarafidan, eng oxirgi 2 ta hujjat 1280 yil rabi' ul-avvalda (1863 yil avg-sent.) Qo‘qon xoni Sulton Sayidxon (1863-1865) va uning vaziri Alimquli amirlashkar tarafidan berilgan.

**Tayanch so‘z va iboralar:** qo‘shbegi, amir yozishmalari va uning farmonlari, qo‘shbegi nomiga kelgan iltimos va xabarlar, siyosiy agentlik, biletlar, pattalar, Yorliqlar, inoyatnomalar, muboraknomalar, ma'lumotnomalar, guvohnomalar, telegrammalar, gazetalar va jurnallar.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Xiva xonligiga yuborilgan rus ekspeditsiyasi haqida to‘xtalib o‘ting?
2. Rossiya qo‘shinlari tomonidan Xiva xonligining bosib olinishi xususida nimalarni bilasiz?
3. Xiva xonligi arxivi haqida nima bilasiz?
4. Xiva xonligi arxivi qachon va qayerga olib ketilgan?
5. Rossiya qo‘shinlarining Buxoro amirligi hududiga bostirib kirishi haqida fikr yuriting?
6. Rossiya siyosiy agentligining Buxoro amirligidagi faoliyati hususida nimalarni bilasiz?
7. Buxoro amirligi qo‘shbegi arxivi haqida gapirib bering?
8. Buxoro amirligi qo‘shbegisi arxivida qanday mazmundagi hujjatlar mavjud?
9. Qo‘qon xonligi arxivi haqida nima bilasiz?
10. Nima sababdan qadimgi arxivlarni bizgacha to‘liq yetib kelmaganligi haqida fikr yuriting.
11. A.L. Kunning kolleksiyasi haqida ma'lumot bering.

### **Manba va adabiyotlar**

1. Абдурасулов У.А. К истории судебно-административной практике в Хивинском ханстве в конце XIX – начале XX столетия: коллекция йасаулбashi // O’zbekiston tarixi. 2012.№1.C.64-80.

2. Алимов И, Эргашев Ф, Бўтаев А. Архившунослик / Ўқув қўлланма. – Тошкент: Шарқ, 1997.
3. Алимов И.А. Архившунослик / Ўқув қўлланма. – Андижон: АДУ, 2005.
4. Аминов М. ва бошқ. Иш юритиш (амалий қўлланма). – Тошкент: ЎзМЭ, 2000.
5. Гулбоев Н.Н. Архив хужжатларида Хива хонлиги ҳарбий иш тарихига оид маълумотлар // Тарих фани Марказий Осиё интелектуал ривожи контексида. Тарихшунослик ва манбашунослик очерклари. – Тошкент: Yangi nashr, 2014. - Б.266-269.
6. Исакова М. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. – Ташкент: Университет, 2012.
7. Йўлдошев М. Хива хонлигига феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Тошкент: Ўздавнашр, 1959.-Б.364.

## **5- Mavzu: Rossiya imperiyasi davrida Turkistonda arxiv ishi**

**Reja:**

1. Rossiyasi imperiyasi boshqaruvi davrida Turkistonda arxiv ishi.
2. Turkiston general-gubernatorligi kanselyariyasining tashkil etilishi.

**1. Rossiya imperiyasi boshqaruvi davrida Turkistonda arxiv ishi.** 1867-yida Turkiston general – gubernatorligi tashkil topgan bo‘lsa, 1886-yilda Turkiston o‘lkasi deb qayta nomlandi. U o‘z ichiga Xiva xonligi va Buxoro amirligining bir qismini, Qo‘qon va qirg‘iz xonliklari, Katta O‘rda (Janubiy Qozog‘iston) hududlarini qamrab olgan.

1882-yilda Rossiya imperiyasining Orenburg va G‘arbiy Sibir hududlari Steppe general – gubernatorligiga ko‘chirildi va Qozog‘istonning shimoliy va markaziy hududlarini ham o‘z tarkibiga kiritdi. Podsho hokimiyyati tomonidan tayinlangan harbiy boshliqlar mahalliy boshqaruvni rad yetib, viloyatlarni boshqarib keldilar.

Rossiya hukmronligida g‘arbiy Turkistonning mahalliy aholisi vakillari boshqaruvda eng past mavqe’ga ega edi. Bilimli mahalliy aholining soni haligacha

noma'lum edi. Chunki, Rossiya statistiklari ona tilida yozishni biladigan, maktab va madrasalarda ta'lim olgan muslimonlarni butunlay e'tiborsiz qoldirib, faqatgina krill yozuvini o'qiy oladiganlarni savodli hisoblagan.

Turkiston o'lkasida mustamlaka boshqaruvi davrida turli xil idoralar faoliyat ko'rsatib, ularning hujjatlari joylarda saqlangan. Chunki maxsus arxivlar tashkil etilmagan edi. Aksariyat idoralarda hujjatlarni saqlash uchun yetarli sharoit va hatto maxsus xona ham ajratilmagan. 1908 – 1909-yillarda o'lkada taftish o'tkazgan senator graf K.K. Palen o'z hisobotida Turkiston general – gubernatorligi kanselyariyasi (devonxona) uchun yangi bino qurulishida arxiv uchun ajratilgan xonaning kichkinagini ekanligini qayd etadi. Bundan tashqari hujjatlarni saqlash ishiga muassasa rahbarlarining o'zboshimchalik bilan yig'majidlarni yo'q qilishga qaratilgan buyruqlari ham salbiy ta'sir o'tkazar edi.

Mahalliy yozma manbalar asosida Markaziy Osiyoda yangi ilmiy bilimlarning rivojlanish davri bo'ldi. Podsho Rossiyasining oxirgi o'n yilligida qo'lyozma va kitoblar savdo maxsulotlari aylantirilgan. Qimmatbaho qo'lyozmalar Markaziy Osiyoda sotildi, sotib olindi va o'g'irlandi. Shu bilan birgalikda deyarli har bir shaharda ayniqsa Buxoro va Qarshi shaharlarida XIX asrda savdo-sotiq gullab yashnadi va ushbu shaharlar bozorlarida qo'lyozmalar va nashr qilingan kitoblar ochiq tarzda namoyishga qo'yildi. XIX asr oxiri va XX asr 1-choragida Rossiya sharqshunoslari tomonidan namoyish etilgan kolleksiyalar bunga yorqin dalildir. 1873-yilda Rossiya armiyasi tomonidan poytaxt ishg'ol qilingach, Xiva xonligi hujjatlarini ilk marotaba tartibga solingan A.L. Kunning kolleksiyasi buning misolidir.

Osiyo muzeyi direktori tomonidan yuzaga keladigan har qanday imkoniyatni qo'ldan boy bermaslik to'g'risida ko'rsatma olgan V.V. Bartoldning bosh maqsadi qo'lyozmalarni qo'lga kiritish emas, balki, ularni turgan joyini aniqlab, o'z o'mida o'rganish bo'lgan. 1915-yil Buxoroga savdo safari davomida V.A. Ivanov 1057 tomga yaqin arab, fors, turk va yahudiy-fors qo'lyozmalarni to'plagan (Chahryar Adle. History of Civilizations of Central Asia.– Paris. UNESCO 2005. – P.72-73.).

Turkiston o‘lkasini yanada chuqurroq o‘rganish, uning tabiy boyliklari to‘g‘risida statistik va tarixiy ma’lumotlarni bir joyga yig‘ish maqsadida 1873-yil oktyabr oyida Turkiston general – gubernatori K. P. Kaufman Toshkent shahrida Markaziy arxiv tuzish loyihasini ilgari surdi. Markaziy arxivga barcha muassasa va idoralarning tugallangan yig‘majidlari kelib tushishi va shuerda tizimga solinib, tariflanishi ko‘zga tutilgan edi. Arxiv 4 ta bo‘limdan iborat bo‘lib, birinchi bo‘limda Turkiston general – gubernatorligi kanselyariyasi hujjatlari; ikkinchi bo‘limda viloyat, shahar sud boshqarmalari va Toshkent yarmarka qo‘mitasi hujjatlari; uchinchi bo‘limda Turkiston harbiy okrugi shtabi, harbiy okrug kengashi, topografik va barcha harbiy bo‘linmalar hujjatlari; to‘rtinchi bo‘limda esa, Sirdaryo viloyat shtabi hujjatlari kelib tushishi rejalashtirilgan edi. Loyihada Toshkent va Sirdaryo viloyatidan tashqari boshqa hududlarda joylashgan muassasalar arxivlari hujjatlariga e’tibor qaratilmagan edi. Markaziy arxiv loyihasi fon Kaufman vafotidan so‘ng amalga oshirilmay unitildi.

Turkiston o‘lkasida yetakchi muassasa bu Turkiston general – gubernatorlik devonxonasi edi. Rossiya imperiyasi apparatining oliy buyurokratik organi bo‘lmish mazkur devon ko‘p minglab kishilarning taqdirini hal qilgan. 1867- yilda tashkil etilgan va dastlabki vaqtarda 4 ta, keyinchalik 9 ta bo‘limni o‘z ichiga olgan devon ma’muriy-fuqaroviylari va nozirlik tartiblari, yer masalalari va majburiyatlar, yo‘l qurilishi, Xiva va Buxoroning Rossiya imperiyasiga tobelligi bilan bog‘liq hamda sharqning qo‘shni mamlakatlari bilan aloqalariga oid masalalar bilan shug‘ullangan.

Devonxona tarkibida tuzilgan arxiv bo‘limida 1882-yilgacha 9968 ta yig‘majild mujassamlashgan bo‘lib, ular etarli darajada tartibga solinmagan edi. 1904-yilda Turkiston general – gubernatorligi devoni arxiv faoliyatini tekshirgan maxsus komissiya arxivga bo‘limlardan hujjatlar tartibsiz ravishda sarlavha va ro‘yxatsiz topshirilayotganini qayd etgan.

Viloyatlar boshqarmalari devonlarida ham arxiv ishi achinarli holatda edi. Xususan Sirdaryo viloyati devoni arxivini joylashgan xona umuman talabga javob bermasligi va 1899-yilgacha ushbu arxivning 2 mingdan ortiq yig‘majildi

boshqarma “komissiyasi” tomonidan yo‘q qilishga ajratilganligi taftish hisobotlarida qayd etilgan.

Umuman olganda, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida arxiv muassasalari umumiy boshqaruv tizimiga ega emas edi. Idoraviy arxivlarda hujjatlarni saqlash va ulardan foydalanish uchun zaruriy shart-sharoitlar etishmas, muassasa boshliqlari esa arxiv hujjatlari to‘g‘risida tasavvurga ega emas edilar. O‘zbekistonda hozirgi ko‘rinishdagi arxiv muassasalari sovetlar hukmronligi davrida tashkil etila boshlangan.

**2. Turkiston general-gubernatorligi kanselyariyasining tashkil etilishi.** Turkiston general-gubernatori huzuridagi kanselyariya general-gubernatorlik rasmiy hujjatlarini yuritish va jamlash maqsadida 1967-yilning noyabr oyida o‘lkaga tashrif buyurgan fon K.P.Kaufman tomonidan tashkil etilgan. Unda o‘lkaning Rossiya imperiyasi tomonidan mustamlakaga aylantirilishi, Turkistonda rus harbiy-ma’muriy boshqaruv tizimining o‘rnatalishi, o‘lkada ma’muriy-hududiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-madaniy, ma’naviy-ma’rifiy sohalarda qabul qilingan huquqiy hujjatlar va ularning amalga oshirilishi borasidagi chora-tadbirlarga oid rasmiy hujjatlar, o‘lka aholisi va ularning etnik tarkibiga oid statistik ma’lumotlar, mahalliy aholini ruslashtirish masallariga oid, o‘sha davrda tashkil etilgan davlat muassasalari tarixiga oid va boshqa rasmiy hujjatlari to‘plangan. Bunda shuningdek, general-gubernatorlikning Rossiya imperiyasi imperatori, Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklari bilan olib borgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy aloqalariga oid hujjatlar ham o‘rin olgan.

Ushbu kanselyariya dastlab to‘rtta bo‘limdan iborat bo‘lib, ularning biri ya’ni sud ishlari bo‘limi bir necha yilgina faoliyat yuritgan. Shuningdek, kanselyariya tarkibida vaziyat taqozosi bilan vaqtincha tog‘-kon bo‘limi, harbiy yurishlar bo‘limi, qochoqlar stoli kabi bo‘limlar tashkil etilgan. Ushbu muhim masalalar kannselyariyaning doimiy mavjud bo‘lgan va qimmatli hujjatlarga boy 1-3 bo‘limlarida jamlangan.

Birinchi bo‘lim ma’muriy boshqaruv va inspektorlik xizmati masalalari bilan shug‘ullangan bo‘lib, bunda jami hujjatlar to‘rtta stolda taqsimlangan. Ushbu to‘rtta

stolning uchtasi asosan shaxsiy tarkib hujjatlarini, to‘rtinchi stol esa “sud ishlari va chet elliklar haqida”gi hujjatlarni yuritish va jamlash bilan shug‘ullangan.

Ikkinchi bo‘lim o‘lkaga hamda majburiyatlarga oid savollar masalasi bilan shug‘ullangan bo‘lib, hujjatlari beshta alohida stolda taqsimlangan. Ushbu bo‘linmada shuningdek, moliya va xo‘jalik bo‘linmasi faoliyat yuritgan. Bunda yuqorida keltirilgan alohida yo‘nalishlar bo‘yicha hujjatlar yuritilgan va jamlagan.

Uchinchi bo‘lim yer mulk va soliq ishlari bo‘yicha hujjatlarni yuritish bilan shug‘ullangan. Bunda shaharlar qurilishi va ularning hisob-kitob ishlarini yuritish alohida uchta stolda taqsimlangan.

Keltirib o‘tilgan bo‘limlardan general-gubernatorlik kanselyariyasida nazorat palatasi bo‘limi ham faoliyat ko‘rsatgan. Bunda Turkiston general-gubernatorligi hududida moliyaviy ishlarni nazorat qilish uchun tashkil etilgan komissiya a’zolarining ishlari to‘g‘risida ma’lumot beruvchi hujjatlar majmui jamlangan. Ushbu bo‘lim gubernatorlikda o‘lkaning moliya va soliq masalalari bilan shug‘ullanuvchi amaldorlari ishlarini nazorat qiluvchi taftishchilarining imperatorga bergen xabarnomalari, ma’ruzalari, hisobotlari, o‘rnatilgan tartib qoidalarni buzgan rus va mahalliy amaldorlarni javobgarlikka tortish bilan shug‘ullangan.

Turkiston general-gubernatorligi kanselyariyasining eng muhim bo‘limlaridan biri bu diplomatik aloqalar bo‘limi bo‘lib, unda gubernatorlikning qo‘shni davlatlar, xususan, Buxoro va Xiva xonliklari, Afg‘oniston, Qashg‘ar va boshqa davlatlar bilan diplomatik aloqalariga oid masalalar bilan shug‘ullangan. Kanselyariyaning ushbu bo‘limida shuningdek, diplomatik aloqalarga oid hujjatlar, xususan, Turkiston general-gubernatorligi qoshidagi diplomatik amaldor faoliyatiga oid rasmiy hujjatlar yuritilgan va saqlangan. Shuningdek, general-gubernatorlik kanselyariyasi huzurida Turkiston ommaviy bibliotekasi, muzeyi, “Turkestanskiye vedomosti” gazetasi va uning bosmaxonasi (1872-1881 yy.) faoliyat yuritgan.

Turkiston general-gubernatorligi kanselyariyasi so‘nggi general-gubernator Kuropatkining iste’foga chiqishi munosabati bilan o‘lkada yangi tashkil etilgan Turkiston Muvaqqat hukumati kanselyariyasiga aylantirilgan (1917 yil aprel oyida).

Shunday qilib, Turkistonning birinchi general-gubernatori fon Kaufman tomonidan XIX asrning ikkinchi yarmida tashkil etilgan, O‘zbekiston tarixini yoritishda muhim ahamiyatga ega qimmatli manbalarni o‘zida jamlagan hujjatlar majmui – Turkiston general-gubernatorligi kanselyariyasi hisoblanadi. Ushbu kanselyariya hujjatlari hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi I-1 Turkiston general-gubernatorligi kanselyariyasi fondida saqlanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan eng katta hajmli fondlardan biri hisoblangan ushbu jamg‘arma 35 ta ro‘yxat (opis)ga kiritilgan hujjatlardan iborat.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Rossiya imperiyasi boshqaruvi davrida Turkistonda arxiv ishining holati haqida fikr yuriting?
2. Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi arxivi xususida gapiring?
3. Turkiston general-gubernatorligida boshqaruvni tashkil etish.
4. Turkiston general-gubernatorligida boshqaruviga oid nizomlar xususida fikr yuriting?
5. Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi arxivida saqlanaётган fondlar.
6. Turkiston general-gubernatorligining tashkil topishi.
7. Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi arxivining tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilishi.
8. Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi (kanselyariya) arxivining saqlanishi.
9. Turkiston general-gubernatorligi kanselyariyasining diplomatik aloqalarga oid hujjatlarga to‘xtalib o‘ting?

### **Manba va adabiyotlar**

1. Алимов И., Эргашев Ф., Бўтаев А. Архившунослик. / Ўқув қўлланма. - Тошкент: Шарқ, 1997.
2. Алимов И.А. Архившунослик. / Ўқув қўлланма. - Андижон: - Андижон, 2005.
3. Бобоқулов Б. Архив иши назарияси ва амалиёти. / Ўқув қўлланма. – Т., 2011.

4. Жумаев У. Ўрта Осиё ва Ўзбекистонда архив иши тарихи ва Ўзбекистоннинг асосий архивлари. / Ўқув қўлланма. - Т., 2010.
5. Исакова М, Иофе В. Архившунослик. / Ўқув қўлланма. – Тошкент: Чўлпон, 2007.
6. Исакова М. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. – Тошкент: Университет, 2012.
7. Исакова М., Хайдаров М. Бошқарувни ахборот (хужжатлар) билан таъминлаш. / Ўқув қўлланма. – Т., 2012.
8. Набиев А. Тарихий ўлкашунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979.
9. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилж. Т.: Давлат илмий нашриёти, 2000. 437-бет.
10. Chahryar Adle. History of Civilizations of Central Asia. – Paris. UNESCO 2005. –P.72-73.

## **6- Mavzu: Turkistonda arxiv ishi tarixi (1917-1924yy.)**

**Reja:**

1. Turkiston ASSRda arxiv ishining tashkil etilishi.
2. Arxivlarni markazlashtirish. Yagona davlat arxiv fondi (YADAF) faoliyati.
3. Turkistonda arxivlarda ish yuritish.

**1.Turkiston ASSRda arxiv ishining tashkil etilishi.** Turkiston o‘lkasida 1918-yil mustabid sovet hokimiyatining o‘rnatalishi bilan izohlanadi. O‘zini idora qiladigan mustaqil davlat qurishga go‘yo ko‘maklashayotgandek ko‘ringan sovet hokimiyatining asl basharasi Turkiston Muxtoriyatini qonga botirishda yaqqol namoyon bo‘ldi. Soviet hukumati Turkiston Muxtoriyati tajribasidan muhim hulosa chiqarib, bu Turkiston hududida o‘ziga xos sovetlar andazasidagi avtonomiyani tashkil etishga kirishgan edi. Bundan ko‘zda tutilgan bosh maqsad Turkistonning kelajakda mustaqil, suviren davlat bo‘lib, ajralib chiqib ketishiga izm bermaslik edi. Bolsheviklar 1918-yil yanvar oyidayoq Turkiston avtonomiyasini tuzish masalasini ko‘tarishgan edi. 1918-yil 30-aprelda Turkiston Sovetlarining V s’ezdida “Rossiya

Sovet Federatsiyasining Turkiston Sovet Respublikasi haqida Nizom” qabul qilindi va Turkiston ASSRning tuzilganligi e’lon qilindi.

Turkiston Avtonom Sovet Respublikasi ma’muriy jihatdan Farg‘ona, Samarqand, Sirdaryo, Ettisuv, Kaspiyorti, keyinchalik Amudaryo (Turkman) viloyatlariga bo‘lingan. Respublika hududi BXSR, XXSR, Qozog‘iston ASSR, Afg‘oniston, Eron, Xitoy davlatlari bilan chegaradosh bo‘lgan.

Sovet davridagi keljakda amalga oshirilishi mo‘ljallangan loyihalar o‘tmishdagi vaqe’a hodisalar va siyosatni kommunistik ma’murlar va tarixchilar arxiv hujjatlari bilan bog‘lab o‘rgandilar. 1917-yil inqilobidan keyin tarixiy taraqqiyotni namoyon qilishni ahamiyatli deb hisoblaydigan marksizm tarafдорлари hisoblangan bolsheviklar tezda chor Rossiyasi arxivlarini o‘z nazoratlariga oldilar. Progressiv va reaksion tendensiyalarni namoyon qilish uchun kommunistik tarixchilar materiallar yig‘a boshladilar. 1930-yillarda Stalin kitoblardagi tarixiy materiallar ustida taxrir olib borgan bir paytda kommunistik partiyadagi bahslar o‘z cho‘qqisiga yetgan edi. Partiya chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan hududlar va u yerda yashaydigan xalqlarga o‘z zulmini o‘tkazuvchi sifatida emas, imperianing xalq xaloskori sifatida ifoda etilishiga e’tibor qaratdi. Sovet davrida Leningrad va Moskva shaharlari tashqarisida arxivlardan foydalanish taqiqlab qo‘yildi. Partiya rozilik bergen arxivshunoslargagina ruxsat berilgan bo‘lsada, ularning hujjatlarini qoralashi ta’qilangan edi. Ular kun so‘ngida maxsus xodimlarga o‘z qayd daftarlарини ko‘rsatishлари lozim bo‘lgan. Sovet Ittifoqi bo‘ylab bolshevik senzura kuchlarini yorqin aks ettiruvchi hujjatlaridan ko‘chirmalar oldilar. Bu harakatlardan maqsad tarixchi va o‘quvchilarni real vafealardan uzoqlashtirib, o‘zgartirilgan tarixga ko‘proq e’tibor qaratishni ko‘zda tutardi (Antonina Burton. Archive Stories.(facts, fictions and the writing of history). – London.2005.–R.49-50.)

Turkistonda sovet hokimiyyati o‘rnatilgach o‘lkada arxiv ishining tashkil etilishga e’tibor qaratila boshlandi. Sho‘rolor hokimiyyati rahbarlari yaxshi bilardiki, komunistik g‘oyalarning bajarilish vazifalarining muvaffaqiyatli olib borilishi ko‘p jihatdan qanchalik manbalar ko‘p to‘planishiga, tadqiqotchilar qaysi manbalardan ko‘proq foydalanishiga ham bog‘liq edi. Dunyo ommasiga sho‘rolar tizimini ijobiy

tomondan ko'rsatish zarur edi. Bularning barchasi hujjatli materialallarni maxsus boshqaruv markaziga konsetratratsiya qilishi hukumat vakillari uchun va davlatchilik siyosiy senzurasida efektiv instrument vazifasini o'tab berishi talab qilinar edi. Shuning uchun sho'rolar hukumati arxiv idoralari tizimini tiklanishiga katta diqqat-e'tibor qaratishdi.

1918-yilining aprelida RSFSR hukumati tashabbusi bilan Turkistonda markaziy arxiv idoralari boshqarmasini tuzish, arxiv ishini qayta qurish va markazlashtirish xususida qaror qabul qiladi, o'shanda hukumat topshirig'iga ko'ra "arxiv tashkilotlari boshqaruvini tashkil etish" uchun maxsus komissiya tuziladi.

Sovet hukumati arxiv ishlariga oktyabr inqilobidan so'ng katta e'tibor bera boshladi. 1918 yilning 27-28-mayida Moskvada M. X. Pokrovskiy raisligida majlis bo'lib, Markaziy arxiv boshqarmasini tuzishni rejalashtirish xususida kelishib olindi.

Rossiya hukumati tomonidan tashkil qilingan arxiv ishi tizimi Qizil Armiya arxiv ishini ham qisman o'zida mujassamlashtirgan edi. Sovet hukumati harbiy kuchlar bosh qo'mondonligi Qizil Armiya va fuqarolar urushi tarixi bo'yicha materillar yig'ish to'g'risida topshirqlar berdi. Shu maqsadda frontdagi shtablarda shu jumladan, Turkiston frontida harbiy ishlar arxiv bo'linmalari tuzilib, har bir armiya o'z ma'lumot (harbiy ishlari haqidagi)larini toplashi va ularni Moskvaga jo'natishlari shart edi.

1918-yilning mayida Markaziy Osiyoda yagona hisoblangan davlat arxiv jamg'armasidan so'ng, o'sha yilning noyabirida arxiv ishlari boshqaruvi Bosh boshqarmasi kollegiyasi tuziladi. Uning tarkibiga V. Ryazonov (rais), B. N. Storojev (rais o'rinosari), A. Polyanskiy, S. B. Veselovskiy va boshqalar kiradi. Kollegiya shu zahotiyoy davlat arxiv idoralarini tashkil etish, arxiv ishlari infratuzilmasini yaxshilashga kirishib ketadi. RSFSR arxiv idoralari markaziy tuzilmasining ajralmas qismi sifatida Turkiston arxiv saqlanmasini joriy qilishga katta e'tibor berdi. Tarixiy nuqtai nazardan baho beradigan bo'lsak, sovet arxivshunoslik siyosati tashkil etilishi bilanoq, Turkiston o'lkasida sho'rolar arxivshunosligi ta'siri sezila boshladi. 1917-yilning birinchi kunlaridayoq o'lkada yirik arxiv saqlanmasi yo'q

edi. Shu bilan birgalikda arxiv ishini yaxshilashga qaratilgan arxiv ishlari tizimli tashkil etilmagandi. Arxiv ishlarini tashkil qilish va rivojlantirish bo'yicha o'lka hukumatiga topshiriq 1918 yilning iyunida kelib tushdi. Bu ishni Turkiston respublikasi Byudjet moliya komissiyasi raisi (MIK xuziridagi) V. N. Kucherbaev boshqardi va 1919 yilning oktyabirida Turkiston ASSR Sovetining 13 – s'ezdida arxiv ishlarini tashkil qilish, boshqaruvi, topshiriq va vazifalari to'g'risida ma'ruza qildi. Shundan so'ng 1919-yilning 30-oktyabirida Turkiston Respublikasi MIK Prezidumi respublika Markaziy arxiv boshqarmasini tuzish to'g'risida qaror qabul qiladi.

1919-yil 15-noyabrda Turkiston ASSR Maorif xalq komissarligi qaroriga binoan Arxiv ishi markaziy boshqarmasi tuzildi va V.N. Kucherbaev boshqarma boshlig'i yetib tayinlandi. Tez orada RSFSR Arxiv ishi bosh boshqarmasi (Bosharxiv)dan Toshkentga vakil qilib D.I. Nechkin yuborildi. Turkkomissiya uni Turkiston ASSR Arxiv ishi markaziy boshqarmasi boshlig'i qilib tayinladi. D.I.Nechkin MIKning arxiv to'g'risidagi qaroriga o'zgartirishlar kiritdi. Muhim o'zgartirish shu bo'ldiki, Turkiston Respublikasi Arxiv ishi markaziy boshqarmasi boshlig'i RSFSR Bosharxivi roziligi bilan Turkiston Respublikasi Maorf xalq komissarligi qaroriga asosan tayinlanadi deb ko'rsatildi. Bu bilan Turkiston Respublikasi huquqi, shubhasiz, cheklandi.

Arxiv ishi markaziy boshqarmasi quyidagi bo'limlardan iborat edi: boshqarma boshlig'i huzuridagi kengash, ish boshqarmasi, ilmiy statistika bo'limi, inspeksiya, tahririyat kengashi, davlat arxivlari bo'limi.

Mahalliy arxiv tashkilotlari Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Soveti (XKS) ning 1921- yil 25-yanvardagi "Viloyat arxiv fondlari to'g'risida"gi qaroriga asosan qonuniy jihatdan rasmiylashdi. Bu qarorga ko'ra viloyat hududidagi barcha idoralarning ish yuritish hujjatlari viloyat davlat arxivlari fondining tarkibiy qismi hisoblanadi, deb ko'rsatilgan.

Markaziy va mahalliy arxiv tashkilotlarining muhim vazifasi arxiv hujjatlarini qidirib topish va yig'ish edi. 1920-1921- yillari 500 dan ortiq fondlar hisobga olindi. 1921-yil oxirigacha davlat arxiv fondlariga 157 ta harbiy va fuqaro tashkilotlari 305

mingdan ortiq, 1922- yili esa 83 ta tashkilot tomonidan 200 mingga yaqin yig‘majild topshirildi.

Turkiston Avtonom Sovet Respublikasi XKSning 1921-yil 25-yanvardagi qaroriga binoan arxivlarda qo‘lyozma hujjatlarga emas, balki nashr qilingan materiallar va foto hujjatlar ham yig‘ila boshlandi.

Arxiv tashkilotlari hujjatlarni qabul qilish bilan birga ularni tartibga keltirish ishlari hamda arxiv hujjatlaridan foydalanishni tashkil qilish bilan shug‘ullandilar. Arxiv hujjatlari ro‘yxatini tuzishdan oldin bu hujjatlar kerak va keraksizlarga ajratilib, ilmiy, amaliy ahamiyati borlarini doimiy saqlash, bunday qimmatga ega bo‘lmaganlarni yo‘q qilish belgilandi. Ya’ni, arxiv materiallarining o‘ziga xos ekspertizasi o‘tkazildi. Bu masala bo‘yicha Turkiston ASSR XKSning 1923-yil 25-yanvardagi “Arxiv hujjatlarini saqlash va yo‘q qilish to‘g‘risida”gi qarorida yo‘l-yo‘riqlar, ko‘rsatmalar berildi.

Ushbu qarorda arxiv hujjatlarining yo‘q qilinishi quyidagi tartibi o‘rnatalgan edi: arxiv hujjatlari tarkibidan yo‘q qilinadigan hujjatlarni ajratish uchun ajratish komissiyasi tuzilib, ularga arxiv boshqarmasi va arxivni tekshirilayotgan idora vakillari kiritilishi belgilandi. Bu komissiya qarorini Arxiv ishi markaziy boshqarmasi huzuridagi Tekshirish komissiyasi ko‘rib chiqib, o‘z xulolasini boshqarma boshlig‘i tasdig‘iga havola qilardi. Shunday qilib, tashkilotlar hujjatlarini yo‘q qilish huquqi arxiv idorasiga – Arxiv ishi Bosh boshqarmasiga topshirildi.

Ma’lumki, 1924-yili O‘rta Osiyo respublikalari (Turkiston, Buxoro, Xorazm sovet respublikalari) da milliy-hududiy chegaralanishi o‘tkazildi. Natijada SSSR tarkibida O‘zbekiston SSR, Turkmaniston SSR, Tojikiston ASSR (O‘zSSR tarkibida) va SSSR tarkibida Qozog‘iston ASSR va Qirg‘iziston avtonom viloyati tashkil qilindi. Buning natijasida O‘zbekiston SSRning o‘z arxiv tashkilotlari vujudga keldi.

Arxiv hujjatlari yangi tuzilgan respublikalar o‘rtasida quyidagi tartibda bo‘lindi. O‘rta Osiyo va ittifoq ahamiyatiga ega bo‘lgan arxiv fondlari O‘rta Osiyo Markaziy davlat arxivida – Toshkentda saqlanadigan bo‘ldi. Har bir respublikaga

oid arxiv fondlari shu respublikaga beriladigan bo‘ldi. Turkiston Respublikasining Yagona davlat arxiv fondi shu tarzda bo‘linib ketdi.

**2. Arxivlarni markazlashtirish. Yagona davlat arxiv fondi (YADAF) faoliyati.** 1917-yilgi oktyabr voqealariga qadar hujjatlar har bir idorada va tashkilotning o‘zida saqlangan. Arxivlar tarqoq holda bo‘lib, hujjatlar bir joyda yig‘ilmagan, markazlashmagan edi. Hukumat manbalarini saqlash va ulardan har tomonlama foydalanish maqsadida RSFSR Xalq Komissarlari Sovetining 1918-yil 1-iyunda “RSFSRda arxiv ishini qayta qurish va markazlashtirish haqida” deb atalgan dekreti e’lon qilindi. Shu chiqarilgan dekretga asosan RSFSRda Davlat arxiv fondi (DAF) tashkil etildi. Keyinchalik bu DAF tarkibiga inqilobgacha bo‘lgan davr va inqilobdan keyingi barcha sovet tashkilotlari faoliyati, muassasalar va ayrim shaxslar, shuningdek tarixiy yozma yodgorliklar, huquq, san’at, adabiyot va SSSR xalqlarining maishiy, ma’naviy madaniyati, kino foto hujjat fondlari kinofilm negativlari, fotosuratlari, ularni to‘latuvchi pozetivlar, grammafon, potifon, plastinkalari va yozib olingan ovoz materiallari, ilmiy-tarixiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan: illyustratsiyalar, qo‘l yozma negativlar, shunigdek, ogitatsiya va propoganda maqsadida nashr qilingan plakatlar, varaqalar, chaqiriqlar, e’lonlar va boshqalar, mikrofoto hujjatlar kiritilgan.

Shundan kelib chiqqan holda Turkiston Avtonom Sovet Respublikasi Markaziy Ijroiya Komiteti (MIK) 1919-yil 5-noyabrdagi “Arxiv ishini qayta qurish va markazlashtirish to‘g‘risida” qaror qabul qildi. Bu qarorga asosan 1917-yilga qadar bo‘lgan barcha idoraviy arxivlar tugatildi, arxiv hujjatlari Turkiston Avtonom Sovet Respublikasining Yagona davlat arxiv fondi (YADAF) ni tashkil qiladi, deb e’lon qilindi. YADAFni boshqarish uchun Turkiston Respublikasi Arxiv ishi bosh boshqarmasi tashkil qilindi. YADAFga 1917-yil 25-oktyabrgacha bo‘lgan barcha hujjatlar topshirilishi kerak edi.

Yuqorida ta’kidlangan qarorda arxiv hujjatlarini yo‘q qilish tartibi o‘rnatildi. Davlat idoralari Arxiv ishi bosh boshqarmasi ruxsatisiz o‘z hujjatlarini yo‘q qilish huquqiga ega emas, deb ko‘rsatilgan. Sovet idoralarida tashkil bo‘lgan hujjatlar YADAFning tarkibiy qismi deb qayd qilingan. Bu hujjatlarni arxiv ishi bosh

boshqarmasiga nazorat qilib turish topshirilgan. Bu boshqarma Maorif xalq komissarligi huzurida tashkil qilingan.

YADAF 8 ta seksiya va 4 ta bo‘limdan iborat edi. Bo‘limlar quyidagilardan iborat bo‘lgan:

1-bo‘lim. Ma’muriy-diplomatik (yuridik seksiyalarni birlashtiradi);

2-bo‘lim. Harbiy seksiya;

3-bo‘lim. Maorif va iqtisodiyot seksiyalari;

4-bo‘lim. Tarixiy-inqilobi, Sharq va matbuot seksiyalaridan iborat bo‘lgan.

Davlat arxivi fondiga faqat 1917-yildan oldingi tashkilotlar arxiv hujjatlarigina emas, balki sovet tashkilotlari arxiv hujjatlari ham qabul qilingan. Tashkilotlarda hujjatlar 5 yil saqlanishi va keyin davlat arxiviga topshirilishi belgilangan.

Shu davrdan boshlab YADAF tarkibidagi arxiv hujjatlari ekspertiza qilinib, doimiy saqlash uchun ajratilgan hujjatlari tartibga solindi va ro‘yxatlashtirildi. 1920-1922-yillarda YADAFda 150 mingga yaqin hujjatlari ro‘yxatga olingan. 1924-yilga kelib butun saqlanayotgan arxiv materiallarining uchdan bir qismi tartibga solingan edi.

Shunday qilib, arxiv hujjatlarini tartibga solish, ularidan ilmiy va amaliy maqsadda foydalanish imkonini berildi. Arxivning ilmiy xodimlari bir necha ilmiy ishlar tayyorlashdi. Masalan, A.A. Galperin “1918 yil martda Kolesovning Buxoroga yurishi” asarini yozgan edi.

Arxiv ma’lumotlarini bosmadan chiqarish say-harakatlari 1922-yilda “Qizil arxiv” deb nomlanuvchi jurnalning nashr qilinishi bilan boshlangan. Uning birinchi galdagi vazifasi hech qanday yashirin sirning yo‘qligini ko‘rsatish edi. Jurnalda imperiyadagi mavjut korrupsiya va tengsizliklarni takidlaydigan izohlar bilan birgalikda chor Rossiyasi hujjatlari ham nashr qilingan. Ba’zi maqollalar esa masxara qilish uchun nashr qilingan. O‘rtta Osiyo qo‘zg‘olonining yigirma yilligiga bag‘ishlangan, 1936-yilda nashr qilingan maqolada Farg‘ona viloyat harbiy gubernatori general-letenant Gippiusning tartibsizliklarni bostirish yo‘lidagi say-harakatlari aks ettirilgan (Antonina Burton. Archive Stories.(facts, fictions and the writing of history). – London.2005.–R.-50.).

1920-1924-yillarda Turkistonda metodik qo‘llanmalar ham yozildi. Masalan, arxiv fondlarini bayon qilish, tashkilotlarda joriy arxivlar ishlarini olib borish tartibi, joriy arxivlarni nazorat qilish va hisobga olish, hujjatlarni ajratish hamda yo‘q qilish to‘g‘risida yo‘riqnomalar tuzildi. Shunday qilib, oktyabr to‘ntarishidan keyingi dastlabki yillarda Turkiston arxivchilari respublika markazlashgan arxivni tashkil qilish uchun bor kuchlarini ayamadilar. Arxiv hujjatlarini tashish uchun transport va mablag‘ bo‘lmagan hollarda ularni arxivchilarning o‘zлari tashidilar, saqlab qolish uchun qo‘ldan kelgan barcha choralarни ko‘rdilar. O‘sha yillar og‘ir yillar bo‘lib, maoshlar yarim yillab berilmas edi. Lekin arxivchilar isitilmaydigan sovuq xonalarda, och holda ishlasalar ham ishni tashlamay davom ettirganlar.

Turkiston Avtonom Sovet Respublikasining arxiv hodimlari oktyabr to‘ntarishidan oldingi tashkilotlarning, ya’ni Turkiston general-gubernatorligi tashkilotlarining arxivlarini saqlab qolish uchun katta ishlarni bajardilar. Yagona davlat arxiv fondining tashkil etilishi natijasida arxiv hujjatlarini yig‘ish bilan birgalikda ularni tartibga solish, bayon qilish, ulardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ham ko‘pgina ishlar amalgalashdi.

**3. Turkiston ASSR arxivlarida ish yuritish.** Oktyabr to‘ntarishidan keyin sho‘rolar tuzumi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotning barcha sohalarini o‘zining istibdod yo‘rig‘iga soldi. Butun mamlakatdagi hujjatchilik, idoraviy ish yuritish tamoyillari ham bu yo‘riq sirtmog‘idan chetda qolmadi. Mohiyatan o‘ta g‘irrom til siyosati tufayli milliy jumhuriyatlardagi tillarning ijtimoiy mavqeい pasayib bordi. O‘sha davrdagi o‘lka nufusining 37 foizini o‘zbeklar, 35 foizini qirg‘izlar (qozoqlar bilan birga), 17 foizini tojiklar va atigi 7 foizinigina ruslar tashkil etar edi. Bu hol hisobga olinsa, davlat tilini belgilashdagi mantiqning asossizligini aniq ko‘rish mumkin.

Mehnatni ilmiy tashkil qilish muammolariga bag‘ishlab 1921-yilda o‘tkazilgan I Butun Rossiya konferensiyam kun tartibiga kiritilgan boshqarish mehnatini ilmiy tashkil qilish va hujjatlar bilan ishslash masalasi, shuningdek, mamlakatda bu ishlarni muvofiklashtiruvchi va yo‘lga solib turuvchi maxsus

tashkilot tuzish masalasining asl mohiyati ham rus tilining ijtimoiy mavqeini yanada kuchaytirishdan iborat bo'lgan.

Sho'ro siyosati go'yoki o'zining "millatlar va tillarning tengligini ta'minlash" tamoyilini amalga oshirganday qilib ko'rsatish maqsadida respublikamizda idoraviy ish yuritishni o'zbekchallashtirish borasida ba'zi harakatlarni amalga oshirgan. 1923-yil 29-avgustda qabul qilingan Turkiston ASSR MIQning 130- qarori 14 ta moddadan iborat bo'lib, uning 1-moddasida: "Barcha dekret va qarorlar albatta rus, o'zbek, turkman hamda qirg'iz tillarida nashr etiladi" deb, qayd qilingan. Mazkur qarorga binoan respublika hududidagi barcha muassasalarining ish yuritishi 4 ta: rus, o'zbek, qirg'iz [qozoq] va turkman tillarida olib borilishi tartibi belgilandi. Shundan kelib chiqib, Yettisuv, Sirdaryo va Amudaryo viloyatlari – qirg'iz tilida, Farg'ona va Samarqandda o'zbek tilida va Turkman viloyatida esa turkman tilida ish yuritish tizimi joriy qilingan.

Keyinchalik O'zbekiston SSR inqilobiy qo'mitasi tomonidan aniqrog'i 1924-yilning 31-dekabrida 48-raqamli qarorni qabul qilgan. Qarorda hukumat, kooperativ, xo'jalik idoralari va boshqa muassasa, tashkilot va korxonalar doiralarida butun yozuv ishlarini faqat o'zbek tilida yurgizishga majbur etish vazifasi qo'yiladi. Buning uchun korxona, tashkilot va muassasalarda ishlarni o'zbek tilida yurgizish, yo'riqnomalar nashr etish, yerlik xalqdan amaliy ishchilar (ish yuritish bo'yicha) tayyorlash va boshqa tashkiliy ishlarni amalga oshirish lozimligi ko'rsatib o'tilgan. Bu qarorni joriy qilish yuzasidan, tabiiyki, muayyan ishlar amalga oshirila boshlagan, xususan, maxsus ish qog'ozlari tayyorlangan. Lekin, XX asrning 30-yillari 2-yarmidan boshlab o'zbek tiliga bo'lgan e'tibor rasman susayib borgan. O'sha murakkab tarixiy jarayon, xalklarning milliy o'zliklarini anglashlaridan hokimiyatning dahshatli qo'rquvi, bu qo'rquv hukmron bo'lgan qatag'on davrining achchiq samarasi bugun hech kimga sir emas.

Aytish lozimki, yaqin o'tmishimizda barmoq bilan sanarli miqdordagi hujjatlar o'zbek tilida yozilgan. Ammo bu hujjatlarning tilini sof o'zbekcha deb aytish ancha qiyin. Yaqin-yaqinlargacha "*Berildi ushbu spravkani falonchievga shul hakdakim, haqikatan ham bu o'rtoq shul joyda yashab turadi*" qabilidagi 20-yillarda rus tilidan

andoza olish tufayli paydo bo‘lgan, ya’ni shaklan o‘zbekcha ma’lumotnomalar yozib kelindi. Rus tilida mazkur matnning asli "Дана настоящая справка Иванову в том, что товарищ Иванов действительно проживает по такому-то адресу" tarzida bo‘lib, bu matn til nuqtai nazaridan benihoya tugal, lo‘nda va benuqson. Ammo o‘zbek tilida ayni so‘z tartibini saqlashning o‘ziyoq o‘zbek tilining tabiatiga mutlaqo zid. Rus tilidan andoza olish (aytish kerakki, bunday hol boshqa tillarda, masalan, tatar tilida ham kuzatiladi), biron-bir darajada bo‘lsin, o‘zini oqlay olmaydi. Umuman, o‘zbek hujjatchiligining boy va uzoq tariximizning ilk bosqichlaridan ibrido olgan an’anasi mavjud bo‘lsa-da, Oktyabr to‘ntarishidan keyin boshqa joylarda bo‘lgani kabi respublikamizda hujjatchilik bevosita o‘zbek tili negizida rivojlantirilmadi. Bu sohadagi asosiy yo‘nalish nusxa ko‘chirishdan iborat bo‘lib qoldi. Ana shuning va boshqa bir qancha omillarning oqibati natijasida o‘zbek tilining rasmiy ish uslubi deyarli takomil topmadi.

Hujjatshunos A.S.Golovach shunday ta’kidlaydi: "Boshqaruv sohasidagi kamchiliklarning asosiy sabablaridan biri ayni soha xodimlarining ko‘pchiligidan nazariy va amaliy tayyorgarlikning bo‘shligidir. Ular muassasa, tashkilot va korxonalarda qabul kilingan hujjatlar bilan ishlash yo‘riqlari, usullari va yo‘llari majmuini yetarli darajada bilmaydilar". Ba’zan hujjatlarga jiddiy munosabatda bo‘linmaydi, unga shunchaki bir qog‘ozbozlik, nokerak va ortiqcha bir ish sifatida qaraladi. Bu albatta, nomaqbul munosabatdir. Mukammal va oqilona tashkil etilgan hujjatchilik har qanday idoradagi ish yuritishning asosi ekanligini isbotlab o‘tirishning hojati yo‘q.

Barchaga ma’lumki, har qanday hujjat muayyan axborotni u yoki bu tarzda ifodalash uchun xizmat qiladi. Demak, har qanday hujjatdagi birlamchi va asosiy unsur bu tildir. Ayni paytda, hujjatchilikda til axborotni qayd etish vazifasinigana bajarib qolmasdan, boshqaruv faoliyatini izchil tartibga soluvchi vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham, avvalo, o‘z qadimiylaridan kelib chiqib va dunyo hujjatchiligidagi ilg‘or tajribalardan ijodiy foydalangan holda, hujjatchiligmizni takomillashtirish yo‘lidan bormoq kerak. Hujjatlarning sof o‘zbek tilidagi yagona andozalarini yaratish, ular bilan bog‘liq atamalarning bir

xilligiga erishish borasida ish olib borish bugungi kundagi dolzarb muammolardan sanaladi.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Turkiston ASSRda arxiv ishining tashkil etilishi.
2. Arxivlarni markazlashtirish. YADAF faoliyati.
3. Turkistonda arxivlarda ish yuritish.
4. Rossiya imperiyasi boshqaruvi davrida Turkistonda arxiv ishining holati haqida fikr yuriting?
5. Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi arxivi xususida gapiring?
6. YADAF faoliyati haqida nima bilasiz?
7. Turkiston ASSRda arxiv tizimining vujudga kelishi haqida fikr yuriting?
8. 1918-yil 1-iyunda qabul qilingan “RSFSRda arxiv ishini qayta qurish va markazlashtirish haqida”gi dekreti haqida nima bilasiz?
9. Arxiv ishi Markaziy boshqarmasi va uning asosiy bo‘lmalari haqida fikr yuriting?

### **Manba va adabiyotlar**

1. Алимов И., Эргашев Ф., Бўтаев А. Архившунослик. / Ўқув қўлланма. – Тошкент: Шарқ, 1997.
2. Алимов И.А. Архившунослик. / Ўқув қўлланма. – Андижон: Андижон, 2005.
3. Бобоқулов Б. Архив иши назарияси ва амалиёти. / Ўқув қўлланма. – Т., 2011.
4. Исакова М, Иофе В. Архившунослик. / Ўқув қўлланма. – Тошкент: Чўлпон, 2007.
5. Исакова М. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. – Тошкент: Университет, 2012.
6. Исакова М., Хайдаров М. Бошқарувни ахборот (хужжатлар) билан таъминлаш. / Ўқув қўлланма. – Т., 2012.
7. Antonina Burton. Archive Stories. (facts, fictions and the writing of history). – London.2005.

## **7- Mavzu: Sovet Ittifoqi davrida O‘zbekiston SSRda arxiv ishi (1925-1945yy.)**

**Reja:**

1. 1925–1941 yillarda O‘zbekiston SSRda arxiv ishining tashkil qilinishi.
2. Ikkinchi jahon urushi (1941–1945) yillarida O‘zbekistonda arxiv ishi.

### **1. 1925-1941 yillarda O‘zbekiston SSRda arxiv ishining tashkil qilinishi.**

O‘rta Osiyoda milliy – hududiy chegaralanish o‘tkazilishi natijasida O‘zbekiston SSR va boshqa respublikalar vujudga kela boshlagan. 1924-yil 5-dekabrda O‘zSSRning Inqilobiy Komiteti O‘zbekiston SSR tashkil topganini e’lon qilgan. Buning natijasida O‘zbekiston SSRning o‘z arxiv tashkilotlari vujudga keldi. Mavjud bo‘lgan arxiv hujjatlari yangi tuzilgan respublikalar o‘rtasida quyidagi tartibda bo‘linadigan bo‘ldi. O‘rta Osiyo va ittifoq ahamiyatiga ega bo‘lgan arxiv jamg‘armalari O‘rta Osiyo Markaziy arxivda – Toshkentda saqlanadigan bo‘ldi. Har bir respublikaga oid arxiv jamg‘armalari shu respublikalarga beriladigan bo‘ldi.

1924-yil 28-dekabrda maxsus qaror bilan O‘zSSR MIK huzurida O‘zSSR arxiv ishlari Markaziy boshqarmasi tashkil qilindi. O‘zbekiston hududida tashkil bo‘lgan barcha arxivlar, masalan, Farg‘ona, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm va boshqa viloyatlarda vujudga kelgan arxiv jamg‘armalari ham O‘rta Osiyo markaziy arxivni tuzilmaganligi uchun O‘zbekiston arxiv boshqarmasiga topshirildi. Chunki bu O‘rta Osiyo arxiv jamg‘armalari Toshkentda vujudga kelgan edi. Shunday qilib, O‘zSSR arxivida faqat respublika tarixiga oid hujjatlarga emas, balki butun O‘rta Osiyo tarixiga doir materiallar saqlana boshladi.

O‘zSSR MIK va XKSning 1925-yil 22-iyul qarori bilan “O‘zSSR arxiv ishlari Markaziy boshqarmasi to‘g‘risida”gi nizom tasdiqlandi. Bu nizomga ko‘ra respublikada Yagona davlat arxiv jamg‘armasi (YADAJ) tashkil qilindi. Bu jamg‘armaga hukumat, savdo, sanoat, kooperativ, kasaba uyushmalari tashkilotlari arxivlari, shuningdek, diniy va shaxsiy arxivlar kiritiladi, deb ko‘rsatildi.

1925–1930-yillarda arxivlarda ishlaydigan xodimlar soni qisqartirildi. Chunki, bu yillarda SSSRda, shuningdek, O‘zSSRda ham industrlashtirish siyosati o‘tkazilib, butun mablag‘ qat’iy tejalgan holda industrlashtirishga sarflangan edi.

Shu sababli arxiv boshqarmasida 1924-yildagi 46 nafar xodim o‘rniga 1925–1930-yillari bor-yo‘g‘i 17 kishi ishladi. Bu hol arxiv tashkilotlari faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Arxiv hujjatlarini tartibga solish ishlari, ulardan foydalanishni tashkil etish sur’ati ancha pasaydi.

Qiyinchiliklarga qaramay arxiv tashkilotlari xodimlari hujjatlarni saqlab qolishni o‘zlarining muhim vazifalari deb bildilar. Turkiston, Buxoro, Xorazm respublikalarining tugatilishi munosabati bilan bu respublikalar davlat idoralari arxiv materiallarini qabul qilish, ularni respublika poytaxti Samarqandga tashib borish ishlarini amalga oshirdilar. Faqat 1925-yil yanvar oyining o‘zida Markaziy arxivga 50 mingga yaqin saqlov birligidagi arxiv materiallari qabul qilindi.

Arxiv hujjatlarini Markaziy arxivga yig‘ish ishlari keyingi yillarda ham davom etdi. 1925–1929-yillarda 134 arxiv jamg‘armasi qabul qilindi. 1929-yili Markaziy arxivda 863 arxiv jamg‘armasi va 764 ming hujjat jamlangani edi. Viloyatlar arxivlarida 924 arxiv jamg‘armasi va 994 ming hujjat saqlanardi. Shuni ta’kidlash kerakki, arxiv xodimlari kam bo‘lganligi sababli davlat arxivlaridagi hujjatlarning yarmidan ko‘pi tartibga solinmagan, bayon qilinmagan edi. Tabiiyki, bunday holda ulardan foydalanishning ham imkonи bo‘lmagan. Shuning uchun davlat tashkilotlarining o‘z arxivlarini tartibga solib, ro‘yxat tuzib ularni davlat arxivlariga (Markaziy va viloyat arxivlariga) topshirish talabi qo‘yildi.

1929-yil may oyida O‘zSSR MIK Prezidumi O‘zSSR arxiv ishlari Markaziy boshqarmasi ma’ruzasini eshitdi. Qabul qilingan qarorda shu uqtirildiki, Markaziy arxiv tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar uning oldiga ilmiy tashkilot sifatida qo‘yilgan talablarga javob bermaydi. Ma’ruzada Markaziy arxiv o‘z faoliyatiga ilmiy-tadqiqot ishlariga, hujjatlarni e’lon qilishga, maxsus hujjatlar to‘plamlari tayyorlashga alohida e’tibor berishi kerak, deb ko‘rsatib o‘tildi.

1930-yil 9-aprelda O‘zSSR MIK Prezidumi qarori bilan O‘zSSR arxiv ishlari boshqarmasi O‘zSSR Markaziy arxiv boshqarmasi deb o‘zgartirildi. Sovet davri arxivlarining ko‘payib borishi bilan SSSR MIK va XKS qarori bilan 1929-aprelda Davlat arxiv jamg‘armasi kelib chiqishi bo‘yicha inqilobgacha va sovet davri arxiv

jamg‘armalariga hamda ahamiyati bo‘yicha markaziy, mahalliy arxiv jamg‘armalariga bo‘lindi.

1931-yil 20-mayda O‘zbekiston SSR MIK, O‘zSSR Markaziy arxiv boshqarmasi va uning mahalliy idoralari to‘g‘risidagi nizom haqida qaror qabul qilindi. Shu bilan birga O‘zbekiston SSR Markaziy arxiv boshqarmasi huzurida O‘zSSR Oktyabr inqilobi Markaziy davlat arxivi va O‘zSSR Markaziy tarix arxivi tashkil qilindi. Farg‘ona va Samarqand shaharlarida ularning bo‘limlari tashkil etildi. Shahar va tumanlarda zarur hollarda tuman va shahar davlat arxivlari tashkil qilishga qaror qilindi.

1934-yil iyulda SSSR MIK qarori bilan O‘zbekiston Markaziy Davlat arxiv boshqarmasi tarkibida O‘zbekiston harbiy arxivi tashkil qilindi. 1945-yil oxirlarida bu arxiv tugatildi va barcha arxiv jamg‘armalari Moskvadagi SSSR Qizil Armiya Markaziy davlat arxiviga topshirildi. O‘zSSR tarkibida Qoraqalpog‘iston ASSRning tashkil bo‘lishi munosabati bilan 1934-yil 11-martda Qoraqalpog‘iston ASSR Markaziy arxiv boshqarmasi tuzildi.

XX asrning 30-yillarida respublika arxiv tashkilotlari kadrlar bilan ham ancha mustahkamlandi. 1929-yili arxiv tashkilotlarida hammasi bo‘lib 34 ta xodim ishlagan bo‘lsa, 1941-yilga kelib ularning soni 111 taga yetdi. Shuningdek, arxiv xodimlarining malakasini oshirishga ham e’tibor berildi. 1932-1941 yillarda Moskva davlat tarix-arxiv instituti qoshidagi malaka oshirish kursiga 18 kishi yuborildi. Toshkentda Markaziy arxiv boshqarmasi qoshidagi malaka oshirish kursida shahar, tuman, viloyat arxivlari xodimlari muttasil malakasini oshirib bordilar.

Arxiv xodimlarining asosiy vazifalaridan biri tashkilotlarda hujjatlarni davlat arxivlariga qabul qilish, ularni tartibga solish va ilm-fan uchun ulardan foydalanishni tashkil qilish edi. 1936 yili respublika arxivlarida 1534 ta arxiv fondlari va 1 mln 001 ming 680 saqlov birligida hujjatlar saqlanardi.

1941 yilga kelib fondlar soni 4116 taga etdi, hujjatlar esa, 1 mln 580 ming 450 saqlov birligidan oshib ketdi. Bu hujjatlarning yarmidan ko‘pi tartibga solingan bo‘lib, ulardan foydalanish mushkul edi.

Arxiv tashkilotlari XX asr 30-yillarida arxiv hujjatlaridan ilmiy maqsadda foydalanishga alohida e'tibor berdilar. 1935-1936-yillarda 200 dan ortiq maqola matbuotda e'lon qilindi. 1932-yili «O'rta Osiyoda 1916-yil qo'zg'oloni» deb nomlangan hujjatlar to'plami e'lon qilindi. 1933-1934-yillari «Toshkent Sovetining 1917-yilgi protokollari», «O'rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishi» nomli hujjatlar to'plamlari tayyorlandi. Suningdek, har yili arxiv hujjatlarining ko'rgazmalari tashkil qilinib, namoyish etildi. Markaziy arxiv o'qish xonasida har yili yuzlab olimlar ilmiy ishlari uchun hujjatlardan keng foydalandilar.

XX asr 30-yillari ikkinchi yarmida SSSRda arxivlar Ichki ishlar xalq komissarligi tasarrufiga o'tkazildi. Shu bilan birga arxivlarni "xalq dushmanlarini" fosh etishda faol ishtirok etishi boshlandi. 1938-yil aprelda SSSR Oliy Soveti qarori asosida Markaziy arxiv boshqarmasining nomi SSSR NKVD Bosh arxiv boshqarmasi deb o'zgartirildi. Huddi shunaqa o'zgarishlar hamma milliy respublikalarda amalga oshirildi. Masalan, O'zbekiston SSR Oliy Sovet Prezidumining 30-dekabr 1938 yilgi qarori va O'zSSR NKVD 17-yanvar 1939-yilgi buyrug'i bilan butun respublika arxiv tizimi 1-iyun 1939-yildan boshlab O'zSSR NKVD tasarrufiga o'tdi. Bu jarayon o'z o'rnida mamlakatda keyinchalik ma'muriy-buyruqbozlikning kuchayishiga olib keldi.

Respublika arxiv tashkilotlarining O'zSSR NKVD tizimiga muvofiqlashtirish keyinchalik ularning mavqeini tushirish va mustaqilligini yo'qolishi bilan birgalikda olib borildi. Shuningdek, 1940-yil 21-iyulda O'zSSR XKS qaroriga asosan, respublika arxivi O'zSSR NKVD Arxiv bo'limi, mahalliy arxiv boshqarmalari – ichki ishlar organlarining hududiy arxiv bo'limlari sifatida qayta tashkil qilindi.

Xorijlik arxivshunos olim A.Burton XX asr 30-yillarida O'zbekisonda qatag'on qilingan insonlar haqidagi arxiv hujjatlari haqida to'xtalib quyidagilarni keltirib o'tgan: "2002 yil 31 avgustda tashkil etilgan Qatag'on qurbanlari memorial muzeyi arxiv materiallarini joylashtirilishi, sovet davrining qatag'onligini ko'rsatuvchi ko'rgazma bo'ldi. Toshkent shahri markazida shahidlar yodgorligi majmuiga qo'shimcha tarzda qurilgan muzeyni prezident I. Karimovning rasmiy tashrifi ochib berdi. I. Karimov XIX asrning o'rtalaridan beri to'plangan Rossiya va

sovet hukmronligidagi ko‘rgazma ashyolarini ko‘zdan kechirdi. Markaziy Osiyodagi ko‘plab qo‘zg‘olonlarning chor hukumati tomonidan bostirilishi arxiv hujjatlari hamda rasmlarda yorqin aks ettirilgan. 1930-yillarda yuz minglab O‘rta Osiyoliklarning o‘limiga sabab bo‘lgan Stalin ta’qiblari asosan hujjatlarda ifodalangan. Davlat Xavfsizligi Komitetining arxividan olingan diagramalar qulq qilingan o‘zbek dehqonlaridan olinggan ot ulov va boshqa buyumlarning sonini batafsil aks ettiradi. 1930-yillar oxiridagi “tozalashlar” (chistka) davridagi xibsga olingan oila a’zolarining zid hukmiga noroziliklari, ijro farmonlari imzolangan tilxatlar ko‘rgazmaning yana bir qismi hisoblanadi. Mustaqillikka o‘tishni ko‘rsatish uchun olib borilgan say-harakatlarga soxta qamoqxonada tinka madori qurigan o‘zbek yigitini so‘roq qilayotgan rus ofitserining maketlari ham ko‘rgazmaga kiritilgan. Ko‘rgazmani ko‘zdan kechirib chiqqan I. Karimov so‘zga chiqdi: “Mustamlaka siyosati xo‘rlik va azob uqubat olib keldi. Bizning xo‘rligimiz ko‘plab yillar davomida og‘ir qiyinchiliklarni boshidan kechirdi. Xalqimiz o‘z millati tarixini hurmat qilib kelgan. Bu davrda xalqimizning minglab aybsiz o‘g‘lonlari qurban bo‘ldilar. Bu esa xalq o‘zligini tan olishdagi asosiy sabablardan biridir” (Antonina Burton. Archive Stories.(facts, fictions and the writing of history). – London.2005.– P.47.).

1999-yil 2-martdagi O‘zbekiston Respublikasi prezidenti qaroriga asosan tashkil etilgan “shahidlar yodgorligi majmuasi” va uning Islom Karimov tomonidan qo‘llab quvvatlanishi nafaqat mahalliy balki g‘arblik kuzatuvchilarni ham hayratga soldi. Mustaqillikkacha bo‘lgan bir necha yil mobaynida o‘zbek qaxramonlarida Rossiya afsonalariga (cho‘pchaklari) nisbatan shubha paydo bo‘ldi. I. Karimov Kommunistik Partiya a’zosidan 1986-yilda O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining 1-sekretari lavozimiga ko‘tarildi. 1991-yil avgust oyida Sovet Ittifoqi qulagandan so‘ng mustaqillikni e’lon qilgan liderlardan hisoblandi va Kommunistik partiyani Xalq Demokratik partiyasi deya qayta nomlab, millatparvar siyosatida hokimiyatni boshqarishni davom etdi. Shunga qaramasdan 1993-yilda u oldingi tuzumni ozgina bo‘lsada eslab shunday degan edi: “Sovet tarixining yetmish to‘rt yili izsiz yo‘q bo‘lib ketdi deyuvchilar xato qiladilar. Bu vaqt davomida

qadriyatlar shakllandi”(Antonina Burton. Archive Stories.(facts, fictions and the writing of history). – London.2005.-P.47).

**2. Ikkinchı jahon urushi (1941-1945) yillarida O‘zbekistonda arxiv ishi.** 1941-yili yozidan boshlab SSSR qatorida O‘zbekiston SSR ham ikkinchi jahon urushi girdobiga tortildi. Urush tufayli O‘zbekistonga frontga yaqin hududlardan zavod-fabrikalar bilan bir qatorda oliy o‘quv yurtlari ham evakuatsiya qilindi. Ikkinchı jahon urushi munosabati bilan Toshkentga juda ko‘p olimlar, sharqshunoslar, tarixchi, tilshunoslar va boshqalar kelishdi. Natijada Sovet Ittifoqi va O‘zbekiston SSR olimlari o‘rtasida juda yaxshi ilmiy aloqa o‘rnatildi. 1940-yil yanvar oyida sobiq SSSR Fanlar Akademiyasining O‘zbekistondagi filiali ochildi. Uning tarkibida Tilshunoslik instituti, adabiyot, tarix va ijtimoiy yo‘nalishlarni yorituvchi sohalar shu jumladan, arxivshunoslik sohasi ham yo‘lga qo‘yildi.

Ikkinchı jahon urushi yillari O‘zbekiston SSRda arxiv ishi tarixida eng og‘ir davrlardan biri bo‘ldi. Adolatsiz urushning boshlanishi respublikamiz mehnatkashlarining dushmanga nafratini va Vatanga mehrini, vatanparvarligini kuchaytirdi. Bir necha arxivchilar ixtiyoriy ravishda frontga jo‘nab ketdilar. Arxiv tashkilotlari xodimlari dushmani tezda tor-mor etishga, g‘alabaga erishishga qaratilgan ijtimoiy tadbirlarda faol ishtirok etdilar. Toshkent shahar arxiv tashkilotlari jamoalari mudofaa jamg‘armasiga har oy o‘z maoshlarining 2 foizini o‘tkazib turdilar. Arxivchilar evakuatsiya qilingan gospital, bolalar uylarini otaliqqa oldilar. Ularga moddiy va ma’naviy yordam ko‘rsatib bordilar. Bayramlarda sovg‘alar tashkil qilib, jangchilarga jo‘natib turdilar.

1941-yilda arxiv idoralarida 98 ta tashkilotning arxivlari tartibga keltirildi. Shu yili O‘zSSR Markaziy arxiv va Markaziy harbiy davlat arxivisi 35 ming saqlov birligidagi hujjatlarni qabul qildi. 1942 yilda yuqorida tilga olingan arxiv va Toshkent viloyati davlat arxivlari tomonidan 65 mingga yaqin saqlov birligidagi hujjatlar qabul qilindi. O‘sha yillardagi arxiv sohasida olib borilgan ishlarning umumiy ma’lumoti quyidagicha edi. Ya’ni, 1940-yil respublika arxivlarida 1.263.786, 1942-yilda esa 1.710.177 saqlov birligiga oshdi. Boshqacha qilib aytganda ikki yilda arxiv saqlanmalari 0,5 mlnga yaqin hujjatlar bilan to‘ldirilgan.

Lekin keyingi yillarda hujjatlarni davlat arxiviga qabul qilish kamaydi. Arxivlarda hujjatlarni qabul qilish va saqlashga joy yetishmas edi. 1944-1945-yillarda davlat arxivlariga bor-yo‘g‘i 48 ming saqlov birligi qabul qilindi.

1942-yil noyabrda Toshkent shahrida O‘rta Osiyo va Qozog‘iston respublikalari arxiv xodimlarining kengashi bo‘lib o‘tdi. Qabul qilingan qarorda bu respublikalar arxiv idoralarining hujjatlarni ehtiyot qilishni ta’minlash, tartibga solish va ulardan urush manfaatlari yo‘lida foydalanishda katta yutuqlarga erishgani etirof etildi. Shu bilan birga O‘zbekiston SSR arxiv idoralari ishida ayrim kamchiliklar mavjudligi ko‘rsatib o‘tildi. Shuningdek, tuman davlat arxivlari inqirozga uchraganligi, zaiflashganligi, markaziy arxivlarda ishchilarning, arxivchilarning etishmasligi, O‘zSSRda kino-foto-fonohujjatlar davlat arxivi tashkil etilmaganligi ko‘rsatib o‘tildi. Kengash arxiv hujjatlarini ehtiyot qilish choralarini ko‘rish, ilmiy va tashviqot maqsadlariga hujjatlardan keng foydalanishni tashkil etish zarurligi ta’kidlandi.

1941-yili O‘zSSR tarkibida Andijon, Namangan, Surxandaryo va keyinroq, 1943-yili Qashqadaryo viloyatlari tashkil etilishi munosabati bilan viloyat Ichki Ishlar Xalq Komissarligi (IIXK) boshqarmasida arxiv bo‘linmalari va viloyat davlat arxivlari tashkil qilindi.

Urush davrining qiyinchiliklariga qaramay, respublika hukumati arxiv ishini yaxshilash sohasida ancha ishlarni amalga oshirdi. O‘zbekiston SSR XKSning 1943-yil 18-fevral qarori bilan O‘zSSR kino-foto-fonohujjatlar Markaziy arxivi tashkil qilindi. Yangi tashkil qilingan kino-foto-fonohujjatlar Markaziy davlat arxivi 1944–1945-yillarda 15 mingdan ortiq fotohujjatlarni qabul qildi.

Urush sharoitida davlat arxivlari tartibga solinmagan arxivlarni, asosan frontga jo‘natilgan harbiy qismlar arxivlarini qabul qilishga majbur bo‘ldilar. Davlat arxivlarining asosiy vazifalaridan biri tartibga solinmagan arxiv jamg‘armalarini tartibga solish edi. Respublika davlat arxivlarida 1941-yili 100 ming, 1944-1945-yillarda esa 136 ming saqlov birligidagi hujjat tartibga solindi.

Arxiv hujjatlaridan foydalanish sohasida ham bir qator ishlarni qilindi. Xalq xo‘jaligi maqsadida foydalanish uchun ko‘p hujjatlar topilib, tegishli tashkilotlarga

yuborildi. Bu hujjatlardan foydalanish tashkilotlarga ancha iqtisodiy samara keltirdi. Arxiv tashkilotlari “Frontga xatlar” va boshqa bir necha hujjatlar to‘plamlarini tayyorlashga kirishdilar. Arxivchilar tomonidan arxiv hujjatlari asosida yozilgan maqolalar gazeta va jurnallarda e’lon qilinib turildi. Arxiv o‘qish xonalarida bir necha yuzlab tadqiqotchilar ilmish ishlari uchun arxiv hujjatlaridan foydalandilar.

Shunday qilib, arxivchilar urush davrida ham faol mehnat qilishdi. Arxiv hujjatlarini ehtiyoj qilib saqlash, hujjatlarni qabul qilish, tartibga solish, ulardan foydalanishni tashkil etish sohasida samarali ish olib borildi.

### **Savol va topshiriqlar**

- 1.O‘zbekiston SSRda arxiv ishining tashkil etilishi.
2. Arxivlarni markazlashtirish. YADAJ faoliyati.
3. O‘zbekiston SSR arxivlarida ish yuritish.
4. Sovet ittifoqi boshqaruvi davrida O‘zbekistonda arxiv ishining holati haqida fikr yuriting.
5. O‘zSSR kino-foto-fonohujjatlar Markaziy arxivi tashkil qilinishi xususida gapiring?
6. YADAJ faoliyati haqida nima bilasiz?
7. O‘zbekiston SSRda arxiv tizimining vujudga kelishi haqida fikr yuriting?
8. Ikkinchи jahon urushi (1941-1945) yillarida O‘zbekistonda arxiv ishining holati haqida nima bilasiz?
9. 1940-yil yanvar oyida sobiq SSSR Fanlar Akademiyasining O‘zbekistondagi filiali ochilishi va uning faoliyati haqida fikr yuriting?

### **Manba va adabiyotlar**

1. Antonina Burton. Archive Stories. (facts, fictions and the writing of history). – London.2005.
2. Алимов И., Эргашев Ф., Бўтаев А. Архившунослик. / Ўқув қўлланма. – Тошкент: Шарқ, 1997.
3. Алимов И.А. Архившунослик. / Ўқув қўлланма. – Андижон: Андижон, 2005.

4. Бобоқулов Б. Архив иши назарияси ва амалиёти. / Ўқув қўлланма. – Т., 2011.
5. Исакова М, Иофе В. Архившунослик. / Ўқув қўлланма. – Тошкент: Чўлпон, 2007.
6. Исакова М. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. – Тошкент: Университет, 2012.
7. Исакова М., Хайдаров М. Бошқарувни ахборот (хужжатлар) билан таъминлаш. / Ўқув қўлланма. – Т., 2012.

### **8-Mavzu: O‘zbekiston SSRda arxiv ishining holati (1946-1991yy.)**

**Reja:**

1. Ikkinchi jahon urushdan keyingi yillarda O‘zbekiston SSRda arxiv ishi.
2. O‘zbekiston SSRda arxivlarning markazlashuvi.

**1. Ikkinchi jahon urushdan keyingi yillarda O‘zbekiston SSRda arxiv ishi.** Ikkinchi jahon urushdan keyingi yillarda arxivchilar oldida turgan muhim vazifa arxiv materiallarining saqlanish holatini yaxshilash edi. Hujjatlardan foydalanishni yaxshilash uchun ko‘rsatgich (putevoditel)lar, ilmiy ro‘yxatlar, kataloglar va boshqa axborotnomalar tayyorlash zarur edi. Bu ishlarni amalga oshirishdan avval arxivchilar davlat arxivlarida saqlanayotgan tartibsiz arxiv fondlarini tartibga soldilar. 1946–1951-yillarida 280 mingga yaqin saqlov birligi tartibga solindi, 150 ming keraksiz, ahamiyatsiz yig‘majildlar yo‘q qilishga ajratildi. Shunday qilib, davlat arxivlaridagi hujjatlarning barchasi tartibga solindi. Bu esa, arxiv hujjatlaridan foydalanishni osonlashtiradigan ilmiy axborotnomalar tuzish ishiga kirishishga imkon berdi.

Urushdan keyingi yillarda O‘zSSR Markaziy davlat tarix arxivining ko‘rsatgichi tayyorlandi va O‘zSSR Oktyabr inqilobi markaziy davlat arxivi ko‘rsatgichi ustida ish boshlandi. Bundan tashqari, 10 dan ortiq arxiv fondlarining sharhi – axborotnomasi tuzildi, tematik sharhlar yozildi. Ayrim muhim arxiv

fondlarining ro‘yxatlari nashr qilish uchun tayyorlangan edi, lekin e’lon qilinmay qoldi.

Xorijlik arxivshunos olim A.Burton O‘zbekiston SSRda ikkinchi jahon urushidan keyingi arxiv hujjatlariga bo‘lgan munosabat haqida fikr yuritar ekan jumladan shunday degan edi: “Tarixchilar 1930-yillarda oxir oqibatda milliy bo‘linishlarni emas, ijtimoiy tabaqalanishni aks ettiradigan hujjatlarni izlashga kirishdilar. 1937-yilgacha Stalin Rossiya imperiyasining yangi talqinini shakllantirdi. Tarixchilar uni jabr sitam etkazuvchi hukumat emas, balki qattiqxo‘l hokimiyat deb ta’riflay boshladilar. Go‘yoki Evropaga qaraganda imperianing ichki sinfi Rossiya hukumronligi ostidagi qatlam holati ancha yaxshilangandek edi. Urushdan keyingi davrda ham sovet tarixchilari tarixni qo‘llashda davom etdilar. 1953-yilda Rossiyaning tarixiy adabiyotlarida "bosib olish" so‘zining o‘rniga qo‘llaniladigan "birlashtirish" terminining ahamiyatli tomonlarini muhokama qilina boshlandi. Bu kabi ta’riflar jamoatchilikning ko‘ngliga yo‘l topishga imkon yaratdi. Sovet Ittifoqi qardosh xalqlari deb nomlanuvchi o‘zbek kommunistik partiyasining 1-sekretari 1956-yildagi nutqi chor hukumati bosqiniga qarshi o‘zbek-rus xalqlarining ittifoqqa kirishi haqida edi. Pravdo Vostoka deb ataluvchi partiya gazetasida mazkur mavzu xususida fikr bildirilgan. Bunda ushbu mavzu yuzasidan turli konferensiyalarning o’kazish kerakligi ta’kidlangan. Ammo bu masala mahalliy tarixchilarda noqulayliklar tug‘dirganini ko‘rsatdi. Ma’lum bir o‘zbek tarixchilari iqtisodiy o‘sish izchil rivojlanayotgan masalalar xususida va Rossiya tomonidan olib borilayotgan ba’zi bir ishlarni ochiqdan-ochiq qoraladilar. Ular mahalliy aholini oyoq osti qilishga qarshi ochiqdan-ochiq so‘zga chiqdilar. Arxivlarda saqlanayotgan ularning nutqi bugungi taqiqotchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi (Antonina Burton. Archive Stories.(facts, fictions and the writing of history). –London.2005.– P.51.).

Urushdan keyingi yillarda fotohujjatlar uchun ham tematik va ismlar kataloglari tashkil qilindi. Bu qilingan ishlar davlat arxivlarida saqlanayotgan arxiv hujjatlari haqida tadqiqotchilarga to‘laroq axborot olish va ulardan kengroq foydalanish uchun imkoniyat ochib berdi.

Arxiv tashkilotlarining muhim ishlaridan yana biri idoralar arxivlarini tartibga solish va hujjatlarni ehtiyoq qilib saqlashni tashkil etish edi. Bu ishda O‘zSSR Ministrlar Sovetining 1949-yil 13-yanvardagi davlat va idoraviy arxivlar ishini yaxshilash to‘g‘risidagi qarori muhim ahamiyat kasb etdi. Bu qaror e’lon qilingandan keyin ko‘plab tashkilotlar arxivlari uchun maxsus binolar ajratdilar, arxivlarini tartibga soldilar. 1951-1954-yillari Toshkentda 378 tashkilot arxivlari tartibga solindi.

Idoralar arxiv ishlarini yaxshilash uchun bir necha metodik qo‘llanma tayyorlandi. Masalan, «Tashkilotlarda arxiv hujjatlarining ekspertizasini o‘tkazish uchun esdalik», «Idoralar arxivlari ishini nazorat qilish uchun ko‘rsatmalar», «Ministrliklar arxivlari ishini rejalashtirish va hisobot qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar» shular jumlasidandir.

1963-yil 14-oktyabrda O‘zSSR Ministrlar Soveti «O‘zSSRda arxiv ishini yaxshilash tadbirlari to‘g‘risida» qaror qabul qildi. Bu qaror idoraviy arxivlar, ya’ni tashkilotlar arxivlari ishini yaxshilashda muhim rol o‘ynadi. Unga ko‘ra idora arxivlarini yaqin 2-3 yil ichida tartibga solishni tugatish, doimiy saqlanadigan hujjatlarni davlat arxivlariga topshirish, arxivlarning o‘zini esa, hujjatlarini beshikast saqlashga yaraydigan binolarga joylashtirish va ularni malakali kadrlar bilan ta’minalash keng yo‘lga qo‘yildi.

Davlat arxivlari tashkilotlar arxivlari ishini nazorat qilishni kuchaytirdilar. Shu bilan birga, ularga yordam berishga katta e’tibor qaratdilar. Bu ishlar natijasida respublikada 1964-yili 1809 tashkilotda, 1965-yili 1759 tashkilotda arxiv hujjatlari tartibga solindi.

Idoraviy arxivlar bilan bir qatorda tashkilotlarda ish yuritish ishini yaxshilashga ham katta e’tibor berildi. Davlat arxivlari idoralarda ish yuritishni yaxshilashga yaqindan yordam berishdi. 1959-yili Toshkent shahrida birinchi bor ish yuritish kursi ochilib, kotiba va ish yurituvchilar malakasi oshirildi. Keyingi yillarda bunday tadbirlar doimiy amalga oshirilib turildi. Bu masalaga oid har xil qo‘llanmalar, ko‘rsatmalar ishlab chiqildi. Bu qo‘llanmalar idoraviy arxivlar ishini va ish yuritishini yaxshilashga katta hissa qo‘shdi.

Davlat arxivlari uchun maxsus binolar ham qurildi. 1964-yili O‘zbekiston SSR Markaziy Davlat arxiviga yangi bino qurilib foydalanishga topshirildi. 1970-yili O‘zSSR kino-foto-fonohujjatlar MDAga maxsus bino qurib berildi. Lekin viloyatlarda ko‘p arxivlar eski binolarda faoliyat yuritib kelar, ularda hujjatlarni saqlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmagan edi.

Davlat arxivlari hujjatlarni qabul qilish sohasida ham anchagina ishlar qildi. 1946-1955-yillarda 600 mingdan ko‘proq saqlov birligidagi hujjatlar vazirliklar, idoralar arxivlaridan qabul qilib olindi. Bu sohada joylarda ham ancha tadbirlar o‘tkazildi. 1947-yili respublikada 118 tuman va 5 ta shahar arxivida 137 ming saqlov birligida yig‘majildar saqlangan bo‘lsa, 1955-yili 8 shahar va 138 tuman davlat arxivlarida 642 ming saqlov birligida hujjatlar saqlangan.

1946–1955-yillarda 5 ta hujjatlar to‘plami nashr qilindi. «Frontdan xatlar» (1949-yil), «Afg‘onistonda Angliya agressiyasi» (1889-1917-yillar) ana shunday hujjatlar to‘plamidir.

Arxiv hujjatlaridan ilmiy maqsadda foydalanishni yaxshilashda O‘zSSR Ministrlar Sovetining 1956-yil 31-martdagи «O‘zSSR Ministrliklari va idoralar arxiv materiallarini saqlash usullarini tartibga solish va ulardan foydalanishni yaxshilash tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori muhim rol o‘ynadi. Respublika hukumati arxiv tashkilotlariga hujjatlardan foydalanishni kengaytirish, hujjatli to‘plamlar, ma’lumotnomalar, arxiv fondlari axborotnomalarini tayyorlashni va «O‘zdavlatnashr»ga ularni nashr qilishni topshirdi.

Bu qaror arxiv tashkilotlarining ilmiy ishlarni, hujjatlarni e’lon qilish borasidagi ishlarini jonlantirib yubordi. Bir necha yil ichida 20 ga yaqin hujjatlar to‘plamlari nashr qilindi. Shu jumladan Oktyabr to‘ntarishiga oid 2 ta, "bosmachilar" harakatiga doir 2 ta, kollektivlashtirishga oid 4 ta, «O‘rta Osiyoni tadqiq qilgan rus olimlari» nomli seriyada 4 ta to‘plam tayyorlanib nashr qilindi.

XX asr 60-yillaridan boshlab mavzular bo‘yicha arxiv hujjatlarining kataloglari tayyorlana boshlandi. 1963-1967-yillarda 50 mingdan ortiq kartochka yozilgan edi. Markaziy davlat arxivida ilmiy ma’lumotnomma apparati bo‘limi tashkil qilinib, bu bo‘lim xodimlari MDAning tizim (sistematik) katalogini tayyorlashga

kirishdilar. Oldin tuzilgan tematik kartotekalar kartochkalari sistematik katalogiga qo'shildi. Shuningdek, fotohujjatlarga ham 50 ming kartochka tuzildi. Bu kataloglar hozirgi kunga qadar to'ldirib borilmoqda va tadqiqotchilarga hujjatlar qidirish ishlarini engillashtirmoqda.

1960-yili O'zSSR MDA sovet fondlari ko'rsatgichi (putevoditel) nashr qilindi. 1964-yili O'zSSR kino-foto-fonohujjatlar MDA ko'rsatgichi e'lon qilindi. Bu ko'rsatgichlar tadqiqotchilarning arxiv materiallaridan foydalanishida juda katta qulayliklar yaratdi.

**2. O'zbekiston SSRda arxivlarning markazlashuvi.** 50-yillarning oxiri va 60-yillar ichida arxiv ishini yaxshilash maqsadida davlat arxivlari va arxiv idoralarida qator tashkiliy qayta qurish ishlari amalga oshirildi. 1958-yili O'zSSR Oktyabr inqilobi Markaziy davlat arxivi O'zSSR Markaziy davlat tarix arxivi bilan birlashtirilib, yagona O'zSSR Markaziy davlat arxivi tashkil qilindi. Bir yildan keyin bu arxivga O'zSSR kino-foto-fonohujjatlar markaziy davlat arxivi ham qo'shildi.

Shunday qilib, 50-yillar oxiriga borib respublikada arxiv tashkilotlarining tartibli tizimi vujudga keldi. Bu tizim ilmiy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan barcha hujjatlarni ehtiyyot qilnb saqlash va ulardan foydalanishni tashkil qilish imkoniyatiga ega bo'ldi.

1960-yillar boshida arxivlar taraqqiyotida yangi davr boshlandi. Arxiv tashkilotlarini bevosita O'zbekiston Ministrlar Sovetiga bo'ysundirilishi respublikada arxiv ishini rivojlanishiga yordam qilgan muhim omil bo'ldi. Ministrlar Sovetining 1961-yil 9-maydagi qarori bilan O'zbekiston Ichki ishlari ministrligining arxiv boshqarmasi O'zbekiston Ministrlar Soveti huzuridagi Arxiv boshqarmasi qilib qayta tashkil qilindi. Shu qaror asosida mahalliy arxiv tashkilotlari Qoraqalpog'iston ASSR Ministrlar Soveti va viloyatlar ijroiya qo'mitalari arxiv bo'limlari qilib qayta tashkil qilindi. Arxiv tashkilotlarini Ministrlar Soveti va viloyatlar ijroiya qo'mitalari ixtiyoriga o'tkazilishi ularni davlat apparati tizimidagi rolini orttirdi va arxiv ishi taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi.

Arxiv tashkilotlari respublika davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan teng huquqli bo'lib qoldi va ular arxiv ishi hamda ish yuritishni tashkil qilish

faoliyatini nazorat qilish huquqiga ega bo‘ldi. Arxiv tashkilotlarining asosiy vazifasi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy, amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan hujjatlar saqlanishini ta’minlash hisoblanadi. Ular tarixiy hujjatlarni davlat saqlovida tanlab olish, saqlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. SHuning uchun arxiv tashkilotlari hujjatlar qimmatdorligini ekspertiza qilishga va ular bilan davlat arxivlarini butlashga katta e’tibor beradi.

1960-1961-yillarda Ittifoq Bosh arxiv boshqarmasi ko‘rsatmasiga binoan respublikada arxivlarni butlash tamoyili tubdan qayta ko‘rib chiqildi. O‘z faoliyati natijasida ilmiy ahamiyatga ega hujjatlar vujudga kelmaydigan mayda, yordamchi va kommunal maishiy tashkilotlar (sartaroshxona, atele, oshxona, apteka, do‘konlar, hammomlar, ta’mirlash ustaxonalari, avtobazalar, mehmonxonalar va boshqalar)dan davlat saqlovida hujjatlar qabul qilish to‘xtatildi. Buning natijasida arxiv tashkilotlari o‘z faoliyatida asosiy e’tiborni hujjatlar saqlanishini nazorat qilishga, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, muhim sanoat, qurilish hamda shunga o‘xhash korxonalar hujjatlarining qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Respublika davlat arxivlari hujjatlari qabul qilinadigan va qabul qilinmaydigan tashkilotlar, muassasalar, korxonalar ro‘yxatlarini tuzdilar va davlat arxivlari hujjatlarni qabul qilishda mana shu ro‘yxatga amal qiladigan bo‘ldilar.

Arxivlarni butlash, ekspertiza qilish, idoraviy arxivlarni nazorat etish sohalaridagi qayta qurish ishlariga oid respublika Ministrlar Soveti xuzuridagi arxiv boshqarmasi qator metodik qo‘llanmalar tayyorladi. Arxivlarni butlash masalasi arxiv boshqarmasining ilmiy kengashida muhokama qilindi va uning qarori davlat arxivlariga ijro etish uchun yuborildi.

1961 yildan boshlab davlat arxivlarining ekspert tekshiruv komissiya (ETK) lari vazifalari tubdan o‘zgardi. ETKning ekspertiza masalasida asosiy vazifasi davlat arxivlarini nazorat qiladigan tashkilotlar topshirgan doimiy saqlanadigan hujjatlarning ro‘yxati (opisi)ni ko‘rib chiqish va tasdiqlash bo‘lib qoldi. Shuningdek ETK 5 yildan ortiq saqlanadigan materiallar dalolatnomasini va hujjatlarni saqlash muddati ko‘rsatilgan ro‘yxat (perechen) da ETK belgisi bor materiallar ro‘yxatini muhokama qilib, tasdiqlaydigan bo‘ldi.

Saqlash muddati 5 yilgacha bo‘lgan materiallar dalolatnomasini nazorat qilinadigan idoraning rahbari ETKda ro‘yxat tasdiqlangandan keyin tasdiqlashi lozim edi. Davlat arxivlari tomonidan nazorat qilinmaydigan idoralar arxiv hujjatlari ro‘yxati va dalolatnomasini tasdiqlash ularning yuqori idoralari ixtiyoriga berildi.

Arxivlarni butlash ishini qayta ko‘rib chiqilishi tufayli idoraviy arxivlarni nazorat qilishda ham muhim o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Yangi sharoitda davlat arxivlari idoraviy arxiv ishi va idoralarning ish yuritishini nazorat qiladigan bo‘ldi. Qayta qurishgacha esa, arxiv tashkilotlarining asosiy vaqtin xaddan tashqari ko‘p, mayda, kam ahamiyatli tashkilotlarni nazorat qilishga ketar edi va muhim idoralar arxivlari e’tibordan chetda qolar edi. Buning natijasida qiymati kam ilmiy, tarixiy, amaliy ahamiyati yo‘q arxiv fondlari tartibga solinar edi va davlat arxivlariga qabul qilinar edi. Asosiy fondlar esa, odatda tartibga solinmasdan davlat arxiviga qabul qilinmasdan qolar edi.

1966-yil 1-yanvariga respublika bo‘yicha davlat arxivlari nazorat qiladigan, kelajakda xujjatlari davlat arxivlariga qabul qilinadigan tashkilotlar 6489 ta bo‘lgan. 1965-yilda 4930 ta tashkilot o‘z arxivlarini tartibga keltirishgan edi. Tartibga solingan yig‘majildlar soni tartibga solinishi kerak bo‘lgan yig‘majidlarning 70% ni tashkil qilar edi. 1966-1980-yillarda davlat arxivlariga tashkilot va korxonalardan 580 ming boshqarish hujjatlari yig‘majidlari, 5939 ta ilmiy-texnik hujjatlar yig‘majidlari, 5048 ta kinohujjatlar saqlov birligi, 53987 fotohujjatlar saqlov birligi va 5345 ta fonohujjatlar saqlov birligi qabul qilingan.

1986-1990-yillarda davlat arxivlarini butlash sohasida ancha ish amalga oshirildi. Davlat arxivlarini butlash manbai hisoblangan tashkilotlar ro‘yxatlariga aniqlik kiritildi va to‘ldirildi. 1990-yilda arxivlarni butlash manbalari soni respublika bo‘yicha 9576 taga etdi. 1986–1990-yillarda respublika davlat arxivlari saqloviiga 635 ming doimiy saqlanadigan yig‘majildar qabul qilindi.

70-yillarda davlat arxivlari nazorat qilayotgan tashkilotlarning idoraviy arxivlari va ish yuritish xizmati birmuncha yaxshilandi. 1972-1980-yillarda bevosita arxiv tashkilotlarining ishtirokida respublikada 49 ta shaxsiy tarkib bo‘yicha xo‘jalik hisobidagi arxivlar tashkil qilindi va ularga 850 mingga yaqin yig‘majildar qabul

qilindi. Respublikada birinchi bunday arxiv Andijon viloyatida tashkil etilgan. 1972-yil 13-iyunda Andijon viloyati ijroiya qo'mitasi «Viloyat davlat arxivining Qo'rg'ontepa filiali qoshida shaxsiy tarkib bo'yicha hujjatlarning rayonlararo birlashgan arxivini tashkil qilish to'g'risida» qaror qabul qildi. Unga asosan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, kolxozlar, sovxozlarning shaxsiy tarkib bo'yicha hujjatlari saqlanishini ta'minlash, hisobga olish, ularni jamlash va fuqarolarga biografik ma'lumotnomalar berish maqsadida shaxsiy tarkib bo'yicha xo'jalik hisobidagi Qo'rg'ontepa tumanlararo arxivni tashkil qilingan. Bu arxiv Qo'rg'ontepa, Xo'jaobod tumanlari tashkilotlari, kolxozi va sovxozlari mablag'i hisobidan shaxsiy tarkib hujjatlarini markazlashtirib saqlash va foydalanish uchun tuzilgan. Har bir tashkilot va xo'jalik shaxsiy tarkib bo'yicha hujjatlarni markazlashtirib saqlagan xo'jalik hisobidagi arxiviga mablag' o'tkazib turar, ana shu mablag' hisobidan arxiv ishchi va xizmatchilariga ish haqi berar edi. Ijroko'm qarori bilan har bir yig'majild uchun bir yilga 65 tiyin miqdorda haq to'lash belgilangan edi.

Qo'rg'ontepa arxivining tajribasi shaxsiy tarkib hujjatlarining saqlash va foydalanishni samarali va foydali shakli tuman, shahar idoralalararo arxivlarda bunday hujjatlarni markazlashtirib saqlash ekanligini isbotladi. O'zbekiston Respublikasi Ministrlar Sovetining 1973-yil 16-fevraldagi «Respublikada arxiv ishini ahvoli va yanada yaxshilash tadbirlari to'g'risida»gi qarori asosida ijroqo'mlar qoshida shaxsiy tarkib hujjatlarining idoralalararo ho'jalik hisobidagi arxivlarini tashkil qilish keng avj oldi. Bu arxivlar vazifasi ularga tashkilotlar shartnoma asosida topshirgan shaxsiy tarkib hujjatlarini markazlashtirib saqlash va fuqarolarga ular asosida ma'lumotnomalar berish edi. Bunday arxivlar respublikaning ko'pchilik viloyatlarida tashkil qilindi.

Davlat arxivlari tashkilotlarda ish yuritishni takomillashtirishga qaratilgan amaliy natija beradigan tadbirlar o'tkazdi. Tashkilotda ish yuritishni tashkil qilinganligi darajasi to'g'risida fikr yurgizishga asos bo'ladigan asosiy ko'rsatkichlar bular ish yuritish bo'yicha yo'riqnomani, yig'majildlar nomenklaturasini borligi hisoblanadi. 1980-yilda respublikada davlat arxivlari nazoratidagi 8733 ta tashkilotdan 3472

(40%)tasida ish yuritish bo‘yicha yo‘riqnomasi, 85%da yig‘majildlar nomenklaturasi mavjud edi.

1986-yildan boshlab respublika davlat arxivlari tashkilotlarda idoraviy arxiv va ish yuritishni tashkil qilinishini, tekshirishni odatda idoraviy tizimlar bo‘yicha kompleks tarzda amalga oshirdilar. 1986-yilda O‘zbekiston qishloq xo‘jalik mashinasozlik vazirligi va O‘zbekiston kinematografiya davlat qo‘mitasi tizimlari, 1987-yilda O‘zbekiston Maorif vazirligi tizimi, 1988-yilda O‘zbekiston teleko‘rsatuvlar, radioeshitirishlar davlat qo‘mitasi tizimi kompleks tekshirilgan.

O‘zbekiston arxiv tashkilotlari tomonidan 1987-yil yanvar-mayda Maorif vazirligi tizimi tashkilotlari, muassasalarida idoraviy arxivlar va ish yuritishda hujjatlarni tashkil qilishi ahvoli tekshirildi. Ushbu vazirlik tizimida 435 muassasadandan 221 tasida yig‘majildlar nomenklaturasi ishlab chiqilgan edi. Vazirlik muassasalarida saqlanayotgan 80687 ta doimiy muddatda saqlanadigan yig‘majildlardan 40447 ta yig‘majild arxiv ro‘yxati (opis)ga kiritilib, davlat arxivni ETKsi tomonidan tasdiqlangan. Ma’orif vazirligi tizimini markazda va viloyatlarda tekshirish natijasi bo‘yicha arxiv tashkilotlari yirik tashkilotlarda arxiv mudiri lavozimini joriy qilishni, idoraviy arxivlarni maxsus jihozlangan xonalar bilan ta’minlashni, ekspert komissiyasi ishini va arxiv hujjatlarini tartibga solishni faollashtirishni, ish yuritish yo‘riqnomasini va yig‘majildlar nomenklurasini joriy qilishni taklif qildilar.

70-80-yillarda arxiv hujjatlari ro‘yxatlarini takomillashtirishva kataloglashtirish respublika davlat arxivlarining muhim vazifalaridan biri bo‘lgan. Ro‘yxatlarni ma’lumot berish darajasini ko‘tarish maqsadida davlat arxivlari 1975-yildan boshlab ro‘yxatlarni takomillashtirish va qayta ishlashni faol olib bordilar. 1976-1990-yillarda 1,7 million yig‘majildan iborat I va II kategoriyalı fondlar ro‘yxatlari respublika davlat arxivlari tomonidan takomillashtirildi va qayta ishlandi. Ro‘yxatlarni tuzatish, yaxshilash, yig‘majild sarlavhalarini qayta tuzish, xatolarini tuzatish, boshqa fondlarga tegishli hujjatlarni ajratish, hujjatlar qimmatdorligini ekspertiza qilib, qiymati yo‘q hujjatlarni makulaturaga ajratish, yig‘majildarni tartibga solish, yig‘majildlar shifrini qayta tuzish va zarur ilmiy-

ma'lumot apparati (so'zboshi, mundarija, yig'majidlarning yangi arxivshifri jadvali, ko'rsatgichlar)ni tuzish yo'li bilan amalga oshirilgan.

Hujjat darajasida axborot olish maqsadida respublika markaziy va mahalliy arxivlarida tizimli, mavzuli, ism kataloglari yaratilgan. 1991-yil 1-yanvarga qadar 761 fonddan 489,5 ming yig'majild o'r ganilib, ma'lumotlar kataloglarga kiritilgan. Kataloglarga olingan hujjatlar asosan I va II kategoriyali fondlar, hokimiyat va davlat boshqaruv organlari edi. Natijada boshqarma hujjatlariga va shaxsiy tarkibga oid hujjatlarga 970 ming mavzular bo'yicha kartochka va 49 mingdan ortiqism kartochkalari tuzilgan. Bu kartochkalar tizimli, mavzuli va ism kataloglariga kiritilgan.

Kino-foto-fonohujjatlarini ham kataloglashtirish faol olib borildi. 1976-1980-yillarda kinohujjatlarga 9 mingdan ortiq, fotohujjatlarga 61 mingdan ortiq va fonohujjatlariga 8 ming dan ko'p kartochkalar tuzilib, kataloglarga qo'shilgan.

Ko'rib chiqilayotgan davrda O'zbekiston arxiv tashkilotlarida hujjatlarni e'lon (nashr) qilish ishlari ancha avj olgan edi. Hujjatlar to'plamlarining ilmiy salohiyatlarini ko'tarishda arxiv tashkilotlarining ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorligi muhim ahamiyat kasb etdi. 1961-1965-yillarda respublika arxiv tashkilotlari O'zbekiston Fanlar akademiyasining Tarix instituti, Partiya tarixi instituti va Markaziy Osiyo respublikalarining shunga o'xhash ilmiy tashkilotlari bilan birgalikda quyidagi hujjatlar to'plamlari chop etilgan. «Подготовка условий сплошной коллективизации сельского хозяйства в Узбекистане (1927-1929-гг.)». Сборник документов.—Т., 1961, «Социалистическое переустройство сельского хозяйства в Узбекистане (1917-1926 гг.)». Сборник документов. —Т., 1962, «Иностранная военная интервенция и гражданская война в Средней Азии и Казахстане». Сборник документов. Том 1. —Т., 1963., Том 2. Алмаата, 1964. «O'rta Osiyoni tadqiq qilgan rus olimlari» seriyasidan quyidagi to'plam e'lon qilingan: Г.Д. Романовский. Сборник документов. —Т., 1961. Shuningdek, 2 ta ilmiy ommabop to'plamlar: «Письма с фронта» (Т., 1965) va "Frontdan xatlar" — (Т., 1965) chop etilgan. Arxivchilarning matbuotda, radio va televidenielarda chiqishlari ancha kengaydi. 1961–1965 yillarda O'zbekiston arxivchilari gazeta va

jurnallarda 301 ta, 1966–1967-yillarda 208 ta maqola e’lon qildilar. 1963–1967-yillarda 240 radio eshittirish va 32 teleko‘rsatuv tashkil etdilar.

1986–1990-yillarda arxiv ishlarini tashkil qilishda muhim o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Bu o‘zgarishlar arxiv ishini yanada rivojlantirish bo‘yicha maqsadli kompleks dasturlarni amalga oshirishga qaratilgan edi. Respublikaning arxiv hujjatlarini e’lon qiluvchilari davlat arxiv fondi hujjatlaridan foydalanish va e’lon qilishni jadallashtirish dasturini bajarish sohasida faol mehnat qildilar. Arxiv hujjatlaridan foydalanish yildan-yilga ortib bordi. 1986–1990-yillarda 1981–1985-yillarga nisbatan fuqarolarning 12 mingdan ortiq ijtimoiy huquqiy toifadagi fuqarolar so‘rovi ijro etildi. Respublika va mahalliy davlat arxivlari har yili 20 mingdan ortiq fuqarolar so‘rovini bajardilar. Faqat birgina 1986-yilda 59 ko‘rgazma, 112 radioeshittirish va 6 teleko‘rsatuv tashkil qilindi va 185 maqola e’lon qilindi. 1986–1990-yillarda 7 hujjatlar to‘plami chop etildi. 1989-yilda «Axborotnama» byulletenining nashr qilinishi qayta tiklandi. Demokratiya va oshkoraliq sharoitida maxfiy hujjatlarni ochiq hujjatlar qatoriga o‘tkazish kengaydi. 1987–1990-yillarda respublika davlat arxivlarida 99,9 ming yig‘majidlarning maxfiylik belgisi olib tashlandi va ochiq hujjatlar qatoriga qo‘sildi. Bu tadbir arxiv hujjatlaridan foydalanishni kengaytirdi. 1986–1990-yillarda davlat arxivlarining o‘quv xonalarida 3 mingga yaqin tadqiqotchiga xizmat ko‘rsatildi va ularga 50 mingdan ortiq yig‘majidlarni foydalanish uchun berildi.

Sovet Ittifoqining oxirgi yillari va mustaqillikning dastlabki yillaridagi arxiv hujjatlaridan tadqiqotchilarning foydalanishi xususida A.Burton quyidagicha fikr bildiradi. “Partiyaga sodiq bo‘lgan o‘zbek tarixchilari O‘zbekistonda marksistik-leninistik g‘oyalarining yoyilishi va tarqalishi tarixini o‘z ichiga oladigan bir qator hujjatlar ustida ish boshladilar va ular Ittifoq to‘g‘risida “ob’ektiv” dalillarni keltirib o‘tishni maqsad qilishdi. O‘zbekistonidagi partiya arxivlarida ishlash imkoniyatiga ega bo‘lgan ilk chet ellik tarixchi Hindiston Universiteti doktoranti Shoshana Keller hisoblanadi. U sovet davridan keyingi davrni ko‘zdan kechirgan va O‘zbekiston Xalq Demokratik partiyasining markaziy sovet partiyasi arxivi deb qayta nomlangan

komunistik partiya arxiv hujjatlaridan foydalangan” (Antonina Burton. Archive Stories.(facts, fictions and the writing of history). – London.2005.–R.54.).

**Tayanch so‘z va iboralar:** O‘zSSR MIK Prezidumi, SSSR Qizil Armiya Markaziy davlat arxivi, Markaziy harbiy davlat arxivi, NKVD, ko‘rsatgich (putevoditel), ro‘yxat, katalog, O‘zSSR Oktyabr inqilobi markaziy davlat arxivi, arxiv ro‘yxati (opis).

### **Savol va topshiriqlar**

1. O‘zbekiston SSR tashkil topgan dastlabki yillarda arxiv ishining holati qanday edi?
2. Ikkinchi jahon urushi yillarida qaysi viloyatlarda davlat arxivlari tashkil topdi?
3. Urushdan keyingi davrda qaysi markaziy davlat arxivlari uchun maxsus binolar qurildi?
4. 1961-1965-yillarda ilmiy tashkilotlar tomonidan qanday hujjatlar to‘plamlari chop etildi.
5. O‘zbekiston SSRda arxivlarning markazlashuvi haqida fikr yuriting?
6. 1986-1990-yillarda arxiv ishlarini tashkil qilishda muhim o‘zgarishlar haqida fikr yuriting?
7. 1986-1990-yillarda davlat arxivlarini butlash sohasida qanday ishlar amalga oshirildi.
8. Davlat arxivlarining ekspert tekshiruv komissiya (ETK) larining vazifalari nimalardan iborat bo‘lgan?

### **Manba va adabiyotlar**

1. Алимов И., Эргашев Ф., Бўтаев А. Архившунослик. / Ўқув қўлланма. - Тошкент: Шарқ, 1997.
2. Алимов И.А. Архившунослик. / Ўқув қўлланма. - Андижон: - Андижон, 2005.
3. Бобокулов Б. Архив иши назарияси ва амалиёти. / Ўқув қўлланма. – Т., 2011.
4. Жумаев У. Ўрта Осиё ва Ўзбекистонда архив иши тарихи ва Ўзбекистоннинг асосий архивлари. / Ўқув қўлланма. - Т., 2010.

5. Мирзабаев А., Алимов И., Вайс М.Л. Архивы Узбекистана: краткий исторический очерк. – Тошкент, 1960 – 103 с.
6. Исакова М, Иофе В. Архившунослик. / Ўқув қўлланма. – Тошкент: Чўлпон, 2007.
7. Исакова М. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. – Тошкент: Университет, 2012.
8. Antonina Burton. Archive Stories. (facts, fictions and the writing of history). – London.2005.

### **9-Mavzu: O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishi**

#### **Reja:**

1. O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishining tashkil qilinishi.
2. O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishi bo‘yicha qabul qilingan qonun va qonun osti me’oriy hujjatlarning tasnifi.
3. O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini takomilashtirish borasida olib borilgan ishlar.

**1. O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishining tashkil qilinishi.** O‘zbekiston Respublikasi hukumati istiqlolga erishgan dastlabki kunlarda nafaqat mamlakat balki O‘rta Osiyo mintaqasi tarixini hamda o‘tmishini o‘zida aks ettirgan nodir hujjatlar saqlanadigan arxiv muassasalariga katta e’tibor qaratdi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining 1991-yil 31-avgustdagи qaroriga muofiq 1991-yil 1-sentyabrdan O‘zbekiston SSR Markaziy davlat arxivi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi deb qayta nomlandi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi respublika miqiyosidagi muassasa hisoblanib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligiga bo‘ysinadi. 1992-yil 6-iyulda MDH davlatlari boshliqlari kelishuviga asosan, arxiv fondlarining yaxlitligi va bo‘linmasligi hisobga olinib, davlatlar arxivlarida saqlanuvchi fondlar har bir respublika ixtiyorida qoldirildi.

Arxiv jamg‘armasining bo‘linmaslik tamoyili arxiv hujjat- larining ilmiy tashkil etish tamoyili bo‘lib, u arxiv jamg‘armasining yaxlitligini va uning bir

arxivda saqlanishini talab etadi. Mustaqillik yillaridagi boshqaruv tizimidagi tub o‘zgarishlar, xo‘jalik yuritishning yangi uslubi va ko‘rinishlari hamda shakllarining paydo bo‘lishi respublika arxivchilari oldiga bir qator vazifalarni qo‘ydi. Davlat va nodavlat arxiv fondlarining tashkil topishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi (MAF) hujjatlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hujjat mulkdorlariga maxsus guvohnomalar berish joriy etildi. Davlat arxivlarining pulli xizmat ko‘rsatish turlari kengaydi.

Bozor munosabatlariga o‘tish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish tufayli qator davlat sanoat korxonalari, transport va qurilish, maishiy xizmat va savdo korxonalari xususiylashtirildi, mulkdorlar sinfi shakllantirila boshlandi. Nodavlat sanoat, qurilish korxonalari, fermer xo‘jaliklari, kasaba uyushmalari, xayriya va boshqa jamg‘armalari, siyosiy partiyalar va harakatlar, diniy tashkilotlar arxiv fondlari va arxiv hujjatlari nodavlat arxiv fondini tashkil qildi. Davlat va nodavlat arxiv fondlari O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi (O‘zR MAF)ga aylantirildi.

O‘zR Milliy arxiv fondi hujjatlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hujjatlar egasiga, tashkilotga maxsus guvohnoma berish joriy etildi. Davlat arxivlarining pulli xizmat ko‘rsatishi kengaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tashkilotlarning shaxsiy tarkib bo‘yicha hujjatlari saqlanishini ta’minlash maqsadida respublika shaharlari va tumanlari hokimliklari tomonidan shaxsiy tarkib buyicha idoralararo arxivlar soni kengaytirildi. Bu arxivlar maxsus (byudjetdan tashqari) mablag‘lar hisobiga tashkil qilindi. Ular fuqarolarni ijtimoiy - huquqiy so‘rovlarni bajarishda, shahar va tumanlarda arxiv ishining umumiy ahvolni yaxshilashda muhim rol o‘ynadi.

Mustaqillik sharoitida «O‘zarxiv» agentligi tomonidan arxiv ishining asosiy yo‘nalishlarini takomillashtirish va rivojlantirishning kompleks dasturlari ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Bu dasturlar quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tuzilgan va besh yilga mo‘ljallangan: hujjatlarni idoraviy saqlovini ta’minlash, ularning davlat hisobi va ilmiy-ma’lumot apparatini takomillashtirish, arxiv hujjatlaridan foydalanishni jadallashtirish.

1996-yilda «O'zarxiv» agentligi O'zbekiston Respublikasida arxiv ishini 2000-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini ishlab chiqdi. Bu konsepsiya davlat arxiv xizmati faoliyatining metodologik harakat dasturi edi. U jamiyatni va davlatni axborot bilan ta'minlashdagi imkoniyatlarni kengaytirish, jamiyatning hujjatli yodgorliklarini saqlashdagi rolini orttirishga qaratilgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 3-fevraldag'i «O'zbekiston Respublikasi arxiv ishini boshqarishni yanada takomillashtirish to'g'risida»gi qaroriga ko'ra «O'zbosharxiv» O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «O'zarxiv» agentligiga aylantirildi. Joylarda hokimliklar arxiv bo'limlari o'rniiga Arxiv ishi hududiy boshqarmalari tashkil qilindi. Hududiy organlarning boshliqlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan kelishuv bo'yicha «O'zarxiv» agentligi Bosh direktori tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan bo'ldi. Ilgari arxiv bo'limi mudirlari hokimlar tomonidan tayinlanardi va ozod qilinardi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda arxiv sohasida va arxiv hujjatlaridan foydalanish bo'yicha qilinayotgan ishlar xususida A.Burton quyidagilarni keltirib o'tgan. "Tarixni va mavjut qonun tuzilmalarini yaratish maqsadida O'zbekistonda arxivlar qayta ko'rib chiqildi va undagi terminlar butun dunyo bo'ylab, Evropa imperializm merosi kabi ko'plab atamalarga qiyoslab solishtirilib chiqidi. Shu o'rinda Kanadalik sudya Adele Perri, Yangi Zellandiyalik konservativ tarixchilar Toni Ballantin, Anna Kurtoylar o'z milliy tarixlarini yaratishda arxiv hujjatlaridagi dalillardan foydalanish zarurligini isbotladilar (Antonina Burton.Archive Stories.(facts, fictions and the writing of history). - London.2005.-P.48.).

O'z ona shahrini tark etganiga ellik yil bo'lgan muhoxir o'zbek tarixchisi Boymirza Hayit ilk bor tashrif buyurgan vaqtida ya'ni 1992-yil yozida o'zbek hokimiyatidagi kuchlarining komunistlarga qarshi harakati boshlandi. O'zbek bosmaxonalarida sovet boshqaruvi to'g'risidagi jiddiy qoralashlarni bosmadan chiqargan B. Hayit bolsheviklarga nisbatan mahalliy xalq qarshiliklarini aks ettirgan arxiv dalillari bilan ishslashni maqsad qilib qo'ygan edi. Qatag'on qurbanlari

muzeyida namoyish etilgan hujjat manbalari, komunistik partiya va KGB arxivlari ko‘plab chet elliklarga hamda O‘zbekistonliklarga ma’lum qilindi (Antonina Burton.Archive Stories.(facts, fictions and the writing of history). - London.2005.- P.48.).

Mustaqillik sharoitida O‘zR MAF hujjatlaridan g‘oyaviy, ijtimoiy-madaniy, o‘quv-pedagogik, tarbiyaviy maqsadlarda, shuningdek fuqarolarning ijtimoiy-huquqiy talablarini qondirish uchun foydalanish ancha faollashdi. Natijada respublika, viloyatlar, shaharlar, tumanlar tarixiga oid, ayrim tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati bilan bog‘liq mazmunli maqolalar arxiv hujjatlari asosida nashr etildi.

Mustaqillik sharoitida arxiv ishini boshqaruv davlat organi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O‘zarkiv" agentligi hisoblanadi. Uning tizimiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hududiy boshqarmalari, ularning qaramog‘idagi davlat arxivlari (ularning filiallari) hamda Markaziy davlat arxivlari kiradi.

**2. O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishi bo‘yicha qabul qilingan qonun va qonun osti me’yoriy hujjatlarning tasnifi.** Istiqlolga erishganimizdan so‘ng arxiv sohasida bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirilib kelindi. O‘zbekiston Respublikasida arxiv sohasi bo‘yicha me’yoriy hujjatlarni tartibga solish, arxiv hujjatlarni saqlash, elektronlashtirish, olib borayotgan xalqaro hamkorlik, bu borada grant mablag‘larini jalb qilish, arxivchi xodimlarni xorijga malakasini oshirish, davlat arxivlarini rekonstruksiya qilish va texnik modernizatsiyalash bo‘yicha qator qonun hamda qonun osti huquqiy me’yoriy hujjatlar qabul qilindi. Respublikamizda arxiv ishi bo‘yicha qabul qilingan qonun va qonun osti me’yoriy hujjatlariga qonun, qaror, nizom, yo‘riqnomalar, qoida, buyruqlarni kiritishimiz mumkin.

**Sohaga oid qonunlar.** O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1999-yil 15-apreldagi “Arxivlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (N768-1-sonli) qabul qilindi. Bu qonun asosida arxiv tizimi borasida bir qator samarali ishlar olib borildi. Biroq, O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 30-aprelda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 621-II-sonli Qonuniga

asosan ushbu qonun o‘z kuchini yo‘qotdi hamda bu sohada yangi qonun qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2010-yil 15-iyundagi “Arxiv ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (N 252-sonli) ni qabul qilindi. “Arxiv ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 6 bob, 36 moddadan iborat. Ushbu Qonun “Xalq so‘zi” gazetasining 2010-yil 16-iyundagi 119-soni orqali matbuotda e’lon qilindi.

**Sohaga oid qarorlar.** O‘zbekistonda arxiv ishini takomillashtirish borasida bir qancha qarorlar qabul qilingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999-yil 15-apreldagi “Arxivlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish haqida 769-1-sonli Qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 30-oktyabrdagi (N482-sonli) “Arxiv ishi bo‘yicha me’yoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001-yil 29-yanvardagi № 191-sonli “O‘zbekistondan chet elga olib ketilgan hamda xalq boyligi bo‘lgan arxiv hujjatlarini qaytarib olib kelish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi maxsus komissiya to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 3-fevraldagi № 49-sonli “O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini boshqarishni yanada takomillashtirish to‘risida”gi Qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 6-iyundagi №131-sonli “Arxiv ishi bo‘yicha me’yoriyhujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 1999 yil 30 oktyabrdagi 482- son qaroriga qo‘srimcha kiritish to‘g‘risida”gi Qarori; O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2007-yil 2-iyunda № 1685-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boqaruvining 2007- yil 14- aprel № 11/3-son Qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi banklarida elektron arxiv ishlarini yuritish tartibi to‘g‘risidagi Yo‘riqnomani tasdiqlash haqida” (2007 yil 12 iyundan kuchga kirgan) gi Qarori; O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2007-yil 13-avgustda № 1703- son bilan ro‘yxatga olligan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining huzuridagi “O‘zarxiv” agentligi bosh direktorining 2007-yil 17-iyul № 18-sonli buyrug‘iga asosan “Axborot

resurslarining arxiv nuxxalarini yaratish va ularni davlat saqlovida topshirish tartibi bo'yicha Yo'riqnomani tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 21-avgustdagি PQ-949-sonli "Koreya Respublikasi Hukumatining grant mablag'larini jalb etgan holda O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivlarini rekonstruksiya qilish hamda ularni texnik modernizatsiyalash chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 26-avgustdagи №194-sonli "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlarni ta'kidlab o'tish joiz.

**Sohaga oid nizomlar.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 30-oktyabrdagi (N482-sonli) "Arxiv ishi bo'yicha me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori va unga 1-ilova qilingan "O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi to'g'risida"gi Nizom; shuningdek, 2-ilova "O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi hujjatlarini Davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi", hamda 482-sonli qarorga 4-ilova "O'zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, korxonalar, muassasa va tashkilotlardagi idoraviy Arxiv to'g'risida" gi Nizom; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2001-yil 29-yanvardagi 191-P-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekistondan chet elga olib ketilgan hamda xalq boyligi bo'lgan arxiv hujjatlarini qaytarib olib kelish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi maxsus komissiya to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi Nizom; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 3-fevraldagи 49-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O'zarxiv" agentligi to'g'risidagi Nizom; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 5-apreldagi 101-son qarori bilan tasdiqlangan "Arxiv hujjatlarini O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqish va arxiv hujjatlarini O'zbekiston Respublikasiga olib kirish tartibi to'g'risida"gi Nizomlarni qayd etib o'tish lozim.

**3. O'zbekiston Respublikasida arxiv ishini takomilashtirish borasida olib borilgan ishlar.** O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish jarayonida ko'plab xususiy, nodavlat tashkilotlar, korxonalar va ularning arxiv fondlari vujudga keldi.

Nodavlat tashkilotlar idoraviy arxivlarning mulki hisoblanadi. Shuning bilan birga 1999-yil 30-oktyabrdan Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi to‘g‘risidagi Nizomda «Nodavlat yuridik va jismoniy shaxslar nodavlat arxiv fondi hujjatlarini saqlash maqsadida tashkil etilgan arxivlarda yoki korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va birlashmalarining tarkibiy bo‘linmalarida doimiy saqlashni ta’minlaydilar. Doimiy muddatda saqlanadigan hujjatlar va shaxsiy tarkib bo‘yicha hujjatlar (mehnat staji, ish haqi, o‘qish, mukofotlash va boshqalar to‘g‘risidagi hujjatlar) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O‘zarkiv" agentligi organlari va muassasalari roziligini olmasdan nodavlat va yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan yo‘q qilinishi mumkin emas», deb uqtirilgan. O‘zR MAF to‘g‘risidagi Nizomga binoan nodavlat yuridik, jismoniy shaxslar o‘z hujjatlarini davlat mulki qilib davlat arxivlari, muzeylar va kutubxonalarda saqlashga berishlari mumkin. Nodavlat tashkilotlar yoki shaxsiy arxiv egasi vafot etganda, vorislar va qonuniy merosxo‘rlar bo‘lmasdagi, ularning hujjatlari davlat mulkiga o‘tkazilib, doimiy saqlash uchun davlat arxivlariga topshiriladi. Davlat arxivlari hujjatlarni butlash, saqlash, foydalanish ishlariga metodik yordam beradi va hujjatlarga ilmiy-texnik ishlov berish, ish yuritish bo‘yicha me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, yig‘majidlarni ta’mirlash va muqovalash yuzasidan pullik xizmatlar ko‘rsatishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov tomonidan 2008-yil 21-avgustda qabul qilingan “Koreya Respublikasi hukumatining grant mablag‘larini jalb etgan holda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivlarini rekonstruktsiya qilish hamda ularni texnik modernizatsiyalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosi samarasida qisqa muddatda salmoqli natijalarga erishildi. Xususan, uchta davlat arxivi o‘rtasida yagona axborot tarmog‘i yaratildi. Arxivlarda server va boshqa jihozlarning o‘rnatalishi barcha davlat arxivlarida saqlanayotgan ma’lumotlarning yirik yagona bankini yaratish imkonini berdi. Kelajakda mamlakatimizning barcha arxivlarini yagona tarmoqqa birlashtirish mo‘ljallanmoqda. Shuningdek, foydalanuvchilarga kerakli axborotni izlashda qulaylik yaratish maqsadida markaziy va poytaxtdagi davlat arxivlarida infokiosklar

o‘rnatilgan bo‘lib, ularga eng qimmatli hujjatlarning kataloglari hamda mamlakatimiz arxiv ishini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari kiritilgan. Bugungi kunda infokiosklarga 11248 tashkilotning ma’lumot bazalari, Toshkent shahar arxivlarida saqlanayotgan shaxsiy tarkib bo‘yicha hujjatlar hamda idoraviy arxivlarda saqlanayotgan 2545 tashkilotning hujjatlari hakida axborot jamlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 26-avgustdagi 194-sonli “O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini yanada rivojlantirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan “2011-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritishni rivojlantirish dasturiga” ko‘ra 18 ta yangi arxiv binosi qurilishi 1 ta arxiv binosi rekonstruksiya qilindi.

2009-2013-yillar mobaynida markazlashtirilgan manbalar hisobiga (byudjet mablag‘lari) 19 ta yangi arxiv binosi qurildi va 5 ta arxiv binosi rekonstruksiya qilindi. Natijada arxivlar balansda bo‘lgan binolar 2006-yildagi 21 foizdan 2013-yilda qariyb 95 foizga chiqishi ta’minlangan. Bu 2,7 mln saqlov birligidagi hujjatlarni saqlash imkoniyatlarini yaratgan.

Mamlakatimiz dasturchilari tomonidan arxiv muassasalari uchun maxsus “Arxiv ma’lumotlarini rasmiylashtirish” kompyuter dasturi ishlab chiqilgan. Ilgari qo‘lda amalga oshiriladigan hisob-kitoblarning barchasi endi avtomatik ravishda bajariladi. Bu esa nafaqat vaqt ni tejash hujjatlarni to‘ldirishda yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan hatolarning oldini olish imkonini beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari inson faoliyatining barcha sohalariga, shu jumladan, arxiv muassalari ishiga ham kirib keldi. Arxiv va kutubxonalar faoliyatiga yangi aktlarning joriy etilishi hujjatli axborotdan, jumladan, masofadan turib foydalanish, arxivlar ma’lumotlarini tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu o‘z navbatida arxivshunoslikning yangi vositalarini taqdim etadi, hujjatlar va ma’lumotlarni eng zamonaviy elektron shakllarda chop etish imkonini beradi. Arxivlardagi axborot resurslarining jaxon kibermakoniga integratsiyalashuviga xizmat qiladi.

Arxiv ishini yanada rivojlantirish va unga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish maqsadida mamlakatimizda tegishli

me'yoriy-huquqiy baza yaratilgan bo'lib, u muntazam takomillashtirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yilning 21-martida qabul qilingan "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori arxiv hujjatlarini saqlash, xavfsizligini ta'minlash, ulardan foydalanish jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda 102 ta davlat arxiv faoliyat yuritmoqda. Milliy arxiv fondida saqlanayotgan hujjatlar hajmi esa 8,4 million saqlash birligiga etdi, ularni saqlash va qo'llash uchun etarli shart-sharoitlar yaratilgan, - deydi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi "O'zarxiv" agentligi bosh direktori o'rinnbosari D.Ko'charova. Davlat arxivlari bilan bir qatorda shahar va tuman hokimliklari qoshida tashkil etilgan 115 shaxsiy tarkib bo'yicha xo'jalik xisobidagi idoralararo arxivlar, shuningdek, 3 millionga yaqin saqlash birligiga ega 17 nodavlat arxiv ham faoliyat ko'rsatmoqda.

"O'zarxiv" agentligining Arxiv ishi bo'yicha 2017- yil soha rivojining eng muhim ustuvor vazifalarini bajarilishiga katta ahamiyat berildi. Bu borada arxiv muassasalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash, Milliy arxiv fondining saqlovini ta'minlash va hujjatlarni saqlash usullarini yanada takomillashtirish yuzasidan samarali ishlar olib borildi.

**Tayanch so'z va iboralar:** O'zarxiv, O'zR Milliy arxiv fondi (MAF), ilmiy ma'lumot apparati (IMA), opis, putevoditel, konsepsiya, qonun, qaror, nizom, yo'riqnomalar, qoida, buyruq, investitsiya, axborot-kommunikatsiya, rekonstruksiya.

2

3. Arxiv ishi to'g'risidagi qonunning mohiyatini tushuntiring?
4. O'zbekistonda arxiv sohasini takomillashtirish borasida qabul qilingan O

Prezidentimiz Islom Karimovning 2008-yil 21-avgustda qabul qilingan "Koreya Respublikasi hukumatining grant mablag'larini jalb etgan holda O'zbekiston

Respublikasi markaziy davlat arxivlarini rekonstruktsiya qilish hamda ularni texnik modernizatsiyalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosi yuzasidan fikr yuriting.

6. “O‘zarxiv” agentligining arxiv ishi bo‘yicha olib borayotgan ishlari haqida fikr yuriting.
7. O‘zbekistonda arxiv ishini takomillashtirish borasida qanday qarorlar qabul qilingan?
8. O‘zbekistonda arxiv ishini takomillashtirish borasida qanday qonunlar qabul qilingan?

### **Manba va adabiyolar**

1. Ўзбекистон Республикасининг “Архив иши тўғрисида” ги Қонуни. //Халқ сўзи. 2010. 16 июн, 119-сони.
2. Алимов И., Эргашев Ф., Бўтаев А. Архившунослик. / Ўқув қўлланма. – Тошкент: Шарқ, 1997.
3. Алимов И.А. Архившунослик. / Ўқув қўлланма. – Андижон:Андижон, 2005.
4. Бобоқулов Б. Архив иши назарияси ва амалиёти. / Ўқув қўлланма. – Т., 2011.
5. Исакова М. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. – Тошкент: Университет, 2012.
6. Исакова М., Хайдаров М. Бошқарувни ахборот (хужжатлар) билан таъминлаш. / Ўқув қўлланма. – Т.,2012.
7. Тилеуколов Г.С. История развития архивного дела в Узбекистане. – Т., 1995.
8. Antonina Burton. Archive Stories. (facts, fictions and the writing of history). - London.2005.

## **10-Mavzu: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivining tashkil topishi va faoliyati**

### **Reja:**

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivining tashkil topishi va faoliyati.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan fondlar.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxividagi shaxsiy fond hujjatlarining tavsifi.

**1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivining tashkil topishi va faoliyati.** O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivni O‘zbekiston SSR Sovet Ministirligining 1958-yil 20-noyabrda 759-son qarori asosida, 1931-yildan faoliyat ko‘rsatib kelayotgan Oktyabr inqilobi markaziy davlat arxivni va markaziy davlat tarix arxivining birlashtirilishi natijasida tashkil etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan qimmatbaho hujjatlarning soni va mohiyati jihatdan O‘rta Osiyo respublikalari Markaziy davlat arxivlari ichida eng yirigidir. Unda XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, to hozirgi kunimizgacha bo‘lgan ko‘p sonli hujjatlar saqlanmoqda.

O‘zR MDA dastlab tashkil etilganida quyidagi tuzilmalar mavjud edi.

1. Arxiv rahbari;
2. Sovet davrigacha bo‘lgan fondlar bo‘limi;
3. Maxfiy fondlar bo‘limi;
4. E’lon qilish bo‘limi;
5. Ma’lumot stoli;
6. O‘quvxona;
7. Ilmiy-ma’lumot kutubxonasi;
8. Xodimlarga xizmat ko‘rsatish:

O‘zbekiston SSR Sovet Ministirligi buyrug‘i bilan 1962- yil 28-aprelda O‘zR MDA tuzilmalariga qo‘shimchalar qilindi.

1. Hisobga olish bo‘limi;
2. Jamlash;
3. Tekshirish;

#### 4. Ilmiy-ma'lumotnoma apparati:

O'zbekiston SSR Sovet Ministirligining 1963-yil 14-oktyabr 603-sonli qarori asosida O'zR MDA quyidagi bo'lim tashkil etildi.

##### 1. Idoraviy arxivlar.

O'zbekiston SSR Sovet Ministirligi qoshidagi Arxiv boshqaruvi 1964- yildagi 33-son buyrug'i asosida O'zbekiston SSR MDA quyidagi o'zgarishlar kiritildi.

##### 1. Rahbar lavozimi Direktor lavozimiga o'zgartirildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining 1991-yil 31-avgustdagি qaroriga muofiq 1991-yil 1-sentyabrdan O'zbekiston SSR MDA O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi deb yuritildi.

1991-yilda bo'limlar nomiga quyidagi o'zgarishlar qilingan.

1. "Xodimlar apparati shtati" "Apparat boshqaruvi" deb yuritildi.

2. "Xodimlarga xizmat ko'rsatish" bo'limi "Xo'jalik xizmati" ga o'zgartirildi.

1992-yil shtat jadvaliga asoslanib, O'zR MDA quyidagi tuzilmalardan iborat bo'lgan:

1. Apparat boshqaruvi;

2. Xujjatlarni saqlovini ta'minlash bo'limi;

3. Sovet davrigacha bo'lgan fondlar arxiv saqlovxonasi;

4. Sovet davri fondlar arxiv saqlovxonasi;

5. Mikronusxalar arxiv saqlovxonasi;

6. Davlat hisobini olib borish va ilmiy-ma'lumot apparati bo'limi;

7. Jamlash idoraviy arxivlar va ish olib borish bo'limi;

8. Maxsus fondlar bo'limi;

9. Rejalashtirish va tashkilish – uslubiy ishlar bo'limi;

10. Hujjatlardan foydalanish va ularni e'lon qilish bo'limi;

11. Hujjatlarni saqlovini ta'minlash bo'limi;

12. Xo'jalik xizmati bo'limi:

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivsi respublika miqiyosidagi muassasa hisoblanib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O‘zarkiv” agentligiga bo‘ysunadi. O‘zR MDA arxivshunoslik, hujjatshunoslik, arxeografiya va ular bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator fanlar sohasida respublikada olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot va uslubiy ishlar bo‘yicha markaz sanaladi.

Bugungi kunda arxivda 3 mingdan ziyod fondlar saqlanib, ulardan 200 tasi fuqarolarning shaxsiy fondlaridir. Umumiy holda 2 miliondan ortiq saqlov birligida hujjatlari saqlanadi. Mazkur hujjatlarda O‘zbekiston tarixining turli davrlarga oid masalalar yoritilgan bo‘lib, ularning o‘ta qimmatlilarini vaqf hujjatlari hisoblanadi. Vaqf hujjatlarda bayon etilgan ma’lumotlarning eng qadimiysi IX asrga oid.

O‘zR MDA ning kutubxona fondi 3 mingdan ziyod turli xil kitoblarni o‘z ichiga oladi. Ularning ichida 558 ta bosma nashrlar, to‘plamlar, tarixiy davr (1917 yilgacha) ga oid adabiyotlar mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi MDA tomonidan quyidagi xizmatlar ko‘rsatiladi:

- hujjatlarni tartibga solish, ilmiy-texnikaviy qayta ishlash va ularni kelgusida saqlash uchun arxivga topshirish uchun tayyorlash;
- tashkilotlar, korxonalarining bayram sanalari haqida, hamda atoqli shaxslarning yubiley sanasi tashabbus axborotini tayyorlash;
- radio- va teleko‘rsatuvlarni tayyorlash;
- ekskursiyalarni o‘tkazish;
- ko‘rgazmalarni tashki etish;
- fuqarolarning ijtimoiy-huquqiy so‘rovlari bajarish;
- jismoniy va huquqiy shaxslarning mavzuli so‘rovlari bajarish va hujjatlarini aniqlash;
- ish yuritish va arxivshunoslik muaamolari bo‘yicha ilmiy ishlarni tayyorlash va chop etish;
- arxiv hujjatlarining to‘plamini nashr etish;
- arhiv hujjatlaridan nusxalarni va ko‘chirmalarni berish;
- arxiv hujjatlarini raqamlashtirish;

- arxiv ishi bo‘yicha seminarlarni, ma’ruzalarni o‘tkazish;
- arxiv ishi bo‘yicha o‘quv kurslarini o‘tkazish;

Bugungi kunda O‘zR MDA arxivshunoslik va hujjatshunosli sohasi bo‘yicha quyidagi muassasalar bilan hamkorlik olib boradi:

1. Hujjatshunoslik va arxiv hujjatlari Butunittifoq ilmiy-tekshirish instituti (VNIIDAD) – Rossiya Federatsiyasi;
2. Korea International Cooperation Agency (KOICA) – Janubiy Koreya;
3. M. Lyuter nomidagi Universitetning Sharqshunoslik instituti – Germaniya;
4. «Xolokost» memorial muzeyi – AQSH;
5. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti;
6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy kutubxonasi.
7. O‘zbekiston Respublika Fanlar Akademiyasining Tarix instituti

Arxiv ma’lumotlarini bosmadan chiqarish say-harakatlari 1922-yilda “Qizil arxiv” deb nomlanuvchi jurnalning nashr qilinishi bilan boshlangan. Uning birinchi galdagi vazifasi hech qanday yashirin sirning yo‘qligini ko‘rsatish edi. Jurnalda imperiyadagi mavjut korrupsiya va tengsizliklarni takidlaydigan izohlar bilan birgalikda chor Rossiyasi hujjatlari ham nashr qilingan. Ba’zi maqollalar esa masxara qilish uchun nashr qilingan. O‘rta Osiyo qo‘zg‘olonining yigirma yilligiga bag‘ishlangan, 1936-yilda nashr qilingan maqolada Farg‘ona viloyat harbiy gubernatori general-letenant Gippiusning tartibsizliklarni bostirish yo‘lidagi say-harakatlari aks ettirilgan. Chor Rossiyasi amoldorlari yuritgan hujjatlarga qaraganda Gippius musulmonlar chopon do‘ppisini kiyib, Qur’onni o‘qishdan oldin uni o‘pgan. Bu hol tuzum tarafdarlarini ruhlantirgan. Ammo, arxiv hujjatlarida keltirilgan ma’lumotlarning turli talqinlari mavjut: bundan ko‘zlangan maqsad tuzumning oddiyligini emas, balki Qur’onni o‘qiyotgan gubernator rolini ko‘rsatish bo‘lgan (Antonina Burton.Archive Stories.(facts, fictions and the writing of history). - London.2005.-P.50.).

Arxiv hujjatlari sovet xalqlari birodarligidan chor hukumati va g‘arbiy imperiya tuzumlarini ajratishda xizmat qiladigan muhim vosita sifatida namoyon bo‘ldi.

1917-yil boshlarida bu farqni aniqlashga harakat qilgan V. Lenin chor imperiya hududlari bo‘ylab rus shovinizmini cheklab qo‘ydi. Bolsheviklarning xalqaro doiradagi yetakchilari inqilobni sharq tomon yoyish maqsadida osiyolik faollarni jalg etdi va ular sotsializm rivojlangan sobiq mustamlakalar holatini ko‘rsatish uchun O‘rta Osiyodan foydalanishga umid qilganlar (Antonina Burton.Archive Stories.(facts, fictions and the writing of history). -London.2005.-P.50.).

**2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan fondlar.** Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida mavjud bo‘lgan hujjatlar arxiv qoidasiga muofiq saqlanmoqda. Arxiv hujjatlaridan foydalanishni osonlashtirish maqsadida “Ko‘rsatgich” (Putevoditel)lar nashr qilingan. Bular esa arxivda saqlanayotgan fondlarning ma’no va mazmunini ochib beradi hamda hujjatlarni o‘rganuvchilarga qulaylik tug‘diradi. Bugungi kunga qadar beshta Ko‘rsatgich nashr etildi.

**Birinchi Ko‘rsatgich.** Oktyabr inqilobidan oldingi arxiv fondlarida saqlanayotgan hujjatlar uchun tuzilgan ko‘rsatgich bilan tanishib chiqamiz. Bu ko‘rsatgich 7 bo‘limdan iborat.

I b o‘ l i m “Davlat ma’muriy boshqaruv organlari” deb ataladi. U yetti bobdan iborat. Birinchi bob – “Turkiston viloyat Boshqaruv organlari” haqidagi hujjatlar 336-fondda; ikkinchi bob – “O‘lka tashkilotlari, ya’ni Turkiston general-gubernatori kanselyariyasi, uning Kengashi, diplomatik amaldorlar bo‘limi, Buxorodagi imperatorning “siyosiy agentligi”ga oid hujjatlar arxivining 1-fondida; uchinchi bob – “Xon hokimiyati organlari: Xiva xonligi kanselyariyasi, amir Buxoro Qo‘shbegi boshqarmasi” haqidagi hujjatlar 125, 126-fondlarda; to‘rtinchi bob – Sirdaryo viloyat boshqarmasi, Zarafshon okrugi boshlig‘i, Samarqand viloyat boshqarmasi, Farg‘ona viloyat harbiy gubernasi kanselyariyasi Boshqarmasi, davlat dumasiga saylov o‘tkazish komissiyasi Sirdaryo viloyat bo‘limi, qochoqlarni ishga joylash Farg‘ona viloyat komiteti kabi hujjatlar 5, 17, 18, 19, 274, 276, 284, 525-fondlarda saqlanmoqda; beshinchi bob – shahar, uezd, rayon va uchastka tashkilotlari deb nomlangan, unda Toshkent shahar boshqarma boshliqlari, Sirdaryo viloyat Qurama uezdi boshqarmasi, Jizzax, Samarqand, Andijon, Qo‘qon,

Namangan, Chimyon va Uchqo‘rg‘on uezdlarining har xil hujjatlari arxivining 36, 24, 21, 22, 20, 25, 300, 329, 360, 23, 15, 349, 296, 172, 299, 320-fondlarida saqlanmoqda; Oltinchi bob – “Jandarm-politsiya nazorati organlari” deb nomlangan va unda Turkiston rayonlarini himoya qilish bo‘limlari, Temir yo‘l jandarm-politsiya bo‘limi, Toshkent eski va yangi shahar politsiya bo‘limlari, Andijon va Jizzax politsiya pristavlari haqidagi hujjatlar 461, 467, 677, 468, 462, 463, 464, 465, 590, 620 va 531-fndlarda saqlanmoqda; ettinchi bob – “Qamoqxonalar va qamoqxona qo‘mitalari” bo‘lib, u materiallar 80, 270, 325, 75-fndlarda saqlanmoqda.

II b o‘ l i m “O‘z-o‘zini boshqarish tashkilotlari va oliy martabali muassasalar” deb nomlangan, unda Toshkent shahar dumasi, shahar boshqarmasi, shahar umumiy xo‘jalik boshqarmasi, Samarqand va Yangi Marg‘ilon xo‘jalik boshqarmasi va Toshkent oqsoqoliklar kengashiga doir hujjatlar 718, 37, 472, 473, 277, 286 va 79-fndlardan o‘rin olgan.

III b o‘ l i m “Sud va prokuror fondlari” deb ataladi. Bu bo‘lim o‘z navbatida 3 bobdan iborat. Birinchi bob – viloyat sudlari, ikkinchi bob – okrug sudlari va uchinchi bob – uezd sudlari, sud ijrochisi, janjallik ishlar komissiyasi, xalq sudlari, qozilar, natariuslar haqidagi hujjatlar bo‘lib, ular 127, 134, 353, 178, 122, 504, 592, 593, 129, 133, 128, 132, 318, 130, 131, 278, 350, 150 va 505-fndlarda saqlanmoqda.

IV b o‘ l i m “Xo‘jalik-iqtisodiy tashkilotlar, muassasalar va korxonalar” deb nomlanadi va bu yetti bobdan iborat. Birinchi bob – moliyaviy bo‘lim 87, 88, 89, 108, 13, 497, 475, 281-fndlarda; ikkinchi bob – sanoat bo‘limi 41, 241, 113, va 100-fndlarda; uchinchi bob – qishloq xo‘jaligi 7, 356, 104, 29, 16, 163, 614, 14, 42, 9, 78 va 12-fndlarda; to‘rtinchi bob – savdo-sotiq bo‘limi 469, 264, 90, 99, 97, 93, 98 va 214-fndlarda; beshinchi bob – boj solish va olish haqidagi bo‘lim 471, 121, 46, 187, 306, 185-fndlarda; oltinchi bob – transport bo‘limi 33, 39, 528, 102, 101 va 560-fndlarda va nihoyat ettinchi bob – aloqa va statistika ishlari haqidagi hujjatlar 557, 43, 44, 266, 249, 269-fndlarda saqlanmoqda.

V b o‘l i m “Ilmiy va madaniy muassasa hamda tashkilotlar” deb nomlangan. O‘rta Osiyo ilmiy jamiyati haqida 591-fondda; Toshkent ximiya labaratoriysi 73-fondda; 1878-yilgi Toshkentda tashkil qilingan qishloq xo‘jaligi va sanoati ko‘rgazmasi materiallari 575-fondda; Turkiston qishloq xo‘jaligi jamiyati 103-fondda; Turkiston Harbiy okrugi qoshidagi astranomiya va fizika observatoriyasi haqidagi ma’lumotlar 70-fondda; Turkiston arxeologiya havaskorlari to‘garaga 71-fondda; rus imperatori geografik jamiyati Turkiston bo‘limi 69-fondda; imperator Sharqshunoslik jamiyati Toshkent bo‘limi 361-fondda; Turkiston entomolog stansiyasi haqida 231-fondda; polkovnik Serebrennikovning Turkiston o‘lkasi haqida to‘plagan hujjatlari 715-fondda; Turkiston o‘lkasidagi oliy va o‘rta maktablarni boshqarish haqidagi hujjatlar 47-fondda; Toshkentdagi 8 yillik erkaklar gimnaziyasi 50-fondda; Toshkentdagi bilim yurti 64-fondda; Toshkent harbiy gimnaziyasi 51-fondda; Toshkent savdo bilim yurti 56-fondda; Toshkentdagi birinchi xotin-qizlar gimnaziyasi 52-fondda; Toshkentdagi rus-tuzem maktabi 61-fondda; Toshkentdagi birinchi razryadli quyi qishloq gidrotexnika maktabi 65-frnnda; O‘rta Osiyo temir yo‘l Bosh boshqarmasiga qarashli Toshkent temir yo‘l bilim yurti 254-fondda; Samarcand xotin-qizlar gimnaziyasi 55-fondda; Turkiston xalq kutubxonasi 267-fondda va Turkiston xalq muzeyi haqidagi hujjatlar Markaziy davlat arxivining 72-fondidi saqlanmoqda.

VI b o‘l i m “Jamoat tashkilotlari” deb nomlangan va bu hujjatlar 596, 27, 81, 268, 611, 34, 8, 595, 76, 490 va 279-fondlardan o‘rin olgan.

VII b o‘l i m “Diniy nazorat fondi” deb nomlangan va bu haqidagi ma’lumotlar arxivning 182, 85-fondlarida saqlanmoqda.

Ko‘rsatgichga ilova sifatida geografik va shaxsiy ko‘rsatgichlar, sharq tillaridagi ayrim so‘z va terminlarga izohlar ham berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan bu durdona hujjatlar XIX asrning II yarmidan to Oktyabr inqilobigacha bo‘lgan O‘rta Osiyo, shu jumladan, o‘zbek xalqlarining o‘tmishi, urf-odatlari va tarixini o‘rganishda katta manba bo‘lib xizmat qiladi.

**Ikkinci Ko‘rsatgich.** O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivining Oktyabr inqilobi va sotsialistik qurulish bo‘limidagi fondlarini o’ ichiga oladi. Mazkur fondlarini shu davr uchun nashr qilingan ko‘rsatgich bo‘yicha ko‘rib va tanishib chiqamiz.

Ko‘rsatgichning birinchi bo‘limi “Turkiston territoryasida Muvaqqat hukumatning tuzilishi va ishchi-soldat deputatlari Soveti (oktyabrgacha) deb nomlangan, bunda Vaqtli hukumatning Turkiston Komiteti haqidagi hujjat 1760-fondda va Turkiston o‘lka soldat va ishchi deputatlar Soveti (1-chaqirig‘i) haqidagi hujjatlar esa 1613-fondda saqlanmoqda.

“Davlatning oliy organlari va davlat boshqarmalari” deb nomlangan ikkinchi bo‘lim ham o‘z navbatida 5 bobdan iboratdir. Birinchi bob – Turkiston ASSRning davlat organlari va davlat boshqarmalari deb atalgan hujjatlar 17, 13, 16, 25, 20, 18, 111, 39, 621, 38, 35, 606, 34, 208, 33, 37, 337, 29, 182, 184, 215, 41 va 21-fondlarda; ikkinchi bob – “Buxoro Sovet Xalq Respublikasi davlat organlari” deb nomlangan hujjatlar 46, 47, 48, 49, 50, 1616, 56, 57, 61, 63, 58, 62, 51, 52, 53, 68-fondlarda saqlanmoqda; uchinchi bob – “Xorazm Xalq Sovet Respublikasi davlat hokimiyati organlari va boshqarmalari”ga doir hujjatlar 71, 72, 73, 74 va 75-fondlarda; to‘rtinchi va beshinchi boblar – “O‘zbekiston SSR Davlat organlari va davlat boshqarmalari faoliyati”ga doir hujjatlar – 87, 86, 225, 837, 1807, 85, 95, 81, 2027, 1, 9, 11-fondlarda saqlanmoqda.

Uchinchi bo‘lim “Adliya va sud organlari” deb nomlangan bo‘lib, bu hujjatlar 904, 344, 343, 354, 345, 1713 va 1714-fondlardan o’rin olgan.

“Xalq xo‘jaligi tashkilotlari, muassasalari va korxonalarining faoliyati”ga doir to‘rtinchi bo‘limning o‘zi ham 7 bobga bo‘linadi. Birinchi bob – “Planlashtirish va statistika” deb ataladi va u 88, 10-va boshqa fondlarda; “Moliya” deb nomlangan ikkinchi bobdagi hujjatlar 93, 1680, 335, 634, 2086, 430, 333, 332, 436-fondlarda; “Sanoat” degan uchinchi bobdagi hujjatlar 89, 2, 83, 103, 1977, 2117, 109, 2113, 87, 132, 1867, 1023, 2097, 2105, 2106 va 2038-fondlarda; “Qishloq xo‘jaligi” deb nomlangan to‘rtinchi bobdagi ma’lumotlar 90, 611, 223, 226, 674, 218, 756, 473, 301-fondlarda saqlanmoqda; “Savdo, ta’minot va tayyorlov tashkilotlari” deb

atalgan beshinchchi bobdagi materiallar 91, 274, 320, 701, 141, 272, 1753, 293 va 1943-fondlarda; “Transport va aloqa” bobbi 233, 608, 2, 235, 244, 2085 va 5-fondlarda va nihoyat ettinchi – “Loyihalash va qurilish” bobidagi hujjatlar 169, 170, 610, 114, 2061, 2048, 2092 va 1956-fondlarda joy olgan.

Beshinchchi bo‘lim “Madaniy va maishiy tashkilotlar” deb ataladi va bunga oid hujjatlar ham 4 bobdan iboratdir. Birinchi bob – “Xalq maorifi va fan” bundagi materiallar 94, 368, 375, 374, 371, 633, 414, 364, 632, 631, 630, 361, 2091, 2082, 743, 394, 396, 412, 1876-fondlarda va “Matbuot” deb nomlangan boblar esa 402, 431, 155, 405, 404, 403, 408, 409-fondlarda saqlanadi. “Sanoat” bobidagi hujjatlar 2087, 2062, 2088, 2089 va 417-fondlarda; “Sog‘liqni saqlash” sohasidagi to‘rtinchchi bobga doir hujjatlar 131, 350 va 2096-fondlarda joylashgan.

“Mehnat va ijtimoiy ta’midot tashkilotlari” deb nomlangan oltinchchi bo‘limdagagi hujjatlar arxivning 97, 328, 96, 419 va 421-fondlarda saqlanadi. Ettinchi bo‘lim “Kasaba soyuzlar va jamoat tashkilotlari” deb nomlanib, bu uch bobdan iborat. Birinchi bob – “Kasaba soyuzlar” haqidagi hujjatlar arxivning 735, 805, 20, 747, 792-fondlarda saqlanadi. “Jamoat tashkilotlari” nomli bobdagi hujjatlar 44, 245, 126, 406, 840, 423, 239, 348 va 424-fondlarga kiradi. “Sport tashkilotlarining hujjatlari” 2043, 2053, 2047-fondlarda joylashgan.

Sakkizinchchi bo‘lim “Shaxsiy fond” deb nomlangan bo‘lib, bular 1726, 1591-fondlarda saqlanadi.

**3.O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxividagi shaxsiy fond hujjatlarining tavsifi.** Shaxsiy fondlar tarkib topishi jixatidan shaxsiy arxiv fondi hisoblanib, ayrim shaxs, oila, shajara hayoti va faoliyati jarayonida shakllangan hujjatlardan tarkib topgan arxiv hujjatlari sanaladi. Shaxsiy fond hujjatlariga fond egasiga tegishli biografik ma’lumotlar, ilmiy tadqiqotlar, dissertatsiya ko‘chirmalari, shaxsiy yozishmalar, shaxsiy hayotiga va faoliyatiga doir turli rasmiy hujjatlar, xizmat yoxud ijtimoiy ishga tegishli hujjatlar, kundaliklar, har xil fotosuratlar, yozishmalar, hadya bitiklar, maktublar, magnit tasmalari, turli yillardagi davriy matbuot nashrlaridan olingan qirqimlar, ayrim tarixiy manbalar, kitob, jurnal va gazetalar, fond egasi to‘g‘risidagi turli shaxslarning chikishlari, fond

egasi tomonidan, topshirilishi kerak, deb hisoblangan turli qo‘lyozmalar va boshqa hujjatlar kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida 220 tadan ortiq tarixiy shaxslarning shaxsiy fondlari saqdanadi. Fondlar turli davr va sohalarda ijtimoiy faoliyat olib borgan shaxslarga tegishlidir. Ularning orasida davlat va jamoat arboblari, ijtimoiy va tabiy soxa olimlari, yozuvchilar, shoirlar, san’atkorlar, ma’lum soxa buyicha xizmat ko‘rsatgan faollar (arxitektor, irrigator, muxandis, diniy arbob), madaniyat xodimlari, teatr va kino mutaxassislari, jurnalistlar, taniqli sportchilar, urush qaxramonlari va hokazolar bor.

Shaxsiy fond hujjatlari nafaqat ma’lum shaxslarning personal tarixi, balki, ijtimoiy tarix, ma’lum bir fan, soha tarixini o‘rganish buyicha daliliy materiallar berishi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Eng muhimi shundaki, ayrim tarixchi olimlarning fondlaridagi hujjatlar faqatgina “shaxsiy” bo‘lmay, mamlakatimiz, umuman O‘rta Osiyo tarixini o‘rganishga doir ko‘plab noyob hujjatlar uchraydi.

Shaxsiy fondda rus sharqshunos olimi va rassomi V.L.Vyatkin, tarix fanlari doktorlari, akademiklar M.E. Masson va G.A. Pugachenkova, YA.E. G‘ulomov, K.E. Jitov, K.Sh. Shoniyofov, S.A. Azimjonova, fan doktorlari. O.D.Chexovich, B.V. Lunin, L.I.Rempel, G.N. Chabrov, M.Yu.Yuldashev, X.Sh. Inoyatov, A.Ya.Sokolov, A.X.Boboxujaev, L.V. Gentshke, M.A. Axunova, T.G.Abaeva, P.A. Kovalev, tarix fanlari nomzodlari L.M.Landa, G.L.Dmitriev, M.I.Vekselman, M.E.Voronets, I.G.Polinov kabi olimlarning, bundan tashqari, tarixchi - kutubxonachi E.K.Betger, arxeolog G.V.Parfenov, etnograf V.I.Anuchin, tarixchi V.P.Savitskiy, arxitektor-sharqshunos B.N.Zasipkin, antrapolog L.V.Oshanin, sharqshunos I.D.Yagello kabi o‘lkashunoslarning shaxsiy arxiv hujjatlar jamlanmasi saqlanmoqda.

1943-yilda tashkil etilgan Tarix va arxeologiya instituti o‘z faoliyati mobaynida O‘rta Osiyo tarixiga doir tadqiqotlar va manbalarni nashr etish ishlarini, umuman sohaga oid barcha ishlarni ma’lum ilmiy yunalishda rejaga asosan amalga oshirib kelmoqda. Tarix va arxeologiya instituti tashkil bo‘lgan dastlabki chog‘larda olimlar asosan o‘z ilmiy ishlarini Rossiyaning etakchi shaharlarida boshlagan

bo‘lsalarda, keyinchalik O‘zbekistonda ham soha buyicha ilmiy kengash tuzila boshlandi. Shunga ko‘ra, mutaxassislarning ilmiy salohiyat oshib bordi. Buni O‘zR MDAda saqlanayotgan shaxsiy fondlar ham tasdiqlaydi.

O‘zbekistonda tarix ilmi rivojiga katta hissa qo‘sghan va ko‘plab shogirdlar etishtirgan olimlardan yana biri professor Boris Vladimirovich Lunin bo‘lib, u 1953-yildan umrining oxirigacha Tarix institutida faoliyat olib bordi. B.V. Lunin ilmiy kotib, katta ilmiy xodim, 1968-yildan Tarix instituta tarixshunoslik sektorini boshqargan. Uning rahbarligida o‘ndan ziyod nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari yoqlangan. Uning “O‘zbekistonda arxeologiya, tarix, etnografiya, falsafa va huquq fanlari buyicha bibliografik ko‘rsatkichlar”i tadqiqotchilar uchun muhim ilmiy amaliy qimmatga ega.

B.V.Luninga tegishli barcha shaxsiy arxiv hujjatlari uning qizi S.V. Lunina tomonidan 2002-yilda O‘zbekistan Respublikasi Markaziy davlat arxiviga topshirilgan. O‘sha yiliyoq 1876-2002-yillarga tegishli mazkur shaxsiy hujjatlar ilmiy-texnik ishlovdan o‘tkazilib, jami 425 yigmajildning (fond R-2868) opisi tuzilgan. B.V.Lunin shaxsiy fondi hujjatlari “B.V.Lunin ilmiy ishlari”, “Ilmiy xizmat materiallari”, “Biografik materiallar”, “Xatlar”, “B.V.Lunin haqidagi maqolalar”, “Xadya bitiklar”, “Boshka shaxsga tegishli materiallar” dan iborat.

O‘zR MDAda 2888-fond raqami ostida saqlanayotgan hujjatlar akademiklar Karim Shoniyofovich Shoniyofov (1924-2000) va uning rafiqasi Saboxat Azimjonovna Azimjonova (1922-2001) larning birlashgan fondi bo‘lib, hujjatlar ikki yirik olimning hayoti va ilmiy faoliyatining juda ko‘p qirralarini aks ettiradi.

1957-yilda K. Shoniyofov O‘zR FA Tarix instituta aspiranturasiga o‘qishga qabul qilindi. 1960-yilda Moskva shahrida «Историко этнографической очерк карлуков юэчжых и западных районов Узбекистана» nomli nomzodlik, 1977-yilda esa «К этнической истории узбекского народа» nomli doktorlik dissertatsiyalarini himoya qildi. 1960-yildan boshlab Tarix institutining turli lavozimlarida ilmiy faoliyat olib bordi. 1990-yildan umrining oxirigacha mazkur dargoxda etnik jarayon va o‘zbek xalqining etnik tarixi muammolarini o‘rganuvchi ilmiy tadqiqot guruxiga rahbarlik qildi.

K.Shoniyofov shaxsiy fondidan biografik ma'lumotlar, xotiranomalar (qo'lyozma), olimning ilmiy ishlari ro'yxati, rejalar, monografiyalari, maqolalar, ma'ruzalar, taqrizlar, olim ilmiy rahbarlik qilgan tadqiqotchilarining ro'yxati va ularning dissertatsiyalari, kundalik daftarlar (qo'lyozma), olimning ilmiy ishlari uchun to'plangan materiallari, hayotiga doir shaxsiy hujjatlari, yozishmalar, ijtimoiy faoliyatiga doir hujjatlar, faxriy yorliqlar, olim haqida boshqa shaxslarning ishlari muhim o'rin olgan. K.Shoniyofovning "O'zbeklar", "Qarluq davlati va qarluqlar", "O'zbek xalkining shakllanish jarayoni", "Toshkent shahri tarixidan lavha", "O'zbek xalqining etnogeneziga oid ba'zi nazariy masalalar", "Qang' davlati va qang'lilar", "IX-X asrlarda Markaziy Osiyo mintaqalarida etnik va madaniy jarayon", "O'zbek xalqining san'at tarixidan bir lavha", "Mahalliy turklar kimlar: turkmi yoki turkiy?" kabi ilmiy ishlariiga doir hujjatlar saqlanadi. Shuningdek, O'zbekiston FA akademigi, arxeolog olim Yahyo G'ulomov (1908-1977)ning ishlari O'zR MDA 2883-fondida, Baris Vladimirovich Lunin (1906-2001)ning ilmiy ishlari 2868-fondda, etnograf olim Nil Sergeyevich Likoshin (1860-1923)ga tegishli arxiv hujjatlar 2499-fondda, shaqshunos va lignvist olim Vladimir Petrovich Nalivkin (1852-1918)ning hujjatlari 2409-fondda, tarixchi olima Axunova Melixon Axunovna (1928-1987)ning ishlari 2800-fondda, arxeolog olim Mixail Evgenievich Masson (1897-1986) ning ilmiy ishlari 2773-fondda, O'zbekiston SSR xalq rassomi Lutfulla Abdullaevning asarlari 2707-fondda, O'zbekiston SSR FA Prezidenti Abdullaev Habib Muxamedovich (1912-1962) ning hujjatlari 2575-fondda, Stalin ta'qiblarining begunoh qurboni bo'lgan yozuvchi Mahmud Botu (Mahmud Maqsudovich Xodiev (1904-1940)ga tegishli arxiv hujjatlari 2556-fondda, SSSR xalq artisti, kinoaktyor Raxim Pirmuxammedov (1897-1972) ning hujjatlari 2639-fondda saqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, tarix fanining qaysi yo'nalishi o'rganilishidan qat'iy nazar o'rganilayotgan muammoni tadqiq etgan shaxslar faoliyati, ularning olib borgan tadqiqotlari natijalari, shu bilan birga, shaxsiy hujjatlari bilan ham tanishish kerak bo'ladi. Muammoning o'rganilish darajasi va tarixshunosligini yoritish ma'lum bir shaxslar faoliyati bilan bog'liqdir. Bu esa o'z o'rnida arxiv hujjatlariga,

xususan shaxsiy fondlardagi faktik materiallarga bo‘lgan talabni yanada oshiradi. O‘zR MDAda saqlanayotgan 200 dan ortiq shaxsiy fond hujjatlari tarixiy tadqiqot olib borishda muhim ahamiyatga ega. Bu kabi shaxsiy arxiv materiallari tarixda iz qoldirgan mashxur-shaxslarning ijodi, faoliyatini, qolaversa, davr va jamiyat tarixini tadqiq etishdagi “bo‘shliq”ni to‘ldirishda daliliy manba, tarixiy hujjat vazifasini o‘taydi.

### **Savol va topshiriqlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi qachon tashkil topdi?
- 2.O‘zR MDA tomonidan qaysi ko‘rsatgichlar nashrga tayyorlandi?
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan fondlar xususida nimalarni bilib oldingiz?
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan shaxsiy fond hujjatlari asosida mustaqil ishi tayyorlash.
5. Mustaqillik yillarda O‘zR MDA da qanday ishlar amalga oshirildi.

### **Manba va adabiyotlar**

1. Арафонова З.И., Халфин Н.А. Путеводитель. – Ташкент,1948.-Б.182.
2. Ланда Л.М. Путеводитель. - Ташкент.,1960.-Б.332.
3. Путеводитель по фондам Центрального Государственного Архива Узбекской ССР. – Ташкент.,1986.-Б.136.
4. Путеводитель по фондам Центрального Государственного Архива Республики Узбекистан. – Ташкент.,1996.-Б.142.
5. Путеводитель по фондам Центрального Государственного Архива Республики Узбекистан. Часть V. – Ташкент., 2013.-Б.104.
6. Исакова М. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. – Тошкент: Университет, 2012.-С.204.
7. Набиев А. Тарихий ўлкашунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979.-Б.166.

## **11-Mavzu: O‘zbekiston Respublikasi kino surat ovozli hujjatlar**

### **Markaziy davlat arxivni**

#### **Reja:**

1. O‘zbekiston Respublikasi kino, surat va ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivining tashkil topishi.
2. O‘zbekiston Respublikasi kino, surat va ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan fondlar.
3. Mustaqillik yillarda O‘zbekiston Respublikasi kino, surat va ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivining faoliyati.

**1. O‘zbekiston Respublikasi kino, surat va ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivining tashkil topishi.** O‘zbekiston Respublikasi kino, surat va ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivi (O‘R KSOH MDA) ikkinchi jahon urushining eng qizg‘in pallasida ya’ni 1943-yili tashkil topdi. Vatanimiz tarixini o‘zida aks ettirgan foto hujjatlarbundan ancha oldin to‘plana boshlangan edi. Turkiston ASSR XKSning 1921-yil 25-yanvardagi qaroriga binoan tashkil etilgan arxivlarda qo‘lyozma hujjatlar bilan birga nashr qilingan materiallar va fotohujjatlar ham yig‘ila boshlandi. Mazkur hujjatlarni saqlash choralar ko‘rildi. Ushbu jarayon 1935-yil oktyabr to‘ntarishi Markaziy davlat arxivi tarkibida foto bo‘limini tashkil etilganidan yanada tartibli ravishda amalga oshirila boshlandi.

Biroq, 1939-yilda bo‘lim yopilgandan so‘ng fotohujjatlar 1943-yilgacha, ya’ni kino, surat va ovozli hujjatlar markaziy davlat arxivi tashkil etilguncha nazoratsiz qoldi. Bu hol respublikamiz tarixiga oid ko‘pgina fotohujjatlarning yo‘qolishiga yoki ularga shikast etishiga sabab bo‘ldi.

1943-yil 18-martda Toshkent shahrida kino, surat, ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivi tashkil etilishi munosabati bilan 25m<sup>2</sup> maydonga ega bo‘lgan xona ajratilib, unga Qirg‘iziston Sovet Respublikasida shunday arxiv tashkil etishda ishtirok etgan shaxs – A.S.Etdelmen direktor etib tayinlandi.

II jahon urushi davridagi reportajlar foto hujjatlarinng yangi taraqqiyot bosqichi bo‘ldi. Urush foto-yilnomalarini yaratishda turli mamlakatlar fotoreportyorlari katta xissalarini qo‘shdilar. 1950-80-yillar hujjatli foto san’ati,

jahoning eng yirik agentliklari tomonidan jo‘natilgan reportyorlarning sayohatda yaratgan janrli fotografiyalari rivoji bilan xarakterlanadi.

O‘zbekiston hududiga XIX asrning 2-yarmida Yevropadan kelgan ko‘plab sayyoh-tijoratchilar va boshqa kasb egalari yurtimizni bebaho madaniy merosi, ayniqsa, ularni hayratga solgan mirobchilik (irrigatsiya) san’ati, nafis hunarmandchilik san’ati va odamlarning yashash tarzi madaniyatini aks ettirgan va bu tasvirlarni tarqatishgan.

Dastlabki o‘zbek fotoustalaridan biri xivalik Xudoybergan Devonov 1907-1908-yillar Peterburgga borib bu kasbni chuqur o‘rganish bilan birga o‘sha davrning eng ilg‘or foto-texnikasini olib kelgan va juda ko‘plab o‘ta yuksak tarixiy, badiiy mahorat namunalari bo‘lgan fotosuratlar yaratgan.

1940-yillarda O‘zbekiston foto hujjatlarining ijodiy uslublari ko‘paydi, janriy shakllar ortdi va fotograflar turli sohalar bo‘yicha ixtisoslasha bordi (mas, E. Yuditskiy – me’morlik, Romeev – teatr, A. Palekov – portret, R. Albekov – bolalar hayoti, R. Shamsiddinov, S. Beznosov – maishiy janr, S. Mahkamov – madaniyat bo‘yicha ixtisoslashdi). O‘zbekiston jurnalistlar uyushmasi fotoseksiyasi, yirik korxonalarda tashkil topgan fotoklublar respublika foto san’atining va xujjat turlarining rivojida muhim rol o‘ynadi.

Bir yil ichida arxiv xodimlari tomonidan arxiv saqlovxonasiga qabul qilinishi kerak bo‘lgan hujjatlarni aniqlash va ularni qabul qilish bo‘yicha uslubiy ishlanmalar tayyorlashga hamda hujjatlarni fondlar bo‘yicha xisobga olishdan voz kechib, saqlov birligiga ko‘ra ro‘yxatga olishga o‘tildi. Biroq arxiv faoliyatini sustlashtiruvchi omillar ham mavjud bo‘lib, ular malakali kadrlarning etishmasligi va arxiv ishining markazlashgan holda boshqarilishidan iborat bo‘lgan.

1959-yil 5-iyunda arxivning markaziy davlat arxivi tarkibiga kiritilishi va uni kino, surat, ovozli hujjatlar bo‘limiga aylantirilishi hujjatlarni saqlash ishiga ancha zarar etkazdi. To‘rt kishidan iborat bo‘lgan bo‘lim o‘z faoliyatini amalga oshirishda mustaqil qarorlar qabul qilish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan edi.

1960-yillarda hukumat vakillaridan iborat bo‘lgan maxsus komissiya tomonidan amalga oshirilgan tekshirishlar natijasida arxivni qayta tashkil etish

borasidagi bir qator asosli xulosalalar yozildi. 1970-yili A.A. Mirzaboevning tashabbusi bilan O‘zbekiston SSR kino, surat, ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivi binolarining qurilish ishlari nihoyasiga etdi. Alim Mirzaboevning ko‘rsatmalari bilan qurilish ishlari davomida maxsus saqlovxonalar loyihalari ishlab chiqilgan. 1973-yil fevralda O‘zbekiston hukumati tomonidan “Respublika arxiv ishini qayta tashkil etish to‘g‘risidagi” qaror qabul qilinib, unga asosan kino, surat, ovozli hujjatlar markaziy davlat arxivi qayta tiklandi.

1974-yildan O‘zbekiston SSR kinofotofono hujjatlar Markaziy davlat arxivi 1991-yil sentyabrdan O‘zbekiston Respublikasi kino, surat va ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivi (O‘R KSOH MDA) deb nomlana boshlandi.

O‘zbekiston Respublikasi kino, surat va ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivi O‘rta Osiyodagi eng yirik va O‘zbekistondagi yagona, maxsus hujjatlar saqlovi uchun ixtisoslashgan arxivdir. O‘R KSOH MDA O‘zbekiston Respublikasida o‘z soxasiga tegishli bo‘lgan maxsus hujjatlar bilan ishslashda ilmiy-uslubiy markaz hisoblanadi.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida ushbu arxivning jamiyatdagi o‘rni xususida Antonina Burton o‘zining “Archive Stories facts, fictions and the writing of history” asarida shunday deydi: “Butun dunyo bo‘ylab tarix ustida haqiqatni so‘zlash to‘g‘risidagi tushunchalar siyosiy, moddiy ahamiyat kasb etib bordi. Shuning uchun arxiv hujjatlarining tarixchi olimlar uchun naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini tushunish mumkin. Arxiv hujjatlaridagi topilgan maxfiy sirlar ataylabdan o‘zgartirilgan, yolg‘on dalil va ma’lumotlar millatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi. Yangi ming yillikda ajoyib hodisalardan biri shunda ediki, endilikda arxiv hikoyalariga qonun tashqarisidagi turli sohalarda ham duch kelish mumkin edi”. (Antonina Burton. Archive Stories facts, fictions and the writing of history). - London.2005.-P.4.).

**2. O‘zbekiston Respublikasi kino, surat va ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan fondlar.** Arxivda O‘zbekistonning XIX asrning 60-yillardan to hozirgi davrlarga oid tarixni o‘zida aks ettirgan noyob hujjatlar yig‘ilgan. Arxivda umumiylisobda 273.000 saqlov birligidagi hujjatlar saqlanadi.

Shulardan 19.257 saqlov birligi kinohujjatlar, 238.652 saqlov birligidagisi suratl hujjatlar, 15.185 saqlov birligidagisi ovozli hujjatlarni tashkil etadi. O‘zR KSOH MDAda fond va yig‘majild tushunchalari ishlatilmaydi, ya’ni har bir hujjat alohida saqlov birligida va alohida arxiv raqami bilan hisobga olinadi.

Mustamlaka davr fotoxujjatlarda Turkiston o‘lkasidagi milliy-ozodlik va inqilobiy harakat (1898, 1905-1907 yillar) ko‘rinishlarini, Rossiyasi imperiyasi vakillari tomonidan o‘lkaning boshqaruvi, ularning mahalliy hokimiyat bilan munosabatlari, sud organlari faoliyati, Qo‘qon xoni va Buxoro amirining xalqaro munosabatlari va aloqalari, musulmonlar dini va turmush tarzi tasvirlangan.

Fotoxujjatlarda sanoatning rivojlanishi (temir yul ko‘priklarining qurilishi, sug‘orish kanallari, teri va yog‘ zavodlarining ishlab chiqarish faoliyati, to‘qimachilik, ipakchilik fabrikalari, gilam to‘qish hunarmandchiligi, qishloq xo‘jalik inventari, ko‘mir sanoati va boshqalar) qishloq xo‘jalik ( sodda mexnat qurollari, erni omoch bilan haydash, qo‘l bilan paxta terish va boshqalar), transport va aloqalar (vokzal binolarining ko‘rinishlari; Toshkent temir yuli, Toshkentda Turkiston pochta-telegraf xizmatchilarining I o‘lka s’ezdi) (1917-yil ); savdo-sotiq (gazlama sotuv do‘konchalari, do‘ppilar, sopol idishlar, Samarkanddagi Registon maydonidagi sotuv rastalari; Andijon, Buxorodagi bozorlarning umumiyo ko‘rinishlari va boshqalar) tasvirlangan. Suratlar o‘zida o‘lkadagi sog‘liqni saqlash, maorif-fanni rivojlanishi; Turkiston ilmiy-tekshirish komissiyasining ishlari, Samarqanddagi Ulugbek observatoriysi qazilmalari, musulmon mакtablaridagi darslar, maktabdagi urf-odatlar, kasallarni eskicha davolash usullari, “o‘qib dam solish” ko‘cha muzikachilarining chiqishlari va boshqalarni aks ettirgan.

Sho‘rolar davri kino, surat va ovozli hujjatlarida hozirgi O‘zbekiston Respublikasi hududida sho‘ro hukumatining o‘rnatalishi, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi, Xorazm Xalk Sovet Respublikasi, Turkiston ASSR, O‘zbekiston SSR dagi davlat hukumati, ushbu respublikalar jamoat tashkilotlarining faoliyati, xalk xo‘jaligi, fan-texnika , sog‘liqni saqlash, xalq ta’limi, madaniyat va san’at, sport, xizmatchilarning dam olishi, shuningdek, bu respublikalar vakillari va chet davlat siyosiy jamoat arboblarining yuqori partiya organlari faoliyatida ishtirok etishi, fan

va madaniyat arboblarining O‘zbekistonga tashriflari va o‘z vakillarining boshqa respublikalarga safarlarini o‘zida aks ettirilgan.

Badiiy ovozli hujjatlar O‘zbekiston va chet el kompozitorlari asarlari, xalq musiqalari, she’riy, nasriy va drammatik asarlar, taniqli qo‘sishchilarning chiqishlari, xalq ijrochilari, respublika musiqa kollektivlari, jumladan Tamara Xonim, F.Baratova, M.Turg‘unboeva, N.Axmedova, T.Qodirov, M.Uzokov, Y.Rajabiy va boshqa ovozli yozuvlardan iborat.

Shuningdek, O‘zbekistonda xotin-qizlar ozodligi uchun harakati (Xujum): xotin-qizlarni paranjini butunlay yuq qilishga qaratilgan miting va yig‘ilishlari, savodsizlikka barham berishga qaratilgan kino, suratlar xam mavjud.

Arxivning kino va surat hujjatlari 2-jaxon urushi davridagi respublika hayotini, ko‘p millatli O‘zbekiston xalqining frontdagi qaxramonligi, front orqasida o‘zbek xalqining etim bolalarni asrab olish, mamlakatga zavod va fabrikalarni evakuatsiya qilinishi, mexnatkashlarning mitinglari, frontga ko‘ngillilarni kuzatish va boshqalarni ko‘rish mumkin .

Arxivda urushdan keyingi davrlarda respublika xalq xo‘jaligi tarmoqlari energetika, yoqilgi sanoati, metallurgiya, mashinasozlik, stanoksozlik, asbobsozlik sanoati va boshqalar, transport va aloqaning rivojlanishi; O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligining rivojlanishi (qishloq xo‘jaligi ilg‘orlari va ishchilarining s’ezd va quriltoylari), qo‘riq va bo‘z erlarni o‘zlashtirish qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish va kollektivlashtirish, paxtachilik va chorvachilikni rivojlantirish) o‘zida tasvirlangan kino, surat hujjatlar mavjud. Ushbu kino, surat hujjatlar madaniyat qurilishi, fan, sog‘liqni saqlash, san’at, fizkultura va sport rivojlanishi haqida ham tushuncha beradi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik davri kino, surat va ovozli hujjatlari O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining e’lon qilinishi, demokratik jamiyat qurilishi, davlat boshqaruvining yangi tizimini vujudga kelishi, markaziy organlari faoliyatining maqsad va vazifalaring o‘zgarishi, bank tizimining qayta tashkil etilishi, jaxon tomonidan O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining tan olinishi, chet el mamlakatlari bilan diplomatik aloqalarning o‘rnatalishi, ko‘p

partiyaviylikning va jamoat harakatining vujudga kelishi, bozor iqtisodiyoti, tadbirkorlikning rivojlanishi, yangi ma’naviy dunyoqarashning vujudga kelishini o‘zida aks ettirgan.

Arxivning kinohujjatlari M.Qayumov, D.Salimov, Sh.Zoxidov, I.Gibalevich kabi va ko‘pgina boshqa hujjatli kino ustalari ishlari bilan tanishtiradi. O‘R KSOH MDAda irrigator P.M.Kildyushovning, Toshkent tramvay-trolleybus boshqarmasi faxriy ishchisi S.A.Yusupovning, Toshkent Davlat Universiteti (hozirgi O‘zMU) biologiya-tuproqshunoslik fakulteti professori I.A.Raykovaning, Respublikamizning sport faxriylari L.Ivanova va F.R.Semerninlarning, “Tashkentskie malchish-ki” kitob avtori, jurnalist L.Berejnixning, Respublikamizning markaziy ro‘znama va oynomalari fotomuxbirlari M.Z.Penson, I.N.Panov, A.P.Shteynberg, U.Nurumbaev, E.Ryapasov, va boshqalarning fotohujjatlar kolleksiyalari (to‘plamlari) saqlanadi.

**Foto hujjatlar.** Milliy istiqlol tufayli o‘zbek fotografiyasi tamomila yangicha rivojlanish yo‘liga ega bo‘ldi. Jahon fotosan’atining o‘ta muhim o‘rni, ahamiyatini nazarda tutgan holda 2002-yilda O‘zbekiston Ba’diy akademiyasi tarkibida «Toshkent foto uyi» tashkil etildi.

F. Qurbonboev, R. Shagaev, N. Muhammadjonov, K.Minaychenko, M. va D. Penson, T. Zelma, V. Vyatkin, Tursun Ali, Sh. Usmon, V. An, V. Sokolov, R. YArullin kabi fotoustalar O‘zbekiston foto san’atida samarali faoliyat ko‘rsatgan.«Mahalla – men yashayotgan olam», «Suv – bu hayot demakdir» (2003 y. BMT bilan hamkorlikda), shuningdek, 2003-2004 y.larda «O‘zbekiston: sevgi izhori» ochiq respublika havaskor fotorassomlari uchun an’anaviy tarzda xalqchil fototanlovi o‘tkazildi.

**Kino hujjatlar.** O‘zbekistonda birinchi film 1897-yili «Eski jo‘va» maydonida ko‘rsatilgan. 1908-yildan Toshkent, Samarqand, Qo‘qon va boshqa shaharlarda chet el filmlari namoyish etilgan. O‘rta Osiyoda ko‘rsatilgan kinolentalar, asosan, Amerika, Fransianing Sharq ekzotikasi tasvirlangan filmlaridan iborat bo‘lgan. O‘zbek milliy kino sa’nati XX asrning 20-yillarida vujudga keldi. Birinchi o‘zbek

kinooperatori Xudoybergan Devonov o‘zining ilk hujjatli-xronikal filmlarida o‘zbek xalqining hayotini, urf-odatlaripi, Xorazm manzaralarini aks ettirishga intilgan.

1924-yil rus-buxoro shirkati «Buxkino», 1925-yil Toshkentda «Sharq yulduzi» (1936-yildan «O‘zbekfilm») kino-fabrikasining tashkil bo‘lishi o‘zbek kino sa’nati rivojini boshlab berdi. Lekin milliy kadrlarning yetishmasligi natijasida studiyani tashkil etishga urinish va «Buxkino» shirkati qoshida muntazam suratga olishni tashkillashtirish muvaffaqiyatsiz bo‘ldi. Toshkent studiyasiga hali kino sohasida yaxshi tanilmagan rus kino arboblarining kelishi, ularning kasbiy saviyasining pastligi haqiqiy milliy mazmundagi kinolar yaratishga yo‘l qo‘ymasdi. Ular yaratgan filmlar faqat ekzotik va tashviqiy xarakterda bo‘lib, o‘zbeklar hayoti buzib ko‘rsatilardi, o‘zbek ayollari rolini rus aktrisalari o‘ynashi natijasida qahramonning ichki dunyosi, uning psixologik kechinmalari ochib berilmasdi (masalan, «O‘lim minorasi» (rej. V. Viskovskiy), «Musulmon qiz» (D. Bassaligo), «Ikkinchchi xotin» (M. Doronin) va boshqalar).

Ovozsiz filmlarda berilgan mazmun tomoshabinga ko‘proq Yevropa mutaxassislari nuqtai nazarini ifodaladi. Chunki milliy an’analarni bilishdan yiroq mualliflarning asarlari shu ruhda yaratilgan edi. 20-yillarda yaratilgan «Soyabon arava» (O. Frelix), «Ravot qashqirlari» (K. Gertel), «Makrli changal» (V. Kozlov), «CHodira» (M. Averbax) kabi filmlar shular jumlasidan. Ovozli kinoning yuzaga kelishi o‘zbek kino sa’natining ham badiiy qiymatini oshirdi. Birinchi o‘zbek ovozli filmi «Qasam» (1937)da milliy aktyorlik madaniyati, o‘zbek hayoti va psixologiyasi mufassal aks etdi, ijtimoiy qarama-qarshiliklar asosiga qurilgan dramaturgiya namoyoi bo‘ldi. Chunki barcha bosh rollarni o‘zbek aktyorlari o‘ynagan edi. Lekin baribir asar ovozsiz kino davridagi eski kino madaniyati qoldiqlaridan xoli bo‘lolmagani sababli o‘tmish va bugungi kun o‘rtasida arosatda bo‘lib qoldi. Shu sababli, o‘sha davrda yaratilgan Gruziya, Ozarbayjon filmlari kabi eng yaxshi filmlar darajasiga ko‘tarila olmadi.

O‘zbek kinosining muboshiri bo‘lgan «Nasriddin Buxoroda» (1943, rej. Y. Protazanov) filmi xalq mavzusining haqiqiy imkoniyatlarini ochib berdi. Tasviriy vositalar qatorini qanday chiroyli va ifodali qurish mumkinligini ko‘rsatdi, yuqori

darajadagi ijro uslubini o'rgatdi. «Tohir va Zuhra» (1945, rej. N. G'aniev) filmi xalq ertaklari asosida yaratiladigan filmlar chegarasini «buzib» o'tgan holdatarixiy filmlar yaratishga asos soldi hamda milliy ruhdagi ifodali o'yin imkoniyatlarining naqadar kengligini his etishga imkon berdi. Keyinroq yaratilgan «Alisher Navoiy» (1947, rej. K. Ermatov) filmining yaratilishiga «Tohir va Zuhra» kinosi muhim poydevor bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, «Boy ila xizmatchi», «Qutlug' qon» (1953, 1957, rej. L. Fayziev), «Shohi so'zana» (1954, A. Beknazarov) kabi badiiy asarlar ekranlashtirildi.

O'zbek kinosila yoshlarda zamon taablariga yangicha qarash shakllandi, eski qolip va taxminlardan uzoqlashdilar hamda dunyoga shoirona nazar tashlash imkopiylari namoyon bo'ldi. Shu bilan birga hayot faqat sevish, xursandchilik qilish, qahvaxonalarda raqsga tushish, chiroyli kiyinishdan iborat deb bilgan shaharlik yigit va qizlar uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan filmlar ham o'zbek ekran san'atiga yangi bir sahifa bo'lib kirib keldi. Bu rejisyor E. Eshmuhamedov ijodida «Nafosat» (1966), «Sevishganlar» (1969) va b.) yaqqol ko'zga tashlandi. «Maftuningman» (1958, Y. A'zamov), «Mahallada duv-duv gap», «Sen etim emassan», «Qalbingda quyosh». «Toshkent — non shahri» (1960, 1962, 1966, 1967, rej. Sh. Abbosov), «Sinchalak», «Ulug'bek yulduzi», «Natashaxonim» (1961, 1965, 1966, rej. L. Fayziev), «O'tgan kunlar» (1969, rej. Y. A'zamov) va b. filmlar shular jumlasidan. Urush yillari «Frontdagi do'stlarga» (rej. K. Yormatov), «Frontga sovg'a» (S. Muhammedov, Y. A'zamov), «5 respublika konserti» (A. Speshnev, 3. Sobitov) kabi badiiy-hujjatli filmlar ishlandi.

**3. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi kino, surat va ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivining faoliyati.** Mustaqillik yillarida O'R KSOX MDAda bir qator o'zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, ushbu arxiv Koreya hukumati tomonidan KOICA granti asosida yangi texnologiyalar bilan ta'minlandi. Shu grant asosida o'rnatilgan arxiv hujjatlarini kiritish uchun mo'ljalangan yangi sistema asosida ish olib bormoqda. Bu sistema asosida barcha hujjatlar kompyuterga kiritilmoqda. Kelgusida bu sistema asosida barcha hujjatlar elektron shaklga

o‘tkazilgandan so‘ng, arxivga tashrif buyurgan tadqiqotchilar hujjatlarni elektron shaklda ko‘rib tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik davri kino, surat va ovozli hujjatlari saqlovida mustaqillikning e’lon qilinishi, demokratik jamiyat qurilishi, davlat boshqaruving yangi tizimini vujudga kelishi, markaziy organlari faoliyatining maqsad va vazifalaring o‘zgarishi, bank tizimining qayta tashkil etilishi, dunyo davlatlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining tan olinishi, chet el mamlakatlari bilan diplomatik aloqalarning o‘rnatalishi, ko‘p partiyaviylikning va jamoat harakatining vujudga kelishi, bozor iqtisodiyoti, tadbirkorlikning rivojlanishi, yangi manaviy dunyoqarashning vujudga kelishini o‘zida aks ettirgan.

O‘zbekiston Respublikasi kino, surat va ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivida quyidagi xizmatlarni bajaradi:

- arxivda saqlanayotgan kino, surat va ovozli hujjatlar haqida malumot berish;
- tadqiqotchilar o‘rganishi va ishi uchun kino, surat va ovozli hujjatlarni taqdim etish;
- kinohujjatlarni video tasmaga ko‘chirib berish;
- surat va ovozli hujjatlar nusxalarini tayyorlash;
- fotoko‘rgazma va stendlarni tashkil etish;
- mavzuli so‘rovlarni ijro etish;
- fotoalbomlar tayyorlash;
- arxiv bo‘yicha umumiyligi va mavzuli ekskursiyalarni tashkil etish.

Ko‘rsatilgan xizmatlar yuridik va jismoniy shaxslarning yozma so‘rovnomalari asosida amalga oshiriladi. Arxivning kino, surat va ovozli hujjatlari faqat arxiv rahbari ruxsati orqali taqdim etiladi. Ruxsat beriladigan muddat ish mavzusi bo‘yicha belgilanadi. Tadqiqotchilarni kino, surat va ovozli hujjatlar bilan ishlashi arxivning kino zali, katalog va ovozli hujjatlar eshitish xonalarida amalga oshiriladi.

Hozirda O‘zbekiston Respublikasi kino, surat va ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivida jamlash manbalaridan hujjatlarinn qabul qilish ishlari olib borilmoqda. Asosiy jamlash manbalaridan O‘zbekiston Respublikasi ilmiy-ommabop va hujjatli fil’mlar kinostudiysi dan 2013-yilda 126 saqlov birligida,

2014-yil 9 oy davomida 95 soqlov birligida kino hujjatlar, O‘zbekiston Milliy axborot agentltgining Bosh suratli axborotlar taxririyatidan 2013-yili 5044 saqlov birligida hamda O‘zbekteatr ijodiy ishlab chiqarish birlashmasidan 261 saqlov birligida foto hujjatlar qabul qilingan.

Shular bilan bir katorda “O‘zbekiston Respublikasi ilmiy-ommabop va hujjatli fil’mlar kinostudiyasi”dagi 4 saqlov birligida fotoplastinkalar xamda 200 saqlov birligida ”O‘zbekteatr” ijodiy ishlab chiqarish birlashmasidan 259 saqlov birligidagi foto hujjatlarning qimmatdorligi aniqlandi hamda davlat saqloviga qabul qilindi.

### **Savol va topshiriqlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi kino, surat va ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivida qachon tashkil topdi?
- 2.O‘zR KSOH MDA tomonidan qaysi ko‘rsatgichlar nashrga tayyorlandi?
3. O‘zbekiston Respublikasi kino, surat va ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan fondlar xususida nimalarni bilib oldingiz?
- 4.O‘zbekiston Respublikasi kino, surat va ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan shaxsiy fond hujjatlari asosida mustaqil ishi tayyorlash.
5. Mustaqillik yillarda O‘zR KSOH MDA da qanday ishlar amalga oshirildi.

### **Manba va adabiyotlar**

1. Арафонова З.И., Халфин Н.А. Путеводитель. – Ташкент, 1948.-Б.182;
2. Ланда Л.М. Путеводитель. - Ташкент., 1960.-Б.332;
3. Путеводитель по фондам Центрального Государственного Архива Узбекской ССР. – Ташкент., 1986.-Б.136.
4. Путеводитель по фондам Центрального Государственного Архива Республики Узбекистан. – Ташкент., 1996.-Б.142.
5. Путеводитель по фондам Центрального Государственного Архива Республики Узбекистан. Часть V. – Ташкент., 2013.-Б.104.
6. Исакова М. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. – Тошкент: Университет, 2012.-С.204.

## **12-Mavzu: O‘zbekiston Respublikasi ilmiy-texnikaviy va tibbiyat hujjatlari Makaziy davlat arxivining tashkil topishi va faoliyati**

**Reja:**

- 1.O‘zbekiston Respublikasi ilmiy-texnikaviy va tibbiyat hujjatlari Markaziy davlat arxivining tashkil topishi.
2. O‘zbekiston Respublikasi ilmiy-texnikaviy va tibbiyat hujjatlari Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan fondlar.
3. Mustaqillik yillarda O‘zbekiston Respublikasi ilmiy-texnikaviy va tibbiyat hujjatlari Markaziy davlat arxivining faoliyati.

**1. O‘zbekiston Respublikasi ilmiy-texnikaviy va tibbiyat hujjatlari  
Markaziy davlat arxivining tashkil topishi.** Ikkinci jahon urushidan so’ng butun dunyoda arxiv hujjatlariga o‘zgacha yondashish kuzatildi. Endilikda ularga ijobiy yondashish, arxiv madaniyati qonunlari bilan birga turli sohalardagi arxivlarni o‘zgacha bir obrazda gavdalantirish imkonini berdi. Bu esa arxivning demokratik shaklini yaratishga yordam beradigan va uni izlaydigan insonlar sonini ko‘paytirdi hamda ko‘plab insonlar o‘zlarining boshidan kechirgan va o‘tmishi haqidagi hikoyalari bilan tarix zarvaraqlarini boyita boshladilar. Nazariyachi olimlar Lari Grossberg va Megan Morris ta’kidlab o‘tganidek, kundalik hayotimizga hamma narsaning bir zumda g‘oyib bo‘lib ketishdagi qo‘rquv hissi XXI asr uchun yangilik emas (arxiv hujjatlarini demokratlashtirish bundan mustasno emas edi). Ko‘pchilik olimlar esa og‘zaki tarixiy hikoyarning ma’lum vaqt o‘tishi bilan yo‘q bo‘lib ketishidan xavotirlana boshladilar. O‘z ilmiy izlanishlarini xotirlab Tina Camit ba’zi olimlarning hamma narsa arxiv tarzda hisobga olinishi mumkinligidan xavotirda ekanliklarini ta’kidlab o‘tadi (Antonina Burton. Archive Stories (facts, fictions and the writing of history). - London.2005.-P.5.).

Har bir narsada nafaqat hozirgi davr va o‘tmish orasida balki tuzumning taqdiriga dahldor shaxslar va arxiv hujjatlari orasida ham qandaydir bir dinamik aloqalar mavjutdir. Olim Carolin Stedman arxiv hujjatlariga mavjud zamon

xarakteri ruhiyati ham ta'sir qilishi mumkinligini takidlaydi. Sobiq tuzumda olib borilgan izlanishlar va undagi nazariyalar arxivning faqatgina oddiy manbaa emas, balki to'liq huquqli tarixiy aktyor vazifasini bajarishini ham isbotlaydi. Mustabid tuzum arxiv hujjatlari imperiya qudrati, bosib olib hukmronlik qilishi va gegemonlikni ko'rsatib beruvchi oyna bo'lib xizmat qiladi. Jorj Sanizares Esguerra va Diana Taylor ispan tilida so'zlashuvchi turli mamlakatlarda tarixiy yozma manbaalarni jamiyatga qarshi olib borilgan nohaqliklar, noqonuniy hatti harakatlarni baholashga yordam bergenligini ham ko'rsatib beradilar (Antonina Burton. Archive Stories (facts, fictions and the writing of history). - London.2005.- P.5-6.).

Arxiv hikoyalari faqatgina tarixdagi faktlarni dalil qilib ko'rsatadigan manbaa emas, balki, u tanlab olingan jilolanib ishlov berilgan insonlarning haqiqiy hayoti aks ettirilgan asarlar to'plami hamdir. Agar ko'plab tarixchilar birgalashib arxivlar ustida ish olib bormasalar o'z-o'zidan ayonki tarix butunlay yo'q bo'lib ketishi boshqacha qilib aytganda tarix halokatiga sabab bo'lishi mumkin. Chunki ular bizni aynan o'tmish bilan bog'lovchi bir ko'prik vazifasini bajaradi (Antonina Burton. Archive Stories (facts, fictions and the writing of history). - London.2005.- P.8.).

1960-yillar boshida sobiq Ittifoq miqqosida tibbiyot sohasini rivojlantirish, yuqumli kasalliliklar tarixini o'rganish, ularga qarshi kurashishni tashkil etish va ilmiy tadqiqotlar olib borish maqsadida sovet hukumati tibbiyot hujjatlarini arxivda saqlash va qabul qilish ishlarini amalga oshira boshladi. 1962-yili tibbiyot arxivi birinchi bo'lib O'zbekistonda tashkil qilindi. Arxivga tibbiyot xodimi To'xta Usmonov direktor qilib tayinlandi. Arxiv xodimlari 100 dan ortiq tibbiyot sahasidagi tashkilotlarni boshqarib, ularning hujjatlarini qabul qilish va saqlashni nazorat qilish bilan birga uslubiy yordamlar ham ko'rsatdi.

1965-yili arxivda texnik hujjatlar bo'limi tashkil etilib, xodimlari soni 8 nafarga etdi. Ilmiy-texnikaviy hujjatlarning ahamiyati oshib borgani sababli arxiv 1965-yil 26-martdagি O'zbekiston SSR Ministirlar Kengashining qaroriga binoan tibbiyot va texnikaviy hujjatlar Markaziy Davlat arxiviga aylantirildi. Shundan

so‘ng, ilmiy-texnikaviy va tibbiyot hujjatlari davlat saqloviga topshirishni tashkil qilish tartibli amalga oshirilib, shu yilning o‘zida hujjatlarning umumiy soni 30 mingga yetdi.

1980-yil 18-dekabrda O‘zbekiston SSR tibbiyot va texnikaviy hujjatlar Markaziy davlat arxivisi Ilmiy-texnikaviy va tibbiyot hujjatlari Markaziy davlat arxivisi deb o‘zgartirildi.

Arxivda 1930- yillarga tegishli hujjatlardan tortib sovet davri va mustaqillik yillariga oid hujjatlar saqlanadi. 2009-yilda arxiv jamg‘armasiga jami 4354 ta; shundan 1501 ta boshqaruv; 1888 ta shaxsiy tarkib hujjatlari; 758 ta ilmiy va shaxsiy fond egalarining 207 ta hujjatlari qabul qilindi. 2004-yilda mazkur arxiv o‘zining yangi binosiga ko‘chib o‘tdi. Hozigi kunda arxivda 341 ta fond, 250000 ta saqlov birligiga ega. Bundan tashqari 500 ga yaqin turli korxona va tashkilotlarning shaxsiy tarkib hujjatlari saqlanadi.

**2. O‘zbekiston Respublikasi ilmiy-texnikaviy va tibbiyot hujjatlari Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan fondlar.** O‘zbekiston Respublikasi ilmiy-texnikaviy va tibbiyot hujjatlari Markaziy davlat arxivida hujjatlar saqlov xonalarini ko‘zdan kechirganimizda bu yerda ham hujjatlar maxsus hujjat saqlov anjom (stelaj)larida va maxsus taylorlangan quti (korobka) larda joylashtirilgan edi. Hujjatlar ketma ket raqamlashtirilib quti(korobka)larga joylashtiriladi. Qutilar esa yilma yil joylashtiriladi. Hujjatlar qutilarga joylashtirilganidan so‘ng qutilar yuziga maxsus qog‘ozlarda hujjat qaysi muassasa yoki korxonaga tegishli ekanligi yozib qo‘yiladi. Hujjat saqlanayotgan xona harorati bir xilda saqlanib turishi alohida ahamiyat kasb etadi. Havo haroratini o‘lchovchi asbob termometr, namlikni o‘lchovchi asbob barometr deyiladi. Hujjatlar saqlanayotgan xona harorati 15 – 18 gr namlik esa 50 – 55 gr.bo‘lishi lozim. Hujjatlar saqlanayotgan xonaga eng asosiysi quyosh nuridan saqlash lozim. Shuning uchun xona derazalariga quyosh qaytaradigan oynalar o‘rnataligan.

Azaldan muxandis-u memorlarimiz ishlari kishini hayratga solib, xavas hissini oshirib keladi. O‘zbekiston Respublikasi Ilmiy-texnikaviy va tibbiyot xujjatlari Markaziy davlat arxivida ilm, fan, og‘ir va engil sanoat, texnika, konstrukturlik,

transport, yul qurilishi hamda tibbiyot soxasiga oid bo‘lgan hujjatlar saqlanadi. Bundan tashqari arxivda shu yo‘nalishlardagi soxalarning rivojlanish tarixiga hissa qo‘shgan fan arboblari olim va professorlarning shaxsiy jamg‘arma hujjatlari doimiy tarzda davlat saqloviga qabul qilinadi.

Shaxsiy jamg‘arma hujjatlari orasida o‘zbek milliy me’morchiligi arxitekturasi tarixi rivojiga o‘zining beqiyos xissasini qo‘shgan xalq arxitektori sharafli unvoniga birinchilar qatori tuyassar bo‘lgan ustoz me’mor Abdulla Boboxonovning 30 dan ortiq shaxsiy hujjatlari ham saqlanib kelinmoqda. Uning betakror ijod yuli tadrijida o‘zbek xalq me’morchiligi taraqqiyot yo‘li aks etgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Abdulla Boboxonov 1910-yilda Toshkentning avvalgi CHu daryosi yonida joylashgan To‘qmoq degan qadimiyl shinam shaxarchada dunyoga kelgan. A.Boboxonov o‘z faoliyati davomida Buxoro, Samarkand, Karshi, SHaxrisabz, Qo‘kon kabi boy merosimiz aks etgan ko‘rkam maqbarayu, madrasalarni ko‘rib undagi o‘zbek me’morchiligiga bo‘lgan xavasi xissi uyg‘ona borgan.

1922-yili Toshkent Davlat Universitetining injener-memoratsiya fakulteti qoshida arxitektura vabinokorlik qurilish bo‘limlari ochilgan. Keyinroq bu O‘rta Osiyo qurilish institutiga aylangan. A.Boboxonov ham ana shu institutga qabul qilinib, me’morchilik va binokorlik san’atini egallahga kirishgan. Bo‘lajak olim bu hunarni zo‘r shijoat va ishtiyoy bilan egallab bordi. 1933-yilda u shu soxa mutaxassis arxitektorlik diplomini qo‘lgakiritdi. A.Boboxonov birinchi o‘zbek arxitektori bo‘lib, uning oldida keng ijod ufqi ochilga nedir. Ijodiy parvozi uchun qulay sharoit mavjud edi. O‘z malakasini oshirish uchun u Moskvaga yuborildi. Avvaliga injener-qurilishinstitutiaspiranti,kasbi arxitektor bo‘lganligisababli 1934 yili Arxitektura institutiga aspiranturasiga qabul qilindi. A.Boboxonov ustozni I.V.Rilkiy raxbarligida ulkan madaniyat saroylari, sport inshootlari, kinoteatrлar, uy-joylar ijod etishga ishtiyoqi oshib bordi.

A.Boboxonov aspiranturada o‘qishi davomida faqat G‘arb arxitekturasinigina emas, balki O‘rta Osiyo qadimiyl arxitekturasini ham artroflichcha o‘rganishga, o‘tmish ijobiy tajribalaridan keng foydalanishga alovida e’tibor berdi.

Samarkand, Buxoro, Shaxrisabz, Qo‘qon kabi qadimgi osori antiqa boy shaharlarda bo‘lib, ayniqsa XIV-XV asrlarga oid arxitektura yodgorliklarini chuqr o‘rgandi. Bu esa me’morning kelgusida ijodiy izlanishlar uchun zamin tayyorladi.

1939-yil boshlarida A.Boboxonov Toshkent shahar loyixalash institutiga bosh arxitektor qilib tayinlandi. A. Boboxonov hayotida ilg‘or loyixa va me’morchilik ishlari davri boshlandi. Suv inshootlari kurilishishi rejalashtirildi, shunga ko‘ra 1939-yili Katta Farg‘ona kanali 45 kun ichida qazib bitkazildi. SHuningdek, SHimoliyvaJanubiyFarg‘onakanallari, Toshkent kanali ham tez kundatugallandi. A. Boboxonov o‘zining 45 yillikbunyodkorlikishidavomida 100 dan ortiq loyixalartuzibularnitatbiq kildi. A.Boboxonovning 23 ta ilmiyasarlariborki ular hozirgikundanodirvanoyobxujjatlarsirisigakiradi. O‘z ijodidavomida A.Boboxonov 50 ga yaqinturli o‘rindagiuy-joylar, madaniyatsaroylari, kino va teatr zallari, choyxona, suvxavzalari va yana boshqa ko‘pgina betakror ijod namunalarini keltirish mumkinki, ular bugungi kunda barcha uchun birdek qadrlidir.

Taniqli vrach S.M.Mannonov haqida mazkur arxivda qimmatli hujjatlar saqlanadi. Mannonov inson salomatligi uchun muhim sanalgan mavzuda tadqiqot olib borgan. U 1967-yil 30-dekabr oyidatibbiyot fanlari nomzodi dissertatsyasini ximoya kilgan. 1960-1988 yilgacha kichik ilmiy xodim, katta ilmiy xodim so‘ng bo‘lim boshligi lavozimida ishladi. S. M. Mannonov 1969-yildan beri “Umurtqa qiyshiqligi” kasalliginikonservativvaoperativ davolash usuli bilan shug‘ulanadi. “Umurtqa qiyshiqligi” kasalligini, Respublika miqyosida tarqalish darajasini aniqlash uchun professor N.M. Shamatov raxbarligida 1966-1973 yillarda maktabgacha va maktabdagi bolalarni tekshirib chiqdi hamda bu kasallikni miqdorini aniqlashda bevosida qatnashdi. M.S. Mannonov O‘zbekiston Respublikasida birinchi marotaba skolioz kasalini mukammal o‘rgandi.

S.Mannonov 9 ta skolioz kasalligini davolaydigan maktab-internatlarida muntazam ravishda o‘z maslahatlariniberib keldi. 1998-2003 yillarda 1106 ta, 20 xil murakkablikdagi operatsiyalarni bajargan va yordamlashgan. S.Mannonov 100 ortiq ilmiy ishlar muallifi. Ko‘plab olimlar va ortaped mutaxasislarga ustoz. Mannonov

Samuk Mannonovich 2003-yil 10-noyabrdagi №16 sonlibuyruqqa ko‘ra “travmatologiya va ortopediya” mutaxasisligi bo‘yicha “Oliy” malaka toifas iberildi. Mannonov S. M. O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan tibbiyot xodimidir.

**3. Mustaqillik yillarda O‘zbekiston Respublikasi ilmiy-texnikaviy va tibbiyot hujjatlari Markaziy davlat arxivi O‘R (ITTX MDA)ning faoliyati.** Mustaqillik yillarda O‘R ITTX MDA faoliyatini yanada rivojlantirish, arxivni texnik va texnologik jixatdan zamon talablariga mos ravishda jihozlash, moddiy-texnik bazani rivojlantirish ishlari davom ettirildi. SHuningdek, arxivda pullik xizmatlar spektrini yanada kengaytirish, arxiv tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirildi. Bu borada arxiv tomonidan asosan turli tashkilotlar faoliyati davomida vujudga kelgan hujjatlarga o‘rnatilgan tartibda ilmiy-texnik ishlov berish, yangi jamlash manbalari bo‘lgan tashkilotlarni hisobga olish ishlariga alohida e’tibor qaratildi.

Hozirda arxivning asosiy ish faoliyati ilmiy-texnikaviy hujjatlar bilan ishslash masalalarini kengaytirish, ilmiy ma’lumotnomalarini tuzish, hujjatlardan xalq xo‘jaligida, ijtimoiy-huquqiy maqsadlarda foydalanishni tashkil etishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi ilmiy-texnikaviy va tibbiyot hujjatlari Markaziy davlat arxivida respublika ahamiyatiga ega bo‘lgan, Toshkent shahar va viloyatida joylashgan ilmiy-tekshirish, loyiha qidiruv institutlari, loyihibiy-texnikaviy buyurolar, trestlar, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari, ilmiy-texnikaviy jamiyatlar, Sog‘liqni saqlash vazirligi, sog‘liqni saqlash birlashmalari, klinik kasalxonalar, dispanserlar, yirik korxonalarning tibbiy-sanitariya qismlari, tibbiyot oliygochlari hujjatlari saqlanadi. Bundan tashqari arxiv saqlovxonasida paxtachilik, ipakchilik ilmiy tekshirish institutlari to‘qimachilik mashinasozligi bo‘yicha etakchi konstruktorlik byurolari, qurilish bo‘yicha loyihibiy institutlar, irrigatsiya qurilmalari, gidroelektrostansiylar, suv omborlari qurilishi bo‘yicha juda ko‘p ilmiy-texnikaviy, g‘oyaviy ishlanmalar to‘plangan.

O‘zbekiston Respublikasi ITTH MDA o‘z yo‘nalidagi hujjatlar bilan ishlovchi respublika ilmiy-uslubiy markaz sifatida unga yuklatilgan vazifalarga

asosan quyidagi ishlarni bajaradi:

- 1) idoraviy arxivlarda vaqtinchalik saqlanayotgan O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi tarkibiga kiruvchi hujjatlar ro‘yxatini tuzish;
- 2) hujjatlarni davlat saqloviga qabul qilish;
- 3) davlat hisobini olib borish;
- 4) hujjatlar qimmatdorlik ekspertizasini o‘tkazish;
- 5) ilmiy ma’lumotnomma aparati tizimini yaratish;
- 6) hujjatlardan foydalanishni tashkil etish;
- 7) ilmiy-uslubiy ishlarni olib borish.

Umuman olganda, bugungi kunda arxiv saqlovxonasida 146 ta turli tashkilot hujjatlari yig‘ilgan bo‘lib, 54 tasi tibbiyat muassasalariga tegishli. Hujjatlarning umumiy soni 2002-yilga kelib 212 497 taga etgan, ulardan ma’muriy hujjatlar soni 79 963 ta, ilmiy-texnikaviy hujjatlar 34 425 ta, kasallik tarixiga doir hujjatlar 94 647 ta, shaxsiy fondlar 3457 tani tashkil etadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi ITTH MDA Toshkent shahridagi 150 dan ortiq va Toshkent viloyatidagi 10 dan ortiq tashkilotlarda O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi hujjatlarini butlash, saqlovini ta’minlashda, ularga ilmiy-texnikaviy ishlov berishda amaliy va uslubiy yordam ko‘rsatadi. Arxiv ilm-fan, texnika, sanoat, qurilish, transport, aloqa, konstruktorlik, ratsionalizatorlik va tibbiyat sohalari bo‘yicha faoliyai ko‘rsatayotgan davlat va nodavlat tashkilotlarini ro‘yxatga olish ishlarni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 28-noyabrdagi  
“Iqtisodiyotni real sektori korxonalarini qo‘llab quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta’minlash va eksport saloxiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi PF-4058-sonli Farmonini bajarish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan bo‘lib, mazkur reja asosida ishlar muntazam ravishda olib borilmoqda. Shu bilan birgalikda arxiv faoliyatini yanada rivojlantirish, arxivni texnik va texnologik jixatdan zamon talablariga mos ravishda jixozlash, moddiy-texnik bazani rivojlantirish ishlari davom ettirildi. Shuningdek, arxivda pullik xizmatlar spektrini yanada kengaytirish, arxiv tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar

sifatini oshirish yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirildi. Bu borada arxiv tomonidan asosan turli tashkilotlar faoliyati davomida vujudga kelgan xujjatlarga o‘rnatilgan tartibda ilmiy-texnik ishlov berish, yangi jamlash manbalari bo‘lgan tashkilotlarni hisobga olish ishlariga alohida e’tibor qaratildi.

O‘R MAF hujjatlari saqlovini ta’minlash jarayonida hisobot davrida 1637 varaq arxiv hujjatlari ta’mirlandi, 1442 saqlov birligidagi hujjatlar muqovalandi va tikish ishlari amalga oshirildi, 418 saqlov birligidagi hujjatlar karton qutilarga joylashtirildi. SHuningdek, 405 saqlov birligidagi o‘ta qimmatli arxiv hujjatlari ko‘rib chiqildi va 125 saqlash birligidagi hujjatlar o‘ta qimmatli hujjatlar qatoriga kiritildi. Hujjatlarni nashr etish va ulardan foydalanish ishlari bo‘yicha 20 ta tashabbusli axborot, 22 mavzuli so‘rov, 17 ta arxiv hujjatlari asosida ko‘rgazma, 20 ta radioeshittirish, 10 ta teleko‘rsatuv, 10 ta maqolalar, 25 ta arxiv bo‘ylab qiziqarli ekskursiya, 3ta maktab darslari va suxbatlar tashkil etildi.

2013-yil davomida hujjatlarni jamlash va idoraviy arxivlarda ish yuritish bo‘limi xodimlari tomonidan arxivning jamlash manbaiga kirgan korxona, tashkilot, muassasalarda ish yuritish va arxiv ishini belgilangan tartib bo‘yicha yo‘lga quyish maqsadida 32 ta yalpi va 30 ta nazorat va mavzuli tekshiruvlar o‘tkazilib, aniklangan kamchiliklarni bartaraf qilish bo‘yicha tegishli tavsiyalar berildi. Idoraviy arxivlarning 106 ta me’yoriy-huquqiy hujjatlari (ish yuritish yo‘riqnomalari, nizomlar, hujjatlar nomenklaturalar) qayta ishlanib takomillashtirildi. Joylarda ish yuritish va hujjatlar saqlanishi ta’minlash yuzasidan bir kunlik seminarlar o‘tkazildi.

Bugungi rivojlangan texnika asrida hayotimizni texnika va zamonaviy texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Jamiyatimizning har bir jabhasiga zamonaviy texnika-texnologiyalari keng qo‘llanilmoqda, shuningdek, respublika arxiv tizimida ham. 2008 – yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ – 949 sonli qaroriga asosan Koreya davlatining KOICA loyihasini jalb qilish bo‘yicha ishlar amalga oshirildi va arxiv zamanaviy texnologiyalar bilan jihozlandi. Arxivning hozirgi paytdagi asosiy ish faoliyati Koreya davlatining KOICA granti asosida olib keltirilgan zamonaviy texnologiyalar yordamida hujjatlarni elektronlashtirishdir. Hujjatlarni elektronlashtirish ishida maxsus dastur yaratilgan. Hujjat dastlab

elektron katalog yaratiladi.Bunda hujjatni nomi,katalog raqami,hujjat varog‘i soni,hujjat tili,hujjat joyi va hujjat haqida umumiy ma’lumot kiritiladi.Elektron katalog yaratilganidan so‘ng bu hujjatlar birma bir suratga tushiriladi va hujjatni asl nusxasi surati hujjat haqidagi umumiy ma’lumot bilan birlashtiriladi.Elektron hujjatlarni qulayligi shundaki arxiv hujjatlaridan foydalanishni xoxlagan har bir fuqaro hujjat titib vaqtini o‘tkazmaydi kompyuterdan o‘zi qidirayotgan hujjatni “qidiruv”buyrug‘ini bersa kifoya hujjat paydo bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 21-avgustdagи “Koreya Respublikasi Hukumatining grant mablag‘larini jalb etgan holda O‘zbekiston Respublikasi markaziy davlat arxivlarini rekonstruksiya qilish hamda ularni texnik modernizatsiyalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №PP-949-sonli qarori qabul qilindi. Bugungi kunda qaror ijrosi yuzasidan arxivlar faoliyatini yaxshilashga oid ulkan ishlar amalga oshirildi. Ya’ni grantning dastlabki bosqichi respublikaning 3 ta markaziy davlat arxivlari Koreya davlatining zamonaviy texnologiyalari bilan ta’minlandi. Markaziy davlat arxivlari xodimlaridan bir necha nafar arxivchi mutaxassislar Koreya Respublikasida bo‘lib malaka oshirib qaytishdi.

Hozirgi kunda arxivning asosiy ish faoliyatlaridan biri arxivda mavjud qog‘oz hujjatlarini mazkur zamonaviy texnologiyalar yordamida elektron ko‘rinishga keltirishdir. Elektron arxivlarning bir qator qulayliklari bo‘lib eng avvalo hujjatni qidirib topish va undan foydalanishda vaqt samaradorligiga erishiladi. Bundan tashqari eng assosiysi, hujjatning moddiy asosiga kamroq zarar etadi.

Ilmiy-texnikaviy va tibbiyot hujjatlari Markaziy davlat arxivi 2004-yili Toshkent shahri Olmazor tumani, Nozimaxonim ko‘chasi, 86 uyda joylashgan yangi binoga ko‘chirildi. Arxivda quyidagi sohadagi korxona, tashkilot va muassasalardan hujjatlar qabul qilinadi va saqlanadi. Bular sanoat, qishloq xo‘jaligi, suv xo‘jaligi, o‘rmon xo‘jaligi, transport, qurilish, turar joy komunal xo‘jaligi va maishiy xizmat ko‘rsatish. Bundan tashqari arxivda ilmiy texnikaviy hujjatlar, konstruktorlik loyihalari va bir qancha tarixiy ahamiyatga ega hujjatlar saqlanadi.

Arxivda qishloq xo‘jaligi sohasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi viloyatlari, tumanlarida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish to‘g‘risidagi loyihalar va

smetalar mavjud. Suv xo‘jaligi sohasida Respublika bo‘yicha xo‘jaliklarni, xalqni ichimlik suvi bilan ta’minlash va erlarni sug‘orish ishlari haqidagi, o‘rmon xo‘jaligi sohasi bo‘yicha cho‘l erlarni obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish ishlari haqida, transport sohasi bo‘yicha ko‘priklar qurish, yo‘llarni ta’mirlash to‘g‘risidagi, qurilish sohasida esa shahardagi turar joylar, binolar qurish, rekonstruksiya qilish haqidagi, sog‘liqni saqlash sohasi bo‘yicha ilmiy-tekshirish institutlarida olib borilayotgan ilmiy ishlar, tibbiyat sohasini rivojlantirishga oid doimiy saqlanadigan hujjatlar mavjud.

Bundan tashqari arxivda respublikada ilm-fan sohasini rivojlantirishga o‘z hissalarini qo‘shegan professor va olimlarning shaxsiy jamg‘armalari tashkil qilingan bo‘lib, ularning shaxsiy hujjatlari, suratlari, ilmiy ishlari qabul qilinadi va saqlanadi. Masalan, me’mor A.B. Boboxonov, kardiolog M.X. Hamidova, ximik T.M. Mirkomilov, stomatolog T.X. Safarov, onkologlar S. Navro‘zov, Y.T. Tadjiboeva, genikolog N.M. Maxmudova, A.A. Choroxova, xizmat ko‘rsatgan agronom M.M. Mirzaev, irrigator N.A. Aliev va boshqalarning shaxsiy jamg‘armalari saqlanadi.

### **Savol va topshiriqlar**

O‘zbekiston Respublikasi Ilmiy-texnikaviy va tibbiyat hujjatlari Markaziy davlat a

i O‘zbekiston Respublikasi Ilmiy-texnikaviy va tibbiyat hujjatlari Markaziy davlat a

ii Mustaqillik yillarda O‘R ITTX MDA faoliyatini yanada rivojlantirish uchun

■

iii

iv O‘zbekiston Respublikasi Ilmiy-texnikaviy va tibbiyat hujjatlari Markaziy davlat arxivining xalqaro aloqalari haqida fikr yuriting.

v O‘zbekiston Respublikasi Ilmiy-texnikaviy va tibbiyat hujjatlari Markaziy davlat arxividagi hujjatlardan foydalanilishi xususida fikr yuriting.

vi

### **Manba va adabiyotlar**

vii

viii

ix

x

1. Зухриддинов Н. Ўзбекистон Республикаси илмий-техникавий ва тиббиёт ҳужжатлари Марказий давлат архиви фаолиятида ахборот технологияларидан фойдаланиш // Талабалар амалий семинари мақолалари тўплами. – Тошкент, 2011. –Б.31-33.
2. Исакова М.С., Иофе В.Г. Архившунослик. – Тошкент: Чўлпон, 2007.
3. Мўминов Т. Давлат архивларида электрон каталог яратиш масалалариго доир (ЎзР ИТТХ МДА мисолида) // Талабалар амалий семинари мақолалари тўплами. – Тошкент, 2011. –Б.49-51.
4. Хожиметова М. Ўзбекистон Республикаси илмий-техникавий ва тиббиёт ҳужжатлари МДА – 40 ёшда. // “Ўзбошархив” Ахборотномаси, 2002. - № 29. – Б. 52-56.
5. O‘zarchive agentligi rasmiy sayti. [www.archiv.uz](http://www.archiv.uz).
6. I.T.T.X.M.D.A. rasmiy sayti. [www.csantmd.uz](http://www.csantmd.uz).

### **13-Mavzu: O‘zbekiston Respublikasi hududiy davlat arxiv muassasalari Reja:**

1. Hududiy arxivlarning shakllanishi va rivojlanishi tarixi.
2. Hududiy arxiv muassasalari faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari.

**1. Hududiy arxivlarning shakllanishi va rivojlanishi tarixi.** Arxiv tadqiqot ma’lumotlaridan ma’lumki, arxiv ishlarini tashkil qilish va rivojlantirish bo‘yicha o‘lka hukumatiga topshiriq 1918-yilning iyun oyida kelib tushgan. Bu ishni Turkiston ASSR byudjet moliya komisiyasi raisi (MIK huzuridagi) V.N. Kucherbaev boshqardi. U 1919-yilning oktyabrida Turkiston ASSR sovetining XIII s’ezdida arxiv ishlarini tashkil qilish, boshqaruvi, topshiriq va vazifalari to‘g‘risida ma’ruza qildi. Prezidium taklifiga ko‘ra (s’ezd prezidiumi) ma’ruza MIK ga ko‘rib chiqish uchun topshirildi. Natijada Turkistonda mahalliy viloyat arxiv bo‘limlarini tashkil qilinishiga katta e’tibor berila boshlandi. Masalan, 1920-yil martida Farg‘onada va Kaspiy orti viloyatida, 1920-yil iyunda – Samarqanda, o‘sha yil noyabrda Ettisuvda ana shunday arxiv bo‘limlari tashkil qilindi.

Milliy-hududiy chegaralanish o‘tkazilgandan so‘ng 1924-yil 28-dekabrdan maxsus qaror bilan O‘zbekiston SSR MIK huzirida O‘zbekiston SSR Arxiv ishi markaziy boshqarmasi tashkil qilindi. O‘zbekiston hududida tashkil bo‘lgan barcha arxivlar, masalan, Farg‘ona, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm va boshqa viloyatlar arxiv idoralari vujudga kelgan arxiv jamg‘armalari O‘zSSR Arxiv ishi markaziy boshqarmasiga topshirildi.

1931-yil 20-mayda O‘zbekiston SSR MIK O‘zbekiston SSR Arxiv ishi markaziy boshqarmasi va uning mahalliy idoralari to‘g‘risidagi nizom haqida qaror qabul qildi. O‘zSSR Arxiv ishi markaziy boshqarmasi huzurida O‘z SSR Oktyabr inqilobi markaziy davlat arxivi va markaziy davlat tarix arxivi tashkil qilindi. Farg‘ona va Samarqand shaharlarida ularning bo‘limlari tashkil etildi. Shahar va tumanlarda zarur hollarda tuman va shahar davlat arxivlari tashkil qilishga qaror qilindi.

1938-yil 15- yanvardagi sobiq SSSR Oliy Kengashi sessiyasida O‘zbekistonda Farg‘ona, Toshkent, Samarqand, Buxoro viloyatlarini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilingan edi. Bular o‘z-o‘zidan Markaziy arxiv ishini yaxshiladi va tartibli tuzilma vujudga kelishi uchun zamin yaratdi. 50-yillarning boshlarida ham arxivlarga yangi arxiv hujjatlarini saqlaydigan binolar etishmas edi. Ushbu vaziyatni hisobga olib O‘zbekiston hukumati 1954- yilning 13- yanvarida “Respublikada arxiv ishini yaxshilash to‘g‘risida” qaror qabul qildi va Toshkent shahrida markaziy arxiv uchun bino qurilishi nazoratini O‘zSSR IIV ga yukladi. Bu vazifa 1964-yilga kelib, amalda bajarildi. 1955-yilning 1-yanvarida O‘zbekiston shahar va tumanlarida 8 ta shahar va 138 ta tuman arxivlari mavjud edi.

1960-yillar boshida arxivlar taraqqiyotida yangi davr boshlandi. Arxiv tashkilotlarini bevosita O‘zbekiston Ministrlar Sovetiga bo‘ysundirilishi respublikada arxiv ishini rivojlanishiga yordam qilgan muhim omil bo‘ldi. Ministrlar Sovetining 1961-yil 9-maydagi qarori bilan O‘zbekiston SSR Ichki Ishlar Vazirligining arxiv boshqarmasi O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti huzuridagi arxiv boshqarmasi qilib qayta tashkil qilindi. SHu qaror asosida mahalliy arxiv tashkilotlari Qoraqalpog‘iston ASSR Ministrlar soveti va viloyatlar ijroiya

qo‘mitalari ixtiyoriga o‘tkazilishi ularni davlat apparati tuzumidagi rolini orttirdi hamda arxiv ishi taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi.

Bu yillarda davlat arxivlari arxiv ishini tartibga solishni nazorat qilishni kuchaytirdilar. SHu bilan birga ularga yordam berishga katta etibor qaratdilar. Bu ishlar natijasida respublikada 1964- yili 1809 tashkilotda, 1965-yili 1759 tashkilotda arxiv hujjatlari tartibga solindi. 1968-yilning boshida Namangan viloyati tashkil topishi munosabati bilan Namangan viloyati davlat arxivi tashkil qilindi. Keyinchalik Namangan viloyatida Tuychi shahar posyolkasi arxivi (1969) va CHust (1962) bo‘limlari ochildi.

1970-yillarda davlat arxivlari nazorat qilayotgan tashkilotlarning idoraviy arxivlari va ish yuritish xizmati bir muncha yaxshilandi. O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1973-yil 16-fevraldagagi “Respublikada arxiv ishini ahvoli va yanada yaxshilash tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori asosida ijrokomlar qoshida shaxsiy tarkib hujjatlarini idoralararo xo‘jalik hisobidagi arxivlarni tashkil qilish keng avj oldi. Yana bir qarorga ko‘ra arxiv boshqarmasi O‘zSSR Ministrlar Soveti huzuridagi Bosh arxiv boshqarmasiga aylantirildi.

Mustaqillik yillarida hududiy arxiv muassasalari arxiv hujjatlari saqlovini ta’minalash, ish yuritishni tashkil qilish borasida samarali ishlar amalga oshirildi. Ular o‘z faoliyatini 1990-yil 28-iyunda “O‘zbosharxiv” qarori bilan tasdiqlangan “DAF hujjatlari idoraviy saqlovining ta’minalashi, asosiy yo‘nalishlari (1990-1995 yillar) va amalga oshirilishi tashkiliy-metodik tadbirlari rejasi” asosida tashkil qilindi. Unda arxiv tashkilotlari Respublika vazirliklari va idoralari bilan birgalikda DAF hujjatlari idoraviy saqlovini takomillashtirish, ular tarkibini yaxshilash, moddiy texnika bazasini yaxshilash, ularni kadrlar bilan ta’minalash, idoraviy arxivlar bilan ishlash bo‘yicha me’oriy-metodik qo‘llanmalar tayyorlash va boshqa tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan edi. Bu tadbirlarning bajarilishi muassasa, tashkilot va korxonalar idoraviy arxiv hujjatlari saqlovini yanada yaxshilashga imkon berdi.

Shahar va tuman hokimiyatlari qoshidagi shaxsiy tarkib bo‘yicha idoralararo arxivlar tarmog‘i birmuncha kengaydi. 1995-yilda 1990-yilga nisbatan bunday

arxivlarning soni 13 taga ko‘paydi va 1995-yilda ularning soni 91 tani tashkil qildi. Bu arxivlar shaxsiy tarkib bo‘yicha hujjatlari saqlovini va fuqorolarga ijtimoiy-huquqiy ma’lumotnomasi berishni yaxshiladi.

Mustaqillik sharoitida arxiv ishini boshqaruva davlat organi O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligi hisoblanadi. Uning tizimiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hududiy boshqarmalari, ularning qaramog‘idagi davlat arxivlari (ularning filiallari) hamda markaziy davlat arxivlari kiradi.

Yuqorida qayd etilgan arxiv tashkilotlariga arxivlarni butlash, O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi hisoblangan respublika xalqlarining o‘tmish tarixi to‘g‘risidagi hujjatli yodgorliklarni jamiyat va fuqarolar manfaati uchun saqlash hamda foydalanish kabi davlat majburiyatlari yuklangan.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida 100 dan ortiq davlat arxivlari bo‘lib, ularda 8 miln. yig‘majildlardan ziyod hujjatlar asrab - avaylab saqlanmoqda. Bu hujjatlardan tarixchilar, tadqiqotchilar, talabalar va boshqa mutaxassislar ilmiy, madaniy-ma’rifiy ishlarda keng foydalanmoqda.

**Andijon viloyati davlat arxivi.** SSSR Xalq Komissarlar Sovetining 1941-yil 29-martdagi 723-sonli qarori va O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlar Sovetining 1943-yil 18-fevral 145-sonli qaroriga asosan Andijon viloyati davlat arxivi tashkil topdi. O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining tashkiliy qo‘mitasi 1941-yil 24-apreldagi qaroriga asosan NKVD arxiv boshqarmasi va Andijon shahar davlat arxivi tasarrufida Andijon viloyati ichki ishlar boshqarmasi arxivining shtatlar jadvali tasdiqlandi. Andijon viloyat ijroiya qo‘mitasining 1956-yil 14-martdagi 79/4 sonli qaroriga asosan viloyat ichki ishlar boshqarmasi tasarrufidan shu viloyat ijroiya qo‘mitasi tasarrufiga o‘tkazildi. Andijon viloyat ijroiya qo‘mitasining 1965-yil 19-apreldagi 211-sonli qaroriga asosan tumanlardagi davlat arxivlari viloyat davlat arxivi filiallari deb nomlandi. Mustaqillik yillarida Andijon viloyatida arxiv ishlarini rivojlantirish bo‘yicha faoliyat yuritayotgan viloyat davlat arxivi va tumanlardagi Asaka, Izboskan, Marxamat, Oltinko‘l, Shaxrixon va Qo‘rg‘ontepa arxivlari hisoblanadi. Viloyat davlat arxivida 2013-yil 1-yanvar holatida 478 ta

hujjatlar fondi mavjud bo‘lib, ularda 157371 ta tarixiy va ilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan yig‘majild hujjatlar saqlanmoqda. Hozirda viloyat davlat arxivni Andijon shahri, Bobur shohko‘chasi, 41-uyda faoliyat yuritmoqda.

**Buxoro viloyati davlat arxivni.** Buxoroda arxiv ishining tashkil etilishi 1925-yili Zarafshon viloyati arxiv byurosining vujutga kelishi bilan bog‘liq. Bu arxiv muassasasi 1927-yilda Buxoro okrugi arxiv byurosi deb qayta nomlandi. 1931-yildan Zarafshon viloyati va Buxoro okrugi arxiv jamg‘armalari Samarqand bo‘limida to‘plangan edi. 1932-yildan bu jamg‘armalar Buxoro bo‘limiga topshirilgan. Bu bo‘lim 1938-yili Buxoro viloyati tashkil topgach Buxoro viloyati boshqaruviga o‘tkazildi. Shunday qilib, Buxoro viloyati arxiv bo‘limi 1940-yildan Buxoro viloyati davlat arxivni deb qayta nomlandi.

Arxivda Buxoro viloyati shuningdek, Zarafshon viloyatiga oid hujjatlar, Buxoro Xalq Sovet Respublikasining 1920-1924-yillar tarixiga doir hujjatlar jamlangan. Shuningdek, arxivda 1918-yildagi shahar dumasining faoliyati, zavodlarning milliylashtirilishiga oid, Navoyi, Buxoro harbiy garnizoniga oid, Kerkidagi qo‘zg‘olonlar (1919-yil) haqidagi materiallar to‘plangan. Buxoro tumani ijroiya qo‘mitasi jamg‘armasida – Zarafshon viloyati dastlabki MTSning tuzilishiga oid, uy, sanoat qurilishiga hamda madaniy-ma’rifiy sohaga doir hujjatlar mavjud.

Arxivning suratlari hujjatlarida 1917-yilgi voqe‘alarning O‘zbekiston xalqiga o‘tkazgan zulmiga, gaz quvirini qurilishiga oid (1965), Amu Buxoro kanali (1965) tarixiga oid, Navoyi GES qurilishiga oid lavhalar tasvirlangan. Shuningdek, Buxorodagi Minorai Kalon (Arslonxon minorasi), Mir Arab madrasasi, Chorminor, Ismoil Somoni maqbarasi, Buxoro amirining yozgi va qishgi saroylari hisoblangan Sitorai Mohi Xosa va Buxoro Arki xususida atroflicha ifodalar berilgan. Hozirda viloyat davlat arxivni Buxoro shahri, Ibn-Sino ko‘chasi, 8-1-uyda faoliyat yuritmoqda.

**Jizzax viloyati davlat arxivni.** Jizzax viloyat davlat arxivni O‘zbekiston Respublikasidagi arxiv muassasalari o‘rtasida o‘z o‘rniga ega arxiv hisoblanadi. Garchi Jizzax viloyati 1974-yilda tuzilgan bo‘lsada viloyatdagi arxivlarda Rossiya imperiyasi, Oktyabr inqilobi, ikkinchi jahon urushi, sovet davri, mustaqillik

davridagi noyob va nodir moddiy-madaniy boylikka ega bo‘lgan hujjatlar saqlanib kelinmoqda.

Viloyat arxiv xizmati 1974-yildan Jizzax viloyati arxiv bo‘limi tuzilganligi bilan bog‘liq. Lekin bu sanadan avval ham viloyatda arxivlar faoliyat yuritgan. Mazkur arxiv Sirdaryo viloyati davlat arxivining Jizzax filiali sifatida 1954-yilda qayta nomlangan. Ushbu arxiv hujjatlari viloyat va uezd tarixini yoritadi. Tarixga oid hujjatlar Jizzax uezdi ishchi va qizil armiya deputatlari jamg‘armasida mujassamlashgan. 1963-yilda Sirdaryo viloyati kengashi ijroiya komiteti hududiy tuzilishi bilan hozirgi viloyat hududining bo‘linishi sodir bo‘ldi. Misol uchun G‘allaorol tuman hududlari Samarqand viloyati hududida qoldi. Qolgan hududlar Sirdaryo viloyatiga qo‘sib olindi. Shu davrdagi viloyat hududidagi tashkilotlarning hujjatlari Samarqand va Sirdaryo viloyatlari arxiv muassalarida saqlanmoqda.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakatimizdagi boshqa muassasalar kabi arxivlarga ham e’tibor kuchaydi, arxiv hujjatlari boshqa qulay binolarga o‘tkazildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 3-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini boshqarishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 49-sonli qaroriga asosan “O‘zbosharxiv” boshqarmasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligiga aylantirildi va shu bilan birgalikda viloyatlardagi kabi Jizzax viloyat arxiv ishi hududiy boshqarmasi va Jizzax viloyat davlat arxivi alohida davlat muassasasi sifatida qaytadan tuzildi.

Bugungi kunda Jizzax viloyat davlat arxivi viloyat arxiv ishi hududiy boshqarmasi bilan birgalikda Jizzax shahri Narimanov ko‘chasi 78-uyda maxsus arxiv uchun qurilgan binoda faoliyat yuritadi.

**Navoyi viloyati davlat arxivi.** Navoyi viloyati davlat arxivi O‘zSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1882-yil 20-apreldagi “Navoyi viloyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi ko‘rsatmasiga binoan tashkil etildi. Oliy Sovet Prezidiumining 1988-yil 6-sentyabrdagi “Navoyi va Samarqand viloyatlarini birlashtirish to‘g‘risida”gi qarorining qabul qilinishi natijasida Navoyi viloyati davlat arxivi o‘z faoliyatini to‘xtatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 27-fevralda №188 sonli qaroriga “Navoyi viloyatini qaytadan tashkil etishning masalalari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Navoyi viloyati tashkil qilingach, Navoyi viloyati davlat arxivini tashkil etish asosiy kun tartibidagi masalaga aylandi. 1993-yil 7-yanvardagi Navoyi viloyati hokimining №01/3 sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qaror asosida Navoyi viloyati davlat arxivini tashkil qilishning barcha tashkiliy masalalari ishlab chiqildi. Hozirda viloyat davlat arxivi Navoiy shahri, M.Tarobiy ko‘chasi, 107 a-uyda faoliyat yuritmoqda.

**Namangan viloyati davlat arxivi.** Namanganda arxiv ishi 1936-yilda davlat arxivi bazasi asosida tashkil etilgan. 1941-yili Namangan viloyati tashkil etilgach, viloyat davlat arxivi deb qayta nomlangan. 1960-yildan Andijon viloyati davlat arxivining Namangan shahar filiali sifatida faoliyat yuritgan. 1986-yilga kelib, Namangan viloyati davlat arxivi deb qayta nomlangan. Arxiv jamg‘armalarida Namangan viloyati siyosiy-iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy taraqqiyotiga oid sovet hukumati davrini yorituvchi hujjatlar jamlangan. Namangan viloyati arxiv jamg‘armalarida sovet hokimiyatining o‘rnatalishi, milliy ozodlik harakati, sotsialistik qurulishning olib borilishi va Namangan viloyati, shahar, tuman ijroiya qo‘mitalari faolitiga oid turli hujjatlar mujassamlashgan.

Arxivning uezd yer-suv komissiyasi jamg‘armasida qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligiga oid 1925-1926-yillardagi yer-suv islohotlariga oid, qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish, kooperativlar tarixiga oid hujjatlar to‘plangan. Xalq ta’limi jamg‘armasida esa, madaniyat, kasaba uyushmalar, xalqning moddiy ahvoliga oid hujjatlar saqlanmoqda. Shuningdek, arxivning suratli hujjatlar jamg‘armasida yer-suv islohotlari, sanoat va xalq xo‘jaligi taraqqiyotini madaniy va ommaviy tarzda yoritilishiga oid hujjatlar mavjud. Hozirda viloyat davlat arxivi Namangan shahri, Bank ko‘chasi, 9-uyda faoliyat yuritmoqda.

**Samarqand viloyati davlat arxivi.** Samarqandda arxiv ishining tashkil etilishi 1921-yilda Turkiston ASSR Samarqand viloyati arxiv bo‘limining tashkil topishi bilan bog‘liq. Ushbu arxiv muassasasi 1925-yilda Samarqand viloyati arxiv byurosi, 1927-yilda Samarqand viloyati arxiv boshqarmasi deb nomlangan. 1940-

yilda shu arxivlar bazasi asosida Samarqand viloyati davlat arxivi tashkil topgan. Samarqand viloyati inqilob jamg‘armasida 1917-yilgi inqilobga oid, mustabid tuzumning faoliyati, fuqarolar urushi, shuningdek, mahalliy xalqning sho‘rolar hokimiyatining o‘rnatalishiga qarshilik qiluvchi milliy ozodlik harakatlariga oid hamda Turkistonda sovet hokimiyatining o‘rnatalishiga doir hujjatlar mavjud. O‘rta Osiyoning milliy-hududiy chegaralanishiga oid jamg‘armada O‘zbekiston SSR 1924-1930-yillar oralig‘idagi ijtimoiy-iqtisodiy holati, uning poytaxti bo‘lmish Samarqand va keyinchalik viloyatdagi sotsialistik qurilish haqidagi hujjatlar jamlangan. Shuningdek, iqtisodiy va sanoat ishlab chiqarish jamg‘armasida paxta yetishtirish, vinochilik, ipakchilik va boshqa sohalarga oid hujjatlar saqlanmoqda. Arxivning suratli hujjatlari ichida Bibixonim, Shohi Zinda, Xo‘ja Ahror masjidi, Ulug‘bek madrasasi, Temuriylar saroy arxiv hujjatlari saqlanmoqda. Bugungi kunda Samarqand viloyat davlat arxivi Samarqand shahri Ko’ksaroy maydonii 7-uyda faoliyat yuritadi.

**Sirdaryo viloyati davlat arxivi.** Sirdaryoda arxiv ishining tashkil etilishi 1941-yili Toshkent viloyati davlat arxivining Mirzacho‘l bazasidagi faoliyati bilan bog‘liq. 1963-yili Sirdaryo viloyati tashkil etilgach, Sirdaryo viloyati davlat arxivi deb qayta nomlangan. Bu arxiv muassasasida saqlanayotgan qimmatli arxiv hujjatlari Mirzacho‘l tumani va shu yerning o‘zlashtirilishi tarixi, Sirdaryo viloyati hamda Guliston tarixiga oiddir.

2013-yil 14-iyun kuni Sirdaryo shahrida Sirdaryo viloyati davlat arxivi yangi binosi ochilishi marosimi hamda “Yosh arxivchilar assotsiatsiyasi”ning an’anaviy IV Forumi o‘tkazildi. Forumda respublikamizning barcha viloyatlaridan 41 nafar ishtirokchilari tashrif buyurishdi. Forum yakunida barcha ishtirokchilarga esdalik sovg‘alari berildi. Arxiv muassasalarida xodimlar salomatligini asrash borasida jismoniy chiniqtirish va ularni sport o‘ynlariga jalg etish ishlari amalga oshirildi. Buning uchun davlat arxivlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan sport anjomlarini sotib olish va ulardan xodimlar extiyoji bo‘yicha foydalanish nazarda tutildi. Jumladan, Qashqadaryo viloyatida arxiv xodimlarining salomatligini mustahkamlash maqsadida xodimlar o‘rtasida may oyida boshqarmada Spartakiada

o‘tkazildi. Navoiy viloyatida “Navro‘z” umumxalq bayrami doirasida arxiv muassasasi xodimlarining qiziqishiga qarab “Kurash”, “Shashka va shaxmat” kabi milliy sport o‘yinlari o‘tkazildi va sport musobaqalariga jalb qilindi. Hozirda viloyat davlat arxivini Guliston shahri, Guliston ko‘chasida faoliyat yuritmoqda.

**Surxandaryo viloyati davlat arxivi.** Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi (MIK) ning 19-noyabr va O‘zbekiston SSR MIKning 1934-yil № 16/86 va № 6 sonli qarorlariga asosan Termiz shahrida O‘zbekiston Markaziy arxiv boshqarmasining tumanlararo bo‘limlari tashkil etilgan. Ushbu bo‘limlarning Boysun, Jarqo‘rg‘on, Sariosiyo, Sherobod va Termiz tumanlarida xizmat ko‘rsatishi bilglangan. Ushbu arxiv 1935-yil 21-dekabrda O‘zSSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining qaroriga asosan Surxandaryo viloyat Ijroiya Qo‘mitasining arxiv boshqarmasi deb qayta tashkil etilgan. O‘zSSR Oliy Sovet Prizidiumining 1941-yil 6-martdagi farmoniga asosan Buxoro viloyati tarkibidagi Surxandaryo viloyati ajralib chiqishi munosabati bilan Surxandaryo viloyat davlat arxivini tuzilgan.

Surxandaryo viloyat davlat arxivida 1-yanvar 2010-yil holatiga ko‘ra 361 dona jamg‘arma mavjud bo‘lib, unda 148 808 ming saqlov birligidagi hujjat saqlanmoqda. Arxivda 1917-yildan hozirgacha bo‘lgan davlat boshqaruvi organlari, sud va prokotura organlari, o‘kuv, madaniy va ma’rifiy muassasalar , kasaba uyushmalari, xalk ta’limi tashkilotlarning doimiy va uzoq muddatli saqlanadigan hujjatlari saklanmoqda. Ushbu hujjatlarda Surxandaryo viloyatining tarixi, madaniyati, qurilish, qishloq xo‘jaligi, mahalliy sanoat, xalq talimi bo‘limi sohalari aks etib, bosqichma-bosqich ko‘rsatkichlar asosida ifodalangan.

Surxandaryo viloyat davlat arxivining quyidagi tumanlarda bo‘limlari faoliyat ko‘rsatib kelmoqda: Boysun, Shirobod, Angor, Muzrabot, Jarqurg‘on, Sho‘rchi, Denov, Uzun. Bugungi kunda Surxandaryo viloyat davlat arxivini Termiz shahri A.Temur ko‘chasi 49-uyda faoliyat yuritadi.

**Toshknt viloyati davlat arxivi.** 1938-yil yanvar oyida Toshkent viloyatinig tashkil topishi munosabati bilan, O‘zbekiston SSR Markaziy ijroya qo‘mitasi sovetlarining tashkiliy bo‘limi qoshida Toshkent viloyati arxiv bo‘limi boshqarmasi tashkil topdi.

O‘zbekiston SSR Xalq Komissasrlari Sovetining 1940-yil 21-iyuldaggi 1052-sonli qaroriga asosan Toshkent viloyati arxiv boshqarmasi, Toshkent viloyati davlat arxiviga aylantirildi. 1943-yildan 1957-yilgacha Toshkent viloyati davlat arxiv O‘zbekiston SSR Ichki Ishlar Vazirligi boshqarmasining Toshkent viloyati bo‘linmalari qoshida faoliyat yuritdi.

1992-yildan boshlab Toshkent viloyati hokimligi tashkil topganligi sababli, Toshkent viloyati hokimligi arxiv bo‘limi deb ataldi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004- yil 3-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini boshqarishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 49-sonli qarori, Toshkent viloyati hokimligining 2004-yil 17-mart № 54 sonli qaroriga asosan Toshkent viloyati arxiv bo‘limi, Toshkent viloyati arxiv ishi boshqarmasiga aylantirildi. Toshkent viloyati arxiv ishi boshqarmasiga qarashli Toshkent viloyati davlat arxivii va uning 6 ta filialida hozirgi kunda 593239 dan ortiq hujjatlar saqlanmoqda. Bugungi kunda Toshkent viloyat davlat arxivii Qibray tumani, Yangiobod q.f.y, Milliy bog’ 27 a-uyda faoliyat yuritadi.

**Qashqadaryo viloyati davlat arxivi.** Qashqadaryodagi arxiv xizmati 1926 yilda arxiv byurosi tuzilishi bilan bog‘liq. 1928-yilda Qashqadaryo ogrugi tugatilib, Buxoro viloyati tarkibiga kiritilishi munosabati bilan Qashqadaryo ogrug arxiv byurosi ham o‘z faoliyatini to‘xtatadi. 1943-yil 23-mayda O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi, Qashqadaryo viloyati bo‘yicha tashkiliy qo‘mitasining qarori bilan Qashqadaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasining arxiv bo‘limi, viloyat davlat arxivii va tuman arxivlari tashkil etildi.

1960-1964 yillarda Qashqadaryo viloyati Surxandaryoga qo‘shilishi munosabati bilan shahar, tuman arxivlaridan tashqari viloyat davlat arxiv bo‘limi va viloyat davlat arxivlari tugatildi. 1964-yilda Qashqadaryo viloyati yangidan tashkil etildi, shu bilan birga uning arxiv bo‘limi, viloyat davlat arxivii va uning bo‘linmalari qayta tiklandi. Shu yili viloyat davlat arxivining Qarshi va Shahrisabz, 1979-yilda G‘uzor, 1995-yilda Muborak bo‘linmalari tuzildi. Hozirda viloyat davlat arxivii Qarshi shahri, O‘zbekiston ko‘chasi, 6 m/t-uyda faoliyat yuritmoqda.

**Farg‘ona viloyati davlat arxiv.** Farg‘onada arxiv ishi 1925-yilda Farg‘ona viloyati arxiv byurosi sifatida faoliyat boshladi. Bu arxiv muassasasi 1927-yili Farg‘ona va Andijon okruglararo arxivi sifatida faoliyat yuritgan. 1938-yili Farg‘ona viloyati tashkil etilgach, Farg‘ona viloyati arxiv boshqarmasi tuzildi. Farg‘ona viloyati arxiv boshqarmasi 1940-yildan boshlab, Farg‘ona viloyati davlat arxiv deb qayta nomlandi.

Farg‘ona viloyati tarixi jamg‘armasida Farg‘ona shahri, Namangan va Andijon viloyatlari tarixiga oid hujjatlar mavjud. Shuningdek, Farg‘ona viloyati ishchi-sovet, soldat va dehqonlari xo‘jaliklari jamg‘armasida shu viloyatlardagi sovet hukumatining o‘rnatalishi, Farg‘ona viloyati boshqaruv tizimi, madaniy qurilish, ocharchilikka, ishsizlikka, xotin-qizlarni jamoat ishlariga jalb qilishga oid hujjatlar saqlanadi. Bugungi kunda Farg‘ona viloyat davlat arxivni Farg‘ona shahar, A.Navoiy ko’chasi 17 a-uyda faoliyat yuritadi.

**Xorazm viloyati davlat arxiv.** Xorazmda arxiv ishi 1926-yilda Xorazm viloyati arxiv byurosi sifatida faoliyat boshladi. Bu arxiv muassasasi 1927-yili Xorazm okrugi arxiv deb o‘zgartirilgan. 1934-yildan O‘zbekiston SSR Markaziy arxiv boshqarmasi yangi Urganch bo‘limi sifatida tuzilib, 1935-yildan Xorazm okrugi arxiv deb qayta o‘zgartirildi. 1938- yili tuzilgan Xorazm viloyati arxiv boshqarmasi 1940-yildan boshlab, Xorazm viloyati davlat arxiv deb qayta nomlangan. Viloyat va tuman ijroiya qo‘mitasi jamg‘armasidagi hujjatlarda Xorazm viloyati xalq ta’limi va viloyatdagi qurilish ishlari olib borilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, sovet hukumatining iqtisodiy va madaniy hayoti aks ettirilgan. Qishloq xo‘jaligi va suv xo‘jaligi jamg‘armasida qishloq xo‘jaligida tashkil etilgan kolxoz va MTSlarning tuzilishi, kollektivlashtirishning o‘tkazilishi, paxtachilik, chorvachilik va sug‘orish tizimlari taraqqiyoti borasidagi ko‘pgina hujjatlar mavjud. Sovet hukumati xalq ta’limi jamg‘armasida, xalq ta’limi, sog‘liqni saqlash, sport va madaniyat sohasiga oid ma’lumotlar keltirilgan. Xususan, viloyatdagi oliy o‘quv va o‘rta maxsus bilim yurtlari, kutubxonalar, madaniy-maishiy uylar qurulishiga oid, viloyat aholisining statistikasiga oid hujjatlar jamlangan. Shuningdek, arxivda suratli hujjatlar Xorazmdagi sovet hukumatining boshqaruviga, sovet ittifoqi

qahramonlari hayotiga va turli shahar – tumanlarga oid hujjatlar jamlangan. Bugungi kunda Xorazm viloyat davlat arxivi Urganch shahar, A.Bahodirxon ko'chasi 207-uyda faoliyat yuritadi.

**2.Hududiy arxiv muassasalari faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo'naliishlari.** Mustaqillik yillarida yurtimizda tarixiy hujjatlar va o'tmish merosimizni o'rganishga e'tibor tubdan o'zgardi. Zero, tarixni tiklash, uni o'rganish va yaratish madaniy merosimizni yangi bosqichga olib chiqdi. Istiqlol sharofati bilan arxiv muassasalariga e'tibor kuchayib, moddiy-texnik bazasi yaxshilanishiga, binolarining zamonaviylashishi va kadrlar salohiyati o'sishiga erishildi. Arxivlar o'tmishdagi kechmishlarning aniq ifodasıdir. Shuning uchun davlat arxivi muassasalarida mavjud hujjatlarni qayta ko'rikdan o'tkazish, ularning sifati va doimiy saqlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga katta e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasining “Arxivlar to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasida arxiv ishini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarorining qabul qilinishi ana shu fikrning isbotidir. Shuningdek, 2010-yil iyun oyida “Arxiv ishi to‘g‘risida”gi yangi Qonunning qabul qilinishi esa arxiv muassasalari faoliyatini tubdan yaxshilash imkonini yaratdi. Mazkur me'yoriy hujjatlar asosida arxiv muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni zamon talablari asosida jihozlash, kadrlar salohiyatini oshirish jarayonida ko‘pgina samarali ishlar amalga oshirildi.

Hujjatlardan foydalanish, ularni ommaviy-axborot vositalari orqali targ‘ib etish bugunning dolzarb masalalaridan biri sanaladi, – deydi Navoiy viloyat hududiy arxiv ishi boshqarmasi boshlig‘i Sayyora Bekova. Zamonaviy sinovlar shuni ko‘rsatmoqdaki, korxona, tashkilot va muassasalar ish faoliyatida keng ishlatiladigan lazer va purkovchi printerlarda hujjatni chop etish uchun maxsus qog‘oz zarur. Buning uchun elektrofotografiya usulidan foydalanib kelinayapti. Yuqori sifatli tasvirlarni olish uchun ishlatilayotgan qog‘oz ma'lum bir issiqlikka chidamli va elektrostatik xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak. Bunday printerlarda chop etilgan hujjatlar matnni oson o‘chib ketadi. Biroq yorug‘likka, issiqlik haroratga va namlikka chidamliligi kuchayadi. Ayni paytda viloyatlardagi davlat arxivlarida

aniqlangan matnni so‘nayotgan hujjatlarning sug‘urta fondini tashkil etish bo‘yicha mikrofilmlar tayyorlash ishlarini tashkil etish imkoniyati yo‘q, maxsus asbob- uskunalar mayjud emas. Bu yo‘nalishdagi ishlar reproduktiv tasvirga olishdan iborat bo‘lmoqda. Ya’ni, hujjatning aslidan skaner, raqamli fotoapparatlar yordamida fotonusxa olinayapti. Ta’kidlash joizki, bugungi kunda Navoiy viloyatidagi davlat arxivlarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish uchun bir-biridan dolzarb ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Ayniqsa, ularni internet tarmog‘iga ulash natijasida aholiga interaktiv xizmatlar ko‘rsatilyapti. Bu esa arxiv ishlarini yanada takomillashtirish imkonini bermoqda. Ayni paytda Navoiy shahrida yangi qurilgan zamonaviy binoda hududiy arxiv ishi boshqarmasi va viloyat davlat arxivi faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Bunday muassasalarning bir binoda joylashtirilgani fuqarolarning ortiqcha ovvoragarchiliklariga barham berdi. Bu ko‘rkam ma’muriy maskanda faoliyat olib borayotgan muassasa xodimlari uchun barcha sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Bino qurilishi uchun qariyb bir gektar yer ajratildi. Bu maskanni obodonlashtirish maqsadida 5340 kv.metr yer maydoni gulzorga, mevali ko‘chatlar ekilib, mo‘jaz boqqa aylantirildi. Arxiv hujjatxonalaridagi ma’lumotlarning saqlanishini ta’minlash asosiy vazifamiz sanaladi, – deydi birinchi toifali arxivchi Zulayho Zairova. Bunday xonalarning nisbiy namligi va havo almashinishi doimiy nazorat qilib borilmoqda. Hujjatlarni turli zamburug‘lardan, kemiruvchilardan himoyalash ham juda muhim. Shuning uchun sanitariya- epidemiologiya markazi xodimlari bilan birga har oyda tozalash-nazorat ishlari amalga oshiriladi. Joriy yilning o‘tgan olti oyi davomida tizimdagi arxiv muassasalariga fuqarolardan jami 4458 ta, asosan, mehnat staji, ish haqi, taqdirlanish, o‘qish davrini tasdiqlashdan iborat ijtimoiy-huquqiy mazmundagi so‘rovlar kelib tushdi. Shu davr mobaynida pullik xizmatlarning umumiy hajmi 100 million so‘mdan ortiqni tashkil etdi. Milliy arxiv fondiga tegishli bo‘lgan o‘ta qimmatli ma’lumotlarning elektron nusxalari yaratilib, har chorakda saqlovga kelib tushgan hujjatlar asosida baza yangilanib kelinayapti, – deydi viloyat hududiy arxiv ishi boshqarmasi bosh mutaxassis Shuhrat Xoliqulov. Boshqarmaning navoiy@archive.uz elektron pochtasi orqali ham fuqarolar bilan so‘rovlar amalga

oshirilmoqda. Shuningdek, boshqarma veb-saytini yaratish orqali jismoniy va yuridik shaxslarga interaktiv davlat xizmatlarini ko'rsatish imkoniyati yanada kengaytirildi. Har bir bo'limda elektron hujjat almashish tizimi hokimiyat va Vazirliklar bilan E-Xat, "O'zarxiv" agentligi bilan E-xat dasturi orqali amalga oshirilmoqda. Navoyi viloyatda arxiv ishini rivojlantirishning 2014-yil 1-yarim yilligiga mo'ljallangan rejası barcha ko'rsatkichlar bo'yicha samarali amalga oshirildi. Bu ham tizim xodimlarining o'z vazifalariga sidqidildan yondashayotganligidan darak beradi. Demak, jamiyat hayotida ro'y berayotgan har bir jarayon, xalqimiz hayotidagi har bir muhim sananing tarix zarvaraqlarida aks etishida arxivchilar mehnatining ahamiyati beqiyos.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 26-avgustdagi 194-sonli "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan "2011-yilgacha O'zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritishni rivojlantirish Dasturi"ga ko'ra 18 ta yangi arxiv binosi qurilishi va 1 ta arxiv binosi rekonstruksiya qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 21- martdagи PQ-1730-son qarorini bajarilishi bo'yicha chora-tadbirlar rejasida belgilangan topshiriqlarni amalga oshirish yuzasidan Agentlik tomonidan "O'zarxiv" agentligida elektron hujjatlar almashish tizimini hamda kompyuter texnikasidan foydalanish samaradorligini oshirish, AKTni rivojlantirish va joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar rejası" ishlab chiqilib, 2012-yil 1-mayda Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlandi (№08-12-75, 11.05.2012y.).

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, mustaqillik yillarida hududiy arxiv muassalarini moddiy-texnik bazasini yanada rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Lekin yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rshimiz mumkinki hozirgi kundagi 102 ta hududiy arxiv muassasalarining 20 dan ortig'i arxiv hujjatlarini saqlash va bu boradagi faoliyatni olib borish talablariga to'la javob beradi. Qolganları esa dasturlarga kiritilgan bo'lib, ko'pgina qilinishi lozim bo'lgan ishlar kelajakda amalgaoshirilishi ko'zlangan. Ushbu ishlarni jadallashtirish uchun yangicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish, xususan,

investitsiyalarni jalb qilish, bozor iqtisodiyoti talablariga mos holda xizmat turlarini kengaytirish, xizmat ko‘rsatish tizimini yangi texnologiyalar qo‘llash orqali samaradorlikni oshirish kabilarni hal qilish lozim. Bu esa o‘z navbatida huquqiy-meyoriy hujjatlarda ko‘zda tutilgan maqsadlarni to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqarish imkonini beradi. Shuningdek, Koreya Respublikasi, Fransiya kabi dunyoning rivojlangan mamlakatlarining ilg‘or ish tajribalaridan foydalanish ham ijobiy samara keltirishi mumkin.

2014-yil 26-iyulda “O‘zarxiv” agentligining kengaytirilgan hay’atining videokonferensiya rejimida yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Unda agentlik xodimlari, arxiv ishi bo‘yicha hududiy boshqarmalar boshliqlari, markaziy, viloyat, shahar va tumanlar davlat arxivlari hamda shaxsiy tarkib hujjatlari arxivlari direktorlari, pensiya jamg‘armasining hududiy bo‘limlari rahbarlari va mas’ul xodimlari ishtirok etdilar. Yig‘ilishda “O‘zarxiv” agentligi tizimida 2013-yil 1-yarim yilligidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda joriy yildagi ustuvor vazifalarni to‘liq bajarish yuzasidan qo‘srimcha choralar to‘g‘risida, Buxoro va Samarqand viloyat arxiv muassasalarida sohaga oid asosiy faoliyatni kompleks o‘rganish natijalari to‘g‘risida, 2013-yil investitsiya dasturiga kiritilgan ob’ektlar hamda 2014-yil investitsiya dasturiga takliflar to‘g‘risida, pensiya jamg‘armasi tomonidan arxiv muassasalarida fuqarolarga beriladigan arxiv ma’lumotlarini haqqoniyligi bo‘yicha o‘tkazilgan o‘rganishlar natijalari to‘g‘risida, Respublika arxiv muassasalarida ijro intizomining holati to‘g‘risida va O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi tomonidan “Agentlikda O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosi bo‘yicha o‘tkazilgan tekshirish natijalari to‘g‘risida masalalar ko‘rib chiqildi.

### Savol va topshiriqlar

1. Hududiy arxivlarning shakllanishi va rivojlanishi tarixi xususida fikr yuriting.
2. Andijon viloyat davlat arxivining tashkil etilishi va faoliyati haqida nima bilasiz?
3. Buxoro viloyat davlat arxivining tashkil etilishi va faoliyati haqida nima bilasiz?
4. Jizzax viloyat davlat arxivining tashkil etilishi va faoliyati haqida nima bilasiz?
5. Sirdaryo viloyat davlat arxivining tashkil etilishi va faoliyati haqida nima bilasiz?

6. Samarqand viloyat davlat arxivining tashkil etilishi va faoliyati haqida nima bilasiz?
7. Surxandaryo viloyat davlat arxivining tashkil etilishi va faoliyati haqida nima bilasiz?
8. Qashqadaryo viloyat davlat arxivining tashkil etilishi va faoliyati haqida nima bilasiz?
9. Namangan viloyat davlat arxivining tashkil etilishi va faoliyati haqida nima bilasiz?
10. Farg‘ona viloyat davlat arxivining tashkil etilishi va faoliyati haqida nima bilasiz?
11. Xorazm viloyat davlat arxivining tashkil etilishi va faoliyati haqida nima bilasiz?
12. Toshkent viloyat davlat arxivining tashkil etilishi va faoliyati haqida nima bilasiz?

#### **Manba va adabiyotlar**

1. Алимов И., Эргашев Ф., Бутаев А. Архившунослик. / Ўқув қўлланма – Т.: Шарқ, 1997.
2. Алимов И.А. Архившунослик. / Ўқув қўлланма – Андижон. АДУ, 2005.
3. Исакова М, Иофе В. Архившунослик. / Ўқув қўлланма. – Тошкент: Чўлпон, 2007.
4. Исакова М. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. – Тошкент: Университет, 2012.
5. Исакова М., Хайдаров М. Бошқарувни ахборот (хужжатлар) билан таъминлаш. / Ўқув қўлланма. – Т.,2012.
6. O‘zarkiv agentligi rasmiy sayti. [www.archiv.uz](http://www.archiv.uz).
7. I.T.T.X.M.D.A. rasmiy sayti. [www.csantmd.uz](http://www.csantmd.uz).

**14-Mavzu: Qoraqalpog‘iston davlat arxivlarining tashkil topishi hamda faoliyati**

**Reja:**

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat arxivining tashkil etilishi.
2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi va unda saqlanayotgan fondlar tasnifi.

### **1. Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat arxivining tashkil etilishi.**

Turkiston, Buxoro, Xorazm sovet respublikalari 1924-yil noyabrida bo'lib o'tgan maxsus sessiyalarida o'z-o'zini tarqatib yuborish to'g'risidagi qarorini qabul qildi. Shu yilning 31-oktyabrida O'zbekiston SSR tuzilishini boshqarish uchun Inqilobiy qo'mita (Revkom) ta'sis etildi.

O'zbekiston SSR Inqilobiy qo'mitasi Qoraqalpoq Avtonom viloyati bilan ham chegaralar xususida quyidagi kelishuvni tasdiqladi:

- 1) To'rtko'l shahri va uning tumanlari Qoraqalpoq Avtonom viloyati tarkibiga kiritilsin;
- 2) Qoraqalpoqlarni ajratgandan so'ng aholisini o'zbeklar tashkil qilgan Amudaryo viloyatidagi Xorazm SHO'raxon uezdi O'zbekiston SSR tarkibiga kiritilsin;
- 3) Qo'mitaning To'rtko'l tumani hududini Qoraqalpoq Avtonom viloyati va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida chegaralash to'g'risidagi qarori tasdiqlansin (O'rta Osiyo Byurosining 2-sonli bayonnomasi).

O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishning o'tkazilishi natijasida O'zbekiston SSR, Turkmaniston SSR, Tojikiston ASSR (O'zbekiston SSR tarkibida), Qoraqirg'iz (Qirg'iz) viloyati (RSFSR tarkibida) va Qoraqalpog'iston Avtonom oblasti (Qozog'iston ASSR tarkibida) tashkil etildi va ularga tegishli arxiv hujjatlar berib yuborildi. 1936-yildan e'tiboran Qoraqalpog'iston Avtonom respublika sifatida O'zbekiston SSR tarkibiga kiritildi. Qoraqalpog'iston Respublikasining markazi Nukus shahri bo'lib, uning hududi 166,600km<sup>2</sup>ni tashkil etadi. Respublika 14 ta Amudaryo, Beruniy, Chimboy, Ellikqa'la, Kegayli, Mo'ynoq, Nukus, Qani'ko'l, Qo'ng'iroq, Qorao'zak, Shumanay, Taxtako'pir, To'rtko'l, Xo'jayli tumanlaridan iborat.

Qaraqalpog'istonda arxiv ishi 1925-yili Qoraqalpog'iston avtonom viloyati arxiv idorasi sifatida faoliyat boshladi. 1932-yildan Qoraqalpog'iston ASSR arxiv

idorasi sifatida, 1934-yildan esa Qoraqalpog‘iston ASSR Markaziy boshqarmasi, 1940- yili Qoraqalpog‘iston ASSR NKVD arxiv bo‘limiga aylantirildi. 1943-yildan to 1991-yilgacha Qoraqalpog‘iston ASSR Markaziy Davlat arxivi sifatida o‘z faoliyatini olib bordi. 1991-yili O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligiga erishgach Qoraqalpog‘iston Respublikasi ham O‘zbekiston tarkibida o‘zining mustaqil tuzilmalarini tuzdi. Shu bilan birgalikda Qoraqalpog‘iston ASSR Markaziy Davlat arxivi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Markaziy davlat arxivi deb o‘zgartirildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Markaziy davlat arxivida bugungi kunda fuqarolarni qabul qilish, murojaatlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash nazoratga olingan. Fuqarolar murojaatlari bo‘yicha ish olib boruvchi xodimlarning ish o‘rinlari va ichki hujjatlarini (murojaatlarni qayd etish jurnallari), shu bilan birga ularning muomala madaniyatini har bir arxiv muassasasi rahbari tomonidan shaxsan nazarot qilib borish ishlari yo‘lga qo‘yildi.

Hozirgi kunda Qoraqalpog‘iston Respublikasi arxiv ishi boshqarmasi tarkibiga:

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Markaziy davlat arxivi.
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Amudaryo tuman davlat arxivi
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Beruniy tuman davlat arxivi
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qani‘ko‘l tuman davlat arxivi
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qorao‘zak tuman davlat arxivi
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Kegeyli tuman davlat arxivi
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qo‘ng‘irot tuman davlat arxivi
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi To‘rtko‘l tuman davlat arxivi
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xo‘jayli tuman davlat arxivi
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Chimboy tuman davlat arxivi
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ellikqal‘a tuman davlat arxivlari kiradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi arxiv ishi boshqarmasi faoliyati yildan-yilga rivojlanib bormoqda. Bularni Qoraqolpog‘iston Respublikasi davlat arxivlarida arxiv ishini rivojlantirishning asosiy ko‘rsatkichlar rejasini bajarilishi bo‘yicha 2017-yilgi hisobotida ko‘rishimiz mumkin. 2017-yilda 800 ta arxiv hujjatini tamirlash rejalarashtirilgan bo‘lsa, 1182ta bilan ortig‘i bilan bajarildi. Bu 2016-yilga nisbatan 148% ni tashkil qildi. Muqovalash va tikishda 620ta arxiv hujjatirejalarashtirilgan bo‘lsa, bu 1316 ta muqovalash bilan bajarildi. Bu o‘tgan yilgiga nisbatan 212%ni tashkil qilishi bu arxiv ishi xizmatining yuqori darajada rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, bugungi kunda, Qoraqolpog‘iston Respublikasi arxiv boshqarmasi o‘ziga yuklatilgan ishlarni bajarib kelmoqda va bu borada ko‘plab yutuqlar qo‘lga kiritilmoqda. Ammo shu bilan birga boshqarmani qiynayotgan ko‘plab muammolar mavjud ekanligi ko‘zga tashlanadi. Bunga birinchidan, boshqarma bilan Qoraqolpog‘iston Respublikasi MDAni bir binoda joylashgani va binoda etarli qulayliklar yo‘qligi. SHu bilan birgalikda arxiv binosining tamir talab emasligi, binoda etarlicha xonalar mavjud emasligini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Bino masalasi nafaqat boshqarma va MDA gabalki, qolgan tuman davlat arxivlarida ham asosiy muammo edi. Buni har yili o‘z joyini almashtirishida ko‘rish mumkin.

Ikkinchidan, bu bino ijerasi masalasida uzoq vaqt O‘zbekiston Respublikasi Xalq Demokratik Partiyasi Qoraqolpog‘iston Respublikasi bo‘limi binosi bo‘yicha tortishuv mavjud. Buni “O‘zarxiv” agentligining o‘sha davrdagi direktori A.X.Abdullaev tomonidan 2006-yil 5-iyulda N02-09/144 sonli O‘zbekiston Respublikasi Xalq Demokratik Partiyasi raisi L.Y.G‘ulomovga yo‘llagan “Sharhnomalar majburiyatlarini bajarish haqidagi” xatida ko‘rish mumkin. Shuningdek, Qoraqolpog‘iston Respublikasi arxiv boshqarma boshlig‘i I.O.Seytkamolov ijara yuzasidan agentlikka murojaat qilgan. Murojaatida boshqarma 2006-yil 2-sonli ijara sharhnomasida ko‘rsatilgan  $657,07\text{ m}^2$  maydonga 1182726 so‘m miqdorida bir yilga ijara haqini to‘lashi va shu yilning birinchi yarmi uchun to‘lov to‘langanini keltiradi. Ammo, Qoraqolpog‘iston Respublikasi Xalq Demokratik partiyasi tomonidan shu vaqtgacha kelishilgan  $83.2\text{ m}^2$  bo‘shatib

berilmagani, boshqarma esa bu hududdan maxfiy arxiv hujjatlari saqlovxonasi, hujjatlarni ta'mirlash ustaxonasi, foydalanuvchilarga mo'ljallangan o'quv zali uchun ko'zda tutilganini keltirgan. Shu munosabat bilan A.Asanovning shartonomasi majburiyatlarini bajarishiga amaliy yordam berishni so'ragan.

Uchinchidan, Qoraqolpog'iston Respublikasi arxiv tizimida kadrlar masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Qoraqolpog'iston Respublikasi Markaziy davlat arxividan tortib tuman davlat arxivlarida ham hal qilinish kerak bo'lgan muhim muammolar saqlanib qolmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasida 2006-yilga qadar Markaziy Davlat arxivsi (QR MDA) va uning Qorao'zak, Kegayli, Beruniy, Xo'jayli va Qo'ng'irot tuman filiallari faoliyat yuritgan. Keyinchalik bir qancha tumanlarda Markaziy davlat arxivining filiallari tashkil etildi. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qori Kengesining 2006-yil 27-fevraldagagi 83-son qarori va tuman hokimlarining qaroriga muvofiq bir qator tuman arxivlari tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 5-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishini takomillashtirish to'g'risida"gi 101-son qarori talabiga muvofiq ushbu 10 ta tuman arxivsi tuman davlat arxivlariga aylantirildi. Qoraqolpog'iston Respublikasida mavjud o'nta tuman arxivlarida, bugungi kunda 1900 ta fond mavjud bo'lib, bularda 320286 ta yig'majild saqlanmoqda va o'tgan 2017-yilning o'zida 9006 ta yig'majild qabul qilingan.

Qoraqolpog'iston Respublikasi Arxiv ishi boshqarmasi tizimidagi davlat arxivlarida 2017-yilda Milliy arxiv fondi hujjatlari va faoliayti tugatilgan tashkilotlardan qabul qilingan hujjatlar bo'yicha ma'lumot.

T/r	Arxiv	2017-yil holatida		2017-yil davomida qabul qilingan hujjatlar soni (saqlov birligida)
		Jami:	fondlar soni	
1	QR MDA	575	156707	2872

2	Amudaryo tuman DA	166	29624	1040
3	Beruniy tuman DA	139	26581	-
4	Kegeyli tuman DA	119	23249	460
5	Qanliko‘l tuman DA	166	18661	590
6	Qorao‘zak tuman DA	193	21462	507
7	Qung‘irot tuman DA	309	51183	2237
8	To‘rtko‘l tuman DA	180	32588	510
9	Xo‘jayli tuman DA	349	55589	1477
10	Chimboy tuman DA	198	40760	1718
11	Ellikqal‘a tuman DA	81	20589	467
Jami:		2475	476993	11878

Boshqa tuman arxivilarida saqlanayotgan hujatlar orqali, qoraqalpoq xalqining madaniy-ma’naviy hayotih aqida, uning xo‘jaligi haqida qimmatli ma’lumotlar olishimiz mumkin. Bu yig‘majildlar orqali biz Orol dengizi muammosi bilan bog‘liq masalalar yuzasidan ma’lumotlarga ega bo‘lamiz.

Qoraqolpog‘iston Respublikasidagi boshqa tuman arxivlaridagi, fondlarda mavjud yig‘majildlar orqalibiz respublika hayotini, uning turmush tarzini bilib olishimiz mumkin. Qo‘ng‘irot tumani davlat arxividagi fondler bizga mamlakat uchun eng katta ekalogik muammo bo‘lgan Orol dengizi, uning qurishi sabablari, uni atrofidagi hududlarga bo‘lgan zararini hamda bugungi kundagi holatini bilishga yordam beradi.

**2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi va unda saqlanayotgan fondlar tasnifi.** Qoraqalpog‘iston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi tarixida 1991-yildan boshlab yangi sahifa ochildi. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng Qoraqalpog‘iston Respublikasi Markaziy Davlat arxivida fondlarni saqlash, qayta ishlash ishlari jadal suratlarda rivojlanmoqda va zamonaviy texnika vositalari joriy qilinib, aholiga xizmat ko‘rsatish yaxshilandi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 3-fevraldag‘i 49-son qarori bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Arxiv ishi boshqarmasi bo‘lib qayta tuzildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2010-yil 12-yanvardagi 9-b son qaroriga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Arxiv ishi boshqarmasi balansiga sobiq partiya arxivining binosi o‘tkazib beriladi. Ushbu bino 200 ming saqlash birligi hujjatlarini saqlash uchun maxsus bo‘lib qurilgan va hozirgi kunda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Markaziy davlat arxivi joylashtirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini yanada rivojlantirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 26.08.08 yil 194-son qarori talablarini bajarish yuzasidan QR MDA va tuman davlat arxivlari zamonaviy konditsionerlar, yong‘in xavfsizligi uskunalar, qo‘riqlash signalizatsiyalari, video kuzatish tizimi, kompyuter vositalari va litsenziyalidasturiy ta’mimat, korporativ tarmoqqa ulash uchun tegishli qurilmalar, metall stellajlar, arxiv hujjatlaridan nusxa olish bo‘yicha yuqori texnologik asbob uskunalar bilan ta’minlandi. “Hujjatlarning elektron sug‘urta fondini yaratish qurilmasi” yordamida hujjatlarning elektron nusxasini yaratish ishlari 4-5 barobariga tezlashtirishga va bu ko‘rsatkish bo‘yicha bir kunda 300-400 kadr yaratish o‘rniga 2000 gacha kadr yaratish imkaniga erishildi. 2013-yilda o‘ta qimmatli hujjatlarning elektron nusxalarini yaratish bo‘yicha QR MDAda 1000 saqlov birligidan 25346 kadr yaratildi. Ushbu yaratilgan elektron nusxalardan tadqiqotchilar va arxiv xodimlari tomonidan foydalanish imkonini yaratildi.

Vazirliklar, idoralar, shahar va tuman hokimliklari idoraviy arxivlari faoliyatini rivojlantirish, idoraviy saqlashdagi MAF hujjatlarining saqlanishini va ilmiy-texnik jihatdan ishlanishini ta’minalash, arxiv ishi va ish yuritish xodimlari

malakasini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Davlat arxivlari 40ta kompyuter, 10ta notebook, 32ta printer, 8ta skaner, 12ta faks apparatlari, 10ta ksersks, 3ta raqamli fotoapparatlar bilan ta’minlangan.

Fuqarolarni qabul qilish, murojaatlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash nazoratga olingan. Fuqarolar murojaatlari bo‘yicha ish olib boruvchi xodimlarning ish o‘rinlari va ichki hujjatlarini (murojaatlarni qayd etish jurnallari), shu bilan birga ularning muomala madaniyatini har bir arxiv muassasasi rahbari tomonidan e’tibor qaratilmoqda.

Arxiv hujjatlari MAF tarkibiga kiritilgan arxiv fondlarining tarkibi va hajmi ularning o‘zgarishi shuningdek, ularni saqlash joylari bo‘yicha yagona ma’lumotlar bazasi tizimli shakllantirildi. Davlat arxiv fondlari, shuningdek idoraviy arxivlarning arxiv fondlari va ularning jamlash manbalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni har kalendar yilning 1-yanvar holati bo‘yicha 5-yanvardan kechikmay taqdim etilishi yo‘lga qo‘yildi.

Qoraqalpog‘iston MDAga 1992-2016-yillarda Shamshetov Murat Perdebaevich direktor lavozimida ishlagan. Ushbu arxivga 2016-yildan hozirgacha Bekmuratov Aymurza Mirzamuratovich direktor lavozimida ishlamoqda. Hozirda Qoraqalpog‘iston Respublikasi MDA da 24 kishidan iborat xodim faoliyat yuriitadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi fondlarida respublika hokimiyatining yuqori organlari, respublika va shahar ahamiyatiga molik hujjatlar, sud va prokuratura organlari, jamoat, kooperativ muassasalar, o‘quv, madaniy-ma’rifiy muassasalar, kasaba uyushmalari va boshq tashkilotlarning ish jarayonida hosil bo‘lgan arxiv materiallari saqlanadi. Arxiv fondlarida o‘zbek, qoraqalpoq, turkman, rus, arab va lotin alifbosida yozilgan asl nusxa va ko‘chirilgan nusxalardan iborat hujjatlarni uchratish mumkin.

2017-yil 15-dekabrdagi holat bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Markaziy Davlat arxivida 575 fond va 156707 yig‘majild saqlanmoqda. Shulardan 36 ta shaxsiy tarkib hujjatlari hisoblanadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Markaziy Davlat arxivida saqlanayotgan 575 fondning dastlabki 9 tasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxiviga yuborilgan. Bu

fondlarda “Petro –Aleksandrovskiy shahar maktablari”, “Amudaryo boshqaruva kancelariyasi” hujjatlari bo‘lib, ular O‘rtal Osiyo tarixi uchun muhim ahamiyatga ega. SHuning uchun ham hozirda, bu hujjatlar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivining 275 fondida saqlanmoqda.

Qoraqolpog‘iston ASSR arxividagi davlat boshqaruvi va tuzilishi jamg‘armasida, Qoraqolpog‘iston ASSR va Nukus shahri tarixi shuningdek, Turkiston ASSR Amudaryo bo‘limi tarixi va Qoraqolpog‘iston ASSR ning 1924-yilda O‘z SSR tarkibidagi tarixiga doir ma’lumotlar, Qoraqolpog‘iston viloyati va qishloqlari to‘g‘risidagi ma’lumtlar, ocharchilik, vayrongarchilikka qarshi kurash to‘g‘risidagi hujjatlar jamlangan. Shuningdek, O‘rtal Osiyo xalqlarining ko‘payishi va aholining soni, Qoraqalpog‘iston Avtonom Respublikasining birinchi Konsitutsiyasini qabul qilinishi haqidagi ma’lumotlar mavjud. Markaziy va mahalliy sovet tashkilotlari jamg‘armasida avtonom respublika xo‘jaligi va madaniy qurilishiga oid hujjatlar jamlangan. O‘lkadagi ishlab chiqarish to‘g‘risidagi ma’lumotlar, paxta tozalash zavodlari jamg‘armasida jamlangan bo‘lib, unda shuningdek, Xo‘jayli, To‘rtko‘l, Chimboy, Beruniy va boshqa shaharlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar mavjud. Bu jamg‘armada Mo‘ynoq baliqchilik konserva zavodiga, shuningdek, Nukusdagi turli zavodlarga oid arxiv hujjatlari jamlangan. Yer boshqaruvi jamg‘armasida qishloq xo‘jaligi tarixiga doir, ishchi dehqon deputatlar faoliyatiga oid, sovet hukumati davrida Qoraqolpog‘iston tarixiga doirma’lumotlar saqlanadi.

Qoraqolpog‘iston Respublikasi Markaziy Davlat arxiv R-193 fondida 3500ga yaqin yig‘ma jild saqlanmoqda. Ushbu yig‘majilddagi hujjatlarning eng qadimiysi 1932-yildan to 2017-yilgacha bo‘lgan materiallar hisoblanadi. Bu fond hujjatlari qoraqalpoq va o‘zbek xalqlari tarixi haqida ma’lumot beruvchi qimmatli manba sanaladi. Shuningdek, arxivda saqlanayotgan o‘ta qimmatli fondlardan 12-fondda saqlanayotgan “Amudaryo bo‘limi ishchi, dehqon, soldatlar soveti deputatlari” ham juda muhim ahamiyatga ega. Bu fond 4 ta opisdan iborat bo‘lib, ular har biri turli yillarni o‘z ichiga oladi. Mazkur fonddagi mavjud hujjatlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, 1-opisda 40 ta yig‘majild mavjud bo‘lib, unda 1915-yildan 1921-yilgacha

bo‘lgan, ishchi, dehqon, soldatlar soveti deputatlarining yig‘ilishlar, qarorlar va turli masalalar haqida qimmatli ma’lumot beriladi. SHu bilan birgalikda bolsheviklarning ushbu hududga kirib kelishiga oid ma’lumotlar keltiriladi.Ushbu hujjatlarda markazi hozirgi To‘rtko‘l shahri bo‘lgan Amudaryo bo‘limida bolsheviklarning bosqinchilik harakatlari, shu erdan turib Xiva xonligiga qarshi tashviqot olib borishi va harbiylarni to‘plab xonlik hududiga bostirib kirish harakatlari alohida o‘rin olgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi MDA 12-fond 2-opisida esa, 470 ta yig‘majild mavjud bo‘lib, bu hujjatlarda 1921-1926-yilgacha bo‘lgan Amudaryo bo‘limi haqidagi ma’lumotlar keltiriladi. Bu ma’lumotlarda dastlab bolshevikla tomonidan qo‘llab-quvvatlangan “YOsh xivaliklar” faoliyati, xon hokimiyyati tugatilganidan so‘ng XXSR ning tuzilishi,milliy hududiy chegaralanishga bo‘lgan harakatlar va dastlabki er-suv islohoti haqidagi qimmatlli ma’lumotlar saqlanadi. Shu fondda Xiva xonligini tugatishda qanday harakatlar olib borilganligi, bolsheviklar tomonidan mahaliy aholining qiynalishi, bu erga ham ko‘chirib keltirish siyosatini olib borilganligi haqida ma’lumotlarni olishimiz mumkin bo‘ladi. Mazkur fondning 3-opisida esa 1925-yildan to 1932-yilgacha bo‘lgan voqealar yoritilgan.

Qoraqalpog‘iston MDA 649 ta yig‘majildni birlashtirgan 203-fondda “Qoraqalpog‘iston ASSR Kompartiyasi”ga tegishli hujjatlar saqlanadi. Bu hujjatlar davlat boshqaruviga oid buyruq va qarorlardan iborat. 462-fonddan boshlab asosan mustaqillik davri hujjatlarini ko‘rishimiz mumkin. 462-fondda Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi siyosiy partiyalarning yig‘ilishlari va tadbirlari, respublikada mavjud bo‘lgan banklar, sud organlari, prokratura, ichki ishlar, moliya tashkilotlariga tegishli bo‘lgan hujjatlar mavjud.

506-fondda 1990-2008-yillgacha bo‘lgan davrdagi qimmatli hujjatlar saqlanadi. Bu fondda 195 ta yig‘majild mavjud bo‘lib, unda O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi chiqargan qaror, nizomlarni va shular asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi tomonidan yuqoridagi qarorlar ijrosini bajarilishi yuzasidan ko‘rsatmalar keltirilgan. SHuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasida mavjud bo‘lgan jamoat birlashmalari, korxona va

tashkilotlar, oliygoh va umumiy o‘rta ta’lim tizimiga tegishli bo‘lgan hujjatlarni ko‘rishimiz mumkin. 555-fondda esa “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Komolot yoshlar tashkilotining fondiga” teshigli bo‘lgan 135 ta yig‘majild saqlanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi o‘rinbosari X.Abdurahmonovning 2005-yil 17-may oyidagi 08/96-sonli qarori asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq Demokratik Partiyasi binosi (Nukus shahri, A.Shamurotova ko‘chasi, 93 A uy) ga ko‘chib o‘tgan.

**Tayanch so‘z va iboralar:** Qorao‘zak, Kegayli, Beruniy, Xo‘jayli, Qo‘ng‘iroq, O‘zarxiv agentligi, “Yosh xivaliklar”, XXSR, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qori Kengesi, Orol dengizi, “Petro-Aleksandrovskiy shahar maktablari”, “Amudaryo boshqaruв kanselariyasi”.

Q

Qoraqolpog‘iston Respublikasi arxiv ishi boshqarmasi tizimida qanday ishlar

a

an

q

Q Qoraqolpog‘iston Respublikasi MDA saqlanayotgan fondlar tasnifi haqida

q

**p Manba va adabiyotlar**

b 1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 5-apreldagi

g O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 101-son  
qarori. Lex.uz.

h 2. Craig Robertson. Media History and the Archive. – New York.Routledge.2011.

3. Antoinette Burton. Archive Stories: Facts, Fictions, and the Writing of History.– Duke University Press, 2005.

4. Исакова М. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. –Т.: Университет, 2012.

...

R

i

d

5. O'zaxxiv agentligi rasmiy sayti. [www.archiv.uz](http://www.archiv.uz).

6. <http://www.karakalpakstan.archive.uz>

## **15-Mavzu: O'zbekistonda arxiv ta'limi va arxiv ishi sohasidagi xalqaro hamkorlik**

### **Reja:**

1. O'zbekistonda arxiv ta'limi va arxivshunos kadrlar tayyorlashning dolzarbliyi.
2. O'zbekiston arxivchilarning xalqaro aloqalari.

**1. O'zbekistonda arxiv ta'limi va arxivshunos kadrlar tayyorlashning dolzarbliyi.** Mustaqillikning dastlabki yillarda arxiv sohasidagi yangi usullar va texnologiyalarni joriy etish, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va ilmiy-uslubiy ishlanmalar yaratish, xamda arxiv xizmatini takomillashtirish ishlari borasida sezilarli kamchiliklar aniqlandi. Sohada malakali kadrlarni etishmasligi, arxiv hujjatlarini sifatli shakllantirish, komplektlash, hisobga olish, saqlash va undan foydalanish ishlarini tashkil etish dolzarb masalaga aylangan edi.

Bugungi kunda respublikamiz arxiv muassasalarida yuqori malakali kadrlarga bo'lgan talab juda yuqori. Mamlakatimizning yuzdan ortiq davlat arxivlarida 1500 ta shtat o'rinnari mavjud bo'lib, ularning 945 tasi uchun kvalifikatsiya talablari bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxasislarni ishga qabul qilish lozim. Lekin 2009 yilgi statistik ma'lumotlarga ko'ra respublika davlat arxivlarida faqat 280 ta oliy ma'lumotli mutaxasis ishlamoqda.

2007-2009-yillarda 122 ta idoralararo shaxsiy tarkib arxivlar va davlat arxivlarining asosiy komplektlash manbasi bo'lgan 7000 tadan ko'proq idoraviy arxivlarni ish yuritish va arxiv ishi holati o'r ganildi va ushbu arxivlarda mutaxasis kadrlarga bo'lgan talab juda katta ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga ushbu arxivlarda va ish yuritish soxasida ishlayotgan xodimlarni ma'lumot darajasidagi kamchiliklar aniqlandi.

Xususan, ko'pgina vazirlik va idoralardagi ish yuritish tizimiga javobgar bo'lganlar hujjatlar bilan ishlash bo'yicha yetarli darajada bilim va ko'nikmalarga ega emasligi aniqlandi. Ular ish yuritishning o'ziga xos tomonlarini shu vazifani

bajarish jarayonida shaxsiy kuzatish jarayonida o‘zlashtirib olishlari ma’lum bo‘ldi. Natijada ushbu bo‘lim xodimlarida ish yuritish madaniyati va uning asosiy tushunchalari haqidagi bilimlar bir necha yil ishlagandan so‘ng paydo bo‘lar ekan.

Hozirgi vaqtida respublikamizdagi yigirmadan ortiq kasb-hunar kollejlarida “Arxivshunoslik va ishyuritish mutaxassisi” kasbi bo‘yicha kadrlar tayyorlanmoqda. Ushbu kasb bo‘yicha ta’lim olgan o‘quvchilar quyidagi ixtisosliklarni egallaydilar: arxivarius, hodimlar inspektori, ish yurituvchi-kotiba. Ushbu yo‘nalish bo‘yicha ta’lim olayotgan o‘quvchilar umumta’lim fanlari bilan bir qatorda umumkasbiy fanlarni ham o‘rganadilar.

Kasb-hunar kollejlarida “Arxivshunoslik va ishyuritish mutaxasisi” bo‘yicha ishchi o‘quv rejasi bilan tanishish natijasida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, umumkasbiy va maxsus fanlar asosan 2-3 kurslarda o‘tiladi. Shu bilan birga ushbu fanlar bo‘yicha nazariy darslar kamroq, asosan amaliy darslar o‘tish rejalashtirilgan. Bu esa ushbu yo‘nalish bo‘yicha kasb-hunar egallayotgan yoshlarni bevosita amaliyotda ish olib borishga tayyorlash ko‘zda tutilgan. Shuning uchun ham o‘quv va ishlab chiqarish amaliyotlari maxsus fanlarni chuqur o‘zlashtirishlari va ixtisoslik fanlari bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarni egallahsga qaratilgan.

Shuningdek, uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida Davlat ta’lim standartlari, o‘quv reja va dasturlari hamda darsliklarini takomillashtirish, mazmunan uzviylashtirish bilan ta’lim uzluksizligini ta’minlash; o‘quv rejalaridagi turdosh fanlarni integratsiyalash orqali o‘quv yuklamalari ko‘lami va hajmini optimallashtirish; kasb-hunar kollejlarida virtual o‘quv-laboratoriya zamonaviy axborot kommunikatsiya, elektron-texnik va masofadan o‘qitish imkonoyatlarini kengaytirish, darslik, qo‘llanma va o‘quv filmlarining elektron turlarini yaratish va ulardan ta’lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish; uzluksiz ta’limning barcha bo‘g‘inlari uchun chop etiladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining mazmuni, dizayni, matbaa sifatini yanada yaxshilash kabi vazifalar ham turibdi.

Yuqori malakali arxiv mutaxassis kadrlarini tayyorlash masalalari O‘zbekiston ta’lim tizimidagi eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunda respublikada arxiv kadrlari tayyorlash tizimi yaratilgan.

“Arxivshunoslik” (5220300) bakalavr ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassislar Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida, Buxoro Davlat universitetida, Namangan Davlat universitetida tayyorlanmoqda. “Hujjatshunoslik va arxivshunoslik” (5A220301) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha esa O‘zbekiston Milliy Universitetda mutaxassislar tayyorlanmoqda. Shu bilan bir qatorda ushbu boradagi muommolarni hal etishda hozirda arxivda ish olib borayotgan xodimlarda ham zamonaviy bilimlarni shakllantirish, bu borada ularning keng ko‘lamda, ayniqsa qisqa muddatlarda malaka oshirishlarini tashkil etish masalasi dolzARB tus olib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 3-fevraldagI 49-son “O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini boshqarishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minalash hamda boshqaruv siyosatini takomillashtirish va kadrlarning malakasini oshirish maqsadida Toshkent axborot texnologiyalari universiteti qoshidagi Javaharlal Neru nomli O‘zbek-Hind axborot Texnologiyalari markazining qisqa muddatli o‘quv kursi tashkil etildi. Bu o‘quv kursida turli arxivlardan kelgan arxivchi xodimlar malakalarini oshirdilar.

Bu haqida xorijlik tadqiqotchi Antonina Burton quyidagi fikrlarni keltiradi: “mustaqillik yillarida xorijdgi tadqiqotchilar ham O‘zbekistondagi nodir hujjatlarni o‘rganish va tadqiq etish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Jumladan, O‘zbekistonda ishlash imkoniyatiga ega bo‘lgan, ilk chet elliK tarixchilarga, sovet davridan keyingi davrni ko‘zdan kechirish, o‘sha paytdagi ruhiyatni o‘rganish vazifasi qo‘yilgan. Mustamlaka davrdan keyingi yangicha nazariyalar bilan tanishib chiqqan g‘arb tarixchilari Markaziy Osiyoga dunyo miqyosidagi imperial tizim sifatida qaray boshlashdi va mustamlakachilik siyosati mahalliy madaniyat hamda jamiyat hayotida kuchli bosim ostida kiritilganini ochib tashlashdi. Bir necha o‘n yillar davomida berkitib qo‘yilgan arxivlarda ishlash juda quvonchli edi. Ammo, shu bilan birgalikda ularni qayta yopib qo‘yishdan qo‘rquv hissi bo‘lgan tarixchilar uchun u yerda ishlash ko‘plab imtiyozlarni yaratdi. Shuningdek, arxiv hujjatlari ustida olib borilayotgan tadqiqotlar dolzARB o‘zgarishlar sharoitida mamlakatning mavjut holatini yoritishdan ko‘ra oldingi tuzum ruhiyatini ochishni nazarda tutardi”

(Antonina Burton. Archive Stories (facts, fictions and the writing of history). - London.2005.-P.54.).

“O‘zbekistonda arxivlarning ochilishi bir tomondan g‘arb tarixshunosligi va sobiq Ittifoq arxivi orasida, boshqa tomondan esa xorijiy tarixchilar hamda ularning o‘zbek hamkasblari orasida “aloqa ko‘prigi” ning yaratilishiga imkon yaratdi. O‘z tajribalarimni ilmiy izlanishlar olib borayotgan 9 nafar olimning natijalari bilan uyg‘unlashtirganimda shu narsaga amin bo‘ldimki, odamlar bilan kutilmagan uchrashuvlar, rasmiy marosimlar arxiv hujjatlarining ijtimoiy-siyosiy, hattoki intelektual ahamiyatini ochib berishda ba’zan yordam bergen bo‘lsa, ba’zan esa to‘sinqinlik qildi. Chunki, o‘sha davrning tarixnavislari tuzum siyosatini tarix zarvaraqlariga yozayotgan paytda uni balandparvoz gaplar bilan buzganida O‘zbekistonning bugungi nufuzi haqida o‘ylashmagan albatta” (Antonina Burton. Archive Stories (facts, fictions and the writing of history). - London.2005.-P.54.).

**2. O‘zbekiston arxivchilarining xalqaro aloqalari.** Bugungi kunda «Arxivlar to‘g‘risida»gi Qonunning «Arxiv ishi sohasida xalqaro hamkorlik» deb nomlangan 18-moddasini amalga oshirish, chet el ilg‘or ish tajribasini yoyish va respublikamizda arxiv ishini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish yo‘lida jahon miqyosida bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Arxiv ishi sohasida tuzilayotgan davlatlararo bitimlarning ham o‘ziga xos ijobiy jihatlari mavjud. Jumladan, 2003-yil 21- mayda «O‘zbosharxiv» («O‘zarxiv» agentligi) bilan Rossiya Federal arxiv xizmati o‘rtasida tuzilgan bitimda har ikki mamlakatning arxiv ishini rivojlantirish sohasida hamkorlik qilish nazarda tutilgan. Mazkur bitimning 2-moddasiga muvofiq, tomonlar Rossiya va O‘zbekiston arxiv fondlarini davlat tarixiga doir hujjatlar nusxasi bilan to‘ldirishda o‘zaro yordam ko‘rsatish masalasi yoritilgan. Bitim davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish va O‘zbekistonda arxiv ishining boshqaruven vakolatli davlat organi, shuningdek, arxivlari oldida turgan ba’zi muammolarni hal etishda o‘z samarasini bermoqda.

2003-yil 6-iyunda Amerika Yodgorlik Kengashi «Xolokost» va uning Vashingtondagи muzeyi bilan tuzilgan bitim ham ikkiyoqlama hamkorlikni kengaytirish, o‘zaro ilmiy-tadqiqot loyiha va dasturlarni amalga oshirishga

mo‘ljallangan. Bitimning asosiy maqsadi – «Xolokost» mavzuiga doir ma’lumotlar bilan almashish, «Xolokost» tarixini yorituvchi arxiv fondlaridagi hujjatlarni aniqlash, ta’riflash, o‘rganish va ro‘yxatini tuzishdir. Bunga javoban Amerika Yodgorlik Kengashi «Xolokost» ish jarayonidagi moliyaviy ta’midotni o‘z zimmasiga olish bilan bir qatorda AQSH arxivlarida saqlanuvchi O‘zbekiston tarixiga doir hujjatlar haqida ma’lumot berishi belgilab olingan.

2004-yil 24–26-may kunlari Toshkent shahriga Polsha Respublikasi Prezidentining xalqaro masalalar bo‘yicha maslahatchisi A.Maykovski rahbarligidagi delegatsiya vakillari tashrif buyurgan edi. Shu yilning 25-mayida qabullar uyida (Tashqi ishlar vazirligi) arxiv materiallarini o‘rganish bo‘yicha O‘zbekiston – Polsha qo‘shma komissiyasining majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston va Polshadagi ikkala shtatda mahalliy aholi tarixini o‘rganish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan «O‘zarxiv» agentligi va Polsha davlat arxivlari bosh direktorlari axboroti tinglandi. Majlis davomida O‘zbekistondagi polyaklarning tarixiga oid 70% arxiv materiallari nusxalari Polsha vakillariga topshirildi. Majlis yakunida Bayonnaqa qabul qilindi. Kelishuvga asosan arxiv sohasida davlatlararo bitim tuzishga kelishib olindi.

Yuqorida qayd etilgan bitimlar 5 yil muddatga tuzilgan bo‘lib, ular imzolangan kundan kuchga kiritildi. Mazkur bitimlar respublika arxiv ishini rivojlantirishda o‘z samarasini bermoqda. Davlatlararo hamkorlikni mustahkamlash doirasida fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy so‘rovnomalari bajarish keng yo‘lga qo‘yilgan. Soha ilmiy-uslubiy tajribalari bilan almashinishda arxivchilarining xalqaro anjumanlarda ishtirok etishini aytib o‘tish mumkin.

2005-yil mayida axborot asoslari Polsha davlat arxivlari bosh direksiyasi va N. Kopernik nomli universitetning tarix fakulteti bilan hamkorlikda o‘tkazilgan «Arxivlar va noan’anaviy axborot asoslari» mavzuidagi Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari arxivchilarining 11-xalqaro anjumani bo‘lib o‘tdi. Varshava shahridagi Skovronekovsk o‘qishlarida ishtirok etgan O‘zbekiston Respublikasi KSON MDA direktori D. T. Zokirova va bo‘lim boshlig‘i Z. Suleymanovalar kino, surat, ovozli hujjatlar xorijiy arxivshunosligi bilan tanishish va tajriba almashish

imkoniga ega bo‘ldi. Anjuman davomida kino, surat, ovozli hujjatlarni saqlash va ulardan foydalanish kabi masalalarga oid amaliy maslahatlar ishlab chiqildi.

Mazkur tashabbus natijasida tashkil etilgan maxsus komissiya faoliyatining dastlabki bosqichi respublikamiz xalqi tarixi, madaniyati va ma’naviyati uchun qimmatli bo‘lgan hujjatlar, manbalar, san’at asarlari, madaniy ashyolarning qaysi mamlakatlarda saqlanayotganligini aniqlashga bag‘ishlandi. 2002-yildan boshlab ularning ayrimlarini mamlakatimizga qaytarib olib kelishga kirishildi. Buning uchun Rossiya, Angliya, Misr, Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqa davlatlarga mutaxassislar yuborildi. Ulardagi ilmiy-ma’rifiy, madaniy-ma’naviy muassasalar hamda arxivlarda, jumladan, ixtisoslashgan harbiy, kino, foto va boshqa arxivlarda izlanishlar natijasida komissiya ishini tashkil etishga asos bo‘ladigan ma’lumotlar jamlandi.

Yurtimiz tarixiga oid noyob turli fond va hujjatlar Rossiya Federatsiyasida saqlanishini hisobga olib, komissiya dastlab ushbu yo‘nalishga e’tibor qaratdi. 2003-yil yanvar oyida komissiya a’zolari «O‘zbosharxiv» boshlig‘i, Maxsus komissiyaning kotibi N. N. Nigmatov va O‘zbekiston Respublikasi KSOH MDA bo‘lim mudiri Z. Suleymanovalar tomonidan Moskva shahridagi Rossiya kino foto va alohida fono hujjatlar davlat arxivlarida bo‘lib, Vatanimiz tarixiga doir 204 saqlov birligida kino, 1306 ta foto surat, 2687 ta fono (ovozi) hujjatlar borligini aniqlashdi. Ayni paytda ana shu manbalarning nusxalarini olib kelishning amaliy yo‘llari izlanmoqda.

2005-yil 27-29-sentyabrdan Minsk shahrida o‘tkazilgan yana bir xalqaro ilmiy-amaliy seminarda MDH (Rossiya, Belarus, Ukraina, Moldova, Ozarbayjon, Armaniston) va Boltiqbo‘yi (Latviya, Litva), Polsha davlatlari arxiv idoralari rahbarlari va mutaxassislari ishtirok etdilar. Tadbir asosan, arxivshunoslik va ish yuritish sohasida axborot texnologiyalarini keng joriy etish, elektron hujjatlar arxivlarini yaratish hamda elektron hujjat almashuvini tadbiq etish bo‘yicha muhim masalalarni hal etishga bag‘ishlandi.

Muhokama etilgan mavzular va namoyish etilgan texnologiyalardan arxivshunoslik va ish yuritish sohasida avtomatlashtirilgan ish o‘rinlarini tashkil

etish, ish yuritishni takomillashtirishga qaratilgan axborot tizimlarini yaratish va joriy etish borasida MDH davlatlari orasida Belarus Respublikasining bir qator yutuqlari aytib o‘tildi. Tadbir so‘nggida uyushtirilgan davra suhbatida katta munozaralarga sabab bo‘lgan masala arxiv hujjatlarining kataloglarini yoki ularning elektron nusxalarini yaratish masalasi muhokama qilindi.

Belarus Respublikasi Ministrlar Kengashi huzuridagi Arxiv- shunoslik va ish yuritish qo‘mitasida uyushtirilgan tashrif mobaynida ko‘mita raisi V. I. Amadushko va «O‘zarxiv» agentligi Bosh direktori A. X. Abdullaevlarning uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Uchrashuv chog‘ida arxivshunoslik va ish yuritish sohasida O‘zbekiston va Belarus davlatlari hamkorligini rivojlantirish masalalari, ushbu soha bo‘yicha xalqaro tashkilotlar va ularga O‘zbekistonning a’zo bo‘lishi qanday o‘zgarishlarga olib kelishi tahlil qilindi. Hamkorlik belgisi sifatida «O‘zarxiv» agentligiga Belarus arxivshunosligi va ish yuritish sohasidagi mavjud me’yoriy hujjatlarning elektron nusxalari taqdim etildi.

2009-yilning 28-oktyabr – 1-noyabr kunlari Armanistonning Erevan shahrida Xalqaro Arxivlar Kengashi “EVRAZIKA” bo‘limining 10-konferensiyasi va MDH davlatlari arxiv xizmatlari rahbarlarining Maslahat yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Konferensianing kun tartibiga “EVRAZIKA” bo‘limiga a’zolar kvorumini aniqlash, muhokamaga kiritilgan masalalarni ma’qullash, yangi a’zolarni qabul qilish, bo‘limning ish rejasini borishi, 2009-yil 13-16 oktyabr kunlari Moskvada o‘tkazilgan “Elektron hujjatlarni saqlash muammolari” seminar-trening yakunlari, “Evro-Osiyo hududidagi davlatlarning arxivlarga oid qonunchiligi” ma’lumotlar bazasining yaratilishi borasida olib borilayotgan ishlar holati, bo‘lim rahbariyati tarkibidagi o‘zgarishlar va bo‘limning navbatdagi yig‘ilishi bo‘yicha ma’lumotlar kiritilib umumiylashtirilishi ma’qullangandan so‘ng o‘z ishini boshladi.

Konferensiya “EVRAZIKA” bo‘limiga “O‘zarxiv” agentligining a’zolikka qabuli marosimi bilan boshlandi. Bunda O‘zbekistondagi arxiv ishi sohasida olib borilayotgan islohotlar, mamlakat va hukumat rahbariyati tomonidan arxiv sohasiga berilayotgan e’tibor alohida ko‘rsatib o‘tildi.

Konferensiya tadbirlari doirasida “Arxiv hujjalarning saqlovini ta’minlash sohasida yangi texnologiyalar” mavzusida davra suhbat (diskussiyalar) uyushtirildi. Davra suhbatida asosiy munozaralar elektron hujjalarni saqlashdagi muammolar, ayniqsa axborot tashuvchi vositalarga oid masalalar keng muhokamadan o’tkazildi. Bu yo‘nalishda qator tajribalarga ega sifatida Belorussiya elektron hujjalarni arxivni rahbarining ish tajribalari, shu jumladan O‘zbekistonda arxiv idoralarini axborotlashtirish borasida olib borilayotgan ishlар va jalb etilayotgan grantlar va boshqa moliyaviy vositalar ishtirokchilarda katta qiziqish uyg‘otdi. Maslahat yig‘ilishi yakunida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligi bilan Ukraina davlat arxivlar qo‘mitasi o‘rtasida arxiv ishi sohasida hamkorlik to‘g‘risida Bitim imzolanishi marosimi o’tkazildi. Bitimni O‘zbekiston tomonidan “O‘zarxiv” agentligi bosh direktori A.X.Abdullaev, Ukraina tomonidan qo‘mita raisi O.P.Ginzburg imzoladilar.

Xalqaro Arxivlar Kengashi “EVRAZIKA” bo‘limining 2008-2012-yillar rejasiga muvofiq navbatdagi 11-konferensiya va MDH davlatlari arxiv xizmatlari rahbarlarining Maslahat yig‘ilishi 2010-yilda Odessa (Ukraina)da o‘tkazilishi belgilab qo‘yilgan.

2018-yil 18-20-aprel kunlari Tatariston shahrida arxivchilarga bag’ishlangan konfrensiya bo‘lib o’tdi. U yerda Markaziy davlat arxivni xodimlari ham qatnashdilar. Konfrensiyaning maqsadi arxivlarni elektronlashtirish va u yerdagi qimmatli ma’lumotlarni ayriboshlash edi. Zamonaviy texnogen muhitda ananviy axborot vositalariga hujjalarni saqlashni taminlash masalasiga etibor qaratildi. Shu yilning 16-may kuni “O‘zArxiv” agentligi Bosh direktori va Rossiya Federasiyasining Sverdlovsk viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi boshlig‘i bilan uchrashuvi bo‘lib o’tdi. Uchrashuv doirasida o’zaro hamkorlikni kengaytirish va hujjalarni almashlab foydalanish bo‘yicha kelishib olindi.

2018-yil 11-13-mart kunlari “O‘zArxiv” agentligi va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy arxiv hodimlari Turkiya Respublikasining Istanbul shahriga rasmiy tashrif bilan bordilar. Mazkur tashrif 2018-yilda ikki davlat o‘rtasida imzolangan arxiv sohasidagi hamkorlik Bayonomasi doirasida uyushtirildi.

Turkiya arxivlari faolyati bilan tanishish va tajriba almashish amalga oshirildi. Bu arxivchilarimizning malakasini oshirishga juda katta yordam beradi. Buning natijasi o’laroq shu yilning 30-aprel kuni O’zbekiston va Turkiya o’rtasida arxiv sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida davlat arxivlari bosh direksiyasi direktori professor U.O’nal bilan O”zArxiv agentligi bosh direktori U.A’lamov bilan arrxivlar o’rtasidagi bayyonna nomda imzolandi.

Xulosa qilib aytganda, O’zbekiston arxiv ishini rivojlantirishda jahon tajribalaridan foydalanish, malakaviy kadrlar bilan almashinish muhim ahamiyat kasb etadi. «Arxivlar to‘g‘risida»gi Qonun loyihasining muhokamasi paytida O’zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I. A. Karimov turli davr va tarixiy sharoitlarda vatanimizdan chetga olib ketilgan hujjatlar, moddiy-madaniy boyliklarning mamlakatimizga qaytarib olib kelish ahamiyatini alohida ta’kidlab, «O’zbekiston tarixiga aloqasi bo‘lgan, yurtimizda yashayotgan insonlarning kechagi o‘tmishini izohlaydigan hujjatlarni aniqlab, ularni Vatanimizga keltirish uchun alohida komissiya tuzish lozim. Bu komissiya, zarur bo‘lsa, parlamentga yoki hukumatga taklif kiritishi, bir so‘z bilan aytganda, ushbu masalani biz davlat siyosati darajasiga ko‘targan holda hal qilishimiz kerak», – degan edi.

**Tayanch so‘z va iboralar:** O’zbekiston Respublikasi Markaziy statistik qo‘mitasi, Mahalliy sanoat vazirligi, O‘zsanoatfuqaroqurilish korporatsiyasi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Sog‘likni saqlash vazirligi, xalqaro aloqa, xalqaro munosabat, davlatlararo Bitim, hamkorlik, Maxsus komissiya, «unikum», EVRAZIKA, Xolokost.

1. Mustaqil O’zbekistonda arxivchi kadrlar tayyorlashning dolzarbligi nimadan iborat?
2. O’zbekistonda arxiv ta’limi borasida olib borilayotgan ishlarhaqida fikr yuriting?
3. O’zbekiston Milliy universiteti arxivchi mutaxassislarining hamkorliklari nimalarda namoyon bo‘lmoqda?
4. O’zbekiston Respublikasi arxivchilari qaysi xalqaro tizimdagi malaka oshirishkurslarida taxsil olmoqda?

5. Arxiv ishi sohasida qabul qilingan davlatlararo bitimlar.
6. Arxiv sohasini rivojlantirishda xalqaro hamkorlikning ahamiyati.

### **Manba va adabiyotlar**

1. Ўзбекистон Республикасининг “Архив иши тўғрисида” ги Қонуни. //Халқ сўзи. 2010. 16 июн, 119-сони.
2. Алимов И., Эргашев Ф., Бутаев А. Архившунослик. / Ўқув қўлланма – Т.: Шарқ, 1997.
3. Алимов И.А. Архившунослик. / Ўқув қўлланма – Андижон. АДУ, 2005.
4. Исакова М, Иофе В. Архившунослик. / Ўқув қўлланма. – Тошкент: Чўлпон, 2007.
5. Исакова М. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. – Тошкент: Университет, 2012.-C.204.
6. Isakova M., Xaydarov M. Boshqaruvni axborot (hujjatlar) bilan ta'minlash. / O'quv qo'llanma. – T.,2012.
7. O'zarxiv agentligi rasmiy sayti. [www.archiv.uz](http://www.archiv.uz).

## **GLOSSARIY**

<b>Termin</b>	<b>Terminology</b>	<b>O‘zbek tilidagi sharhi</b>
<b>Arxiv</b>	<b>Archive</b>	– arxiv hujjatlari majmui, shuningdek arxiv muassasasi yoki korxona, muassasa va tashkilotning arxiv hujjatlarini qabul qiluvchi, saqlovchi va ulardan foydalanuvchi tarkibiy bo‘linma
<b>Arxiv hujjatlari</b>	<b>Archive documents</b>	qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tegishli ekspertiza asosida arxiv ahamiyatiga molik deb topilgan matnli, qo‘lyozma va mashinada o‘qiladigan hujjatlar, ovozli yozuvlar, videoyozuvlar, kinolentalar, suratli suratlar, suratligrafiya plynokalari, chizmalar, sxemalar, xaritalar, shuningdek turli moddiy ashyolardagi yozuvlar
	<b>Source studies</b>	
	<b>Paleography</b>	qadimgi qo‘lyozmalarni o‘qish, maqsadida ularning yozma belgilari hamda boshqa tashqi alomatlarini o‘rganadi. Demak, paleografiya qadimgi qo‘lyozma hujjatlarni saqlash uchun tanlab olishda ularning muallifi, yaratilgan joyi, sanasini aniqlash va mazmunini o‘qib
	<b>Cphragistics</b>	yordamida hujjatlarga qo‘ylgan muhrlar orqali ularni qaysi davlat, hudud, idora, familiya yoki shaxsga tegishli bo‘lganligini
	<b>Heraldry</b>	
<b>Tuproqqal’ a arxivi</b>	<b>Archive of Toproccale</b>	Qadimgi Xorazm davlati poytaxti – Tuproqqal’ a arki-a’losidagi podsho qarorgohi bo‘lib xizmat qilgan saroy majmuuni o‘rganish jarayonida

		topilgan III asrga oid Xorazm podsholari arxivi
<b>Arxiv ishi</b>	<b>Archive works</b>	arxiv hujjatlarini qabul qilish, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanishni tashkil etishga oid faoliyat
<b>Mug‘ arxivi</b>	<b>Archive of Mug‘</b>	1932–1933yillarda Tojikistonning Panjikent shahri yaqinidagi Mug‘ tog‘i tepasidagi qadimgi qasr xarobasidan topilgan sug‘d hujjatlaridir
<b>Arxiv hujjatlari</b>	<b>Archive documents</b>	qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tegishli ekspertiza asosida arxiv ahamiyatiga molik deb topilgan matnli, qo‘lyozma va mashinada o‘qiladigan hujjatlar, ovozli yozuvlar, videoyozuvlar, kinolentalar, suratli suratlar, suratligrafiya plynokalari, chizmalar, sxemalar, xaritalar, shuningdek turli moddiy ashyolardagi yozuvlar
<b>Arxiv jamg‘armsi</b>	<b>Archive accumulation</b>	tarixiy yoki mantiqiy jihatdan bir-biri bilan aloqador arxiv hujjatlari majmui
<b>Qo‘shbegi arxivi</b>	<b>Archive of Kushbegi</b>	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi I-126-jamg‘armada saqlanayotgan Buxoro amirligiga qarashli bo‘lgan “Qo‘shbegi arxivi” XIX – XX asr boshlarigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi va ulardagi ma’lumotlar, asosan, Buxoro amirligiga oiddir.
<b>Inoyatnomalar</b>	<b>Inayatname</b>	soliqlardan ozod qilish yoki imtiyoz berishga oid hujjat
<b>Muboraknomalar</b>	<b>Mubarakname</b>	xon xizmatchilarini tayinlash, aholini hashar ishlariga jalb qilish va bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy ma’lumotlar keltirilgan hujjat

<b>Vaqfnomalar</b>	<b>Vakfname</b>	madrasa, maqbara, masjid, xonaqolarga in'om etilgan er-mulk haqidagi hujjat
<b>Patta</b>	<b>Patta</b>	ma'lum kishiga muayyan miqdordagi pul, maxsulot, urug' (don) yoki boshqa narsalarni berish lozimligi haqida ma'lumot aks etgan hujjat
<b>Vasiqlar</b>	<b>Basike</b>	Mulkka egalik hujjatlari
<b>Negativ</b>	<b>Negative</b>	yorug'lik tez tasir etuvchi oq narsani qora, qora narsani esa oq qilib fotoplyonkaga tushiradi
<b>Pozitiv</b>	<b>Positive</b>	oqqog'oz yoki plastinka oynaga tushirilgan ta'svir
<b>Grammafon</b>	<b>Grammafone</b>	(yun. gramma – harf, yozuv va phone – tovush) – gramplastinkaga yozilgan tovushni qayta eshittiruvchi apparat. Aylanuvchi gramplastinka ariqchasida grammofon ignasining tebranishlari karnay orqali kuchaytirilayotgan membranaga uzatiladi. Grammofonning ixcham varianti – <b>patefon</b> . 20-asrning 50-yillaridan grammofon o'rniga elektrofondan foydalana boshlandi
<b>Grammafonplastinkasi</b>	<b>Platter</b>	tovush(nutq, mo'zika, ashula) yozibolingandiskinotexnika Plastmas sa, selluloida, atsetilsellyulozadanyasaladi. Tovush diskning ikki tomoniga mexanik usulda spiral arikcha tarzida yozib olina-di. Ariqchalarda yozib olingan tovush tebranishlariga moe izlar qoladi. Grammofon plastinkasini grammofonga qo'yib qayta eshittiriladi
<b>Kasseta</b>	<b>Kassette</b>	(frans. sassege–quticha) –detallar, materiallar, foto va kino-plyonkalar va boshqalar eng qulay (optimal) sharoitlarda saqlanadigan, ishlanadigan, suriladigan, o'zaro almashtiriladigan kichik, ixcham

		qurilma. Fotografik kassetalar eng ko‘p tarqalgan bo‘lib, yorug‘lik sezgir materiallar (foto va kinoplyonkalar, fotoplastinkalar) saqlanadi
<b>Magnitofon kassetasi</b>	<b>Audio cassette</b>	magnit lentalar joylashtirilib qo‘yiladigan yopiq quticha

## **MUNDARIJA**

- 1-Mavzu: O‘zbekistonda arxiv ishi tarixi fanining maqsad hamda vazifalari
- 2-Mavzu: O‘rta Osiyo hududidagi ilk arxivlar
- 3-Mavzu: O‘rta asrlarda arxiv ishi
- 4-Mavzu: O‘rta Osiyo xonliklar davrida arxiv ishi
- 5-Mavzu: Rossiya imperiyasi davrida Turkistonda arxiv ishi
- 6- Mavzu: Turkistonda arxiv ishi tarixi (1917-1924yy.)
- 7-Mavzu: Sovet Ittifoqi davrida O‘zbekiston SSRda arxiv ishi (1925-1945 yy.)
- 8-Mavzu: O‘zbekiston SSRda arxiv ishining holati (1946-1991 yy.)
- 9-Mavzu: O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishi
- 10-Mavzu: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivisi
- 11-Mavzu: O‘zbekiston Respublikasi kino surat ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivisi
- 12-Mavzu: O‘zbekiston Respublikasi ilmiy-texnikaviy va tibbiyot hujjatlari Makaziy davlat arxivining tashkil topishi va faoliyati
- 13-Mavzu: O‘zbekiston Respublikasi hududiy davlat arxiv muassasalari
- 14-Mavzu: Qoraqalpog‘iston davlat arxivlarining tashkil topishi hamda faoliyati
- 15-Mavzu: O‘zbekistonda arxiv ta’limi va arxiv ishi sohasidagi xalqaro hamkorlik

## **СОДЕРЖАНИЕ**

Тема 1: Цели и задачи Исторической науки архивных дел в Узбекистане

Тема 2: Первоначальные архивы на территории Средней Азии

Тема 3: Средневековые архивы

Тема 4: Архивная работа в ханствах Средней Азии

Тема 5: Архивные работы в Туркестане во времена Российской империи

Тема 6: История архивов Туркестана (1917-1924 годы)

Тема 7: Архив Узбекской ССР в советское время (1925-1945)

Тема 8: Архив Узбекской ССР в советское время (1946-1991)

Тема 9: Архивная работа в независимом Узбекистане

Тема 10: Центральный Государственный архив Республики Узбекистан

Тема 11: Центральный Государственный архив кинофотофонодокументов Республики Узбекистан

Тема 12: Создание и функционирование Центрального государственного архива научно-технической и медицинской документации Республики Узбекистан

Тема 13: Региональные государственные архивы Республики Узбекистан

Тема 14: Формирование и деятельность Государственных архивов Республики Каракалпакстан

Тема 15: Международное сотрудничество в сфере архивоведения в Узбекистане

## **CONTENT**

1. Aim and tasks of the subject “The history of archive work in Uzbekistan”
2. The first archives in the territory of Central Asia.
3. Archive work in the Middle Ages.
4. Archive work during the period of khanates.
5. Archive work in Turkistan during the Russian Empire
6. The history of archive work in Turkistan (1917-1924)
7. Archive work in Uzbekistan SSR during Soviet Union (1925-1945)
8. Archive work in Uzbekistan SSR during Soviet Union (1946-1991)
9. Archive work in Uzbekistan during the independence.
10. Central state archive of the Republic of Uzbekistan.
11. Central state archive of film photo and sound documents of the Republic of Uzbekistan.
12. The formation and action of the Central State archive of scientific-technical documents of the Republic of Uzbekistan.
13. Territorial state archive institutions of the Republic of Uzbekistan.
14. The formation and action of Karakalpakstan state archives
15. The international cooperations of the archive work and it's training in Uzbekistan.

